

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYa VA MELIORATSIYa INSTITUTI**

**A.S.SULTONOV, Z.Ya.XUDOYBERGANOV, S.A.QO'ChQOROVA**

## **SUV XO'JALIGI IQTISODIYOTI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlariaro  
ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan Oliy  
o'quv yurtlarining iqtisodiy yo'nalishlari talabalari uchun darslik sifatida uchun tavsiya  
etiladi**

Sultonov A.S., Xudoyberganov Z.Ya., Qo'chqorova S.A.

Suv xo'jaligi iqtisodiyoti (garslik) – T.; TIMI, 2007 . bet.

Dasrlik qishloq va suv xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirishning nazariy, uslubiy hamda amaliy asoslari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida yoritilgan; Tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy va iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyati Respublika Prezidenti I.A.Karimov asarlariga va amaliyotdagi me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda bayon etilgan; qishloq va suv xo'jaligida mavjud bo'lgan moddiy texnika va mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi holati, korxonalar tarmoqlarining rivojlanishi, suv xo'jalik tizimining hududiy boshqaruv usulidan irrigatsiya tizimlari havzaviy boshqaruv usuliga o'tkazilishi va ularning iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, kelajakda ularning samaradorligi yuksalishini ta'minlovchi omillar, yo'llar batafsil ko'rsatilgan.

**Mas'ul muharrir i.f.d., prof. A.A.Shokirov**

**Taqrizchilar;** i.f.d., prof. A.A.Abdug'aniyev,

i.f.d., prof. A.A.Shokirov,

i.f.d., prof. X.Xo'jaqulov

## KIRISH

Qishloq va suv xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazish va ularning iqtisodiyotini talab va taklif qonunlarining amal qilishi asosida rivojlantirish, ko'p jihatdan kadrlar tayyorlashning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq. Bu muammolarni hal etishda suv xo'jaligi iqtisodiyoti fanini talabalar tamonidan chuqur o'rganishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalarga qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirish, ularni bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish, ishlab chiqarish faoliyatining biznes rejasini tuzish, loyiha smeta xujjatlarini tuzish, meliorativ tadbirlar o'tkazish, ularning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va boshqa dolzarb muammolarni o'rgatadi.

Suv xo'jaligi iqtisodiyoti fani bo'lajak mutaxassislarning professional faoliyatida zarur bo'ladigan tegishli bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Mazkur fan talabalarga belgilangan bilimlarni beradi, ularning ijodiy faoliyati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, iqtisodiy qonunlarni, printsiplarni, texnika va texnologiyalarni mukammal o'rganib olish uchun zarur bilimlar bilan qurollantiradi.

Mazkur fanni o'rganish uchun «iqtisodiy nazariya asoslari», qishloq xo'jaligi melioratsiyasi, sug'orish tizimlaridan foydalanish, Yer va Suv resurslaridan kompleks foydalanish, qishloq xo'jalik iqtisodi, statistika, tarmoqni boshqarish, buxgalteriya hisobi va moliyalashtirish fanlarini ham o'rganish zarur.

O'quv jarayonini tashkil qilishda kompyuter yordamida tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish va uning samaradorligini aniqlash bo'yicha hisob kitoblar bajariladi. Bundan tashqari o'quv jarayonida mavzular bo'yicha maxsus jadvallar va plakatlardan, o'quv videofilm va kinofilmlardan foydalaniladi.

Mazkur darslikda suv xo'jaligi iqtisodiyoti fanining ahamiyati, maqsadi, vazifalari, yer va suv resurslarning joylashishi, ulardan foydalanishining hozirgi kundagi ahvoli, ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari yoritilgan.

Suv xo'jaligi iqtisodiyoti fanining predmeti bo'lib, ushbu tarmoqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan maqsadga muvofiq tadbirlar va uning rivojlanishida ishtirok etadigan iqtisodiy qonuniyatlar hisoblanadi, fanning mazmuni esa uning oldiga qo'yilgan, yechilishi lozim bo'lgan aniq vazifalardan iboratdir.

Suv xo'jaligida loyhalashtirish ishlari muhim masala hisoblanadi. Shundan kelib chiqib tarmoqda quriladigan ob'ektlarni loyhalashtirishning iqtisodiy asoslari bayon qilingan. Bundan tashqari suv xo'jalik tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, tarmoq uchun kadrlar tayyorlash muammolari, mehnat resurslari, ulardan foydalanishning hozirgi kundagi holati, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishni yaxshi yo'lga qo'yish, tarmoqning asosiy va aylanma fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini, uning tannarxini pasaytirish tarmoqda olinadigan foydani va xo'jaliklarning rentabellik darajasini oshirish, xo'jaliklarni bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish masalalari, kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniqlash uslublari va uni oshirish yo'llari o'z aksini topgan.

Ushbu darslikni tayyorlashga faol yordam ko'rsatgan i.f.n. B.Sultonovga, katta o'qituvchi B.Azizqulovga, assistent U.Hoshimovga va «SXBI» kafedrasining boshqa xodimlariga minnatdorchilik bildiramiz.

## **I Bob. Yer fondlari va ulardan foydalanishni yaxshilash**

### **YeR fondlari – ishlab chiqarish vositasi sifatida**

Halq xo'jaligining, ayniqsa qishloq xo'jaligining rivojlanishi tabii resurslar va avvalo yerdan oqilona foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Yer ishlab chiqarishning tabiiy negizi kishilik jamiyatni hayotining zarur sharti xizmatini o'taydi.

Har qanday ishlab chiqarish negizi bo'lgan yerlarning ishlab turish xarakteri halq xo'jaligining turli tarmoqlarida o'z xususiyatiga egadir.

«Yer sanoatda (undirma sanoatdan mustasno) faqat karxonalarni joylashtirish joyi xizmatini o'tasa qishloq xo'jaligida u ishlab chiqarishning asosiy vositasidir». I.A.Karimov.

Qishloq xo'jalik jarayoni yer bilan, uning holati, undan foydalanish xarakteri bilan bevosita bog'liqdir. Kishilar tuproqqa ishlov berib, yerning sirtqi qatlamiga ta'sir ko'rsatar ekanlar, madaniy o'simliklarni o'stirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratadilar. Shu ma'noda yer mehnat predmetidir. Kishi yer yordamida o'simlikka ta'sir ko'rsatganda yer ayni vaqtida, mehnatning aktiv vositasiga aylanadi. Shunday qiliib yer ishlab chiqarishning aktiv omili sifatida harakat qilib, qishloq xo'jaligida mehnat predmeti va mehnat quroli sifatida namoyon bo'ladi

Qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yer uni ishlab chiqarishning boshqa vositalaridan, ajratib turadigan o'z xususiyatlariga egadir.

Birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning texnika vositalari ancha mukammal vositalar bilan muttasil almashtirib turiladi. Ishlab chiqarish jarayonida yerning o'rnnini hech narsa bosolmaydi, uni yana yaratib bo'lmaydi. Bu narsa yerdan oqilona foydalanish masalasini keskin qilib qo'yadi.

Ikkinchidan, Iqtisodiyot rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning texnik vositalari soni ko'payib boradi. Tabiatda esa yer fondlari cheklangan va xudud jihatdan ortib bormaydi. Lekin bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yaroqli yer fondlarining barcha zahiralari tugamaganligini bildirmaydi. Melioratsiya hisobiga mamlakatimizda har yili ming gektarlab yangi yerlar o'zlashtirilmoqda. Shunday bo'lsada, yangi yerlarni aborotga kiritaverishning cheki bor. Ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning hudud jihatidan cheklanganligi undan oqilona foydalanish zaruratini yanada oshiradi.

Uchinchidan. Yerdan oqilona foydalanilganda u eskirmaydi, balki muttasil tokomillashib boradi, yaxshilanadi, unumdoorligi ortadi. Buni shu fakt ham tiklaydiki, yer asrlar davomida ishlab chiqarishda uzluksiz qatnashib kelgan va uning hosildorligi o'sib bormoqda. Ayni vaqtida ishlab chiqarishning boshqa vositalari ishlatilgan sari jismoniy va ma'naviy jihatdan eskiradi.

Ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning shu xususiyatiga qishloq xo'jaligini intensivlash va yerkarni melioratsiyalash nazariyasi tayanadi. Texnika taraqqiyoti natijalarini qo'llash yerning dastlabki tabiiy xususiyatlarini o'zgartiradi, chunonchi sug'orish ta'sirida yarim cho'l o'tloqlar yuqori unumdoor dalalar, bog'lar va tokzorlarga aylanadi.

To'rtinchidan, yerning eng muhim xususiyati shundaki, u fazoda o'z o'mini o'zgartirmaydi, ishlab chiqarishning, boshqa vositalari esa o'rnini o'zgartirishi mumkin. Ishlov beriladigan yerning o'rni va uning sifat jihatdan har xilligi yerning turli xil unumdoorlikka ega bo'lishi shu yerkarga sarf qilingan xarajatlarning samaradorligini turli xil bo'lishiga olib keladi.

Yer tabiiy holda tabiat mahsulidir, u mehnatdan avval vujudga kelgan va qiymatga ega emas, chunki unda buyumlashgan mehnat yo'q. Yerga inson ishlov bergandagina u mehnat mahsuliga aylanadi va qiymat kasb etadi. Sug'oriladigan dehqonchilikda yerning qiymati ancha ortadi, u yerda jamlangan kapital qo'yilmalarning bir qismi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning bu barcha xususiyatlari qishloq xo'jaligidagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning iqtisodiy nazariyasi va oqilona dehqonchilik amaliyotining asosini tashkil etadi.

Tuproq unumdoorligi yerning eng muhim sifati va xususiyatidir. Dehqonchilik ilmi bilan shug'ullanadigan olimlar tuproqni mehnat ta'sirida ekinlardan hosil yetishtirishda faol qatnashadigan rivojlanib turuvchi jonli organizm, deb biladilar.

Hosildorlikning tabiy va iqtisodiy turlari shakllanadi. Tabiiy hosildorlikni uzoq vaqt davom etadigan tuproq hosil bo'lish jarayoni natijasida tabiatning o'zi yaratadi. Iqtisodiy hosildorlik esa mehnatdan olingan boylikdir.

Ko'p asrli amaliyot shuni ko'rsatadiki yerdan to'g'ri foydalanilganda tuproq hosildorligi pasaymaydigani emas, balki inson mehnati tufayli ortib ham boradi.

Dehqonchilikning eng muhim vazifasi tabiiy hosildorlikni madaniy o'simliklar hosildorligiga aylantirishdan, shuningdek agrotexnika va melioratsiya tadbirlari kompleksini amalga oshirish yo'li bilan yangi, qo'shimcha iqtisodiy hosildorlikni yaratishdir. Iqtisodiy

hosildorlik dehqonchilikda tuproqning tabiiy va suniy hosildorligidan amalda foydalanish natijasi, potentsial hosildorlikni samarali haqiqiy hosildorlikka aylantirish natijasidir.

Tabiiy hosildorlik tabiiy sharoitlar bilan, sun'iy hosildorlik esa iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liqdir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligiga bu omillar birligining ta'siri tuproqning iqtisodiy hosildorligi ko'rsatkichida o'z ifodasini topadi.

Yerdan va tuproq unumdorligidan foydalanishni tartibga solib turadigan tadbirlar ishlab chiqarishning ijtimoiy–iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham tuproqdan olinadigan hosildorlik ayni vaqtda ham tabiiy, ham ijtimoiy–iqtisodiy hodisadir.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida dehqonchilikning tuproq hosildorligidan foydalana olishi ishlab chiqarish asosiy vositalarini ishlab chiqarish darajasiga bevosita bog'liq qilib qo'yadi.

Tuproq hosildorligini tartibga solib turuvchi sof agromeliorativ tadbirlarni iqtisodiy tadbirlardan ajratish qiyin. Haqiqatda bu barcha omillar o'zaro tutashgan murakkab aloqadadir. Tuproqning tabiiy hosildorligi undan foydalanish jarayonida iqtisodiy hosildorlikka aylanadi. Iqtisodiy hosildorlik o'z navbatida, tabiiy va ijtimoiy–iqtisodiy omillarning o'zaro ta'siri natijasidadir.

Yer eng qimmatli tabiiy resurs, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun yerdan to'liq va ratsional foydalanish eng muhim vazifadir. Sho'rolar davrida yer va boshqa ishlab chiqarish vositalari umumlashtirilib davlat va umumhalq mulkiga aylantirildi, natijada dehqon asta–sekin yerdan uzoqlashtirildi, alohida olingan yer uchastkasining egasizlik davri boshlandi. Bu o'z navbatida dehqonlarning yerga ishlov berishga qiziqishini va yerdan foydalanishdagi manfaatdorligini so'ndirib bordi. 1991 yil 1 sentabrdan boshlab mamlakatimiz istiqlolga chiqishi bilan qishloq xo'jaligida ham halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi bosqichma–bosqich bozor tizimiga o'ta boshlandi. 1997 yil Oliy Majlisning 10 sessiyasida mamlakat prezidenti I.A.Karimov dehqonning yerga egaligini qayta tiklash, uni mulkdorga aylantirish va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdan moddiy manfaatdor qilish hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

1998 yilda Oliy Majlisning 11 sessiyasida Yer kodeksi, «Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi va «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariiga bosqichma–bosqich o'tkazishga va iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishga katta turtki bo'ldi. Natijada fermer xo'jaliklariga 30 yildan 50 yilgacha bo'lган muddatga. Oilaviy pudrat usulida ishlayotgan oilalarga 10 yilgacha muddat bilan yerga egalik qilish huquqi berildi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligidagi xo'jalik yuritishning hamma shakllari ham qo'llanilmoqda. Yangi xo'jalik yuritish shakllari ichida dehqonni yerga egalik qilishini yanada to'liqroq ta'minlaydiganlari fermer, dehqon xo'jaliklari va paychilik jamiyatlari hisoblanadi.

Mamlakatimizning umumiyligi sug'oriladigan yerlari 4,3 mln. hektarni tashkil qiladi. Sug'oriladigan yerlarning 80% dan ko'proq'i fermer xo'jaliklari, 12% dehqon xo'jaliklari va qolgan qismi boshqa turdag'i xo'jaliklarga berilgan.

Aholi ko'payishi tufayli jon boshiga yer resurslari bilan ta'minlanganlik mamlakatimizda kamayib bormoqda. 1980 yilda bir kishi boshiga 0,18 hektar yer to'g'ri kelgan bo'lsa, hozir 0,15 hektar yer to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoda haydaladigan yer kishi boshiga o'rtacha 04 hektardan to'g'ri kelib, bu Yaponiyadagi 0,05 hektardan Kanadadagi 2 hektar o'rtaida tebranib turadi.

### 1.1-jadval

#### **Mamlakatimiz viloyatlari bo'yicha hamma kategoriyadagi sug'oriladigan yerlarning joylashishi, ming hektarda (2004 yil)**

Viloyatlar	Umumiy sug'oriladigan maydon	Ullushi, %	Shu jumladan					
			Haydaladigan yerlar	Ko'p yillik daraxtlar	Bo'z yerlar	Pichanzorlar va yaylovlar	Sug'oriladigan tomorqa yerlari	Har xil boshqa yerlar
O'zbekiston Respublikasi shu jumladan	4278,8	100	3309,4	328,1	48,9	44,3	501,4	46,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	500,2	11,8	419,5	9,0	9,3	27,2	34,2	1,0
Andijon viloyati	271,2	6,3	197,5	28,2	1,1	0,6	40,3	3,6
Buxoro viloyati	274,3	6,11	199,6	23,5	5,7	0	43,5	3,0
Jizzax viloyati	301,6	7,0	259,8	14,6	0,5	0	29,0	4,7
Qashqadaryo viloyati	505,3	11,8	417,6	31,1	5,1	0,1	46,0	5,4
Navoiy viloyati	124,8	2,91	91,6	10,2	6,7	0	14,9	1,4
Namangan viloyati	279,5	6,5	198,1	36,5	3,2	0	37,4	4,3
Samarqand viloyati	376,2	8,8	261,2	49,8	0	0	60,9	4,3
Surxondaryo viloyati	325,8	7,6	243,4	31,9	0,1	0	47,6	2,9
Sirdaryo viloyati	292,9	6,8	255,7	6,7	11,3	0	15,8	3,5
Toshkent viloyati	394,3	9,2	299,1	34,7	0,8	2,0	48,4	2,6
Farg'ona viloyati	357,5	8,3	255,0	37,9	0	5,0	50,1	9,5
Xorazm viloyati	276,2	6,4	210,9	13,9	5,2	9,4	36,2	0,6

Hozirgi vaqtida mamlakatimizdagi hosildor maydonlar qishloq xo'jalik oborotiga kiritilgan. Bunday o'zlashtiriladigan yangi yerlar juda katta miqdorda kapital mablag'lar sarflashni talab etadi, chunki o'zlashtiriladigan yangi yerlar suv manbalaridan ancha baland mintaqalarda joylashgan.

Bunday maydonlarga suv chiqarish uchun yirik nasos stantsiyalarini qurish va yuqori kuchlanishdagi elektr energiyasini olib kelish uchun ko'plab xarajatlar qilishga to'g'ri keladi. O'zlashtiriladigan yangi yerlar Qarshi cho'li, Jizzax cho'li kabi mintaqalarda joylashgan bo'lsa mehnat resurslarini jalb qilish uchun ular yashaydigan qishloq va shaharchalar qurishga to'g'ri keladi, juda katta hajmda yerkarni tekislash, magistral kanallar va yirik kollektorlar, avtomobil va temir yo'llar qurishga to'g'ri keladi.

1.1-jadval ma'lumotlariga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizning umumiyligi maydonlarining 10 foizi sug'oriladigan yerkarnaga to'g'ri keladi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 90% dan ko'prog'i sug'oriladigan yerkarnaga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerkarnar tarixan asosan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa bir qancha kichik daryolarning vohalarida va vodiylarida joylashgan. Bulardan juda qadim zamonlardan buyon dehqonchilik rivojlanib kelgan va hozirgi vaqtida jamlangan hamma viloyatlar, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari quyi Amudaryo vohalarida joylashgan viloyatlardir.

## **1.2. Yerdan foydalanish samaradorligi**

Yer to'g'risida g'amxo'rlik qilish, undan oqilona foydalanish va uning hosildorligini yildan-yilga oshirib borish qishloq xo'jaligi tarqqiyotining eng muhim masalasiadir. Qishloq xo'jalik yerkarnining har bir getkari tobora ko'p mahsulot berishi kerak. Oqilona yuritiladigan dehqonchilik foydalaniladigan yerkarni qishloq xo'jalik oborotiga eng ko'p jalb etishini, ularning hosildorligini oshirishni, ekin maydonlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan tarkibini, tabiiy yaylovlardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda yerdan foydalanishini yaxshilashni, mahsuldorligini oshirishni ta'minlashni, yerni egasigi topshirish orqali hal qilishga kirishmoqda. Yerning ishlab chiqaruvchi kuchini muttasil o'stirib borishning muvaffaqiyatli hal etilishi halq farovonligi darajisini oshirishga olib keladigan davlat ahamiyatiga molik muammodir. 1998 yilda yer kodeksi qabul qilangandan keyin ayniqsa yer kadastri qabul qilingandan keyin yerdan

foydalananishni tartibga solinmoqda, ekinzorlardan foydalananishni oqilona tashkil etish va ularning samaradorigini oshirish choralarini ko'rilmoxda.

1.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarida ekin maydonlarini joylashtirish va ularning tarkibi (2004 yil)**

Viloyatlar	Jami ekin maydoni, ming ga	G'alla ekinlari	Shu jumladan				
			Paxta	Kartoshka, sabzavot	Poliz	Beda	Qayta ekilgan ekinlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	419,5	58,9	102,9	7,4	5,6	34,2	2,1
Andijon viloyati	197,4	81,8	108,4	16,8	0,74	16,3	22,7
Buxoro viloyati	199,6	81,6	126,2	11,03	2,1	17,2	19,9
Jizzax viloyati	477,7	248,2	107,5	9,97	6,52	22,0	0,6
Qashqadaryo viloyati	668,4	258,8	173,8	14,02	2,98	32,4	0,4
Navoiy viloyati	112	46,9	40,2	3,72	0,82	11,2	5,4
Namangan viloyati	198,1	83,9	107,9	13,31	0,99	9,3	8,5
Samarqand viloyati	444,6	180,4	103,6	31,7	1,88	32,2	9,3
Sirdaryo viloyati	255,7	87,0	119,4	4,99	3,69	11,3	2,1
Surxondaryo viloyati	282,5	119,2	125,4	14,52	1,73	13,1	17,3
Toshkent viloyati	334,8	129,8	115,1	33,87	2,74	37,9	29,0
Farg'ona viloyati	255	125,3	116	17,47	1,28	24,2	31,1
Xorazm viloyati	210,9	46,7	109,8	10,92	3,55	23,0	13,1
Jami	4056,2	1548,7	1456,2	89,74	34,69	284,2	161,9

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalananish samaradorligi ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Ulardan asosiylari hosildorlik, mahsulot ishlab chiqarish tabiiy va qiymat ko'rinishda olinadi. Tabiiy ko'rsatkichlar hisob-kitobi turli xil qishloq xo'jalik mahsulotlari (g'alla ozuqa birliklarida olinadigan ozuqalar chiqishi, sut, go'sht va hokazo) ni tahlil qilishda foydalananidan maydon bo'yicha olinadigan yalpi mahsulot, yalpi va sof foyda qiymati yerdan foydalananishning eng umumlashgan ko'rsatkichi bo'ladi. Qiymat ko'rsatkichlari butun xo'jalik bo'yicha yerdan foydalananish dinamikasini xarakterlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish darajasi o'rtacha bir gektar yoki haydaladigan yerning 100 gektari va qishloq xo'jalik yerlarinig 100 gektari bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bunda tahlil ham qishloq xo'jalik ekinzorlari bo'yicha ham, ularning barcha ekin turlari shartli haydaladigan yerga aylantirilgan holdagi butun maydoni bo'yicha o'tkaziladi.

Ekinlar hosildorligi ekinzor tarkibidagi xaydaladigan yerning ulushi, ekinzor maydonidagi sug'oriladigan yerlar ulushi, ekin maydonlarining strukturasi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etadigan asosiy omilidir.

Qishloq xo'jaligini intensivlash yerdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi. Natijada yer maydoni birligiga qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi ko'tariladi.

### 1.3-jadval

#### **O'zbekiston qishloq xo'jaligida intensivlashtirishning 100 hektar sug'oriladigan yerdan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liqligi**

Yillar	100 hektar sug'oriladigan yerga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning miqdori, ming so'm	100 hektar sug'oriladigan yerdan olingan qishloq xo'jalik mahsulotlari, ming so'm				
		Paxta, sentner	G'alla, sentner	Kartoshka, sentner	Meva va uzum, sentner	Sabzavot va poliz, sentner
1961-1965	1950	220	58	365	500	760
1966-1970	2200	270	75	425	550	870
1971-1975	2500	240	80	400	570	1020
1976-1980	2915	350	93	385	490	1150
1981-1985	3100	360	95	352	560	1300
1986-1990	3500	250	150	450	550	1350
1991-1995	3678	264	214	920	550	1760
1996-2000	4035	208	267	1402	607	2035
2001-2004	4343	246	363	1718	592	2424

Yerdan oqilona foydalanish muammo kompleks va tizimli xarakterdadir. Bu muammo mexanizatsiyalashtirish, ximiyalash va melioratsiyalash darajasi bilan belgilandi. Bu ko'rsatkichlarning intensivlashga ta'sirini 1.3-jadvalda keltirilgan har 100 hektar yerga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning qiymati bilan mahsulot ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'lanishdan yaqqol ko'rish mumkin. Bu muammo kompleks yondashish va joriy etishda aks etadi.

Dehqonchilik tizimini mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishga va tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy va texnik tadbirlarni jami deb tushunmoq kerak.

Texnik tadbirlarga tuproqni yaratish, qayta tiklash va milioratsiya usullari bilan xarakterlanadi. Dehqonchilik tiziminig tashkiliy iqtisodiy tomonini yerdan foydalanish tartibi va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda arzonlashtirish usullari belgilab beradi.

Dehqonchilik tizimlari rivojlanishida iqtisodiy va tabiiy omillar ishlab chiqarish jarayoning doimo yagona kompleksda, uzlucksiz ta'sir etadi. Bu omillar ta'siri ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining turli darajalaridagina har xil bo'ladi. Texnika vositalarini qo'llash past darajada bo'lganda tabiiy sharoitlar hosil taqdirini belgilaydi, ular qishloq xo'jaligini rivojlantirishda hal qiluvchi va belgilab beruvchi rolni o'ynaydi. Fan-texnika taraqqiyoti o'sib borgan sari iqtisodiy omillarning dehqonchilik hosildorligiga ta'siri kuchayadi. Dehqonchilik tizimlarini rivojlantirish yo'llari va sur'atlarini belgilashda iqtisodiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda tabiiy sharoitlarning roli kamaymaydi balki aksincha, ulardan har biri ayrim mintaqaga doirasida yanada oqilona foydalaniladi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligiga ularning salbiy ta'siri kamayib ketadi.

Mintaqalik intensivlik darajasi va ularning ixtisoslashuvi dehqonchilik tizimining eng xarakterli belgilaridir. Mamlakatimizning ulkan hududi qishloq xo'jaligi rivojiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy sharoitlarining xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Bu narsa har bir mintaqqa uchun dehqonchilik tizimini ishlab chiqish zaruriyatini tug'diradi. Mamlakatimiz umuman geografik nuqtai nazardan qaraganda sahro va yarim sahro mintaqasida joylashganligiga qaramasdan dehqonchilikning suvga bo'lgan talabi ayrim mintaqalarda tubdan farq qiladi, masalan 1 hektar paxta maydoni kuyi Amudaryoda 16-17 ming  $m^3$  talab qilsa. Qashqadaryo, Surxondaryoda 12-13 ming  $m^3$ , Zarafshon vosiysida 7-8 ming  $m^3$  suv talab qiladi. Demak, ayrim mintaqalar qishloq xo'jaligi uchun qulay hisoblanadi. Shunday qilib qishloq xo'jaligi yerlari unumdarligini oshiradigan muayyan tadbirlarni amalga oshirishga muxtojdir. Foydalaniladigan yerlarning katta qismi qurg'oq va o'ta qurg'oq mintaqalarda joylashgan. Ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari o'ta qurg'oq va issiqligi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi viloyatlari va Toshkent viloyatida yillik yog'ingarchilik birmuncha ko'proq bo'lganligi va bu mintaqalardagi tog'larda qor ko'proq muddat erimasdan turishi va katta muzliklari bilan tutashib ketishi bu mintaqaga ob-havosining birmuncha yumshoq bo'lishiga va qurg'oqchilikning ta'sirini birmuncha yengillashtirishga olib keladi

1.4-jadval

## Viloyatlarning agroiqlim xarakteristikasi

Viloyatlar	Aktiv harorat summasi, s	Harrowat s 10 dan yuqori bo'ladigan kunlar soni	Yillik yog'in, mm	Yillik bug'lanish miqdori mm	Gidrotermin koeffi-siyenti, gtk
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3000-4000	130-165	90-170	900-1100	0,10-0,17
Andijon	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Buxoro	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Jizzax	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Qashqadaryo	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Navoiy	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Namangan	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Samarqand	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Surxondaryo	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Toshkent	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Farg'ona	3500-4400	150-185	90-170	900-1100	0,10-0,17
Xorazm	3000-4000	130-165	90-170	900-1100	0,10-0,17

O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining agroiqlim xarakteristikasi 1.4-jadvalda keltirilgan. Har bir viloyatning tuproq-iqlim sharoiti ham xilma-xildir. Viloyatlarning hammasida ham ekin hosildorligi darajasini belgilab beradigan asosiy omil ularning suv bilan ta'minlanishidir. O'zbekistonning Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida lalmi ekinlarni ekish bilan ham shug'ullanadi, qolgan viloyatlarda dehqonchilik to'liq sug'orishga asoslangan va 90 foizdan ortiq qishloq xo'jalik mahsulotlari aynan sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi.

Sug'oriladigan dehqonchilik tuproqning suv, havo issiqlik va oziq rejimlarining kerakli yo'nalishda sun'iy ravishda tartibga solish yo'li bilan ekinlar uosilini yetishtirishning tabiiy sharoitlarini tubdan yaxshilashga qaratilgan tadbirlar kompleksini o'z ichiga oladi.

Yerlarni melioratsiyalash yuqori iqtisodiy unumdonorlikka olib chiqishi tufayli mamlakatning oltin fondi deb ataladi. Shuning uchun har bir sug'oriladigan gektardan eng to'liq va yuqori unum bilan foydalanish sug'oriladigan dehqonchilikning zarur shartidir.

Sug'oriladigan yerlardan foydalanish darajasi amalda ekinlar bilan band maydonning melioratsiyalangan butun maydonga nisbati (foydalanish koeffitsiyenti bilan, shuningdek ekin maydonlari va ekinlar hosildorligi bilan xarakterlanadi).

O'zbekistonda melioratsiya ishlarini keng ko'lama olib borishni yo'lga qo'yilganligi sababli sug'oriladigan yerlarni hajmi 4,3 mln gektarga yetadi. Lekin bu yerlardan foydalanishda qator kamchiliklar mavjuddir. Bular tuproq botqoqlanishi, erroziya sodir bo'lishi, sho'rланishi, strukturasining yo'qolishi va boshqa ko'p sabablarga ko'ra sug'oriladigan yerlarning bir qismi qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda.

Sug'oriladigan yerlardan samaraliroq foydalanish uchun:

-yerlarning qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

-yopiq tipdag'i sug'orish shaxobchalarini va nov kanallarini qurish, sug'orish shaxobchasini kapital rejalashtirish va qayta tizimda sug'oriladigan yerlardagi foydalanilmaydigan uchastkalarga barham berish, ximoya mintaqasini yaratishda yerni eng ko'p tejash.

Qishloq xo'jaligidan boshqa ehtiyojlariga sug'oriladigan yerkarni ajratishga va ulardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xom ashyo yetishtirishdan, bu mahsulotlarga bo'lgan bozor talabini to'la qondirishdan iborat asosiy vazifasi yer unumdarligini oshirish asosidagina muvafaqiyatli bajarilishi mumkin.

### **1.3. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va uni saqlash tadbirlari**

Yerdan unumli foydalanish va uni saqlash sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi agrarsiyosatida doimo markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Bizning mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki halqimizning 60% dan ko'prog'i qishloqlarda yashaydi, ularni oziq-ovqat bilan me'yor ta'minlab turish sug'oriiladiigan dehqonchilikning rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

Yerni saqlash uni talon-taroj qilishga yo'l ko'ymaslik ulardan oqilona foydalanishning ahamiiyati 1998 yilda qabul qilingan yer kodeksida o'z aksini topgan. Unda «Mamlakatimizda hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, yer va yer osti boyliklarini, suv resurslarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini qo'riqlash, ulardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzlusiz ko'paytirib borishni ta'minlash va atrof muhitni yaxshilash uchun zarur choralar ko'rildi» deyilgan.

Yer resurslarining halq xo'jaligi kompleksidagi iqtisodiy roli muttasil oshib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida yerdan foydalanish har tomonlama xarakter kasb etmoqda.

Bunda qishloq xo'jaligi manfaatlari sanoat talablari va sotsial jihatlar hisobga olinmoqda. Yerdan oqilona foydalanish va uni saqlash qo'llanilayotgan iqtisodiy, huquqiy hamda texnika choralarining optimal uyg'unlashuvini o'z ichiga oladi.

Yerdan foydalanish va uni saqlash amaliyoti tabiiy muhitning halq manfaatlari yo'lidagi biologik barqarorligini ko'p jihatdan belgilab beradi. Shuning uchun yer resurslaridan foydalanishning tabiatni asrashni zarur darajada ta'minlaydigan va tabiiy hududlari madaniylashuviga olib keladigan usulgina oqilona usul hisoblanishi mumkin.

Sho'rolar davrida yer umumhalq mulki bo'lganligi sababli undan oqilona foydalanishni tashkil qilish mumkin bo'lmasdi. Chunki tayin yerning aniq egasi yo'q bo'lganligi sababli dehqon yerga mulk sifatida emas, balki umumiyl ishlab chiqarish bazasi sifatida qarar edi.

1997 yil Oliy Majlisning 11 sessiyasida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi. «Dehqonlarimizga shunday sharoit yaratish kerakki, natijada ular yerga o'z mulki deb qarasin, unga ishlov berib, hosildorligini oshirsin, o'z mahsulotiga o'zi xo'jayin bo'lsin o'zini shu yerning egasi ekanligini xis qilsin». Hozirgi kunda yangi yerlarni o'zlashtirish, yirik maydonlarda meliorativ tadbirlar o'tkazish, yirik suv inshootlarini qurish kabi ishlar davlat byudjeti hisobiga bajarilmoqda va bu ishlarni tartibga soluvchi qonun qabul qilingan hamda davlat dasturi ishlab chiqilgan.

Melioratsiya hisobiga yangi yerlar o'zlashtirilishiga qaramay haydaladigan maydonlar ko'paymayotir, balki kamayish tendentsiyasi sodir bo'lmoqda. Bu narsa haydaladigan yerlardan boshqa ehtiyojlar uchun foydalanish, shuningdek, meliorativ tadbirlar o'tkazish ham sodir bo'lmoqda.

Haydaladigan yerlarni halq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ishlatish uchun ajratish tufayli maydonlarning qisqarishi qishloq xo'jaligi uchun qaytmas yo'qotish xarakteriga ega.

Bunday yerlarga zavod, fabrikalar qurish, avtomobil va poyezd yo'llari qurish, suv omborlari, kanallar, zovurlar qurish uchun ajratiladigan yerlar kiradi.

Bug'lanish yog'inlar summasidan ortiq bo'lgan rayonlarda tuproqning sho'rланish jarayonlari keng tarqalgan. Bunday sharoitda tuproq nami bug'lanib, undagi tuzlar yerning yuqori gorizontlariga o'tirib qoladi. Sho'r bosishning ikki turi farq qilinadi. Tuproqning birlamchi sho'rланishi noqulay tabiiy sharoitlar ta'sirida tabiiy yo'l bilan sodir bo'ladigan birlamchi sho'r bosish. Tuproqning birlamchi sho'rланish markaziy osiyo davlatlarida uchrab turadi. Ikkilamchi sho'r bosish zovurlar noto'g'ri qazilgan tuproqlarda noto'g'ri sug'orish natijasida, sug'orish rejimi buzilganda, tuproq suv o'tkazish xususiyatlari hisobga olinmay

katta me'yorda sug'orilganda sodir bo'ladi. Bu jarayon sizot suvlari sathi ko'tarilganda kuchayadi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida suv tarkibidagi tuz ham tuproq sho'rланishiga sabab bo'lishi mumkin. Yerning sho'r bosishi qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Sho'r bosgan dalalarda ekinlar hosildorligi pasayadi, mineral o'g'itlarni qo'llanish samaradorligi kamayadi, mahsulot, ayniqsa paxta sifati yomonlashadi. Sho'r bosishi natijasida haydaladigan yerlarning ko'pgina qismi oborotdan chiqib qoladi.

Sug'oriladigan yerlarning sho'r bosishiga qarshi kurash yer va suv resurslarini saqlash ulardan oqilona foydalanish umumiy muammosini bir qismidir.

Zovurlarni qazish, yerlarning sho'rini yuvish bir qancha agrotexnik tadbirlar (almashib ekish, yerga ishlov berishning tegishli usullari ximiyalash va xokazolar)ni qo'llash tuproqni ikkilamchi sho'r bosishning oldini oladi.

Tuproqni yuvilishdan, nurashdan va changga aylanishdan saqlash murakkab muammodir. Erroziya tufayli mamlakatda har yili ko'plab haydaladigan yerlar qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda. Erroziya-noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari foydalanishni oqilona tashkil etish qo'llaniladigan deùqonchilik tizimi qiyinchiliklarining oqibatidir. Tuproqni shamol va suv erroziyasidan saqlashning zarur choralar, yerlarning erroziyaga qarshi himoyalashning yo'llari turlicha bo'lib-tashkiliy xo'jalik, agrotexnik, o'rmon-melioratsiya va gidrotexnika tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan iboratdir.

Mamlakatda joriy etilgan erroziyaga qarshi tadbirlarni uyuştirish tizimiga quyidagi bosqichlar kiradi: yirik hududiy-ma'muriy birliklarga, erroziyaga qarshi tadbirlarning bosh sxemalarini tuzish ayrim suv havzalari va shamol erroziyasi rayonlariga erroziyaga qarshi tadbirlar sxemalarini ishlab-chiqish: Ichki-xo'jalik yer tuzishidagi erroziyaga qarshi kompleks loyihalash: o'rmon-meliorativ ob'ektlarini va gidrotexnika inshootlarini texnik jihatdan loyihalash va boshqa shunga o'xhash erroziyaga qarshi o'tkaziladigan tadbirlar davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Erroziyaga uchragan katta maydonlarda erroziyaga qarshi ishlar bajarilgan va amalda dehqonchilikni erroziyaga qarshi regional tizimlari joriy qilingan bir qancha joilarda bu choralar tuproqning shamol erroziyasini tuxtatish, unumdar tuproq qoplami yuvilishini kamaytirish, jarliklarning ko'payishiga barham berish, qishloq xo'jalik mahsuloti isrofgarchiliginini kamaytirish, yer unumdarligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish ko'payib bormoqda. Bu narsa aholi zich yashaydigan va qishloq ho'jaligi uchun qulay yerkarda buzilib, ishdan chiqib qoladigan maydonlarni ko'payishiga olib keladi. Shu munosabat bilan buzilgan yerlarni qayta tiklash, haydash, ulardan dehqonchilik, yaylovlar, o'rmonlar va suv havzalari qurish uchun foydalanish hamda xo'jalik qiymatini tiklash juda zarurdir.

Qum va shag'allari qazib olingan yerlarni qayta tiklash, ayniqsa ishlatilib bo'lingan konklarni qayta tekislاب, ekin ekadigan yerkarga aylantirish natijasida bu maydonlarni unumdarligini saqlabgina qolmay balki uni oshiradi ham.

1998 yilda Oliy Majlis qabul kilgan yer kodeksida yerdan foydalanish tartibi, yerga egalik qilish va undan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish bo'yicha iqtisodiy hamda huquqiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi, natijada yer munosabatlarini yaxshi yo'lga ko'yish uchun, ularni muhofaza qilish va samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

**Qishloq xo'jalik yerlarni ajratish chiqimlarini qoplash.** Mamlakatizda sanoat, transport, shaharlar ishchi posyolkalari, qishloqlar, mahallalar, turli xil yo'llar, suv inshootlari va boshqa aholi yashaydigan punktlarda foydalaniladigan yerlar qariyib... ... gektarga yetadi.

1991-1999 yillar ichida mamlakat bo'yicha qishloq xo'jaligida foydalanish uchun 10 ming hektar yangi yerlar o'zlashtiriladi. Lekin shu bilan bir qatorda shu yillar ichida qishloq xo'jaligida foydalanib qilinayotgan yerkordan 6 ming hektari qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketdi. Shundan 2 ming hektari meliorativ holati yomonlashgani uchun vaqtincha chiqib ketgan bo'lsa, qolgani har xil ob'ektlarni ko'rish uchun ajratildi va bu yerlar butunlay qishloq xo'jaligi hisobidan chiqib ketdi.

Halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun yer ajratib berish iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv oqibatidir. Lekin Yer kodeksining talabidan kelib chiqib qishloq xo'jalik yerlari va ayniqsa xaydaladigan yerlarni qishloq xo'jaligidan tashqari foydalanishga ajratishni davlat alohida nazorat qilib borishi kerak. Qishloq xo'jalik yerlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun ajratilgan qishloq xo'jalik korxonalari ko'rgan zararni qoplash yer kodeksida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Yer ajratishdagi chiqimlarni koplash qishloq xo'jalik yerlari muhofazasi va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Qishloq xo'jalik yerlarini boshqa maqsadlarga foydalanish uchun olishdagi nobudgarchiliklar tuproq unumdarligini oshirish va qayta tiklash tadbirlari o'tkazish hisobiga

olingan holda maydoni o'sha yerkarta yangi yerlarni o'zlashtirish qiymatiga tenglashtirib olinadi.

1.5-jadval

**Qishloq xo'jaligidan tashqari ehtiyojlar uchun olinadigan yerlar o'rniiga o'zlashtirilgan yangi yerlar qiymatining me'yori, ming so'm ga  
(2005 yil)**

Viloyatlar	Haydov yerlari	Bog'lar uzumzorlar	Yem-xashak ekinlari	Boshqa qishloq xo'jalik yerlari
Qaraqolpog'iston Respublikasi	360	380	150	110
Andijon	210	260	110	100
Buxoro	250	280	115	105
Jizzax	225	275	125	110
Qashqadaryo	260	290	130	120
Navoiy	270	310	135	115
Namangan	220	270	110	95
Samarqand	250	290	130	110
Surxondaryo	250	300	140	120
Sirdaryo	220	280	130	125
Toshkent	210	270	140	120
Farg'ona	220	260	130	115
Xorazm	350	320	160	130

Yangi yerlar o'zlashtirish qiymati hisobining asosiy mintaqasi texnologiyasini aks ettiradigan ishlar loyiha analoglari, texnologik kartalar va sxemalar tashkil etadi. Bunda yer o'zlashtirishda bajariladigan ishlarni o'tkazish me'yoriy hujjatlari va baholaridan foydalaniadi.

Nobudgarchiliklar hajmi tuman hokimiyatlari qoshida tashkil qilingan baholash komissiyalari tomonidan belgilanadi.

Komissiya qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning qoplanish zarur bo'lgan nobudgarchiliklari hajmini ko'rsatib akt tuzadi. Bu akt hokimiyatni mutasaddi bo'limlari tomonidan ko'rib chiqib ma'qullangandan keyin xokim tomonidan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jalik ehtiyojlaridan tashqari yer uchastkalari ajratiladigan korxonalar tegishli smetalarda yer olish bilan bog'liq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarini qoplash uchun zarur bo'ladigan mablag'larni ko'zda tutadilar. Bu xil mablag'lar yer oluvchi korxona mablag'lari, ayrim hollarda byudjet mablag'lari bo'lisi mumkin. Lekin ajratiladigan bir hektar xaydov yer badalining hajmiga yangi yerlar ishga tushirilgunga qadar uchastka olish davri maboiynida yalpi hosil olinmagani natijasida xo'jalikka yetkazilgan zarar ko'rinxaydi. Shuning uchun qishloq xo'jalik yerlarini ajratishga teng maydonli yerkartani va yer uchastkasi

olishdan yangisini ishga tushirishgacha bo'lgan davr ichida yo'qotiladigan sof foydani qayta tiklashning bir yo'la xarajatlari hisobiga olingan holda badal to'lash maqsadga muvofiqdir.

Bunda 0,15 kapital qo'yilmalar samaradorligi me'yoriy koeffitsentiga muvofiq keladigan 7 yillik davr hisobga olinishi kerak. Bu holda badal (kompensatsiya)ning umumiy hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$B_{ad} = S_k + \frac{W_d X_b X_{ur}}{0,15}$$

Bunda  $S_k$  – yerlarni qayta tiklash smeta qiymati, bunga melioratsiya va qishloq xo'jalik o'zlashtirish kiradi, so'm

$W_d$  – olib qo'yiladigan yer maydoni, hektar

$X_b$  – harid bahosi, sum s

$X_{ur}$  – o'rtacha hosildorlik

Yer egalari yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijracilarga va mulkdorlarga yetkazilgan zararning o'rni (shu jumladan boy berilgan foyda) quyidagi hollarda to'la hajmda qoplanishi kerak:

-yerlar olib qo'yilgan kayta sotib olingan yoki vaqtincha egallab turilganda;

-davlat qo'riqxonalari buyurtmachilar, milliy tabiat bog'lari tabiat yodgorliklari, madaniy tarixiy yodgorliklar, suv xovzalari, suv ta'minoti manbalari, kurortlar atrofida, daryolar kanallar, suv tashlamalari yo'llari, truboprovodlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari bo'ylab muhofaza sanitariya va ixota mintaqalari belgilanishi munosabati bilan ularning huquqlari cheklanganda;

Suv havzalari kanallar kollektorlar shuningdek qishloq xo'jalik ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa ob'ektlar qurish va ulardan foydalanishning ta'siri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosil kamayishiga va qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda.

Zararning o'rni olib ko'ylayotgan yer uchastkalari ajratib beriladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan, shuningdek faoliyat yer egalari, yerdan foydalanuvchilar yer uchastkalari ijracilari va mulkdorlarning huquqlari cheklanishiga yoki yaqin atrofidagi yerlarning sifati yomonlashuviga olib borgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini, shu jumladan jismoniy shaxslar egaligidagi va foydalanishdagi qishloq xo'jalik yerlarini qishloq xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'limgan maqsadlarga foydalanish uchun olib qo'yilganida yerlarning sifati yomonlashuvi tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rni shunga sababchi bo'lgan korxonalar muassasalar va tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan yer kodeksi asosida yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun davlat yer kadastro joriy etilgan. Yer kadastrida yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlar majmui keltirilgan. Yer kadastro ma'lumotlaridan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va harid miqdorini rejalashtirish, yerlarni melioratsiyalash va qishloq xo'jaligini ximiyalashga kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash, mamlakat mintaqalari bo'yicha harid baholarini takomillashtirish masalalarini hal qilish hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Yer kadastro halq xo'jalik ahamiyatiga egadir va davlat tadbiri sifatida amal qiladi. U yagona tizim bo'yicha olib boriladi va o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarini oladi: yerdan foydalanuvchilarni qayd etish, yerning miqdori hamda sifatini hisobga olish: tuproqlarni bonitirovka qilish va yerni iqtisodiy baholash.

Yerdan foydalanuvchilarni qayd etish yerdan foydalanishda yuridik huquqni rasmiylashtirishdir. U yerni egasiga topshirish printsiplariga rioya, qilishini ta'minlaydi va davlat yer mulkchilagini muhofaza qilishga qaratilgandir. Yerdan foydalanuvchi kishi davlatdan o'ziga yer egaligi huquqi berilganligini tasdiqlaydigan dalolatnomasi oladi. Yerdan foydalanishning davlat ro'yxatidan o'tkazishi yerdan foydalanuvchilar kategoriyalari bo'yicha belgilangan tartibda tuman hokimligida amalga oshiriladi.

Yerlar foydalanilishi bo'yicha davlat xo'jaliklariga jamoa va shirkat xo'jaliklariga muddatsiz davrga foydalanish uchun berilsa fermer xo'jaliklariga uzoq, muddatga (30-50) yilga ijara beriladi. Oilaviy pudrat asosida ishlayotganlarga qisqa muddatga (5-10) yil foydalanish uchun beriladi. Davlat yer kadastro kitobi asosiy yer egaligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Yerdan foydalanishlarni qayd etish ularni hisobga olish bilan chambarchas aloqada o'tkaziladi. Yerlarni quyidagicha hisobga olinadi:

-yer fondlari kategoriyalari bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat transport ko'plab qishloq xo'jaligidan tashqari yerlar, davlat o'rmon foni yerlari, davlat suv foni yerlari, davlat zahira yerlari;

-yerdan foydalanuvchilar kategoriyalari bo'yicha-davlat xo'jaliklari, jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, ijara va pudrat jamoalari va boshqalar;

-ekin turlari bo'yicha-haydaladigan yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar bo'z yerlar, pichanzorlar, yaylovlar va boshqa yerlar

-yerlarning sifatini holati bo'yicha-toza yaxshilangan butazor, erroziyaga uchragan, sho'rlangan va boshqa yerlar;

-qishloq xo'jalik ekinzorlari bo'yicha-ekinzorlar tarkibida sug'oriladigan va zaxi qochirilgan yerlar alohida hisobga olinadi. Sug'oriladigan yerlar-muntazam sug'oriladigan va shartli sug'oriladigan yerkarga ajratiladi. Muntazam sug'oriladigan yerlar optimal muddatlarda belgilangan me'yorlarda sug'oriladi. Shartli sug'oriladigan yerlar, ayrim davrlardagina sug'oriladi. Ular odatda doimiy suv manbaida kam suvli tizimlardir.

Liman usulida sug'oriladigan yerlar-tuproq uyumlaridan iborat dambalar va qor-muz suvlarini bahorgi sellarni tutib qoladigan har xil gidrotexnik inshootlarga ega bo'lgan uchastkalar alohida-alohida hisobga olinadi.

Yerlarni hisobga olish ham davlat ham tarmoq ham yer egallarining manfaatni ko'zda tutish kerak. U ma'muriy-territorial bo'lishi bo'yicha amalga oshiriladi. Ma'muriy tuman yerni hisobga olishda asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarni sug'orish tizimlari boshqarmalari, qishloq va suv xo'jalik hamda statistika organlari hisobga oladilar. Sug'oriladigan yerkarga egalik qiladigan xo'jaliklar har yili noyabr oyida statistika organlariga ulardan foydalanish to'g'risida hisobot berib turadilar.

Yer resurslarining miqdor ko'rsatkichlari bilan birga sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga olmoq kerak. Yerning tabiiy xususiyatlari sifat jihatdan baholash predmeti hisoblanadi. Sifat jihatdan hisobga olish tuproq unumdorligi bilan xarakterlangan tabiiy resurs bo'lgan yerning sifatini aks ettiradi. Yerni sifat jihatdan hisobga olish tuproqning tabiiy mintaqalar iqlim sharoiti hisobiga olingan klassifikatsiyalari bo'yicha o'tkaziladi. Hozirgi vaqtda tuproqlarni sifat belgilari: kimyoviy, fizik-kimyoviy xususiyatlari va oziq modda zahiralari bo'yicha agrosanoat guruhlanishining yagona tizimi ishlab chiqilgan.

Sug'oriladigan yerlarni hisobga olishda ularning sifat xolatini va avvalo sho'r bosish darajasini aniqlashga alohida ahamiyat beriladi. Sho'r bosish darajasiga bog'liq holda ular sho'rланмаган, ўнгил sho'rланган, о'rta sho'rланган ва кучли sho'rланган hamda taqir yerlar guruhlarga bo'linadi. Sug'oriladigan yerlar meliorativ holatiga ko'ra ularning umumiyl maydonidan ochiq, yopiq, tik va kombinatsiyalashgan zovurlar o'tkaziladi va har qaysi zovur o'tkazilgan yerlar alohida hisobga olinadi. Sug'orish shaxobchasi qayta quriladigan yer yuzasi tekislanadigan, kollektor zovur shaxobchalari qayta quriladigan, rekonstruktsiya qilinadigan yerlar ham alohida hisobga olinadi. Sug'oriladigan yerlarning suv bilan ta'minlanganlik darajasi ham hisob qilinadi.

Tuproq bonitirovkasi–tuproq (yer) sifatini ular unumdoorligi bo'yicha nisbiy baholash (ballarda) sifat jihatidan baholashning tugallovchi bosqichi hisoblanadi. Tuproq turlari o'z tabiiy belgilari va xususiyatlari ko'ra bonitirovka qilinishi kerak. Baholash 100 ballik tizim bo'yicha o'tkaziladi. Bunda ekinlar hosildorligidan ham tuproqlarning asosiy xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Odatda hosildorlik va tuproqlar tabiiy xususiyatlari bo'yicha tor baholash shakllari tuziladi, keyin ular o'zaro birlashtiriladi bunda oliv sifat tuproq 100 ball deb qabul qilinadi (eng yuqori hosildorlik) bunda tuproqlarning tabiiy hosildorlik boniteti bilan to'g'irlanadi. Hosildorlikni aniqlashda dehqonchilik intensivligi va «me'yor» hosildorlik olish omillarini tenglashtirishni o'tkazish tavsiya etiladi. Tuproq banitirovkasi va uni iqtisodiy baholash yerning unumdoorlik qobiliyatini aniqlashning yagona jarayoni hisoblanadi. Bunda tuproqni banitirovka qilish keyinchalik iqtisodiy baholanadigan tuproq agroishlab chiqarish guruhlarini ajratishini ta'minlaydi.

Tuproqlarning agroishlab chiqarish guruhlari melioratsiyalanmagan, sug'oriladigan va zahi qochirilgan yerlar uchun alohida–alohida ajratiladi. Sug'oriladigan yerlarning agroishlab chiqarish guruhlashda quyidagi omillar qo'shimcha ravishda hisobga olinadi:

A) qadimdan sug'orilib kelinayotgan yaqinda sug'orila boshlagan va yaqinda o'zlashtirilgan yerlar;

B) suv ta'moti-mutassil sug'orilib kelinayotgan va shartli sug'oriladigan, yomg'irlatib sug'oriladigan yerlar alohida-alohida hisobga olinadi;

V) Sug'oriladigan yerlarning kollektor–zovur shaxobchalari bilan jixozlanganligi.

Yerni iqtisodiy baholash deganda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligini baholash tushiniladi. Yerning joylashgan o'rni va sifati iqtisodiy bo'yicha miqdor jihatdan o'lchanigan baholangan bo'lishi kerak. Iqtisodiy baholash yer resurslaridan ularning

potentsial imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanishga qaratilgandir. U qiyosiy baholash hisoblanadi.

Baholash mezonini tanlashning asoslanganligi yerni iqtisodiy baholashning muhim shartidir. Bu masala murakkab bo'lib, baxsli masala bo'lib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarining talabini hisobga olgan holda iqtisodiy baholash mezoni sifatida bir gektar yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi ichki mahsulot chiqishidan foydalanish zarur. Mahsulot chiqishi ishlab chiqarish chiqimlari bilan muayyan aloqada hisobga olinadi.

Bunda xarajatlar ta'sirini chiqarib tashlash zururiyati tug'iladi.

Teng ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shilgan mahsulot miqdori iqtisodiy jihatdan yerning sifatini ifodalaydi. Teng xarajatlar qilinib, ko'p mahsulot ishlab chiqarilgan yergina miqdor jihatdan yaxshidir. Olingan mahsulotdagi tafovut yer sifati tafovutini miqdor jihatdan ifodalaydi.

Asosiy ko'rsatkichdan, ya'ni bir gektar yerdan yalpi ichki mahsulot chiqishidan tashqari shu maqsadda xarajatlarni (bir so'mlik xarajatlarga mahsulot qiymati) qoplash va sof foydaning umumiy hajmi bilan eng kam ijtimoiy zarur foydaning o'rtasidagi tafovutdan iborat differentials foydadan ham foydalanish mumkin. Taqqoslanishga mamlakat mintaqalari bo'yicha rioya qilish uchun yalpi ichki mahsulot qiymati yagona kadastr baholarida hisoblab chiqiladi.

Yerni iqtisodiy baholash ham mutloq, ham nisbiy kattaliklarda (ballarda) ifodalanishi mumkin. Tuproqlar agroishlab chiqarish guruhlari bo'yicha baholanadi. Bunda tuproq ko'rsatkichlarining hisob kitobi natijasida baholash shkalasi tuziladi. Bu shkala turli xil yerlar sifatini miqdor jihatdan xarakterlaydigan baholash ko'rsatkichlari tizimidan iboratdir. Avval baholash shkalasi mutloq (absalyut) ko'rsatkichlarida (so'mlarda) so'ngra ish asosida nisbiy ko'rsatkichlarda (ballarida) tuziladi. Nisbiy ko'rsatkichlar shkalasi yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. Yopiq shkala tuzishda yaxshi agroishlab chiqarish guruhining eng yuqori mutloq ko'rsatkichi 100 ball deb qabul qilinadi.

Boshqa guruhlarning ballarda baholanishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$B = \frac{D_i}{D_d} * 100\%$$

Bunda, B-ball% D-tuproqlar, i-agroishlab chiqarish guruhining sof foydasi, sum / ga: D<sub>d</sub> – 100 ball (etalon) deb qabul qilingan eng yuqori natijaga erishgan agroishlab chiqarish guruhining sof foydasi, sum / ga.

Ochiq shkala tuzishda 100 ball deb yalpi ichki mahsulot yoki sof foydaning o'rtacha darajasi qabul qilinadi. Boshqa ishlab chiqarish guruhlari tuproqlarini ballarda baholash yopiq shkala tuzishdagidek o'tkaziladi.

Umuman xo'jalik bo'yicha yerni baholash bali qishloq xo'jalik yerlariga kiruvchi ayrim tuproq guruhlari chamalangan baholarining o'rtachasi hisoblab chiqiladi. Yerni iqtisodiy baholash ma'lumotlari asosida kadastr kartalari tuziladi.

Taqqoslanishga rioya qilish uchun tuman, viloyat va butun mamlakat bo'yicha yerlarni iqtisodiy baholash yagona uslubiyot bo'yicha o'tkazilishi kerak.

#### **1.4. Melioratsiya qishloq xo'jaligini intensivlash omili sifatida**

Qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirish mamlakatning asosiy iqtisodiy muammosi bo'lib, halq moddiy farovonligining bundan buyog'iga yuksalishi shu muammo hal etilishiga bog'liqdir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini izchil intensivlashga qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yuqori va barqaror sur'atlarini ta'minlash choralarini tizimida hal qiluvchi rol berilmoqda.

«Intensivlik» termini qishloq xo'jaligiga tadbiqan ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yer ishlab turishi aktivligini oshirishni anglatadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlash jarayonini yer maydoni birligiga kapital to'plash sifatida tushiniladi. Qishloq xo'jaligidagi intensivlash jarayonining mohiyati mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag' sarflagan holda yer maydoni birligidan mahsulot ishlab chiqarishini ko'paytirish maqsadida qo'shimcha ishlab chiqarish mablag'lari sarflashdan iboratdir. Gektar hisobiga mahsulot chiqishini ko'paytirish uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga pul mablag'lari, goho esa mehnat tobora ko'p sarflanadi. Kompleks mexanizatsiyalash, yerlarni ximiyalash va melioratsiyalash qishloq xo'jaligini intensivlashning asosiy yo'llaridir.

Yer dehqonchilikda qo'shimcha mablag' sarflashning asosiy ob'ekti xizmatini utaydi. Mahsulot chiqishini ko'paytirish uchun maydon birligiga ishlab chiqarish mablag'larini to'plash dehqonchilik ishlab chiqarishini intensivlashning moddiy-buyumli mazmunidir.

Bu tarmoqda tuproqning unumdorligini oshiradigan va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiradigan xarajatlar katta rol o'ynaydi. Aynan kompleks mexanizatsiya va ximiyalashga qo'shib o'tkaziladigan melioratsiya qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishga yordam berish, hamda unga barqarorlik va dinamiklik baxsh etish vositasi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlash omili bo'lgan melioratsiya yerdan to'g'ri foydalanimiga yaxshilanishi va uning unumdorligini muttasil oshirish mumkinligidan iborat xususiyatlari tayanadi. Tuproqning tabiiy xususiyatlari suv, havo, issiqlik va oziqlik rejimlarini tartibga solish vositasida ancha yaxshilanadi.

Melioratsiyaning asosiy roli shundaki, u tuproq bilan suv, o'simlik bilan atmosfera o'rtaisdagi o'zaro bog'liqlik murakkab kompleksini optimal hal qilishga, ya'ni asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning tubdan yaxshilanishiga qaratilgandir. Melioratsiya tadbirlari tuproqdagagi inson ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni belgilab beradi va yuqori hosil olinishini ta'minlaydi. Melioratsiya tadbirlarining iqtisodiy mohiyati ham shundadir.

Ko'p o'n yilliklar mobaynida qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishini ko'paytirish asosan oborotga yangi yerlarni jalb etish, ya'ni ekstensiv yo'l bilan ta'minlab kelindi. Mamlakatdagi haydaladigan yerlar maydoni 1913 yildagi 2 mln. hektardan 2005 yildagi 4,3 mln. hektargacha ko'paydi. Ekinlar hosildorligi shu davr ichida 2-3 martagacha oshdi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ekstensiv yo'li katta maydonlarga ega bo'lgan qo'riq yerlar mavjudligi hamda halq xo'jaligi yetakchi tarmoqlarining muayyan texnika darajasi bilan shartlangan edi. Hozirgi vaqtda melioratsiya ishlari o'tkazmasdan, ko'p kapital mablag'lar sarflamasdan ekin yerlarini kengaytirish imkoniyatlari tug'iladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligini olib borishning intensiv yo'lga qat'ian o'tish masalasi o'rtaqa qo'yiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini intensivlash oziq-ovqat mahsulotlari va xom ashyoga jamiyat ehtiyojlarini eng ko'p darajada qondirishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga kapital qo'yilmalar miqdori oshib bormoqda. Intensivlashning ob'ektiv zaruriyati yana shundaki, qishloq xo'jalik yerlari maydoni cheklangan hamda bir kishi hisobiga yer bilan ta'minlanganlik kamayib bormoqda.

Melioratsiyaning katta iqtisodiy ahamiyati shundaki, u melioratsiyasiz qishloq xo'jalik oborotiga kiritib bo'lmaydigan keng yangi yer maydonlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Mamlakatimiz ko'p rayonlarining xaydaladigan yerlari melioratsiya tadbirlari hisobiga kengaydi. Melioratsiya hosilsiz yerlarni serhosil yerlarga aylantirib, qishloq xo'jaligi taraqqiyotini belgilovchi omil bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligini intensivlash omili bo'lgan

melioratsiyaning ahamiyati yana shu bilan ortib bormoqdaki, u iqtisodiy jihatdan zarurgina emas, balki uning o’rnini boshqa hech narsa bosa olmaydi.

Xo’jalikni olib borishning intensiv usuli ekin maydonlari kengayishini istisno qilmaydi. Aksincha, yangi yerlar o’zlashtirish mamlakatimizda iqtisodiy zarurat bo’lib kelmoqda. Qishloq xo’jalik oborotiga yangi yerlarni jalb qilish hamda ularni unumdarligini oshirish, melioratsiyalash, yangi texnikani, fan va ilg’or tajriba yutuqlarini qo’llash asosida amalga oshiriladi.

Yerlarni melioratsiyalash-qishloq xo’jalogini intensivlashning asosiy kapital yo’nalishidir. Yerlarni melioratsiyalash keng dasturini amalga oshirish ancha kapital qo’yilmalarini talab qiladi. Kapital qo’yilmalarga asosiy fondlarni tiklash, rekonstruktsiya qilish va ko’paytirishga qaratilgan pul mablag’lari kiradi. Melioratsiya va qishloq xo’jalik ishlab chiqarish vositalarini oddiy hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ularning sifatini yaxshilash kapital qo’yilmalar hisobiga amalga oshiriladi. qishloq xo’jalik ishlab chiqarishiga, shu jumladan melioratsiyaga ham kapital qo’yilmalar miqdori har yili ko’payib bormoqda

Irrigatsiya-melioratsiya qurilishiga kapital qo’yilmalar so’nggi yillarda qishloq xo’jaligiga qo’yilmalar umumiyligi miqdoriga nisbatan ancha tez sur’atlarida ko’payib bormoqda. Ularning o’rtacha yillik o’zlashtirilish 50 mlrd. so’mdan ortadi. Bunda mavjud melioratsiya tizimlarini rekonstruktsiya qilishga ancha mablag’ ajratildi.

Melioratsiyalangan yerlarda qishloq xo’jalogini intensiv olib borishga o’tish xarajatlarining shunchaki miqdor jihatdan o’sishini emas, balki ularning texnika taraqqiyoti tufayli sifat jihatdan yaxshilashini ham bildiradi. Bu qishloq xo’jalogini intensivlash samaradorligini melioratsiyalangan yerlarda ishlab chiqarish vositalarini shunchaki to’plash emas, balki ularning sifat jihatdan o’zgarishi va unumli iste’mol qilinishi belgilarini anglatadi.

Melioratsiya yerdan foydalanish samaradorligini oshirib, dehqonchilikni intensivlash chegaralarini kengaytiradi, qishloq xo’jalogini intensivlashning boshqa omillari oshishi uchun sharoit yaratadi va bu bilan dehqonchilik madaniyati yuksalishiga yerdam beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, qo’shimcha qo’yilmalardan maqsad, shu qo’shimcha qo’yilmalar samaradorligini oshirishdangina iborat bo’lmaydi. Ularning vazifasi-barcha ko’yilmalarning, shu jumladan avval o’tkazilgan qo’yilmalarning ham samaradorligini oshirishdir. Amalda maydon birligiga dastlabki va qo’shimcha qo’yilmalardan ishlab chiqarishda o’zaro birlikda jami xarajatlar sifatida foydalilanadi. Melioratsiyalangan yerlarda o’g’itlarni qo’llanish

samaradorligi oshadi, yuqori hosildor navlarning afzalliklari ancha to'laroq namoyon bo'ladi, ekin maydonlari tarkibida intensiv va yuqori hosildor ekinlar ko'p bo'ladi.

Sug'orish takroriy ang'iz yerlariga ekin ekishni keng qo'llanish imkonini beradi. Bu narsa yiliga ikkita hosil olishnigina ta'minlab qolmay, balki katta tashkiliy-iqtisodiy ahamiyat ham kasb etadi. Takroriy ekinlar ekip o'stirish xo'jaliklarga moddiy va mehnat resurslari texnika, ish kuchi sug'oruv suvi va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan yanada to'laroq foydalanish imkonini beradi. Takroriy va angiz yerlarga ekin ekishni joriy qilish hisobiga sug'oriladigan yerdan foydalanish koeffitsiyentini 1,4 gacha oshirish mumkin.

Shunday qilib, melioratsiya qishloq xo'jalik yerlari unumdorligini oshirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. U tuproqning iqtisodiy unumdorligi ortishini ta'minlaydi, yer mehnat va ishlab chiqarish vositalaridan ancha to'liq va samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, xo'jalikni intensiv va ekstensiv olib borish degan tushunchalar-nisbiy tushunchalardir: ikkala holda ham ular aniq ifodalangan miqdoriy o'lchamlarga ega bo'lishi kerak. Bu tushunchalarning shartliligi jami xarajatlar (jonli va buyumlashgan mehnat)ning yer maydoni birligiga nisbati sifatida ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Bu nisbat qancha ko'p bo'lsa, intensivlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Dehqonchilikning texnika bilan ta'minlanishi ortib borgani sari sug'oriladigan yerdagi ishlab chiqarish intensivligi o'saveradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, jonli va buyumlashgan mehnat nisbati ancha o'zgaradi, buyumlashgan mehnatning hissasi ko'payadi, mahsulot birligiga mehnat umumiylar sarfi kamayadi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni intensivlash ijtimoiy mehnat unumdorligi o'sishiga olib keladi.

Qishloq xo'jalogini intensivlash jarayonini ko'rib chiqishda quyidagi ikki jihatni hisobga olish kerak: birinchidan, ishlab chiqarishni intensivlash darajasi, ikkinchidan, intensivlash vositalarini qo'llanish samaradorligi. Intensivlash darajasi va samaradorligi ko'rsatkichlari qiymat va tabiiy shaklda ifodalaniishi mumkin.

Qishloq xo'jalogini intensivlash darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan (melioratsiyalangan maydonning bir gektari hisobida) xarakterlanadi:

-asosiy ishlab chiqarish fondlari (shu jumladan meliorativ fondlar va joriy ishlab chiqarish (yejilishdan mustasno) xarajatlarning qiymati;

-asosiy ishlab chiqarish fondlari (shu jumladan meliorativ fondlar) qiymati;

-joriy ishlab chiqarish xarajatlari;

-mehnat xarajatlari hajmi, energiya bilan ta'minlanganlik, sarflangan sug'oruv suvi miqdori, qo'llaniladigan o'g'itlar miqdori va hokazo.

Intensivlashning iqtisodiy samaradorligi xarajatlar ko'payishi mahsulot ko'payishini ta'minlashida ifodalananadi. Intensivlashdan ko'zlangan maqsad-yer maydoni birligidan eng ko'p mahsulot olishdir. quyidagilar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlashning asosiy ko'rsatkichlaridir;

- melioratsiyalangan maydonining bir gektari hisobida yalpi va sof mahsulot chiqishi;
- qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi;
- melioratsiyalangan maydonning bir gektari hisobida sof daromad yoki foyda chiqish;
- mehnat unumdorligining o'sishi;
- fond samarasining oshishi.

Yerlarni melioratsiyalash qishloq xo'jaligini intensivlashning boshqa omillari bilan to'g'ri qo'shib o'tkazilsa, eng katta samara beradi.

## **1.5. Yerlarni melioratsiyalashning asosiy bosqichlari**

Mamlakatimiz xududidagi yerlarni sug'orish ko'p asrlik tarixga egadir. Markaziy Osiyo davlatlarida yerlar qadim zamonlardan buyon sug'orib kelinadi.

1925 yilda O'rta Osiyoning sug'oriladigan eski rayonlarida yer-suv islohati o'tkazilib yer va suv foydalanish uchun yersiz va kam yerli dehqonlarga berildi. Bu islohot o'z davrida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

1930-1950 yillarda sug'orish rivojlantirilgan asosiy rayonlar paxta yetishtirishni ko'paytirishdan iborat asosiy muammoni hal qilishga bo'y sindirilgan edi. Bu davrda bu rayonlarda yangi yirik irrigatsiya tizimlari qurish boshlandi.

Yirik kanallari halq qurilishlari usuli bilan barpo etish dastlabki yillardagi suv xo'jaligi qurilishining xarakterli xususiyati edi.

Katta Farg'ona kanalining barpo etilishi–bunday qurilishning eng yorqin namunasidir: bunda kanal trassasiga O'zbekiston, Qirgiziston va Tojikiston Respublikalarining 160 ming dehqonlari chiqqan edi. Uzunligi 275 km, kengligi 30 m va chuqurligi 4 m keladigan kanal misli ko'rilmagan qisqa muddat 45 kunda qurib bitkazildi. Bu Farg'ona vodiysining 500 ming hektar sug'oriladigan yerlarini suv bilan ta'minlanishni yaxshiladi va sug'oriladigan maydonlar 63 ming hektar ko'payishini ta'minladi. Farg'ona vodiysidagi melioratsiya ishlari

mamlakatning boshqa viloyatlari uchun namuna bo'ldi. 1938-1941 yillarda halq qurilishi usuli bilan bir qancha yirik kanallar qurildi. Mamlakatning ko'p rayonlarida shu usul bilan xovuzlar, to'g'onlar, qishloq gidroelektrostantsiyalari va boshqa ob'ektlar barpo etildi.

Shunday qilib, hozirgi sharoitda yerlarni melioratsiyalashga g'alla, sabzavot yetishtirish, chorvachilik uchun mustahkam oziqa bazasi yaratish muammosini hal etishda tobora ko'p e'tibor berilmoqda. Hozirgi vaqtida melioratsiya eng muhim halq xo'jalik vazifalari darajasida turadi. U jahon tajribasida misli ko'rilmagan ko'llamlarda olib borilmoqda. Uning mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan puxta ta'minlashdagi roli ortib boraveradi.

#### **1.4. Yerlarni melioratsiyalashning iqtisodiy va sotsial ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida yerlarni melioratsiyalashga katta o'rinni berilgan. Bu siyosatida melioratsiyani qishloq xo'jaligini yuksaltirish va qishloqda sotsial o'zgartirishlarni amalga oshirishning qudratli omili deb tushunish kerak.

Mamlakatimiz yerlari melioratsiyasini rivojlantirish rejasida qishloq xo'jaligini bozor munosabatlari asosida qayta o'zgartirishning asosiy belgilari aks etgan. Suv-meliorativ tadbirlari amalga oshirilishi bilan birga qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda, ishlab chiqarishni industrlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda, yer va suv resurslarini rejali o'zlashtirish davom etmoqda.

Melioratsiya qurilishining keng dasturini qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini yaratish rejasining eng muhim bo'limidir. Intensivlashning ko'p kapital mablag' sarflanadigan yo'nalishi bo'lgan yerlar melioratsiyasi qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini ancha mustahkamlaydi. Texnika jihatdan ancha mukammal tizimlar qurishga o'tish bilan ularning kapital mablag'lari hajmi yanada oshadi. Melioratsiyaga ajratilgan kapital mablag'larning 60% i irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini qayta tuzish hamda qurishga va 20% i melioratsiya mashinalari hamda suv xo'jaligi uskunasi olishga ketadi. Xo'jaliklar fond bilan ta'minlanishi va mehnat quvvati bilan qurollanishining oshishi-qishloq xo'jaligi taraqqiyotini jadallashtirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratadi.

Melioratsiyalangan yerlarda qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishga ham hosildorlikni oshirish hisobiga, ham ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish hisobiga erishiladi.

Melioratsiya qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashi, eng qattiq qurg'oqchiliklarning salbiy oqibatlariga barham berishi kerak. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki mamlakatda tez-tez yuz beradigan qurg'oqchilik yillarda kam g'alla hosili olinganligi o'rnini qoplash uchun melioratsiyalangan yerlarda g'alla hosildorligini keskin oshirishga to'g'ri keladi. G'alla yetishtirishni ko'paytirishning katta qismini oziqa g'alla va avvalo sug'oriladigan yerlarda o'stiriladigan yuqori hosillik bug'doy va makkajo'xori hisobiga olinishi kerak. Sug'oriladigan yerlarda angiz (takroriy) ekinlar ekiladigan maydonlarni kengaytirish kerak. Ular birinchidan chorvachilik uchun yem-xashak bazasini yaratasa, ikkinchidan tuproq unumdarligini oshirishda muhim rol o'yndi.

Melioratsiya qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotini rivojlantirishga anchagina o'zgartirishlar kiritadi. Dehqonlar sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlaridan har yili yuqori va barqaror hosil olmoqdalar, bu esa xo'jaliklar daromaddorligi o'sishiga hamda qishloq mehnatkashlarining turmush darajasi yuksalishiga olib keladi.

Melioratsiyaning sotsial-iqtisodiy soxadagi qayta o'zgartiruvchanlik kuchi yangi yerlar o'zlashtirishda eng to'liq namoyon bo'ladi. Melioratsiya hisobiga qo'riq yerlarni o'zlashtirish, ularda aholini joylashtirishga va tabiiy-iqtisodiy sharoitlarni qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Melioratsiyalangan yerlar samaradorligini oshirishdagi asosiy vazifalardan biri yerlarni kompleks o'zlashtirishdir. Kompleks usul birinchi marta Mirzacho'lning sug'oriladigan yangi mintaqasida qo'llanildi. Suv xo'jaligi qurilish tashkilotlari zimmasiga qurilish va sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish ishlarining barcha turlari yuklatildi. Bu yerda sug'orish tizimlari qurish bilan bir vaqta sanoat, uy-joy va madaniy-maishiy qurilish ham boshlab yuborildi. Bunday yondashish kadrlar o'rnashib qolishiga yordam beradi, muhim sotsial muammo muvaffaqiyatli hal etilishiga olib keladi.

Melioratsiya qurilishi ko'llamlarining kengayishi bilan yerlarni kompleks o'zlashtirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Yerlarni melioratsiyalash bilan birga ishlab chiqarish va madaniy-maishiy ob'ektlar qurilishi ham olib borilmoqda, qishloq mehnatkashlarining farovonligi yuksalmoqda.

Davlat suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishi, yangi yerlarni o'zlashtirish xarajatlarini o'z zimmasiga olmoqda. Davlat mablag'lari hisobiga qurilgan ichki xo'jaliklararo melioratsiya tizimlari xo'jaliklar balansiga o'tkazilmoqda. Sug'orish tizimi ichki xo'jalik qismining xo'jalikka foydalanish uchun topshirishi xo'jalik ahamiyatigagina emas, balki katta sotsial

ahamiyatga ham egadir; davlat va kooperativ mulk shakllarining qo'shilib ketishi sodir bo'lmoqda. Binobarin, melioratsiya qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlabgina qolmay, balki davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarishga yordam bermoqda.

Yerlarni melioratsiya qilish qishloq xo'jaligidagi fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishi hisoblanadi, yondashuvning zamonaviy bo'lishini kadrlardan yuqori malakali, texnikani samarali boshqarishni bilishni talab qiladi. Gidromelioratsiya tizimlarini ishlatish sohasida band bo'lgan oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar hissasi butun qishloq xo'jaligidagi shunday mutahassislardan ikki baravar ortiqdir. Bu qishloq xodimlari sotsial tarkibining takomillashuviga olib kelmoqda. Qishloqda gidrotexnik, yomg'ir mashinalari mashinisti, operator degan yangi kasblar paydo bo'ldi. Melioratorlar uchun shahar tipidagi yangi poselkalar qurilgan. Bu poselkalarning hammasi yuqori darajada obodonlashtirilganligi va ko'kalamzorlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Irrigatsiya inshootlari joyning o'zgarishiga yordam beradi. Ko'pgina gidrotexnika inshootlari ajoyib arxitektura bezaklariga egadir. Bu esa tabiiy manzarani boyitadi.

Irrigatsiya mintaqasida dam olishni tashkil qilish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Ko'pgina yirik suv omborlari dam olishning barcha turlari uchun baza xizmatini o'taydi.

Bunga yana shuni qo'shimcha qilish kerakki, yerlarni melioratsiyalash qishloq xo'jaligi oldiga qo'yilgan joriy vazifalarni hal qilishgagina emas, balki yaqin oradagi va olis kelajakdag'i vazifalarni ham hal qilishga qaratilgandir. Bu esa melioratsiya tadbirlarining iqtisodiy va sotsial ahamiyatini oshiradi.

## **1.7. Melioratsiya yerlarini joylashtirish va ulardan foydalanish**

Mamlakatimiz tabiiy sharoitining xilma-xilligi yerlarni melioratsiyalashning turli xillarini qo'llashni zarur qilib qo'yadi. Qurg'oq va yarim qurg'oq mintaqalar hamda kam namgarchilik mintaqalari uchun melioratsiyaning asosiy turi sug'orishdir. Sug'orish qishloq xo'jalik oborotiga yangi yerlarni kiritishni, yillar va regionlar bo'yicha hosildorlikni oshirish hamda uni barqaror qilishni ta'minlaydi.

Sug'oriladigan maydonlar viloyatlar bo'yicha notekis joylashgan. Sug'oriladigan yerkarning umumiyligi maydonidan Farg'ona vodiysi viloyatlariga 29,4%, Toshkent vohasiga

10,9% Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga 10,9%, Zarafshon vodiysi viloyatlariga 11,6% Surxondare va qashqadare viloyatlariga va 23% quyi Amudare viloyatlariga to'g'ri keladi.

Mamlakatning Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlarida sug'oriladigan yerlarning ko'payishi bilan eski rayonlar ulushi asta-sekin kamayib bormoqda. Bu 1970 yilda 71,2% tashkil etgan bo'lsa, 1986 yilda 54,7% ni tashkil etadi. Yer maydonlari sug'oriladigan rayonlar ulushi 38% kelajakda ham ortib boradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki. Respublikaning hamma viloyatlarida ham sabzavot va oziqa ekinlaridan kafolatlangan yuqori hosilni sug'orish yo'li bilangina olish mumkin. Shuning uchun bu mintaqada tuproq suv rejimini ikki yoqlama tartibga solib turish keng tarqaldiki, bu melioratsiyalangan yerlarda zah qochirish bilan sug'orishni uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi.

Umumiy maydonning sug'oriladigan yerlari ulushi mamlakat mintaqalari bo'yicha anchagina doirada o'zgarib turadi. Chunonchi, hamma viloyatlarda sug'oriladigan maydonlar barcha ekin yerlarining 75-80% ini, tashkil etadi.

Mamlakat sug'oriladigan yerlardan paxta, sholi, sabzavotni hosilining hammasini, g'allaning 90 foizdan ko'prog'ini, dag'al ozuqaning 50-60 foizini hamda boshqa mahsulotlarning talay qismini oladi.

Qishloq xo'jalik ekinlari ûosildorligi dehqonchilikning samaradorligini xarakterlovchi sintetik ko'rsatkichidir.

Lekin melioratsiyalangan yerlardagi haqiqatdagi hosildorlik loyihadagi darajaning 70-80% inigina tashkil etadi. Ayni vaqtda melioratsiyalangan yerlardan mahsulot birligi mehnat va mablag'larni eng kam sarflagan holda yuqori va barqaror hosil olish mumkinligini ilg'or xo'jaliklar hamda ilmiy tadqiqot muassasalarining ko'pdan-ko'p ma'lumotlari yaqqol tasdiqlamoqda. Sug'oriladigan gektarning hosildorligi lalmikor yerlar ûosildorligidan 4-5 baravar ko'pdir. Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlar haydov yerlari va ko'p yillik ko'chatlar maydonining 10% ini egallagan bo'lib, dehqonchilik yalpi mahsuloti qiymatining 94% ga yaqinini beradi.

Sug'orma dehqonchilikning asosiy mintaqalari misolida sug'oriladigan yerlardan foydalanishni ko'rib chiqamiz. Bu mintaqalarning sug'oriladigan yerlaridan foydalanish 1.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlari bilan xarakterlanadi.

1.6-jadval

#### **Sug'oriladigan yerlardagi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, sG'ga**

Viloyatlar	2001 yil		2002 yil		2003 yil	
	Paxta	G’alla	Paxta	G’alla	Paxta	G’alla
Qaraqalpog’iston Respublikasi	14,7	19,2	9,8	32,1	10,1	24,4
Andijon	34,9	71,1	34,0	73,7	25,8	74,0
Buxoro	27,1	36,9	28,2	41,7	29,1	48,0
Jizzax	15,3	24,8	16,0	31,4	16,0	31,5
Qashqadaryo	20,5	21,6	24,7	39,7	21,7	36,8
Navoiy	27,1	34,8	25,7	41,3	25,9	45,8
Namangan	25,3	40,3	25,0	47,2	18,8	48,2
Samarqand	18,0	29,8	23,0	49,5	22,8	54,5
Surxondaryo	27,4	36,1	26,2	45,6	28,6	45
Sirdaryo	14,7	26,7	11,3	27,4	12,9	25,7
Toshkent	26,2	38,4	20,5	43,3	19,7	41,1
Farg’ona	27,3	37,6	26,3	46,8	18,7	50,5
Xorazm	24,4	36,0	15,3	42,7	15,9	37
Respublika bo'yicha o'rtacha	23,3	34,6	22,3	43,5	20,6	43,3

Har yili 1% ga yaqin sug’oriladigan va zahi qochirilgan yerlardan foydalanilmaydi. Melioratsiyalangan yerlardan foydalanilmasligining sabablari shundaki, yerkarning 1 qismi o’zlashtirishga bahorgi ekishdan keyin topshiriladi, ayrim uchastkalarda shaxobcha va inshootlar rekonstruktsiya qilinadi, melioratsiya jihatdan yaxshilash hamda boshqa tadbirlar o’tkaziladi.

Sug’oriladigan maydonidan 90-95% ga har yili suv chiqariladi. Sug’oriladigan yerkarning anchagini qismiga suv chiqarilmay qoladi. Buning asosiy sabablari—sug’orish shaxobchasing buzuqligi, sug’orish manbalarida suvning yetishmasligi, sug’oriladigan yerlar notekisligi, tashkiliy va boshqa kamchiliklardir. Sug’orish tizimlarining qoniqarsiz ahvolda ekanligi sug’oriladigan yerkarning qariyib uchdan bir qismidan samarali foydalanish imkonini bermaydi. Yer usti ma’lumotlariga ko’ra 1,8 mln. hektar yer melioratsiya jihatdan yaxshilashga, 0,5 mln. hektar yer sug’orish tarmog’ini sozlashga 1,2 mln. hektar yer suv ta’mintonini oshirishga 1,1 mln. hektar yer kapital loyihalashtirishga muhtojdir. Shuning uchun sug’orish tizimlarini rekonstruktsiya qilish hozir tez sur’atlarda amalga oshirilmoqda.

Sug’oriladigan yerlardan to’liq foydalanmasligi ular unumdorligini keskin pasaytiradi, yerlar melioratsiyasiga kapital mablag’lar sarflash samaradorligining kamayishiga olib keladi. Melioratsiya jihatidan tayyorlangan barcha yerkarni oborotga kiritish qishloq xo’jalik mahsuloti ishlab chiqarishni yaxshilashning muhim rezervi xizmatini o’taydi.

## **1.8. Qurilish va gidromeliorativ tizimlarni rekonstruktsiyalash hamda ishlatishdagi texnika taraqqiyoti**

Yerlarni melioratsiyalashdagi fan-texnika taraqqiyoti mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag’lar sarflab, qishloq xo’jalik ekinlarining yuqori ûosildorligiga erishishni ta’minlaydigan texnika jihatdan mukammal tizimlarni yaratish bilan xarakterlanadi.

Hozirgi vaqtida yopiq sug’orish tizimlari qurilishning sug’orishdagi texnika taraqqiyoti bilan bog’liq yangi bosqichi boshlandi. Yangi sug’orish tizimlarini qurishda va eskilarini rekonstruktsiya qilishda kanallarni shimalishga qarshi qoplama bilan qoplash, tizimlarning tartibga solib turuvchi inshootlar bilan ta’minlanganligini oshirish, sug’orishni mexanizatsiyalagan va boshqarishni avtomatlashtirgan ûolda suvni dalaga yopiq quvur shaxobchasi orqali berish singari ilg’or texnika yechimlari keng qo’llanilmoqda.

Yer uzanida qurilayotgan kanallar ulushi 1965 yildagi 90%dan 2002 yilda 12%ga kamaydi, qoplama bilan qoplagan kanallar ulushi esa shu vaqt ichida 1,5% dan 56% gacha ko’paydi. Natijada xo’jaliklararo sug’orish tizimlarida foydali ish koeffitsiyenti (KPD) shu davr ichida 0,75 dan 0,85 gacha oshdi.

Gidrotexnika tizimlari qurish vazifalari yildan–yilga murakkablashib bormoqda. To’g’onlar qurish va yirik suv omborlari yaratish, suvni nasos stantsiyalari yordamida yuqori joylarga ko’tarib berish tobora ko’proq zarur bo’lmoqda. Sug’orish manbalaridan suvni mashina yordamida berishning hissasi yanada ko’paymoqda.

Texnika jihatdan mukkamal tizimlarni qurishga o’tish yerdan ancha oqilona foydalanish, sug’oruv suvi yo’qotilishini kamaytirish, suv chiqarish texnikasini unumli qo’llanish uchun sharoit yaratish, sug’orish tizimlarni mexanizatsiyalash va ishlatishni avtomatlashtirish, tuproqlarning tegishli suv rejimini saqlash zaruriyati tufayli sodir bo’ldi. Yopiq shaxobchali texnika jihatdan mukammal tizimlarni joriy etish suvni 30-40% tejash, yerdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish, qishloq xo’jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olishni dasturlash imkonini beradi.

G’alla mintaqasida keng qamrovli yomg’ir yog’dirib sug’orish texnikasiga ega bo’lgan yopiq sug’orish tizimlari qurilmoqda. Keng qamrovli yomg’ir yog’dirib sug’orish texnikasini joriy qilish suvchining smenadagi mehnat unumdarligini 10-15 gektargacha oshiradi. Ayni vaqtida egatlar bilan sug’orishda mehnat unumdarligi kishi-kuniga 2 gektardan oshmaydi. Yuqori unumdar keng qamrovli texnikani qo’llangan holda yomg’irlatib sug’orish usulini

qo'llash yuqori samara beradi. Yomg'irlatib sug'orishga o'tish sug'oriladigan maydonlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

So'nggi yillarda-tomchilatib sug'orish usuli joriy qilina boshlandi. Bunda shimilib ketish va bug'lanishga juda kam suv sarf bo'ladi, yer osti suvlarining ko'tarilish havfi bo'lmaydi. Bunday usulda sug'orishda suv egatlab sug'orishga nisbatan 25-75% tejaladi, ayni vaqtida hosildorlik ham o'sadi. Tomchilatib sug'orish butun vegetatsiya sug'orishi davri mobaynida tuproqda berilgan namlik darajasini saqlab turish va uning ko'p tebranishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Tog' etaklarida bog'lar va tokzorlar barpo etish uchun o'zlashtirilayotgan yerlarda tomchilatib sug'orishni qo'llash samaralidir.

Irrigatsiya tizimlari ishlashi ekspluatatsiya ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, ulami texnik jihatdan takomillashtirish shaxobcha va inshootlarini rekonstruktsiyalash sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlash, melioratsiya holatini yaxshilash va kapital rejalshtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Keyingi yillarda xo'jalik xodimlari mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlar bilan xisoblanmay, yangi yerlarni o'zlashtirishga ortiq darajada berilib ketdilar. Natijada suv resurslarining o'zlashtirilayotgan yerlar hajmiga keskin nomuvofiqligi kuzatilmoxdaki, bu narsa yerlarning meliorativ xolati ancha yomonlashishiga, suvdan foydalanish balansi buzilishiga va binobarin ekologiya buzilishiga hamda sug'oriladigan yerlar samaradorligi pasayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan mamlakatning ko'pchilik rayonlarida melioratsiyaga sarflanadigan kapital mablag'lar tarkibi rekonstruktsiya va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash foydasiga qayta qurib chiqiladi. O'zbekistonda kapital mablag'larning 70% endi rekonstruktsiya va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda suvni tejaydigan texnologiyaga sarflanmoqda.

Suv berish tizimlarini avtomatlashtirish va telemexanizatsiyalash vositalarini joriy qilish tizimlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan asosiy tadbirlardan biridir.

Sug'orish tizimlarining texnika xolati yer va suvdan foydalanish samaradorligi darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, gidromeliorativ tizim texnika jihatdan qanchalik mukammal bo'lsa, u qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshishiga shunchalik ko'p ta'sir etadi.

## **Qisqacha xulosalar**

Ishlab chiqarish jarayonida yerning o'mini hech narsa bosolmaydi, chunki uni yangitdan yaratib bo'lmaydi va uning hudud jihatidan cheklanganligi undan oqilona foydalanish zaruriyatini yanada oshiradi.

Ko'p asrli amaliyot shuni ko'rsatadiki yerdan to'g'ri foydalanganda tuproq unumdarligi pasaymaydigina emas, balki inson mehnati tufayli ortib ham boradi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 90 foizidan ko'prog'i sug'oriladigan yerkarta to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida sug'oriladigan yerkartadan foydalanish samaradorligini yanada oshirishni talab qiladi.

Melioratsiya hisobiga yangi yerlar o'zlashtirilishiga qaramay haydaladigan maydonlar ko'paymayotir. Bu narsa haydaladigan yerkartadan boshqa ehtiyojlar uchun foydalanish, boshqa kategoriyalarga o'tkazish tafayli sodir bo'lmoqda.

Tuproq turlari o'z tabiiy belgilari va xususiyatlariga ko'ra bonitirovka qilib boriladi. Bunda baholash 100 ballik tizim bo'yicha o'tkaziladi. Tuproq bonitirovkasi va uni iqtisodiy baholash yerning unumdarlik qobiliyatini aniqlashning yagona jarayoni hisoblanadi. Iqtisodiy baholash yer resurslaridan ularning potentsial imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanishga qaratilgandir. Bunday baholashni qiyosiy baholash deyiladi. Yerni iqtisodiy baholash ma'lumotlari asosida kadastr kartalari tuziladi. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish unga ishlov berishni yaxshilash hisobiga uning ball bonitetini oshirib borishga bevosita bog'liqdir.

## **Qisqacha xulosalar**

Melioratsiyaning asosiy roli shundaki, u tuproq bilan suv, o'simlik bilan atmosfera o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik murakkab kompleksini optimal hal qilishga, ya'ni asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning tubdan yaxshilanishiga qaratilgandir.

Yerlarni melioratsiyalash - qishloq xo'jaligini intensivlashning asosiy kapital yo'nalishidir. Melioratsiya yerdan foydalanish samaradorligini oshirib, dehqonchilikni intensivlash chegalarini kengaytiradi, qishloq xo'jaligini intensivlashning boshqa omillari oshishi uchun sharoit yaratadi va bu bilan dehqonchilik madaniyati yuksalishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlar haydov yerkari va ko'p yillik daraxtlar maydonining 10 foizini egallagan bo'lib, dehqonchilik yalpi mahsuloti qiymatining 94 foiziga yaqinini beradi. Melioratsiyalash ishlariga katta miqdorda mablag' ajratilishi bilan bir vaqtida, melioratsiyalangan yerkarning bir foizga yaqini har yili foydalanilmay qolmoqda.

Keyingi yillarda respublikadagi sug'oriladigan yerkarning 50 foizdan ko'prog'i meliorativ holati yomonlashgan yerkarga aylanib qolmoqda, sho'r bosgan yerkarning ulushi yildan yilga ko'payib bormoqda.

### **Tayanch iboralar**

Yer fondi, yer resurslari, yerning hududiy cheklanganligi, tuproq unumdarligi, yerning ball boniteti, bonitrovkasi, yer kadastr, yer kodeksi, yer kategoriyalari, yerdan foydalanish samaradorligi, yerdan ekstensiv va intensiv foydalanish, samara, samaradorlik, tuproq eroziyasi, kompensatsiya, liman usulida yer sug'orish, yerni iqtisodiy baholash, differentsiyal foyda, sof foyda.

### **Tayanch so'zlar**

Melioratsiyalangan yerlar, qishloq xo'jaligini ekstensiv va intensiv rivojlantirish, kapital qo'yilmalar, meliorativ xarajatlar, melioratsiyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi, irrigatsiya-melioratsiya tizimlari, texnika taraqqiyoti, tomchilatib sug'orish, meliorativ tizimlarni avtomatlashtirish va telemexanizatsiyalashtirish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yer fondi ishlab chiqarish vositasi sifatida qanday tariflanadi?
2. Yer kategoriyalariga ta'rif bering.
3. Yerdan foydalanish samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari.
4. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.
5. Yer kodeksining va yer kadastrining mazmuni.
6. Tuproq bonitrovkasi va ball bonitetini aniqlash uslubi.
7. Yerni iqtisodiy baholash uslubi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Melioratsiyalashtirishning ahamiyati va mohiyati.
2. Melioratsiya qishloq xo'jaligini intensivlash omili.
3. O'zbekistonda melioratsiyalashtirish bosqichlari.
4. Melioratsiyalashtirishning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishiga ta'siri.
5. Melioratsiyalashtirishning turlari.
6. Yerlarni melioratsiyalashning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati.
7. O'zbekiston Respublikasi bo'y lab melioratsiyalangan yerlarni joylashishi.
8. Gidromeliorativ tizimlarni rekonstruktsiyalash.
9. Melioratsiya ishlarini rivojlantirishda texnika taraqqiyotini roli.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari. Toshkent, «Adolat», 1999.
2. I.A.Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va resurslardan samarali foydalanish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil yakunlariga bag'ishlangan majlisda so'zlangan nutq. «Halq so'zi» gazetasi, 2002, 21 fevral.
3. A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
4. A.Abdug'aniyev. O'tish davrida yer munosabatlari. Toshkent, TDIU, 1997.
5. A.S.Sultonov «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti», ma'ruzalar matni, TIMI, 2005.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1993.
2. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi qanday tashkil qilinadi. Davlatlararo suv xo'jaligini koordinatsiyalash komissiyasining ilmiy axborot markazi. 2003.
3. A.S.Sultonov «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti», ma'ruzalar matni, TIMI, 2005.

## **II Bob. Suv resurslari va ulardan halq xo'jaligida foydalanish**

### **2.1. Suv resurslarining roli va ulardan halq xo'jaligida kompleks foydalanish**

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda suv resurslari g'oyat katta rol o'ynaydi. Suv resurslari tabiat resurslari orasida alohida o'rinni tutadi va ahamiyatiga ko'ra beqiyosdir. Suv halq xo'jaligining barcha tarmoqlarida va aholining hayot faoliyatida ishlataladi. Bunda tabiiy resurslardan foydalanish harakteri va turlari xilma-xildir. Ayniqsa sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish mamlakat iqtisodini mustahkamlashda alohida o'rinni tutadi. Shuning uchun ham halqimiz orasida «Suv bor-hayot bor, suv tamom bo'lган joyda hayot tugaydi» deb beziz aytishmagan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarini suv bilan ta'minlab turadigan asosiy suv zaxiralari Chotqol, Pomir-Oloy va Tyanshan tizma tog'larida joylashgan, ular doimiy muzliklar shaklidadir. Markaziy Osiyo davlatlari suv zahiralarining 70-80% Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlarini tog'li o'lkalari hududlarida joylashgandir. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining Orol dengiz havzasiga qarashli qismida 8 mln. hektar atrofida yer sug'oriladi. Huddi shu hududda bir yilda ichimlikka va sug'orish uchun yaroqli 126 mlrd. m<sup>3</sup> suv paydo bo'ladi. Bu hududda paydo bo'ladigan suvning hajmi har bir hektar sug'oriladigan yer hisobiga 15750 m<sup>3</sup> dan to'g'ri keladi. Agarda bir hektar yerga paxta ekib, undan o'rtacha 25-30 sentner hosil olinadigan bo'lsa, bir hektar yerni sug'orish uchun manbadan olinadigan suvning hajmi kamida 10 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqib hulosa qilinadigan bo'lsa bu xududlarda juda ko'p suv sarf qilish evaziga dehqonchilik qilinadi, masalan, O'zbekiston Respublikasida bir yilda o'rtacha 60 mlrd. m<sup>3</sup> suv iste'mol qilinadi, shundan 50 mlrd. m<sup>3</sup> sug'orma dehqonchilik uchun sarflanadi. Har bir hektar sug'oriladigan yerga o'rtacha 11-12 ming m<sup>3</sup> suv sarflanadi.

O'zbekistonning o'z hududida tashkil bo'ladigan suvning umumiy hajmi 8-10 mlrd. m<sup>3</sup> dan oshmaydi, ya'ni, har bir hektar sug'oriladigan yer hisobiga tahminan 1000 m<sup>3</sup> suv barpo bo'ladi. Bundan kelib chiqib hulosa qiladigan bo'lsak—O'zbekiston yarim sahro va sahro mintaqasida joylashganligi sababli o'z hududida suv tanqisligi o'ta kuchli hisoblanadi. Demak, mamlakatimizda iste'mol qilinadigan suvning 80% dan ko'prog'i Qirg'iziston va Tojikiston hududidan oqib keladi. Mamlakatimiz hududida suv bilan ta'minlashganlik darajasini quyidagi 2.1-jadval yordamida ko'rish mumkin.

2.1-jadval

### **Viloyatlar bo'yicha yer va suv bilan ta'minlanganlik darajasi**

Viloyatlar	Aholi jon boshiga to'g'ri keladi		1 hektar sug'oriladigan yerga to'g'ri keladi, ming m <sup>3</sup>
	Sug'oriladigan yerlar, ga	Suv resurslari, ming m <sup>3</sup>	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,31	5,2	16,6
Andijon	0,12	1,36	16,5
Buxoro	0,18	2,83	14,7
Jizzax	0,29	3,06	9,0
Qashqadaryo	0,21	2,81	11,1
Navoiy	0,15	2,71	13,4
Namangan	0,11	1,55	9,4
Samarqand	0,13	1,41	9,8
Surxondaryo	0,17	2,27	14,1
Sirdaryo	0,43	5,27	10,5
Toshkent	0,16	1,30	8,8
Farg'ona	0,13	1,64	12,6
Xorazm	0,19	3,35	18,5
JAMI	0,17	2,24	12,2

Suvning mamlakat hududi bo'yicha taqsimlanishidagi notekislik uning mavsumiy tebranishlari tufayli kuchayib boradi. Suv balansi va uning yil, fasllari bo'yicha taqsimlanishiga daryolarning suv bilan ta'minlanish xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz ko'pchilik daryolari uchun asosiy manba tog'lardagi qordir. Bunday rayonlarda asosiy suv oqimi bahor fasliga to'g'ri keladi. Amudaryo va Sirdaryo uchun asosiy suv manbai muzliklar hisoblanadi, suvning katta qismi yoz faslida oqadi. Daryo suvlarining yil fasllari bo'ylab noqulay taqsimlanishi suv resurslaridan foydalanishni qiyinlashtiradi va xo'jalik balanslarida tanglikni vujudga keltiradi. Chuchuk suv tanqisligi suv resurslarning asosiy qismi ekinlarni sug'orishga ketadigan qurg'oqchil mintaqada ayniqsa keskin seziladi. Suv tanqisligini qisqartirish, ta'minotini yaxshilash maqsadida Orol dengizi havzasida qator suv omborlari va

bir qancha yirik kanallar qurildi. Bularga suv sig'imi 20 mlrd. m<sup>3</sup> keladigan Norin daryosiga qurilgan Toktagul suv ombori, har biri 2 mlrd. m<sup>3</sup> suv sig'diradigan Andijon va Chorvoq suv omborlari, 4 mlrd m<sup>3</sup> hajmiga ega Qayraqqum suv ombori, 3,75 mlrd m<sup>3</sup> suv sig'diradigan «Chordora» suv ombori Sirdaryo havzasida, 10 mlrd. m<sup>3</sup> hajmiga ega bo'lган Amudaryo havzasidagi Nurak va Tuyamuyun suv omborlari, 2 mlrd. m<sup>3</sup> suv sig'imiga ega bo'lган Talimorjan suv omborining qurilishi butun Orol dengizi havzasida tashkil topadigan suv tanqisligini birmuncha yumshatilishiga olib keladi. Mamlakat viloyatlarida suv ta'minotini yaxshilash maqsadida bir qancha yirik kanallar qurildi. Bular jumlasiga «katta Farg'ona», «katta Andijon», «katta Namangan» kanallari Farg'ona vodiysida, «Janubiy Mirzacho'l» kanali Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, «Parkent» va «Toshkent» kanallari Chirchiq daryosi vohasida qurildi.

Amudaryo vohasida «Qarshi magistral» kanali, Amu-zang Amubuxoro kanali, Qoraqum va boshqa qator kanallar qurildi.

Bularning hammasi qishloq xo'jaligini, energetikani, sanoat va halq xo'jaligining hamma tarmoqlarida mavjud suv zahiralarini tartibga solish va ulardan to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yishiga qaramasdan tarmoqlarni suv bilan ta'minlashni uddasidan chiqq olmayapti. Shuning uchun ham sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi taraqqiyotining yuksak sur'atlar bilan rivojlanishining ichki rayonlarning iqtisodiy rivojlanishiga jalb etilishi yer usti suv zahiralaridan ancha oqilona foydalanish va ularni qayta taqsimlashni yaxshi yo'lga qo'yilishini talab etadi. Buning uchun esa suv xo'jaligi tadbirlarini hal etishda kompleks yondoshuv zarur bo'ladi. Suv resurslaridan kompleks foydalanish nafaqat daryolar, havzalari bo'yicha balkim viloyatlar bo'yicha ham ko'rib chiqilishi kerak. Bunda tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lган suv resurslari moddiy tabiiy resurslarni oqilona ixtisoslashtirish hamda ulardan samarali foydalanish asosida halq xo'jalik tarmoqlarini hudud jihatdan tashkil etishni shartlaydi.

Suv resurslarning vujudga kelayotgan tanqisligi sharoitida suvga bo'lган ehtiyojni qondirishning mintaqqa ko'lqidagi tavsiyalarni ishlab chiqish suv xo'jaliga kompleksining asosiy vazifasidir. Mantaqa suv resurslardan kompleks foydalanish tarmoqlaridan har birida suvni asosli tarzda taqsimlash maqsadida tuzilgan suvdan oqilona foydalanishning yagona tarmoqlararo sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi. Deyarli, barcha yirik havzalarda suv xo'jaligini rivojlantirish xolatini va istiqbollarini xarakterlovchi suv xo'jaligi sxemalari mavjuddir.

Orol dengizi suv havzasi chuchuk suvlarning katta zahiralariga ega bo'lib, suv resurslari umumiy mintaqalari bo'yicha dunyoda oldingi o'rirlarda turadi. Suv resurslarining asosiy qismi daryolar suviga to'g'ri keladi. Daryolar suvining o'rtacha ko'p yillik kattaligi yiliga 126 mlrd m<sup>3</sup>ni tashkil etadiki, bu kishi boshiga yiliga 17 ming m<sup>3</sup> suv to'g'ri keladi. Suvlarning ko'pgina resurslari yirik tog' muzliklari va yer osti havzalaridadir. Chuchuk va kam mineralli yer osti suvlarining ishlataladigan resurslari 65 km<sup>3</sup> dir.

Lekin suv resurslari Orol dengizi hududida juda notekis taqsimlangan. Ularning 80% ga yaqini hozircha kam o'zlashtirilgan va qishloq xo'jaligi tabiiy yog'inlar hisobiga rivojlanan oladigan tog'li sharqiy rayonlarga to'g'ri keladi. Ayni vaqtida aholi sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning 80% joylashgan g'arbiy va janubiy rayonlardi suv resurslarining 12% iginan to'g'ri keladi.

Sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini intensivlash darajasining yuksalishi, aholi sonining o'sishi bilan chuchuk suv iste'moli yil sayin oshib bormoqda. 1950 yilda umumiy suv olish mamlakat bo'yicha 40 km<sup>3</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, 1960 yilda 50 km<sup>3</sup> ni. 1970 yilda 55 km<sup>3</sup> ni, 1980 yilda 57 km<sup>3</sup> ni, 1985 yilda 60 km<sup>3</sup> ni, va 2002 yilda esa 56 km<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Suv sarfi jadal sur'atlarda ko'payib bormoqda, 50 yil ichida u 1,5 marta o'sdi. Yaqin kelajakda suvga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi.

Viloyatlar bo'yicha aholi jon boshiga va qishloq xo'jalik yerlari birligiga hisoblaganda suv resurslari bilan ta'minlanganlik 2.2-jadvalda keltirilgan.

## 2.2-jadval

### Yer va suv resurslari bilan ta'minlanligi

(2005 yil)

Viloyatlar	Aholi jon boshiga to'g'ri keladi		Suv resurslari bir gektar qishloq xo'jalik yerlariga to'g'ri keladi, ming m <sup>3</sup>
	qishloq xo'jalik yerlari, gektar	suv resurslari, m <sup>3</sup>	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,38	5214	1,5
Andijon	0,11	1363	12,6
Buxoro	1,94	2834	1,5
Jizzax	1,20	3065	2,5
Qashqadaryo	0,94	2817	3,0
Navoiy	12,56	2715	0,2
Namangan	0,15	1556	10,5
Samarqand	0,46	1413	3,0
Surxondaryo	0,62	2272	3,6

Sirdaryo	0,44	5278	10,5
Toshkent	0,31	1303	4,1
Farg'ona	0,11	1640	12,6
Xorazm	0,28	3350	11,8
JAMI	1,03	2242	2,1

Suvning hudud jihatdan taqsimlanishidagi tengsizlik uning mavsumiy va yillik tebranishlari tufayli kuchayib bormoqda. Suv balansi va uning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishiga daryolarning suv bilan ta'minlanishi xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz ko'pchilik daryolarini suv bilan ta'minlanishning asosiy manbai qor ko'rinishidagi yog'inlardir. Bunday rayonlarda asosiy suv oqimi bahor fasliga to'g'ri keladi. Muzliklardan suv bilan ta'minlanadigan daryolar havzalarida suvning katta qismi yoz fasliga to'g'ri keladi. Daryo suvining yil fasllari bo'yicha bunday tengsizligi suv resurslaridan foydalanishni qiyinlashtiradi va suv xo'jaligi balanslarida tanglikni vujudga keltiradi. Chuchuk suv tankisligi suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishga ketadigan qurg'oqchilik mintaqasida ayniqsa keskin seziladi.

Istiqlol yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishda tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi, ko'pdan ko'p yirik gidrouzellar qurildi, ulkan suv omborlari va katta kanallar barpo etiladi.

Suv resurslarini qayta taqsimlash maqsadida g'oyat ko'p suv oqiziladigan Qarshi magmstral kanali, Amu-Buxoro, katta Farg'ona, katta Andijon, katta Namangan, Do'stlik, Janubiy Mirzacho'l va boshqa ko'plab kanallar qurildi.

Orol dengizi havzasida jami sig'imi  $72 \text{ km}^3$  ni tashkil etadigan 105 yaqin suv omborlari barpo etildi. Ular orasida daryolarning kafolatlangan suv oqimini 20-25% oshirish imkonini beradigan  $52 \text{ km}^3$  foydali umumiy hajmli 10 dan ko'prok yirik suv omborlari bor.

Bularning hammasi energetikani rivojlantirishga qo'shilgan katta hissa bo'ldi, tartibga solingan suvlar mintaqasini ko'paytirdi va ulardan foydalanishni puxta yo'lga qo'ydi. Biroq sanoat va qishloq xo'jaligi taraqqiyotining yuksak sur'atlari, yangi rayonlarning iqtisodiy rivojlanishga jalb etilishi yer usti suv zahiralaridan ancha oqilona foydalanish va ularni qayta taqsimlashni talab qilmoqda. Daryo suvlarini qayta taqsimlashning hozirgi darajasi halq xo'jaligining barcha ehtiyojlarini qondirmayotir. O'rta Osiyo respublikalarida, Qozog'istonda katta suv tanqisligi kuzatilmoqda.

Suv resurslaridan halq xo'jaligining ko'p sohalarida boshqa ko'p maqsadlar uchun ham foydalilanadi, shuning uchun suv xo'jaligi tadbirlarini hal etishda kompleks yondashuv hisobga

olinadi. Suv resurslaridan kompleks foydalanish iqtisodiy region yoki daryo havzasiga nisbatan qarab chiqiladi. Bunda tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lgan suv resurslari moddiy va tabiiy resurslarni oqilona ixtisoslashtirish hamda ulardan samarali foydalanish asosida halq xo'jalik tarmoqlarini hudud jihatdan tashkil etishni shartlaydi.

Suv resurslarining vujudga kelayotgan tanqisligi sharoitida suvga ehtiyojlarni qondirish bo'yicha region ko'llamidagi tavsiyalarni ishlab chiqish suv xo'jaligi kompleksi (VXK)ning asosiy vazifasidir. Region suv resurslaridan kompleks foydalanish tarmoqlardan har birida suvni asosli tarzda taqsimlash maqsadida tuzilgan suvlardan oqilona foydalanishning yagona tarmoqlararo sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi. Deyarli barcha yirik havzalarda suv xo'jaligi sxemalari mavjuddir.

Suv bilan ta'minlash, sug'orish gidroenergetika, kemalar qatnovi, baliq xo'jaligi va boshqalar suv xo'jaligi kompleksining asosiy qismlaridir.

Suv bilan ta'minlash-bu, suvni iste'molchilarga yetkazib berishdir. Region ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi, mehnat resurslarining mavjudligi va joylashishi suv ta'minoti bilan bog'liq bo'ladi. Suv bilan ta'minlash suvning sifatiga suv xo'jaligi kompleksining boshqa turlariga bo'lganidan ko'ra yuqoriroq talablar qo'yadi. Suv ta'minotining quyidagi turlari farq qilinadi: kommunal, sanoat, qishloq xo'jalik, temir yo'l va hokazo suv ta'minoti. Har qaysi suv ta'minoti turi o'z xususiyatlariga egadir.

Uy-joy qurilishining katta ko'lamlari communal va suv sporti inshootlarining barpo etish aholi punktlarini suv bilan ta'minlash manbalari quvvatini keskin oshirishni talab etadi. Hozirgi vaqtda communal maishiy xo'jalik olinayotgan jami suvning 6% idan ko'prog'ini iste'mol qilmoqda.

Suvning talay qismidan sanoatda foydalaniladi. 1 tonna po'lat ishlab chiqarish uchun mamlakat bo'yicha o'rtacha  $350\text{ m}^3$  suv iste'mol qilinadi. Temir qotishmalari zavodlaridagi suv iste'moli 1 tonna mahsulot hisobida qariyb  $800\text{ m}^3$  ni tashkil etadi. 1 tonna ipak tayyorlash uchun  $1200\text{ m}^3$  suv 1 tonna kapron tola ishlab chiqarish uchun esa  $2500\text{ m}^3$  suv kerak bo'ladi. 1998 yilda olinadigan butun suvning 25% i sanoat suv ta'minotiga sarflanadi.

Qishloq xo'jaligi mamlakatimizdag'i barcha suv iste'molchilari orasida alohida o'rincutadi. Iste'mol qilinadigan chuchuk suvning  $50\text{ km}^3$  uning hissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p suv sug'orishga ketadi. Ham umumiy, ham ulushli suv iste'moli sug'orishning asosiy xususiyatidir. Sug'orishga har yili  $45-50\text{ km}^3$  suv yoki olinadigan butun suvning 80% idan ko'prog'i ketadi. Bunda Farg'ona vodiysi viloyatlari hissasiga mamlakatda iste'mol qilinadigan

sug'orish suvining 18%, Toshkent viloyati hissasiga 6,2%, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hissasiga 10,5%, Zarafshon vodiysi viloyatlari hissasiga 17,0%, quyi Amudaryo viloyatlari hissasiga 25,5%, Qashqadaryo, Surxondaryoga 19,5% to'g'ri keladi. Kelajakda qishloq xo'jaligi uchun suv olish tahminan 1,2 baravar ko'payadi.

Olinadigan butun suvning 70% dan ko'prog'i qaytmas tarzda iste'mol qilinadi. Bunda sug'orishda suvni qaytmas tarzda iste'mol qilishga olinadigan suvning 85% iga yaqini sarf bo'ladi, vaxolanki kommunal xo'jalikda 16% i sanoatda esa 9% i sarf bo'ladi. Toza suvning ko'p qismi ifloslangan suvlarga qo'shishga va ular iflosligi darajasini yo'l qo'yish mumkin bo'lgan kontsentratsiyagacha pasaytirishga sarflanadi.

Yer ustida oqadigan suvlardan foydalanish bilan birga yer osti suvlariga ham katta e'tibor beriladi. Yer osti suvlaridan foydalanish hisobiga suv chiqariladigan o'tloqlar shuningdek sug'oriladigan yerlar maydonlarini kengaytirish mumkin. Hozirgi vaqtida yer osti suvlar bilan sug'oriladigan yer maydonlari jami sug'oriladigan yerlar maydonning 0,5% ini tashkil etadi.

Suv xo'jaligi kompleksining asosiy qismlari suv resurslariga turlicha talablar qo'yadi. Suv gidroenergetika uchun energiya manbai bo'lishi mumkin. Bu energiya esa sun'iy ravishda qurilgan yoki tabiiy suv tushirgichda hosil qilinishi mumkin. Suv transporti uchun suvdan foydalanishdagi asosiy narsa-novigatsiya davrida zarur chuqurlikni ta'minlashdir. Baliq xo'jaligida baliqni takror ishlab chiqarish va urchitish uchun xovuzlargina emas, balki ko'p xollarda daryolar suv oqimining muayyan rejimi ham kerak bo'ladi. Baliqni tabiiy qayta ishlab chiqarish uchun har yili bahor toshqinlari zarur.

Suv muammosi uchta yo'l bilan hal qilinadi. Birinchidan, daryo suvini to'la tartibga solish kerak. Daryo suvi suv omborlari qurish yo'li bilan tartibga solinadi. Suv omborlari qurish ko'p maqsadlarni ko'zlaydi. Bu qurilish suv ta'minotini yo'lga qo'yishi daryolar suvini tartibga solishi, energiya resurslaridan foydalanishni ta'minlashi, sug'orish va suv chiqarishni rivojlantirish, transport magistrallarini yaratilishi, baliq xo'jaligini rivojlantirish va hamda suv toshqinlari oldini olish kerak.

Ikkinchidan, bu qurilish suv havzalari o'rtasida suvni qayta taqsimlash yo'li bilan suv resurslari haddan ziyod bo'lган rayonlardan ularning anchagini qismini suv xo'jalik rayonlarga olib borish imkonini beradi. Suv resurslarini xudud bo'yicha qayta taqsimlash ishlari mamlakatimizda ko'p vaqtdan buyon o'tkazib kelinadi. Hozirgi vaqtida Amudaryo

suvining bir qismi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlariga yetkazib berilmoqda. Kelgusida bu kanallar Qizilqum ichiga kirib boraveradi.

Uchinchidan har bir havza ichida suvni tejab sarflashga qaratilgan suv xo'jaligi va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu tadbirlarga suv xo'jaligi tizimlarini qayta tuzish, oqova suvlardan takroran foydalanish, yangi texnikani, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan suv iste'molchilar o'rtasida bozor munosabatlarini joriy qilish kiradi.

Suv resurslaridan kompleks foydalanish suv xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini ancha oshiradi. Bu holda suv xo'jaligi tadbirlariga tor idoraviy yondashuvga chek qo'yiladi, ularning halq xo'jalik ahamiyati to'la hisobga olinadi, suvlarni ifloslanish va tugab qolishdan saqlash bo'yicha talablarga albatta rioya qilinadi.

## **2.2. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi**

Yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida suv bilan birligida amal qiladi. Suv esa qishloq xo'jalik mahsuloti hosil bo'ladi muqarrar omildir. Yer optimal namga ega bo'lgandagina unumdon bo'ladi va yuqori hosil olinishini ta'minlaydi. Hosil yetishtirish uchun qaytmas tarzda sarflanadigan juda ko'p suv kerak bo'ladi. O'simlik o'sishi davrida har bir gektar maydon tuprog'idan minglab tonna suv atmosferaga chiqariladi. Mahsulot hosil bo'lishi uchun yuzlab kubometr suv o'simliklar orqali o'tib, bug'lanishi kerak. Masalan 1 tonna kartoshka hosili yetishtirishda, suvga ehtiyoj  $1500\text{ m}^3$  ni, kuzgi bug'doy yetishtirishda  $600\text{ m}^3$  ni paxta yetishtirishda  $3000\text{ m}^3$  ni, sholi yetishtirishda  $13500\text{ m}^3$  ni tashkil etadi.

Madaniy o'simliklar me'yorda rivojlanishi uchun tuproqning o'sish davridagi namligi 70-75% ni tashkil qilish kerak. Hududning katta qismida esa bundan anchagini pastdir. Tuproq namligining kamligi yoki ortiqchaligi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi darajasiga salbiy ta'sir etadi. Tuproq suv rejimini tuproq aktiv qatlamida namlik aktiv balanslarini hosil qilish va uni butun o'sish davrida saqlab turishga qaratilgan melioratsiya tadbirlari yordamidagina tartibga solib turish mumkin. Tuproq suv rejimining to'la tartibga solinadigan turini texnologik jihatdan mukammal sug'orish tizimlarigina ta'minlay oladi.

Qishloq xo'jaligida sug'oruv suvidan foydalanish yerdan foydalanish bilan uzbek bog'liqdir. Suvning iste'mol qiymati sug'orma dehqonchilikning pirovard natijalari hisobga olingan holdagina ko'rib chiqilishi mumkin. Ishlab chiqarish vositasi bo'lgan suvning qiymati ishlab chiqarish jarayonidan ajratilsa yo'qoladi.

Sug'orish manbalaridan olingan sug'oruv suvi o'z xususiyatiga egadir. Bu suv belgilangan muddatda va kerakli miqdorda muayyan uchastkaga yuborilishi kerak. Bu shartlarni bajarmaslik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sug'oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati kam xarajatlar bilan sug'oruv suvi burligiga eng ko'p mahsulot olishdadir. Bunga turli xil texnologik, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan erishiladi.

Sug'orma dehqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar xarakterlab beradi.

- sug'orish tizimining foydali ishlashi koeffitsiyenti
- sug'orish tizimida suvdan foydalanish koeffitsiyenti
- sug'oruv suvining unumidorligi

Qishloq xo'jaligida suvning ko'pgina qismi qaytmas tarzda sarflanishi qayd qilib o'tildi. Suvning qaytmas tarzda iste'mol qilinishi sabablaridan biri uning irrigatsiya tizimlarida shimalishi va bug'lanishi natijasida yo'qotilishidir. Bu yo'qotilishlar iste'mol qilinadigan hamma suvning 20-25%ni, goho esa 40% ni tashkil etadi.

Suvning yo'qotilishi sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsiyenti (KPD)da aks etadiki, bu maydonga oqib boradigan suvning ( $W_{n-t}$ ) muayyan davr (dekada, oy, o'sish davri) ichida sug'orish manbalaridan ( $W_{br}$ ) olingan suv miqdoriga nisbatidir.

$$KPD_s = \frac{W_{nt}}{W_{br}}$$

Suv olish hajmi bilanberilgan suv o'rtasidagi farq shimalishi va bug'lanishga ketgan yo'qotishlarni tashkil etadi.  $[(1-KPD)*100]$  ifodasi bo'yicha tizimdagi suv yo'qotishlar foizi aniqlanadi.

Sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsiyentiga xo'jaliklararo shaxobcha (KPD m.x.) va xo'jalik ichidagi shaxobcha (KPD<sub>vx</sub>) kiradi va bu ifoda quyidagicha aniqlanadi.

$$KPD = KPD_{mx} * KPD_{vx}$$

Foydali ishlash koeffitsiyenti sug'orish tizimining texnika darjasini, tuproq xarakteri, relef va hokazolarga bog'liq bo'ladi. U har bir tizim uchun yil davomida o'zagarib turadi.

Bunda u yerli o'zanlarda kanallari bo'lgan va gidrotexnik ishnootlar bilan kam jihozlangan sug'orish tizimlarida ancha ko'p tebranib turadi.

Respublika viloyatlari bo'yicha sug'orish tizimlari xo'jaliklararo shaxobchasing haqiqatdagi k.p.d. si ko'rsatkichlari 2.3-jadvalda keltirilgan.

2.3-jadval

### **Xo'jaliklararo sug'orish tizimlari foydali ishlashining koeffitsiyenti**

Viloyatlar	1997– 2000 yillar	2001–2005 yillar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,56	0,56
Andijon	0,66	0,66
Buxoro	0,58	0,58
Jizzax	0,80	0,80
Qashqadaryo	0,68	0,68
Navoiy	0,61	0,61
Namangan	0,69	0,69
Samarqand	0,64	0,64
Surxondaryo	0,77	0,77
Sirdaryo	0,66	0,66
Toshkent	0,66	0,66
Farg'ona	0,64	0,64
Xorazm	0,61	0,61

Suvning anchagina qismi xo'jaliklararo shaxobcha va kanallarida yo'qoladi. Umuman mamlakat bo'yicha xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichidagi shaxobchada sug'orish manbalaridan olingan butun suv hajmining 40% dan ko'prog'i yo'qoladi. Shuning uchun sug'orish tizimlari foydali ishlash koeffitsiyentining o'sishi suv tejashining muhim rezervidir.

Suvning shaxobchada yo'qolishi katta moddiy zarar keltiradi. Namning bevosita yo'qolishidan tashqari, uning shimilib ketishi yer osti suvlari ko'tarilishiga, tuproqlarni sho'r bosishiga, sug'oriladigan yerlar melioratsiya holati yomonlashishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari bu suvlarni sug'oriladigan uchastkalardan chetga oqizib yuborish uchun ko'p mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

Suvning dalalarda yo'qotilishi ham sodir bo'lib turadi: bunda suvning ma'lum qismi ildizlar o'sadigan qatlamdan pastga shimilib, yer osti suvlariga qo'shiladi, shuningdek maydonlar sirtidan bug'lanib ketadi.

Suvning umumiyo yo'qolishlari tizim suvlaridan foydalanish (KIVS)ni koeffitsiyentida aks etadi. Bu koeffitsiyent o'simliklarning maydonlardagi suvni foydali iste'mol qilishining sug'orish manbalaridan olingan suv miqdoriga nisbatidir.

$$KIVS = Ye \cdot F / Wbr$$

bunda:

Ye – qishloq xo’jalik ekinlarining muayyan vaqt ichida foydali suv iste’mol qilishi,  $m^3$  ga  
F – sug’oriladigan maydonga

Wbr – sug’orish manbaidan olingan suv miqdori,  $m^3$

Tizimdagи suvdan foydalanish koeffitsiyenti o’simliklar hosil yaratish uchun sug’orish manbaidan olingan suvning qanchasini iste’mol qilishini,  $[(1-KIVs) \cdot 100]$  ifodasi tizim va daladagi suv sarfining umumiyl foizini ko’rsatadi. Sug’oruv suvining umumiyl yo’qolishlari sug’orish tizimlaridagi suvdan ularni texnika jihatdan ishlatishni yaxshilash hisobiga oqilona ishlatish rezervlari mayjudligini ko’rsatadi. Sug’oruv suvidan foydalanish unumdorligining ko’rsatkichi suvdan foydalanish samaradorligining umumlashuvchi ko’rsatkichidir. Sug’oruv suvidan foydalanish unumdorligi (POV) ko’rsatkichi esa tabiiy yoki qiymat ko’rinishida (AVP) ishlab chiqarilgan mahsulotning sug’orish manbai (Wbr) dan olingan suvning umumiyl hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$POV = AVP / Wbr$$

Suv tanqis bo’lgan qurg’oqchilik rayonlarida yer maydoni gettaridan emas, balki  $1 m^3$  suv hisobiga eng ko’p mahsulot olish vazifasi qo’yiladi.

Sug’oruv suvi unumdorligining ko’rsatkichi sintetik ko’rsatkichidir. U tuproqning mahsulot ishlab chiqarish hajmida ifodalanadigan iqtisodiy unumdorligi bilan chambarchas bog’liqdir. Bu ko’rsatkich qishloq xo’jalik korxonalarining xo’jalik faoliyati va sug’orish tizimlarini ishlatish darajasini xarakterlab beradi.

Sug’oruv suvidan oqilona foydalanish muammosi hozirgi vaqtida favqulotda ahamiyat kasb etmoqda. Sug’orish texnikasini takomillashtirish va mavjud tizimlarni rekonstruktsiya qilish bo’yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Sug’orish tizimlarining texnika darajasini oshirish (tizimlarini gidrotexnika va suv o’lchagich inshootlari bilan jihozlash, kanallarga shimalishga qarshi qoplamlar o’rnatish, yopiq truboprovodlar qurish, sug’orishning ilg’or usullarini qo’llash) yer va suvdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi.

## **2.3. Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish samaradorligini oshirish tadbirlari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tabiiy resurslardan va xususan suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Suvni muhofaza qilish choralari noto'g'ri harakatlar yoki tadbirlarni to'xtatishgagina emas, balki asosan suv resurslari ifloslanishi va tugab qolishi oldini olishga qaratilgandir. Hovuzlardagi turli xil ingrediyentlarning yo'l qo'yiladigan yig'indilari me'yorlari mavjud. Ular suvdan xo'jalik va maishiy ehtiyojlar uchun kishilar sog'lig'iga zarar yetkazmay foydalanishga qaratilgan.

Halq xo'jaligi iqtisodiyotining tez o'sishi va shahar qurilishining rivojlanishi bilan suvga ehtiyoj ko'payadi. Bu esa suvdan oqilona foydalanish va uni muxofaza qilishning ahamiyatini oshiradi.

Sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligining industrial negizga o'tkazilishi va kommunal-maishiy xo'jalikning o'sishi ishlatilgan suvlar hajmi ko'payishiga olib keladi. Ishlatilgan suvlarni ajratish suv muhitini ifloslanishining asosiy sababidir.

Xovuzlar kislorod mintaqasini ancha yomonlashtiradigan ko'k-yashil suv o'tlarining rivojlanishi natijasida suv omborlaridagi suvlar sifati yomonlashmoqda. Daryolarga iliq suvlarni oqizish va qishloq xo'jalik yerlari o'g'itlari qoldiqlarini tashlash, ko'k-yashil suv o'tlari o'sishi sabablaridan biridir.

Qishloq xo'jaligini ximizatsiyalash suv manbalarining zaharli ximikat va o'g'itlar bilan bevosita ifloslanishga olib keladi. Bu ximikat va o'g'itlar daryolarga tuproq yer osti va sug'orish tizimlarining drenaj suvleri bilan birga tushadi. Bu narsa sug'orma sholikorlik tizimlarida ko'proq uchraydi.

Xovuzlarning oqova suvlar bilan ifloslanishi halq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Xukumatimiz suv resurslari muhofazasi bo'yicha bir qancha choralar belgilaganlar. 1996 yilda Vazirlar Mahkamasi «mamlakat suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ular muhofazasini kuchaytirish choralari to'g'risida» qaror qabul qildi. 1997 yilda Suv muammolari instituti tuziladi. 1996 yilda O'zbekiston Oliy Majlisi suv to'g'risidagi qonunni tasdiqladi. Davlat bu qonun bilan suv resurslari umum halq boyligi va ulardan oqilona foydalanish hamda ularni ifloslanishdan muhofaza qilish-davlat ahamiyatiga ega ish ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Qonunda aholining xo'jalikning-ichish ehtiyojlari birinchi galda qondirilishi printsipi ta'kidlangan. Bu har qanday xo'jalik faoliyati axolini toza suv bilan me'yor ta'minlashga to'siq bo'lmasligi kerakligini bildirdi.

Suv to'g'risidagi qonunlar asoslarida markaziy muammolardan biri bo'lgan suv resurslari muhofazasi juda muhim o'rinni tutadi. Xovuzlar ifloslanishi oldini oladigan tozalash inshootlariga ega bo'limgan ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish qonun yo'li bilan ta'qilganadi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tartibga solib turuvchi davlat organi hisoblanadi. Vazirlikning suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari yuzasidan beradigan ko'rsatmalari idoraviy tobeklariidan qat'iy nazar barcha korxona, tashkilot hamda muassasalar uchun majburiydir.

Suvlarni tartibga solish va muhofaza qilishni nazorat qilish uchun Vazirlar Mahkamasi qoshida davlat suv nazorat inspeksiysi tuzilgan. Ular faoliyati mintaqasiga havzalarga yaqin iqtisodiy rayonlar bilan birga bir yoki bir nechta daryoning havzasi kiradi. Masalan Amudaryoni boshqarish boshqarmasi va Sirdaryoni boshqarish boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston va viloyatlar inspeksiysi.

Suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilish muammoi hozirgi vaqtda uch yo'nalishda hal qilinmoqda. Birinchidan, suvlarni tozalash ishlari qo'llamini kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Buning uchun tozalash va boshqa suv muhofazasi inshootlarini qurish sur'atlarining tozalanmagan oqova suvlardan tashlab yuborilishi o'shining sur'atlaridan orkada qolishiga barxam berish kerak.

Ikkinchidan, oqova suvlardan sug'orma dehqonchilikda foydalanish kengayib bormoqda. Shaharlar maishiy oqova suvlardan foydalanish uchun sug'orishning dehqonchilik maydonlari deb atalgan maxsus sug'orish tizimlari qurilmoqda, tuproq va o'stiriladigan ekinlar yordamida oqova suvlarning tabiiy bioximik to'la tozalanishi sodir bo'ladi. Bunday dalalarda sanitariya gigiyena muxofazalariga ko'ra asosan texnika va ozuqa ekinlari o'stiriladi.

Oqova suvlari bilan sug'orishning muayyan maqulligi bor. Bunda tuproq oqova suvlarni tozalabgina qolmay, balki hosildorlikni ham oshiradi. Tuproqqa nam bilan birga zarur ozuqa moddalari—azot, fosfor, kaliy va mikromoddalar kiradi. Bu moddalar oqova suvlarda yetarli miqdorda hamda o'simliklar uchun qulay shaklda mavjuddir. Bu narsa qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olinishini ta'minlaydi.

Kelajakda oqova suvlar bilan sug'oriladigan maydonlarni yirik shaharlar va sanoat markazlari atrofida ko'paytirish mo'ljallanmoqda. Bu chuchuk suvlarni tejashning qo'shimcha manbai, suv havzalari ifloslanishiga qarshi ishonchli kurash vositasi va qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishning muhim omili xizmatini o'taydi.

Uchinchidan, sanoat korxonalarida suvdan yopiq sikl bo'yicha qayta-qayta foydalanishga qaratilgan texnologik jarayonlar mutasil takomillashtirilmoqda. Ishlab chiqarishga suv bilan ta'minlashning yopiq tizimlarini joriy qilishga sanoatning ximiya, metallurgiya neftni qayta ishlash va boshqa tarmoqlarida katta ahamiyat berilmoqda. Suv ta'minotining yopiq jarayonlariga o'tish suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish muammosini ancha to'liq hal etish imkonini beradi.

Suv resurslarini ifloslanish va tugab qolishdan saqlash ulardan halq xo'jaligining barcha tarmoqlarida oqilona foydalanish kompleks dasturining tarkibiy qismidir.

### **Qisqacha xulosalar**

O'zbekiston Respublikasi har yili o'rtacha 60 mlrd m<sup>3</sup> suv iste'mol qiladi. Shundan 50 mlrd m<sup>3</sup> sug'orma dehqonchilik uchun sarflanadi. Har bir hektar sug'oriladigan maydonga 11-12 ming m<sup>3</sup> dan to'g'ri keladi. Viloyatlar bo'yicha suv taqsimoti har bir hektar hisobiga 9 ming m<sup>3</sup> (Jizzax viloyatida)dan 18,5 ming m<sup>3</sup> (Xorazm viloyati)gacha farq qiladi. Har 11-13 yilda bir marta ro'y beradigan suv tanqisligini oldini olish maqsadida Sirdaryo va Amudaryo suvlarini tartibga solish uchun ko'plab yirik suv omborlari barpo etilgan.

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi sug'orish tizimining foydalanish ish koeffitsiyenti, suvdan foydalanish koeffitsiyenti va sug'oruv suvining unumdarligi va har bir m<sup>3</sup> suv hisobiga olingan foydaning miqdori bilan o'lchanadi.

Suv manbalarini ifloslanishidan muxofaza qilish muammosi hozirgi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi. Bu muammoni yechish 3 yo'nalishda hal qilinmoqda: 1. Suvlarni tozalash ishlari ko'lami kengaytirilmoqda. 2. Oqova suvidan dehqonchilikda foydalanish kengayib bormoqda. 3. Sanoat korxonalarida suvdan yopiq sikl bo'yicha qayta-qayta foydalanishga qaratilgan tadbirlar qo'llanilmoqda.

### **Tayanch so'zlar**

Suv resurslari, suv taqsimoti, suv tanqisligi, suv xo'jaligi kompleksi, suv ta'minoti, suv havzasi, oqova suv, sug'orish tizimi foydali ish koeffitsiyenti, sug'orish shaxobchasi, xo'jaliklararo kanallar, suvdan foydalanish koeffitsiyenti, suvdan foydalanish unumdarligi, suvdan foydalanish samaradorligi, suvni muhofaza qilish.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Suv resurslarining halq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati.
2. Suv resurslarining manbalari bo'yicha joylashishi va davlatlararo taqsimoti.
3. Viloyatlar bo'yicha suv bilan ta'minlanganlik darajasi.
4. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi.
5. Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish samaradorligini oshirish tadbirlari.
6. Suv tanqisligining oldini olish va manbalardagi suvdan foydalanishni tartibga solish.
7. Suv ta'minotini yaxshilashda suv omborlaridan foydalanishning ahamiyati.
8. Yangi sug'orish texnikasi va texnologiyalarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami, Toshkent, «Sharq», NMK, 1998.
2. I.A.Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va resurslardan samarali foydalanish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil yakunlariga bag'ishlangan majlisda so'zlangan nutq. «Halq so'zi» gazetasi, 2002, 21 fevral.
3. A.S.Sultonov «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti», ma'ruzalar matni, TIMI, 2005.
4. A.S.Sultonov, U.Hoshimov. Qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib berilgan suv uchun sarflangan xarajatlarni hisoblash uslubi. WASHINGTON STATE UNIVERSITY. Iyulü, 1. 2006.

**III Bob. Suv xo'jalik tizimlaridan foydalanishni havzaviy usulga o'tkazish va ularning  
iqtisodiy samaradorligini  
oshirish tadbirlari**

**3.1. Suv xo'jaligi tizimini boshqarish va uni takomillashtirish**

Ùar qanday davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida isloùotlarni o'tkazish usul va yo'llarini - o'z tarixiy udumlarini va aniq shart-sharoitlarini, rivojlangan chet mamlakatlar tajribalarini ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi. An'analar va milliy xususiyatlarini ùamda mavjud tabiiy-iqtisodiy saloùiyatlarni e'tiborga olgan ùolda ishlab chiqishi lozim.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga utishning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyiliga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich Yangi bozor munosabatlariga o'tkaza borib, samarali bozor iqtisodiyotini chuqur bo'xronlarsiz va talofatlarsiz vujudga keltirish yo'li tanlandi.

Amalga oshirilayotgan agro-iqtisodiy siyosat natijasida O'zbekiston ijtimoiy larzalarsiz o'z iqtisodiy mustaqilligi sari ishonch bilan ilgarilab bormoqda.

Ma'lumki, respublikamizda bir necha o'n yillar moboynida iqtisodiyotda umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlat byurokratik tizimining ixtiyorida bo'lgan mulkka davlat ishtiroki to'liq ùukmronlik qilib keldi. Mulkchilikning shakllari faqat ikki turdag'i ya'ni: davlat mulki va kolxoz-kooperativ mulkidan iborat tizim rivojlantirildi. Aslida kolxoz-kooperativ mulki ùam amalda davlat ixtiyorida bo'lgan.

Demak, yer-suv resurslari va umuman barcha ishlab chiqarish vositalari davlatning tanùo ixtiyorida ùisoblangan. Bunday ùolat deùqon va meùnatkashlarning ishlab chiqarish vositalaridan maùrum bo'lishiga, mulkka egalik ùissiyotinining yo'qolishiga va natijada ishlab chiqarish samaradorligining muntazam pasayishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan ham, respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida agrar sektorda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, ko'plab vazirlik va idoralarni birlashtirgan, boshqarish nihoyatda murakkablashtirilib yuborilgan agrosanoat tizimiga barham berilib agrar sohada boshqaruvning Yangi tizimini shakllantira boshlandi. 1990 yilda «Qishloq xo'jalik vazirligi», «Melioratsiya va

suv xo'jaligi vazirligi» tashkil etildi. Sohalar bo'yicha esa aktsionerlik uyushmalari va birlashmalari tuzildi.

Keyinchalik bo'nday tashkilotlarning aksariyat ko'pchiligi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirilib, xolding kompaniyalari va aktsionerlik jamiyatilariga aylantirildi. Masalan, «O'zagrakimyota'minot» davlat aktsionerlik jamiyati, «O'zbek ipagi», uyushmasi, «Davlat yer tuzilmasi» qumitasi, «O'zagrosug'urta» davlat aktsionerlik sug'urta kompaniyasi, «O'zqishloqxo'jaliklizing» aktsionerlik lizing kompaniyasi tuzildi. «Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar egalari» uyushmasi «Dehqon va fermer xo'jaliklari» uyushmasiga «O'zbekiston qishloq xo'jalik Fanlar Akademiyasi», «O'zbekiston qishloq xo'jalik ilmiy ishlab chiqarish Markazi»ga aylantirildi. «Qishloq xo'jaligi» hamda «Melioratsiya va suv xo'jaligi» vazirliklari birlashtirib, «O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi» vaziriligi tashkil etildi.

O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkiliy tuzilmasi tarkibida «Qishloq xo'jalik birlashmalari», «Suv xo'jaligi xo'jalik birlashmalari, korxonalari va tashkilotlari», «Davlat boshqaruv va nazorat organlari» va «Ilmiy tadqiqot va o'quv muassalari» kabi boshqaruv bo'g'lnlari tashkil etildi hamda ularga tegishli birlashmalar, uyushmalar. Markazlar va ilmiy muassasalar birlashtirildi, shuningdek Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparati tarkibida: «Paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha kengash», «Donchilikni rivojlantirish bo'yicha kengash», «Sabzavot-poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash va rivojlantirish bo'yicha kengash», «Chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha kengash», «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va kimyolashtirish bo'yicha kengash» va «Yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantrish va yer unumdarligini oshirish bo'yicha kengash» lar tuzildi.

Ta'kidlash kerakki o'tkazilayotgan agrar iqtisodiy islohatlar jarayonida asosiy e'tibor qishloq va suv xo'jaligida boshqarish tizimini tokomillashtirish va yer-suv resurslaridan samarali foydalanish masalalariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida yer-suv resurslari nihoyatda cheklangan. Shuningdek uchun ham, yer-suv resurslarini butun chora-tadbir va usullarni qo'llagan holda tejab va samarali foydalanish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yetarli miqdordagi suv reserslarisiz ular xo'jaligini, shu jumladan qishloq xo'jaligini barqoror rivojlantirib bo'lmaydi.

Mavjud suv resurslari hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq ta'minlay olmaydi. Bundan tashqari Suv resurslarining aksariyat ko'p qismi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Mamlakatimizda mavjud suv resurslari davlat muhofazasidadir. Ular mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanmagan. Yer-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi O'zbekiston

Respublikasi Konstitutitsiyasining 55-moddasida «Yer-suv umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir» deb alohida qayd qilingan.

O'zbekiston hududidan oqib o'tadigan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarining suvlaridan halqaro shartnomalarga asosan foydaniladi. Biroq Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgan davrdan boshlab suv resurslarining tovar sifatidagi mavqe yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon respublikamizning qishloq xo'jaligidagi so'g'oriladigan yerkarta suv yetkazib berishda suv tansiqligini yuzaga keltirmoqda. 2004 yil ma'lumotlari ko'rsatishicha, mamkakat qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yer maydonlari 4132,4 ming hektarni tashkil qilib, aholi jon boshiga hisoblaganda 0,16 hektar to'g'ri keladi. Ayrim aholisi zinch joylashgan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatgich 0,12-0,13 hektardan iborat.

Ushbu sug'oriladigan yer maydonlarini sug'orish uchun 2004 yilda 50828,5 ming m<sup>3</sup> suv yetkazib berilgan yoki respublika bo'yicha bir hektar sug'oriladigan yer maydonini sug'orish uchun 12,3 ming m<sup>3</sup> suv yetkazib berilgan. Samarqand, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida bu ko'rsatgich 9,8-10,7 ming m<sup>3</sup> ni, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida 15,2-19,8 ming m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Binobarin, 2005 yilda sug'oriladigan yerkarda har hektar hisobiga bir yilda sarflanadigan suv miqdori 11 ming m<sup>3</sup> dan oshirmaslik ko'zda tutilgan. Suv tansiqligi sharoitida bu juda murakkab vazifa hisoblanadi.

Sug'oriladigan yerkarta sarflanayotgan suv miqdorining viloyat va xududlar bo'yicha har xil bo'lishi qator omillarga bog'liq. Ya'ni. sug'orish tizimlari va sug'orish suvlarining sifati ortiqcha yoki kam suv sarflashga olib keladi. Uar hektar sug'oriladigan yerkarta nisbatan kamroq suv sarflanayotgan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatining aksariyat hududlarida sug'orish suvlarining sifati yaxshi yoki ular tarkibidiv hosildorlikka salbiy ta'sir o'tkazuvchi turli xildagi minerallar kam.

Biroq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va qisman Buxoro viloyati hududlarida qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan suvlarning sifati nihoyatda yomon. Bunday holat qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari yerlar sho'rini yuvishga ortiqcha miqdorda suvlar sarf qilinadi. Shuning uchun ham istiqbolda yerlar unumdorligini oshirish, suvlar sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini samarali amalga oshirish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni yuksaltirish mumkin. Buning uchun esa qishloq va suv xo'jaligi tizimida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'la joriy qilishga erishish zarur.

O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarishning oldingi tarkibida jami 260 ta tashkilotlar faoliyat yuritgan bo'lsa amaldagi tarkib esa o'z ichiga 101 ta tashkilotni birlashtiradi yoki ular soni 159 taga qisqartirildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi «Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi» zimmasiga: Davlatlararo suv xo'jaligi komissiyasi, Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari, Markaziy dispetcherlik xizmati, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari faoliyatini samarali va bozor tamoyillari hamda mexanizmlari asosida tashkil qilish vazifasi yuklatildi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining asosiy vazifalari qilib esa: suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishni tashkil etish: ilg'or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini o'tkazish: iste'molchelarni suv bilan uzlusiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish: irrigatsiya tizimlari suv xo'jaligi inshootlarining texnik ishonchlilagini ta'minlash: havza hududida suv resurslarini oqilona boshqarish hamda uning tezkorligini oshirish va suv iste'molchilari bo'yicha suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobi va hisobotini ta'minlash qilib belgilanadi.

Respublikada suv xo'jaligini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini tahlil qiladigan bo'lsak, u irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va mutasaddilik qilinadigan tashkilotlar va korxonalardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin (2.1.4-chizma).

Mintaqalarni irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga biriktirish tuzilmasi esa quyidagicha: Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Andijon viloyati: Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Namangan viloyati: Sirdaryo-Sux irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Farg'ona viloyati: Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Toshkent viloyati: Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi -Sirdaryo va Jizzax viloyati tumanlari: Arnasoy, Do'stlik, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish va Yangiobod: Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Samarqand va Jizzax viloyati tumanlari: Baxmal, Fallaorol, Jizzax: Navoiy viloyati tuman-



lari – Xatirchi, Navoiy, Konimex. Navbohor: Qashqadaryo viloyati tumanlari: - Chiroqchi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boqarmasi - Qashqadaryo viloyati: Chiroqchi tumanidagi Eski Angar zonasidan tashqari: Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Buxoro va Navoiy viloyati tumanlari: Qiziltepa, Navoiy (Navoiy kanali zonasi), Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari boshqarmasi - Surxondaryo viloyati: Quyi-Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi - Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

Birlashgan dispatcherlik markaziga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi magistral kanallari tizimi boshqarmasi tarkibiga: Farg'ona vodiysi birlashgan dispatcherlik markazi: Katta magistral kanali boshqarmasi-Teshiktosh gidrouzeli, Katta Farg'ona magistral kanali boshqarmasi-Katta Andijon magistral kanali boshqarmasi: Janubiy Farg'ona magistral kanali boshqarmasi - Kampirovat gidrouzeli, Janubiy Farg'ona magistral kanali bosgidrouzeli, Papjon gidrouzeli, Karkidon suv ombori, Qo'rg'ontep suv ombori, Shaxrixonsov kanali bosh uchastkasi va Janubiy Farg'ona magistral kanali kiritilgan.

Birlashgan dispatcherlik markaziga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi magistral kanallari tizimi boshqarmasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Suv xo'jaligi bosh boshqarmasiga hisobdor sub'ekt hisoblanadi va o'z faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etadi.

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari esa irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining buyrug'i bilan tanlov asosida lovazimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi. Havza boshqarmasi boshlig'ining tanlov asosida tanlanadigan ikki nafar o'rinosari bo'ladi. Shuningdek, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi xuzurida Suv xo'jaligi kengashi tashkil etiladi, uning tarkibiga Boshqarma boshlig'i (Kengash raisi), irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining faoliyat ko'rsatishi hududidagi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshliqlari (yoki boshliqlarning o'rinosarlari), magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari boshliqlari va boshqa tegishli tashkilotlarining rahbarlari hamda tajribali va yuqori malakali xodimlar kiradi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining moliyalashtirish manbalari bo'lib Davlat byudjeti mablag'lari xo'jalik faoliyatidan va suv iste'molchilariga xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatlardan tushadigan mablag'lar hisoblanadi.

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmasining vazifalari quyidagilardan iborat. Ya’ni: magistral kanallar (tizimlar) va inshootlar suv resurslarini oqilona boshqarish va uning tezkorligini oshirish: magistral kanal (tizim) bo'yicha suvdan foydalashning belgilangan tartibiga rioya qilinishini ta'minlash: magistral kanallar (tizimlar) va suv xo'jaligi inshootlarining texnik ishonchlilagini ta'minlash: magistral kanallarni (tizimlarni) ishonchli foydalanish uchun tayyorlash va uni ish holatida saqlash suv ombori va suv berish to'g'risida ishonchli hisob va hisobot kiritish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish ajratilgan mablag'lar, moddiy-texnika resurslari, texnika va asbob uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ulardan maqsadli foydalanish.

O'z navbatida, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmasi suv resurslarini boshqarishni va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga asosan irrigatsiya tizimlari boshqarmalarga suv berishni amalga oshiradi. Bunda, magistral kanallar boshqarmasi irrigatsiya tizimlari hamda nasos stantsiyalari. Energitika va aloqa boshqarmalari bilan suv berish yuzasidan shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stantsiyalari va agregatlaridan foydalanish rejimini belgilab beradi.





Boshqarma suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etish barobarida tizimni suv o'lhash qurilmalari bilan zarur miqdorda ta'minlaydi, suv zamonaviy tizimlarini joriy etadi hamda ta'mirlash ishlarni arzonlashtiradi va sifatini oshirish maqsadida, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni ishlarni bajarishning maqbul shakl va usullarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy qiladi.

Shuningdek, magistral kanallar (tizimlar) va suv xo'jaligi inshootlari bo'yicha suv resurlari oqilona boshqarilishini nazorat qilish bilan birga investitsiya dasturiga kiritish uchun tizimni va inshootlarni zamonaviylashtirish, rekonstruktsiya qilish hamda texnika bilan qayta jihozlash bo'yicha investitsiya dasturlari bajarilishini tashkil etadi.

Ta'kidlash kerakki, agrosanoat majmuasining eng muhim tarkibiy qismini sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida suv xo'jaligi tizimi tashkil qiladi. Agarda qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan suv resurslarining ahamiyati, o'rni hamda sug'oriladigan dehqonchilikdagi mohiyati hisobga olinsa suv xo'jaligi majmuasining qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdagi ahamiyati qay darajada muhimligini yaqqol ko'rish mumkin.

### **3.2. Suv xo'jaligini boshqarishni samarali tashkil etishda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining o'rni**

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari faoliyatini ma'muriy qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari faoliyatidan tubdan farq qilgan holda, ya'ni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida tashkil qilish ko'zda tutilgan. Biroq, xududiy irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining qisqa davrdagi faoliyatini monografik tahlil qilish natijalari ko'rsatishicha, ularning suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda, iste'molchilarga o'z vaqtida sifatli suv resurslarini yetkazib berishda va sug'orish inshootlarining unumдорligini oshirishdagi texnik-iqtisodiy imkoniyatlari nihoyatda cheklangan. Jumladan Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (kelgusida ChOITXB) Toshkent viloyati qishoq va suv xo'jaligi boshqarmasining «Suv xo'jaligi va melioratsiyasi» bo'limi zaminida tashkil etilgan. Uning tarkibiga «Toshkent magistral kanali boshqarmasi», «Bo'zsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi», «Parkent-Qorasuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi», «Oxangaron-Dalvarzin» irrigatsiya tizimi boshqarmasi», va «Toshkent shahar suv xo'jaligi» boshqarmalari kiritilgan. ChOITXB Toshkent viloyati qishloq xo'jalik korxonalariga suv yetkazib berishga xizmat qiladi.

Toshkent viloyatining umumiy yer maydoni 1565,1 ming getktarni tashkil etib, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Viloyat hududida Chirchiq, Ohangaron daryolari, Dalvarzin, Peskent va Qo'qi Orol massivlari mavjud. Viloyatda 385,4 ming gettar sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Viloyatning asosiy suv manbasi Chirchiq daryosi hisoblanib, u qor va muzliklar erishi hisobiga to'yinadi. Chirchiq daryosining asosiy yirik irmoqlari bo'lib Pskom, Chotqol va Kuk-su hisoblanadi. Bu irmoqlardan oqib kelgan suvlar Chorboq suv omboriga kelib quyiladi. Chorboq suv omborining suv sig'dirish qobiliyati 2 mlrd m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

Chorboq suv omborining quyi qismidagi daryoning o'ng qismida Ugam va chap qismidan Oqsoq-ota daryolari oqib kelib. Chirchiq daryosiga quyiladi.

Viloyat sug'oriladigan maydonining 80 foizi Chirchiq daryosidan sug'oriladi. Chirchiq daryosining to'g'onidan boshlab to Sirdaryoga quylishi joyigacha bo'lган oraliqda 4 ta GES kaskadi joylashgan.

ChOITXB tarkibidagi ikkinchi yirik daryolardan biri Ohangaron daryosi hisoblanadi. Daryo uzani bosh qismida Ohangaron va o'rta qismida Toshkent suv omborlari joylashgan. Ohangaron daryosi Chotqol va Ko'rama tizimlari irmoqlaridan hosil bo'lgan. Toshkent suv ombori hajmi 2003 yil 1-may holatiga 217,2 mln m<sup>3</sup> ni tashkil etgan Tahlil qilinayotgan davrda Ohangaron suv omborining umumiy hajmi 210 mln m<sup>3</sup> dan iborat bo'lib suv ustki maydoni 5,9 mln m<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

ChOITXB viloyatdagi qishloq xo'jaligi korxonalariga suv yetkazib beradi. Bundan tashqarii viloyatdagi dehqon xo'jaliklari ham suv resurslari iste'molchilar hisoblanadi. Viloyat qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan 2005 yilda jami 385,4 ming gettar yerga, shu jumladan 115 ming gettarga g'alla, 108 ming gettarga paxta 37,8 ming gettarga ozuqa ekinlari, 39,1 ming gettarga ko'p yillik o'simliklar va 38,9 ming gettarga takroriy ekinlar ekilgan. Shuningdek, dehqonlarning 38,6 ming gettar yerlarida ham qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirilgan.

Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan suv iste'molchilariga 2005 yilda jami 5392 mln m<sup>3</sup> suv yetkazib berilgan. Uning 3390,0 mln m<sup>3</sup> qishloq xo'jalik ekinlari sug'orish maqsadida va 1999 mln m<sup>3</sup> esa boshqa extiyotlar uchun ishlataligan. Yetkazib berilgan jami suv resurslarining 496,8 mln m<sup>3</sup> o'zanlardan, 462,1 mln m<sup>3</sup> kichik daryolardan, 10,9 mln m<sup>3</sup> yer osti suvlaridan, 183,3 mln m<sup>3</sup> zovurlardan va 278 mln m<sup>3</sup> soy, buloq va oqava suvlardan tashkil topgan. Yetkazib berilgan suv resurslarining 5590 mln

$m^3$  tumanlar chegarasida, shu jumladan 4568 mln  $m^3$  xo'jaliklar chegarasida va boshqa suvdan foydalanuvchilar tomonidan ishlatalgan. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, viloyatda faqat Bekobod tumani xo'jaliklarigina asosan o'zan suvlaridan suv bilan ta'minlanadi. Qolgan tumanlarning suv manbalari bo'lib kichik daryolar hisoblanadi. Yer osti suvlaridan esa Bekobod va qisman Parkent tumanida foydalanishadi. 2005 yilda Bustonlig', Bo'ka, Parkent va Chinoz tumanlarida zovur suvlaridan sug'orish manbai sifatida ishlatilmagan.

Soy va oqova suvlarini suv manbai sifatida ishlatish bo'yicha esa Quyi-Chirchiq tumanida yaxshi imkoniyatlar yuzaga kelgan.

Agarda 2005 xo'jalik yilida Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan tumanlar chegarasigacha oyma-oy sug'orish uchun suv yetkazib berish holatini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan qishloq xo'jalik ekinlarining mavsumiyligiga qarab suv yetkazib berilayotganligini va rejaga ûamda belgilangan limitga asosan amalda olingan suv resurslari hajmining farqlanishini ko'rish mumkin yoki, qishloq xo'jalik korxonalarini yerlarini sug'orish uchun me'yorga nisbatan suv resurslariga bo'lган talabni ko'proq qilib ko'rsatmoqda, limit esa me'yordan kelib chiqib belgilansa ham haqiqiy ahvol reja va limitga nisbatan ko'p yoki kamni tashkil qilmoqda.

Jumladan 2005 xo'jalik yilida hosil olish uchun 2004 yilning oktabr oyida ko'zgi bug'doy va takroriy ekinlar ekishga viloyat tumanlari bo'yicha jami 232,3 ming  $m^3$  suv olish rejalashtirilgan. Limit esa 110 ming  $m^3$  qilib belgilangan va amalda esa yetkazib berilgan jami suv hajmi rejaga nisbatan 93,2 ming  $m^3$  kam bo'lsa, limitga nisbatan esa 215,5 ming  $m^3$  ko'pni tashkil etgan. Iyul oyida suv olish holati ham tahlilga loyiq. Ya'ni iyul oyida viloyat tumanlari bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun 455,8 ming  $m^3$  suv olish rejalashtirilgan, belgilangan limit esa 719,7 ming  $m^3$  ni tashkil etgan.

Amalda esa 738,6 ming  $m^3$  suv olingan yoki, qishloq xo'jalik korxonalarining 2005 yil iyul oyida ekinlarni sug'orish uchun olgan suv hajmi rejaga nisbatan 282,8 ming  $m^3$  va limitga nisbatan esa 18,9 ming  $m^3$  ko'pni tashkil etgan. Bunday holat barcha sug'orish oylariga xosdir. Qishloq xo'jalik korxonalarining sug'orish suvlarini bir gektar ekin maydoni hisobiga olish rejasি, belgilangan limit va amaliy ta'minlanishini tahlili yanada yaqqol ifoda qiladi.

Masalan, ChOITXB bo'yicha bir gektar ekin maydoni hisobiga 2005 yilda 9 ming  $m^3$  suv yetkazib berish rejalashtirilgan bo'lsa, limit 7,9 ming  $m^3$  qilib belgilangan. Amalda esa 7,3 ming  $m^3$  suv olingan. Bir gektar hisobiga suv olingan eng yuqori rejasi va limiti Bekobod tumanida (14,8:14,5 ming  $m^3$ ) eng past reja va limit O'rta-Chirchiq tumanida (6,1:5,2 ming

$m^3$ )-belgilangan. Irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi tomonidan faqat O'rta-Chirchiq tumani xo'jaliklariga limit doirasida, Ohangaron, Bustonliq, va Yangiyo'l tumanlarida limitdan ortiq suv yetkazib berilgan.

### **3.3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Suv xo'jaligi bosh boshqarmasining vazifalari ùuquqlari va majburiyatlari**

1. Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi (keyingi o'rnlarda matnda «Bosh boshkarma» deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tarkibiy bo'linmasi uisoblanadi. Bosh boshqarmaga yer usti suvlaridan foydalanishni tartibga solish hamda respublika iqtisodiyoti va aholisini suv bilan ta'minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshirish yukланади.

2. Bosh boshqarma o'z faoliyatida O'zbekistoi Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis qarorlariga, O'zbekistoi Rsspublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati qarorlariga va Vazirlilik buyruqlariga va boshqa boshqarma nizomiga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Bosh boshqarma Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida hamda suv xo'jaligi tizimining boshqa korxonalari va birlashmalarida suv to'g'risidagi qonui xujjatlarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi, ularni takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi va ularni qurib chiqish uchui belgilangan tartibda kiritadi.

3. Quyidagilar Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etpsh asosida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishini tashkil etish;

suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini o'tkazish, suvni tejovchi ilg'or texnologiyalarini joriy etish;

iste'molchilarni suv bilan uzliksiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish;

irrigatsiya tizimlari va suv xo'jaligi inshootlarining texnik ishonchlilagini ta'minlash;

irrigatsiya tizimlari havzalari bo'yicha suv resurslarini oqilona boshqarish ùamda uning tezkorligini oshirish;

suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobi va hisobotini ta'minlash;

suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirnsh ishlarini muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining monitoringini olib borish;

«Suvdan foydalanish» bo'limi buyicha davlat suv kadastrini yuritish.

4. Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarini amalga oshiradi:

a) suv resurslarini boshqarish va ulardan kompleks foydalanish sohasida:

suvdan foydalanish prognozlari umumlashtirilishini, suv resurslari balansi ishlab chiqilishini, yer usti suv manbalaridan suv olish limitlari va Havza irrigatsiya tizimlari, iktisodiyot tarmoqlari va ayrim alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining suv olish limitlari belgilanishini ta'minlaydi;

respublika hududida havza printsipi bo'yicha yer usti suv resurslarini oqilona boshqarishni suvdan foydalanishda bozor printsiplari va mexanizmlari joriy etilishini ta'minlaydi;

suvdan foydalanish bo'limi bo'yicha davlat suv kadastri yuritilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatini muhofaza qilish qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda suz xo'jaligi ob'sklarining qirg'oqbo'yi polosalari va suvni muhofaza qilish zonalarini aniqlanishini taminlaydi, daryolar va boshqa suv ob'ektlarining qirg'oq bo'yi polosalari va suvni muhofaza qilish zonalarini belgilashda qatnashadi;

suv haqidagi qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish tashkil etilishini, shuningdek uning talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishini ta'minlaydi;

suv resurslaridan kompleks foydalanishning istiqbolli sxemalari ishlab chiqilishi melioratsiya va suv xo'jaligi rivojlantirilishini ta'minlaydi;

suv resurslarining mavjudligi to'g'risila xulosalar hamda suv resurslaridai foydalanish va drenaj-oqova suvlarini oqizib yuborish bilan bog'liq yangi korxonalar qurish va ishlayotgan korxonalarini rekonstruktsiya qilish loyihalari buyicha majburiy kuchga ega bo'lgan xulosalar berilishini ta'minlaydi;

suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnomalar berishni va suv chiqarish inshootlarini ro'yxatga olishni hamda idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan barcha suv manbalaridagi suv resurslaridan foydalanishni hisobga olishni ta'minlaydi;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va ularning boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda, xo'jalik ichki suv hisobini tashkil etishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi

suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalanish suv xo'jaligini va yerlarni melioratsiyalash bo'yicha davlatlararo masalalarni muhokama qilish va hal etishda respublika nomidan ishtirok etadi.

b) suv xo'jaligi obektlaridan foydalanish sohasida:

suv xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari balansidagi suv xo'jaligi ob'ektlari kompleksi (suv omborlari, irrigatsiya-melioratsiya tizimlari va inshootlari, nasos stantsiyalari, quduqlar, elektr uzatish liniyalari, aloqa liniyalari va yordamchi transformator stantsiyalari va boshqa ob'ektlar) ta'mirlanishi, ulardan ishonchli foydalanilishi va takomillashtirilishi tashkil etilishini, avtomatika va telemexanikaning yangi vositalari va boshqa asbob-uskunalar va texnologiyalar takomillashtirilishi va joriy etilishi, suvni hisobga olish vositalarini metrologik taminlash ishlari amalga oshirilishi tashkil etilishini ta'minlaydi;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati xar yili hisobga olinishi va monitoringi olib borilishini, meliorativ kadastr tuzilishini, yangi yerlarni o'zlashtirish va ilgaridan sug'orib kelingan yerlarni rekonstruktsiya qilish, kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish va qayta barpo etish samaradorligi baholab borilishini tashkil etadi;

melioratsiya tizimlarini pasportlashtirib, davlat suv kadastrini yuritish va shu asosda melioratsiya tiznmlarining texnik darajasini oshirishga doir takliflarni ishlab chiqish ishlarini tashkil etadi;

irrigatsiya-melioratsiya tizimlari va inshootlaridan foydalanishni takomillashtirish buyicha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishini, qishloq xo'jaligi yerlarning sho'rланishi va botqoqlanishining oldini olish tadbirlari bajarilishini tashkil etadi;

suv, energetika resurslari va boshqa moddiy-texnika resurslarini tejash choralarini ko'rinishini tashkil etadi;

v) kapital qurilish sohasida samarali investitsiya siyosatini o'tkazadi hamda tarmoqni ishlab chiqarish jihatidan va ijtimoiy rivojlantirish uchun markazlashtirilgan kapital

qo'yilmalar hamda korxonalarning o'z mablag'larini maqbul ravishda uyg'unlashtirishni ta'minlaydi;

gidromeliorativ tizimlarni rekonstruktsiya qilish va texnika bilan qayta jihozlash, ilgaridan haydar kelingan yerlar sifatini yaxshilash hamda yangi yerkarni ichki kontur bo'yicha o'zlashtirish, texnik jihatdan mukammal meliorativ tizimlarni va inshootlarni, ilg'or qurilish texnologiyalarini, yangi qurilish materiallarini, asbob-anjomlarni joriy etish ishlarini tashkil etadi;

suv xo'jaligi, sanoat-xo'jalik maqsadidagi ob'ektlar qurilishi, ularni texnika bilan qayta jihozlash, rekonstruktsiya qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi;

respublika hududidagi, mansubligi va mablag' bilan ta'minlash manbalaridan qat'i nazar, barcha suv xo'jaligi ob'ektlarining loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o'tkazilishini, shuningdek mamlakatimizning respublika, chegarasidan tashqaridagi suv xo'jaligi ob'ektlarining loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiruvchi pudrat, loyiha-qidiruv, sanoat hamda boshqa korxonalar va tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;

ob'ektlar qurilishi normativ muddatlarda prognozlashtirilishini va ularning tashkil etilishini, kapital quyimalardan oqilona foydalanilishini va ular samaradorligini oshirilishini, qurilish qiymati pasaytirilishini, ishlab chikarnsh quvvatlari va asosiy fondlar o'z vaqtida ishga tushirilishi va o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

g) tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida:

melioratsiya va suv xo'jaligini rivojlantirishga, melioratsiya, qurilish, yer qazish texnikasi va boshqa texnika, asbob-uskunalar, materiallar, buyumlar va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalar tashkil etishga chet el investitsiyalari jalg etilishini tashkil etadi, Vazirlik mutaxassislarining chet elda ishlashini tashkil etadi;

shartnomaga asosida chet elda suv xujaligi ishlari bajarilishini tashkil etadi;

respublikada suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish halqaro bitimlari, dasturlari doirasida O'zbekiston tomoni majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq halqaro tadbirdarining amalga oshirilishini tashkil qiladi, xorijiy sheriklar bilan suv muammolari bo'yicha muzokaralarda qatnashadi;

d) kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasinn oshirish sohasida:

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'limmalari bilan birgalikda tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarni malakali kadrlar bilan mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi:

kadrlar malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

5. Bosh boshqarma o'z boshlig'i orqali Markaziy Osiyo suv xo'jaligi davlatlararo muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi hisoblanadi hamda Irrigatsiya va drenaj bo'yicha halqaro komissiyada va suv xo'jaligi masalalari buyicha boshqa halqaro tashkilotlarda Respublika manfaatlarini ifodalarydi.

6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparati tuzilmasida yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va yerlar unumdorligini oshirish muammolarini hal etish kengashi tashkil etiladi

Kengashining ishchi organi funktsiyasi Suv xo'jaligini rivojlantirish va suvdan foydalanishda bozor printsiplarini joriy etish boshqarmasiga yuklanadi.

7. Bosh boshqarmaga Qishloq va suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinosari hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bosh boshqarma boshlig'i ayni vaqtida Irrigatsiya va drenaj bo'yicha respublika qo'mitasi raisi, Markaziy Osiyo suv xo'jaligi davlatlararo muvofiqlashtirish komissiyasining a'zosi hisoblanadi.

Bosh boshqarma boshlig'i o'rinosarlari ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha vazir o'rinosariga tenglashtiriladi hamda Qishloq va suv xo'jalik vazirining buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi.

8 Suv xo'jaligi tpzimlaridan foydalanish, yerlar melioratsiyasi, irrigatsiya-melioratsiya qurilishi masalalari, Bosh boshqarma faoliyatining boshqa muhim yo'nalishlari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati majlislarida muntazam ravishda ko'rib chiqiladi.

9. Bosh boshqarma davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga ta'minlanadi.

10. Bosh boshqarma faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatiladi.

### **3.4. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining vazifalari huquqlari va majburiyatları**

1. Irrigatsiya tizimlari ùavza boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanadi.

2. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisinnng qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maùkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'atining qarorlari, Vazirlikning buyruqlari va qarorlariga ùamda boshqa qonun xujjatlariga, shuningdek o'zining Nizomiga amal qiladi.

3. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muìrga, bank muassasalarida hisob raqamlariga ega bo'ladi.

4. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi suv havzasida suv resurslarini tartibga solish va foydalanishda yagona siyosat o'tkazilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Quyidagilar havza boshqarmasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

suvdan foydalanishning bozor printsiplarini va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishini tashkil etish;

suvni tejovchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini yuritish;

iste'molchilarni suv bilan uzluksiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish;

irrigatsiya tizimlari suv xujaligi inshootlarining texnik ishonchiliginini ta'minlash;

irrigatsiya tizimidan ishonchli foydalanish va uni ish holatida saqlash uchun uni tayyorlashni tashkil etish:

havza hududida suv resurslarini oqilona boshqarish hamda uning tezkorligini oshirish;

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablag'lar, moddiy-texnika resurslari, texnika va asbob-uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish va ulardan maqsadli foydalanish.

5. Boshqarma quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

suv resurslarini boshqarishni va Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga muvofiq Irrigatsiya tizimlari boshqarmalariga suv berishni amalga oshiradi;

irrigatsiya tizimlari uamda nasos stantsiyalari, energetika va aloqa boshqarmalari bilan suv berish yuzasidan shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stantsiyalari va agregatlaridan foydalanish rejimini belgilaydi;

umumi suv xo'jaligi ahvolini hisobga olgan holda irrigatsiya tizimlariga suv berish jadvallariga tuzatishlar kiritadi;

suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlari joriy etilishini ta'minlaydi;

Tizimning alohida kanallari suv ta'minotini oshirishga doir takliflarni tayyorlaydi va amalga oshiradi;

Umuman tizim bo'yicha suv olish va suv berish hisobini yuritadi, Tizim bo'yicha suv resurslari balansini tuzadi;

magistral kanallar (tizimlar) va suv xo'jaligi inshootlari bo'yicha suv resurslari oqilona boshqarilishini nazorat qiladi;

umuman suv xo'jaligi tizimidan ishonchli foydalanilishini ta'minlaydi;

tizimni suv o'lhash qurilmalari bilan zarur miqdorda ta'minlaydi, suv resurslarini boshqarishda aloqa, avtomatika va telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi hamda ularni takomillashtiradi;

mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha kompleks tadbirlar tuzadi, ushbu maqsodlarga ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Ta'mirlash ishlarini arzonlashtirish va sifatini oshirish maqsadida, resurslarni tejaydigani texnologiyalarni, ishlarni bajarishning maqbul shakl va usullarini ishlab chiqadi va joriy qiladi;

Tasarrufidagi kanallar tizimlarida ishlarni tashkil etishdan ilg'or tajribani, suv xo'jaligiga oid fan yutuqlarini ommalashtiradi;

qurilayotgan korxonalar birlashgan direktsiyalari bilan birgalikda investitsiya dasturlariga kiritish uchun tizimni va inshootlarni zamonaviylashtirish, rekonstruktsiya qilish hamda texnika bilan qayta jihozlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi, magistral kanal (tizim) bo'yicha investitsiya dasturlari bajarilishini tashkil qiladi;

umuman irrigatsiya tizimi buyicha suv xo'jaligini istiqboli rivojlantirish sxemalarini tuzish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

## 6. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

O'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish:

kelishish uchun o'ziga taqdim etiladigan suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar loyiùalari yuzasidan xulosalar berish;

boshqa tizimlarda va ichki xujalik gedromeliorativ tarmoqlarda ta'mirlash ishlarini shartnomalar bo'yicha bajarish;

suv xo'jaligi tizimlaridan foydalanish qoidalari, suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi buzilganligi uchun aybdor shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish to'g'risida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritish;

Irrigatsiya tizimlari» havza boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan suv resurslari limitlariga vujudga kelgan suv xo'jaligi aùvolini hisobga olgan holda 10 foiz doirasida tuzatish kiritish;

qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xuquqlarga ega.

7. Boshqarmaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari joylardagi boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

8. Boshqarmani tanlov asosida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining buyrug'i bilim lavozimga tayinlanadigan boshliq boshqaradi. Tanlov Irrigatsiya tizimlari ùavza boshqarmasi boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan o'tkaziladi.

Boshliq o'rribosarlari lavozimga Boshqarma boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda Irrigatsiya tizimlari ùavza boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tanlov asosida tasdiqlanadi.

Tanlovlarni o'tkazish tartibi Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

9. Boshqarma boshlig'i:

Boshqarma faoliyatiga raùbarlik qiladi ùamda Boshqarmaga yuklangan vazifalar va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Irrigatsiya tizimlari ùavza boshqarmasiga Boshqarma boshlig'i o'rribosarlari lavozimiga tayinlash uchun Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan nomzodlarni taqdim etadi;

Boshqarma apparati shtatlar jadvali bo'yicha takliflarni tasdiqlash uchun Irrigatsiya tizimlari ùavza boshqarmasiga belgilangan tartibda kiritadi;

Boshqarma apparati xodimlarini, shuningdek tasarrufidagi kanallar tizimlari rahbarlarini Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlandi va lavozimdan ozod qiladi;

Bo'linmalar rahbarlari va mutaxassislarini tanlov asosida tayinlaydi. Tanlovnini o'tkazish tartibi Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi;

qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi:

10. Gidrouchastkalar va gidrouzellar (yuridik shaxs maqomisiz) Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi, ular o'z faoliyatini Irrigatsiya tizimlari uavza boshqarmasi tasdiqlaydigan Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

11. Byudjetdan ajratmalar hamda xo'jalik faoliyatidan va suv iste'molchilariga xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqilangan boshqa manbalar Boshqarmani mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi.

12. Boshqarma faoliyati qonunda belgilangan tartibda to'xtatiladi.

### **3.5. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini tashkil qilish va ularning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni**

Sho'rolar davrida davlat xo'jaliklarida kolxozlarda keyinchalik mustaqil O'zbekistonimizda 2003 yilgacha shirkatlarda qishloq xo'jalik ekin dalalarini suv bilan ta'minlash maqsadida maxsus irrigatsiya bo'limi tashkil qilingan bo'lib, uni xo'jalik bosh irrigatori boshqaror edi. Bosh irrigator tuman xo'jaliklararo kanallari orqali xo'jalik hududiga yetkazib berilgan suvgaga to'liq xo'jayin hisoblanib uning rahbarligida uchastka gidrotexniklari va murobler faoliyat ko'rsatar edi. Ularning asosiy vazifasi xo'jaliklarning uchastkalariga va brigadalarga suv yetkazib berishdan iborat edi. Hozirgi kunga kelib suv xo'jaligini boshqarishning hududiy tizimi tugatilib havzaviy boshqarish usuliga o'tilgandan keyin Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tarkibida magistral kanallar boshqarmasi, irrigatsiya tizimlari boshqarmasi va iste'molchilarga suv taqsimlab beruvchi gidropostlar tashkil etildi. Gidropostlar tomonidan taqsimlab berilgan suvlarni asosan suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini va qisman bevosita suv iste'molchilari (fermer va boshqa iste'molchilar) qabul qilib oladigan bo'ldi. 2006 yilning oxiriga kelib Respublikada shirkatlar to'gatilib 185 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil qilindi. Fermer xo'jaliklarini suv bilan ta'minlashini yaxshi yo'lga qo'yish uchun yoppasiga suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini to'zish boshlandi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) bir yoki bir necha kanal atrofidagi suvdan foydalanuvchilarning xoxish irodasi Bilan to'ziladigan va ular tomonidan boshqariladigan nodavlat, notijorat tashkilotdir. Suvdan foydalanuvchilar fermer va dehqon xo'jaliklari yoki tomorqa egalari bo'libadolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya-zovur tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali uyushma xududida sug'orma dehqonchilikni rivojlantiradilar va buning uchun o'zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradilar. SFU ga birlashmagan suvdan foydalanuvchilar quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin: 1) Yagona teng xuquqli suv taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi bois suvdan foydalanuvchilar o'rtasida suv uchun doimiy ziddiyatlar vujudga keladi. 2) Irrigatsiya-zovur tarmoqlarining uzluksiz ishslashini ta'minlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larining yetishmasligi tufayli ularning holati yomonlashib boradi. 3) Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik suvning keskin kamayish xavfini keltirib chiqaradi va kelajakda ekologik vaziyat yanada og'irlashadi.

SFU ni tashkil qilinishi o'z a'zolari bo'lgan suvdan foydalanuvchilarga sug'orish tarmog'idagi suvni taqsimlash va uyushmani demokratik asosda boshqarishda faol qatnashish imkoniyatini beradi. Suvdan foydalanuvchilar SFU ning moliyaviy boshqaruvini oshkara tashkil etishlari uyushma faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarini birlashtirgan holda nafaqat suv xo'jaligi, balki qishloq xo'jaligi bilan bog'liq umumiyy muammolarni hal qilishda ham yordam beradi. Bundan tashqarii suvdan samarali foydalanish hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi oshishi fermerlarda ertangi kunga yanada ishonch o'yg'otadi.

SFU tuzish uchun uyushmaning bo'lajak a'zolaridan iborat tashabbuskor gurux zaruriy xujjatlarni tayyorlaydi. Ushbu gurux SFU ning ta'sis xujjati va ustov loyixasini a'zolarning takliflarini hisobga olgan holda tuzadi va buning uchun fermerlar orasida tushuntirish ishlarini olib boradi. Ta'sis xujjatlari SFU ning ta'sis shartnomasi va ustavidan iborat.

Ta'sis shartnomasi SFU ning ta'sis etishga asos bo'ladigan xujjat bo'lib, uyushmaning xuquqiy maqomi, rasmiy nomi, ta'sischilar ro'yxati, maqsad va vazifalarining qisqacha sharxidan iborat. Ta'sis shartnomasi SFU ta'sischilarining barchasi tomonidan imzolanadi.

SFU tuzish uchun zarur bo'ladigan xujjatlar namunasi mavjud bo'lib, ular uyushmani tuzish jarayonini osonlashtiradi va tezlashtirishga yordam beradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, uyushmani tuzish jarayonida o'z manfatini ifodalash uchun har bir a'zoning ishtiroki zarur bo'lib bu SFUning ta'sis sharnomasi va ustovida irrigatsiya-zovur tarmoqlarini saqlash va

boshqarishning mahalliy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda ifodalanadi. Bu ishlarni bajargandan so'ng tashabbuskor gurux bo'lajak SFUning ta'sis shartnomasi va ustavini salohiyatli a'zolar ishtirokida muhokama qilish va tasdiqlash uchun umumiylig'i chaqiradi. Ta'sis xujjatlari tasdiqlaganidan so'ng uyushma a'zolari yoki suvdan foydalanuvchilar guruxi vakillari SFU kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlar ro'yxatini tuzadilar. Uyushma a'zolari yoki suvdan foydalanuvchilar guruxi vakillari umumiylig'i Kengash va Taftish komissiyasini saylaganlaridan so'ng kengash a'zolari barcha uyushma a'zolari nomidan SFU boshqaruvchisini tayinlaydilar.

SFUning suvdan foydalanuvchilar guruxi vakili umumiylig'i ma'lum bir uchastkadagi suvdan foydalanuvchilar nomidan ularning manfaatlarini himoya qiluvchi saylangan shaxs hisoblanada.

#### **SFU a'zolarining xuquqlari:**


1. SFU boshqaruv organiga nomzodlar tavsiya qilish yoki o'z nomzodlarini quyish.
2. Suvdan foydalanish rejasiga muvofiq sug'orish suvidan adolatli va teng xuquqli foydalanish hamda qo'shimcha suv resurslari mavjud bo'lsa birinchi navbatda olish.
3. O'z manfaatlari bilan bog'liq masalalar muhokamasida ishtirok etish.
4. Shartnama majburiyatlarini bajarilmagan va ustaviga rioya qilmagan hollarda SFU dan da'vo talab qilish.
5. Suvdan foydalanuvchilar o'z qiziqishi va umumiylig'i manfaatdan kelib chiqib, SFU faoliyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish.

#### **SFU a'zolarining majburiyatları:**

1. Ustov qoidalariga va uyushma tomonidan qabul qilingan barcha me'yoriy xujjatlarga rioya qilish.
2. Belgilangan badallarini hamda uyushma xizmatlari haqini o'z vaqtida to'lash.
3. Sug'orish rejimiga rioya qilish hamda xar bir suvdan foydalanuvchi bilan kelishilgan holda belgilangan limitdagи suvni olish.
4. Uyushmani tasarrufidagi yer va foylanilgan suv bilan bog'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash.
5. SFUga qarashli irrigatsiya-zovur tarmoqlarini asrab-avaylash.

#### **SFU ning tashkilish tuzilmasi.**

## **SFU a'zolarining umumiyligi yig'ilishi yoki suvdan foydalanuvchilar guruhi vakillari**



### **SFU ning boshqaruv organlari.**

1 Umumiyligi yig'ilishi SFU ning oliy boshqaruv organidir.

Unda barcha a'zolar yoki suvdan foydalanuvchilar guruhlari vakillari qatnashadi va ularning har biri bir ovozga ega.

Umumiyligi yig'ilishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

- SFU ustavi va uning faoliyati bilan bog'liq ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash.
- SFU kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini saylash yoki vazifasidan ozod qilish.
- Boshqaruv tuzilmasi, yollanma ishchi-xizmatchilar soni, ularning ish haqi miqdori va uni berish tartibini tasdiqlash.
- Uyushma a'zolari va a'zo bo'limganlarning badal to'lovlarini miqdorini belgilash.
- Uyushmaning istiqbolli rejalari va byudjeti, ularning hisobotlarini tasdiqlash
- SFU ning yillik ish rejasi va sug'orish jadvalini tasdiqlash.
- Ustav tartiblari va ichki me'yoriy xujjalari qoidalari buzulgan hollarda jarimalar turi va miqdorini belgilash.

- SFU Kengashi va taftish komissiyasi hisobotlari bilan tanishish va tegishli qarorlar qabul qilish.

- SFU boshqa tashkilotlarga birlashgan holatda uning maqomini belgilash.

2. SFU Kengash a'zolari jamoatchilik asosida (ish haqisiz) faoliyat yuritadi va kamida har oyda bir marta yig'iladi.

- Kengash tarkibidan Uyushma Kengash raisini saylash

- Umumiylig'iish kun tartibini tayyorlash va chaqiriq muddatini belgilash

• Yillik xisobotini tayyorlash va uni umumiylig'iish a'zolari yoki SFU vakillariga taqdim etish.

• SFU ustaviga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish va umumiylig'iishga tasdiqlash uchun taqdim etish.

• Umumiylig'iish qabul qilgan ustav, qaror, shartnomalarning bajarilishi, hamda Suv resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilishini qonun talabi doirasida nazorat qilish.

• Byudjet, yillik reja va ish rejasiga muvofiq keluvchi shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish

- Ijroiya organi faoliyatini nazorat qilish

• Uyushma a'zolari o'rtasidagi nizo va kelishmavchiliklarni hal qilish, ularning uyushmaga nisbatan da'volarini ko'rib chiqish.

- Ustav va sharnomaga amal qilmaganlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish

• Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda umumiylig'iish vakolatidagi qarorlarni qabul qilish va navbatdagi umumiylig'iishda tasdiqlash.

• Uyushmaga qabul qilish yoki a'zolikdan chetlatish arizalarini o'rganib tegishli qaror qabul qilish.

SFU Kengashi raisi, Kengash a'zolari tomonidan ma'lum muddatga saylanadi va nomzod umumiylig'iish a'zolari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

### **Kengash raisining majburiyatları:**

• SFU a'zolari yoki vakillarning umumiylig'iishlari hamda kengash majlislarini o'tkazadi.

- SFU faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarda uyushma vakili sifatida qanashadi.

- SFU ustavida belgilab berilgan boshqa majburiyatlarni bajarida.

3. Taftish komissiyasi uyushma va kengashning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi hamda umumiylig'iishga hisobot beradi. Uyushma faoliyatida jiddiy moliyaviy

kamchiliklar aniqlansa, komissiya kengashdan navbatdan tashqari umumiy yig'ilish chaqirtirishni talab etish xuquqiga ega.

### **Taftish komissiyasi vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- Umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlangan me'yoriy xujatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarish.
- Uyushmaning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish
- Hisob raqamlari aktivlar va jixozlarni kamida bir yilda bir marta umumiy yig'ilish yoki suvdan foydalanuvchilar guruhi vakillarining qarori asosida tahlil qilish va tekshirish.
- Audit nazorati bo'yicha olib borilgan tekshiruvlar natijasi hisobotini umumiy yig'ilish va kengashga taqdim etish.

4. Ijroiya organi SFU ning kundalik faoliyatini amalga oshiradi. Ijroiya organ-boshqaruvchi (rais), hisobchi va texnik xodimlardan (muroblardan) iboratdir. Bu mehnatga haq tulanadigan yagona organ bo'lib ularning vakolat muddatlari mehnat shartnomasida belgilab beriladi.

### **Ijroiya organining vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- SFU a'zolari hamda a'zo bo'lмаган shaxslar bilan Suv xo'jaligi xizmat ko'rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish.
- Irrigatsiya-zovur tarmoqlarini ishchi holatda saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
- Suv yetkazish va uni SFU a'zolari orasida taqsimlash yillik rejasini tuzish hamda amalga oshirish, shuningdek suvning ta'minotchilar tomonidan yetkazishni nazorat qilish.
- Byudjet loyihasi, irrigatsiya-zovur tarmoqlarini ishlatish va saqlash rejasini hamda boshqa talab qilinadigan me'yoriy xujatlarni tuzish va kengashga taqdim etish.
- Umumiy yig'ilish va Kengash qabul qilgan qarorlarni bajarish.

### **SFU ning moliyaviy manbalari va mulki:**

Uyushmaning Nizom jamg'armasi ta'sischilar va boshqa suvdan foydalanuvchilar tomonidan ajratilgan mulkiy ulushlar va mablag'lar hisobidan tashkil topadi.

Quyidagilar uyushmaning mol-mulkini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

- Uyushma ta'sischilarining boshlang'ich mulkiy ulushlari.
- Suvdan foydalanuvchilarining to'lagan badallari.
- Qimmatboho qog'ozlar va ulardan olinadigan daromadlar.
- Banklar va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlari.

- Uyushmaning boshqa faoliyatlaridan tushgan mablag’lari.
- Respublika va chet el sarmoyadorlarining beg’araz yordami tariqasida berilgan mulklar va mablag’lar hamda O’zbekiston Respublikasi qonunlarida ta’qiqlanmagan boshqa mablag’lar.

SFU qonunda belgilangan tartibda o’z faoliyati natijalarining hisobi va hisobotini va ularning haqiqiyligini kafolatlaydi.

SFU mustaqil balansga ega, xo’jalik faoliyatini ta’sischilarning va boshqa suvdan foydalanuvchilarning badallari va qonunda man etilmagan boshqa manbalar hisobiga mablag’ bilan o’zini o’zi ta’minalash asosida amalga oshiradi.

SFU faoliyatini yaxshilash va rivojlantirish hamda xodimlarni ijtimoiy ùimoya qilish maqsadida zaxira, ishlab chiqarish Fan va texnika yuto’qlarini joriy qilish, moddiy rag’batlantirish va qonunda man etilmagan boshqa jamg’armalarni tashkil qilishi mumkin.

SFU O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonun xujjatlarida belgilangan imtiyozlardan foydalanadi.

### **SFUni tashkil qilishdan maqsad va uning vazifalari**

1. SFU ning asosiy maqsadi ta’sischilarga hamda uyushma hududidagi boshqa suvdan foydalanuvchilarga o’rnatilgan limit asosida Suv yetkazib berish, o’zaro ichki Suv xo’jaligi munosabatlarini tartibga solish, ularning suvdan foydalanish huquqini himoya qilish, shuningdek qonunda man etilmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishdan iborat

SFU o’z maqsadini amalga oshirish uchun quyidagilarni bajaradi.

- Suvdan foydalanuvchilarni va ularning Suv olish joylarini ro’yxatdan o’tkazadi.
- Suvdan foydalanish rejalarini ishlab chiqish va ularni irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan uyushmaga belgilangan limit doirasida muvofiqlashtiradi.
- Irrigatsiya tizimi boshqarmasi hamda suv iste’molchilari bilan Suv olish va undan foydalanish bo’yicha shartnomalarni tuzadi va ularning bajarilishini ta’minalaydi.
- Suvdan foydalanuvchilarga ajratilgan limitlar suv yetkazib berish va o’rnatilgan tartibda suvning oldi-berdisi va hisobotlarini olib boradi.
- SFU ta’sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilar hamda Suv xo’jaligi tashkilotlari bilan ichki suv xo’jaligi ob’ektlarini ta’mirlash, va ishlatish bo’yicha shartnomalarini tuzadi va uning bajarilishini ta’minalaydi.

- SFU hududidagi ichki suv xo'jaligi ob'ektlarini tozalash va ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish ishlarini tashkil etadi.
  - Suv o'lchash vositalarini qurishni tashkil etish va ularni belgilangan tartibda pasportlarini tuzish, shahodatlash hamda ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydi.
  - Yer egalariga sug'oriladigan yerlarning sho'rini yuvish, suvdan maqsadli va samarali foydalalanishni ta'mirlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi.
  - Suvni tejash va ilg'orlar tajribalarini hamda yangi texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etadi.
  - SFU balansidagi asosiy vositalarni texnik ko'riklardan o'tkazib borish, ta'mirlash va yangilash, resurslarni iqtisod qiluvchi texnika va texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqish, umumiy shu jumladan joriy va rivojlanish sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish hamda har-bir suvdan foydalanuvchining badallarini xisob-kitob qilib, belgilangan tartibda ta'sischilarining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.
  - O'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda tuman qishloq va Suv xo'jaligi bo'limiga Irrgatsiya tizimi boshqarmasiga hamda tegishli tashkilot va idoralarga axborot va hisobotlar berib boradi.
  - SFU ta'sischilarining haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladi.
  - SFU o'z ta'sischilariga va uning hududidagi boshqa suvdan foydalanuvchilarga ularning manfaatlarini ko'zlagan holda qonunga zid bo'limgan boshqa faoliyat turlarini ham ko'rsatish mumkin.
2. SFU quyidagi majburiyat va huquqlarga ega:
- O'z hisobidagi asosiy vositalarni va boshqa mulklarni hamda mablag'larni maqsadli ishlatish va talon-toroj bo'lmasligini ta'minlaydi.
  - SFU ajratilgan suv resurslarini suvdan foydalanuvchilarga ularning tasdiqlangan suvdan foydalanish rejasiga proportsional ravishda taqsimlaydi va yetkazib beradi.
  - Faoliyat ko'rsatayotgan xuddiddagi suvdan foydalanuvchilarga va boshqa uyushmalarga Suv ta'minoti va Suv xo'jalik ob'ektlaridan foydalanishdan boshqa xizmat ko'rsatishni tashkil qilish va buning uchun banklarda xo'jalik xisob raqamii ochiladi. Ushbu faoliyat bo'yicha tushgan mablag'lardan davlat byudjetiga tegishli to'lovlarini amalga oshiradi. Ichki Suv xo'jaligi ob'ektlarini meliorativ texnika va boshqa vositalarni ta'mirlashga va rivojlantirish hamda uyushma yig'ilish qarori bilan boshqa maqsadlarga ishlatadi.
  - Amalga oshirilgan ishlar haqida yilida ikki marta uyushma ta'sischilarga umumiy yig'ilishda hisobot beradi.

- Manbada suv kamaygan (ko'paygan) taqdirda suv limitlariga o'zgarishtirishlar kiritadi.
  - Texnika va mexanizmlar yetishmagan holatda shartnomaga asosida boshqa pudratchilarni jalb qiladi.
  - Suvni taqsimlash va uni suvdan foydalanuvchilarga yetkazishni tashkil qilish hamda kechayu-kunduz nazorat olib borish uchun sug'orish tarmoqlari bo'yicha joylashgan suvdan foydalanuvchilarining vakillarini grafik asosida jalb qilinadi.
  - Belgilangan tartibda suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasini oladi.
  - SFU qonun xujjalari man etilmagan boshqa xuquqlarga hamega.
3. SFU ta'sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilarining majburiyatlari va huquqlari
- Suvdan va suv xo'jaligi o'ektlaridan foydalanish bo'yicha o'z vaqtida shartnomalarni tuzish va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi.
  - Suv xo'jaligi ob'etlariga, va boshqa asosiy vositalarning texnik xolatiga zarar yetkazmaslik va ulardan belgilangan tartibda foydalanadi.
  - Mavjud suv xo'jaligi ob'etlariga, texnika va uskunalarga yetkazilgan zararni o'rnatilgan tartibda qoplayadi.
  - Suv o'lhash vositalarini o'z hisobidan qurishni ta'minlaydi, olingen suvdan maqsadli foydalanish haqida uyushmaga o'rnatilgan tartibda ma'lumotlar berib boradi.
  - SFU talabi asosida suvni taqsimlash uni istemolchilarga yetkazishni tashkil qilish hamda kechayu-kunduz nazoratni olib borish uchun o'z vakillarini ajratadi.
  - Ajratilgan Suv resurslarini belgilangan limit doirasida suvdan foydalanish rejasi asosida o'z vaqtida berilishini talab qiladi.
  - Tuzilgan shartnomaga asosan berilgan buyurtma bo'yicha o'z vaqtida tegishli xizmatlarini bajarishni talab qiladi.
  - SFU ning ta'sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilari qonun xujjalarda belgilangan boshqa xuquqlarga ûam ega.
4. Uyushma o'z ta'sischilarining boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar emas.

### **Qisqacha xulosalar**

Shirkat xo'jaliklarini tugatilishi, ular o'mnida fermer xo'jaliklarini paydo bo'lishi xududiy usuliga asoslangan Suv ta'minotining xozirgi kun talabi darajasidan orqada qolganini

ko'rsatmoqda. Bu muommani hal qilish uchun Suv xo'jalik tizimlarini xududiy usuldan xavzaviy usulga o'tkazilmoqda. Ushbu usulni amalga oshirish Suv xo'jalik tashkilotlarini sonini 260 tadan 101 taga qisqarishiga olib keldi.

Viloyatlarda irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmalarini tashkil topishi Suv resurslarini boshqarishni xududiy usuldan gidrografik usulga o'tkazishga olib keldi va manbalardagi suvni egasini paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tarkibida Suv iste'molchilariga bevosita Suv yetkazib beradigan irrigatsiya boshqarmalarining tashkil qilinishi manbalardagi suvlardan foydalanish saramadorligini oshirishga sababchi bo'lmoqda.

Ekin dalalariga bevosita Suv yetkazib berishni tashkil qilish maqsadida suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tuzildi va va ular suvdan foydalanishni pullik usulga o'tkazishda muhim rol o'yamoqda.

### **Tayanch so'zlar**

Irrigatsiya tizimi, Suv xo'jaligini boshqarishni xududiy usuli xavzaviy usuli, gidropostlar, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, Suv iste'molchilari, magistral kanallar xo'jaliklararo kanallar, Suv limiti, Suv resurslari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, ta'sis shartnomasi, irrigator, gidrotexnik, gidrometr, mirob.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Suv xo'jalik tizimini boshqarishning hududiy usuli bilan xavzaviy usullarining farqi va o'xshashlik tomonlari.
2. Suv xo'jalik tizimining ûavzaviy boshqarish usuliga o'tishning afzallik tomonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi bosh boshqarmasining tashkiliy strukturası.
4. Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasining tarkibi.
5. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining vazifalari, huquqlari va majburiyatları.
6. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini tashkil qilinishdan maqsad va ularning vazifalari.
7. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining huquqlari va majburiyatları.
8. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining tashkiliy strukturası.
9. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining moliyaviy manbalari.

10. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari bilan suv iste'molchilari o'rtasida suv yetkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnomasining mazmuni.
11. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
12. Meliorativ tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslublari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun, 1993.
2. I.A.Karimov Iqtisodiy islo'otlarni yanada chuqurlashtirish. 1995.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Toshkent, TIMI, 2005.
4. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi qanday tashkil qilinadi. Davlatlarora suv xo'jaligi koordinatsiyalash komissiyasining ilmiy axborot markazi. 2003.

## **IV BOB. Suv meliorativ xo'jaligining asosiy fondlari va aylanma mablag'lari**

### **4.1. Melioratsiya asosiy fondlarining xususiyatlari va tarkibi**

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun ish kuchi bilan birgalikda tabiiy (moddiy) va qiymat shakllaridagi ishlab chiqarish vositalari ham kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari qiymatining quyidagi ifodasini ishlab chiqarish fondlari tashkil etadi.

Ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish fondlari iqtisodiy ma'noda o'zaro farqlanadi. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonining moddiy asheviy moddalarini, ishlab chiqarish fondlari esa ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati hosil bo'lishidagi ular ishtirokining iqtisodiy shaklidir.

Melioratsiya fondlari qishloq xo'jaligi fondlarining tarkibiy qismidir. Ular qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqadagina samarali amal qila oladi.

Suv xo'jaligi va melioratsiya fondlarini ko'paytirish va takomillashtirish qishloq xo'jaligini intensivlashning muhim omili xizmatini o'taydi.

Yerlarni melioratsiyalash keng dasturini amalga oshirish kapital qo'yilmalar katta hajmi va melioratsiya fondlari ko'payishi bilan bog'liqdir. Hozirgi kunga kelib suv melioratsiya xo'jaligining ishlab chiqarish fondlari mlrd.lab so'mni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish vositalari oborotining xarakteri, vazifasi va ularning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokining xususiyatlariga bog'liq holda asosiy va aylanma fondlariga bo'linadi. Mehnat vositalari asosiy fondlar sifatida, mehnat predmetlari esa aylanma fondlari sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Asosiy va aylanma fondlarining iqtisodiy farqlari quyidagilardan iborat:**

Belgilar	Asosiy fondlar	Aylanma fondlar
Xizmat qilish muddati	Ko'p ishlab chiqarish sikllarida qatnashadi	Bitta ishlab chiqarish sikllarida ishlataladi.
Qiymatining tayyor mahsulotiga utishi	Eskirgan sari o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazadi.	O'z qiymatini tayyor mahsulotga to'la va darxol o'tkazadi.
Ishlab chiqarish jarayonida tabiiy shakli saqlanib qolishi.	Ishlab chiqarish jarayonida o'z tabiiy shaklini saqlab qoladi.	Ishlab chiqarish jarayonida o'z tabiiy shaklini yo'qotadi, uni o'zgartiradi.

Suv-melioratsiya xo'jaligining asosiy fondlariga gidrotexnika inshootlari, mashinalar, uskunalar, binolar, transport vositalari, uzatish qurilmalari, instrumentlar, ishlab chiqarish inventari va boshqa asosiy vositalar kiradi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga bo'linadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadi. Noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, lekin xodimlarning maishiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Ularga uy-joylar, maktablar, bolalar bog'chalari, davolash muassasalari, klublar va boshqa madaniy-maishiy binolar hamda inshootlar kiradi.

Asosiy fondlarga korxona balansiga yozilgan mehnat vositalarigina kiradi. Qurilishga keltirilgan mashina va uskunalar asosiy fondlarining ishlab chiqarish zahiralari tarkibida bo'ladi. Bu ishlab chiqarish vositalarining qiymati ular o'rnatilgan va ishga tushirilgandagina asosiy fondlarga kiritiladi.

Aylanma fondlariga, xom ashyo, yoqilg'i, yarim fabrikatlar, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqa mehnat predmetlari kiradi. Rejalashtirish va uchyotni soddalashtirish uchun xizmat muddati bir yildan ko'p bo'lgan predmetlar o'z qiymatidan qat'iy nazar, shuningdek birlik qiymati 50 minimal ish haqidan ortiq bo'lgan predmetlar asosiy fondlarga kiritiladi, lekin birligining qiymati 50 minimal ish haqidan kam bo'lgan barcha predmetlar ham oborot fondlariga kiritilavermaydi.

Qiymatdan qat'iy nazar asbob-uskuna, inventar, kutubxona fondi, musiqa asboblari, sport inventari, mebel va ayrim boshqa predmetlar asosiy fondlarga kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayoni asosiy va oborot fondlari birgalikda qatnashgandagina sodir bo'lishi mumkin. Bu fondlarning birligi va ularning o'zaro birgalikdagi harakati ishlab chiqarishning zarur shartidir.

Ishlab chiqarish fondlari doimo harakatda, doiraviy oborotda bo'ladi, pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tib turadi, keyin tovar shakliga va yana pul shakliga o'tadi va hokazo.

Asosiy fondlar ucheti tabiiy va qiymat ko'rinishida olib boriladi. Asosiy fondlar qiymatining quyidagi turlari farq qilinadi; dastlabki, tiklash, qoldiq va tugatish qiymatlari.

Dastlabki qiymat asosiy vositalar ishga tushirilayetganda ularga haqiqatda qilingan xarajatlardir. Bu qiymat binolar yoki inshootlarni qurilishi va montaj qilish qiymatidan hamda

uskunalar sotib olish qiymatidan tarkib topgan, bunga tashib keltirish va montaj qilish xarajatlari ham kiradi. Mashina va uskunalar uchun dastlabki qiymat ulgurji bahodan hamda tashib keltirish va montaj qilish xarajatlaridan tarkib topadi.

Asosiy fondlar dastlabki qiymati rekonstruktsiya bo'yicha xarajatlar summasiga, ob'ekt qisman yo'q qilinganda esa, yo'q qilinayetgan qism qiymatiga, asosiy fondlar qayta baholashni summasiga o'zgarishi mumkin.

Asosiy fondlarning dastlabki qiymat bo'yicha, ayniqsa bir qancha yillardagi dinamikasidagi ucheti ayrim, kamchiliklarga egadir. Kapital ko'rlishidagi smeta baholari va sanoatning ulgurji baholari vaqtি-vaqtি bilan o'zgarib turadi. Natijada turli vaqtda ishga tushirilgan fondlar qiyoslanib bo'lmaydigan dastlabki qiymatiga ega bo'ladi. Bu esa ularni qayta baholash zaruriyatini tug'diradi.

Asosiy fandlarni qayta baholash, tiklash qiymati bo'yicha o'tkaziladi, bu qiymat esa ularni hozirgi baholarda va ishlab chiqarish sharoitida turli takror ishlab chiqarish qiymatini xarakterlaydi. Qayta baholash asosiy fondlar dastlabki qiymatning turli xil ko'lamlariga barham beradi va ularning baholanishga qobiliyatini ta'minlaydi.

Asosiy fondlarni qayta baholash hukumatning maxsus qarori asosida o'tkaziladi. U ancha murakkab va sermehnat ishdir. Melioratsiya fondlari birinchi marta 1950 yilda suv xo'jaligi tizimlari va inshootlarni pasportlashtirish vaqtida o'tkazilgan edi. 1960 yilda fondlar halq xo'jaligini barcha tarmoqlari bo'yicha qayta baholanadi.

Xo'jalik hisobi asosida ishlovchi korxonalarning asosiy fondlari 1972 yil 1 yanvardagi holati bo'yicha davlat byudjeti muassasalari va tashkilotlari, shu jumladan suv xo'jaligi muassasalari va tashkilotlarining asosiy fondlari 1973 yil 1 yanvardagi xolati bo'yicha qayta baholanadi. Qayta baholashga 1967 yildagi ulgurji baholar, shuningdek qurilishda 1969 yilda joriy etilgan smeta me'yorlari, baholar va takliflar asos qilib olinadi. Shunday qilib 1971-1972 yillarda butun halq xo'jaligi ko'lamida asosiy fondlar bosh inventarizatsiyasi va qayta baholanishi o'tkazildi.

Fondlar buxgalteriya hujjatlarida hisobga olinadigan qiymat balans qiymati deb ataladi. U qayta baholangan fondlar uchun tiklash qiymati hamda qayta baholanmagan fondlar uchun dastlabki qiymat bo'lishi mumkin.

Joriy uchyotda asosiy fondlar qoldiq qiymati aniqlanadi. U dastlabki yoki tiklash qiymati bilan asosiy fondlar amortizatsiya ajratmalari summasi o'rtasidagi farqni tashkil etadi. Asosiy fondlardan ularni tugatish xarajatlari chiqarib tashlangan holda foydalanib bo'lingandan keyin saqlanib qolgan inshootlar, mashinalar, moddalar, detallar, material qismlari qiymati

asosiy fondlar tugatish qiymati deb ataladi. Melioratsiya fondlarining, kichikroq tuproq va beton gidrotexnik inshootlarining bunday qiymati umuman yo'q.

Suv melioratsiya xo'jaligining asosiy fondlari o'z funksional vazifasi va xizmat muddatlariga ko'ra farqlanadigan ko'pdan-ko'p moddiy moddalardan iboratdir. Ular tabiiy buyumlilik belgilari bo'yicha guruhlanadi.

Suv xo'jaligi tashkilotlari va qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy fondlar halq xo'jaligi tarmoqlari uchun qabul qilingan umumiyligi klassifikatsiyasiga ko'ra hisobga olinadi. Moliya vazirligi va markaziy statistika boshqarmasining 1985 yilda qabul qilingan tipovoy klassifikatsiyasiga ko'ra asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va uskunalar, transport vositalari asboblar, ishlab chiqarish inventari, ishchi va mahsuldor hayvonlar ko'p yillik ko'chatlar, yerlarni yaxshilashga sarflangan kapital xarajatlar, boshqa asosiy fondlar.

Qishloq xo'jalik korxonalari va suv xo'jalik tashkilotlarining umumiyligi ishlab chiqarish fondlaridan funksional vazifasiga ko'ra melioratsiya fondlari ajratiladi.

Sug'orish manbaidan suv olish va uni sug'orish uchun dalaga berish sug'orma dehqonchilik melioratsiya fondlarining bevosita funktsiyalaridir. Melioratsiya fondlari suv resurslaridan foydalanish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Melioratsiya fondlari, o'zining farqlanuvchi xususiyatiga egadir. Bu xususiyati shundan iboratki, ishlab chiqarishning bu vositalari lokallashadi., yerning muayyan uchastkasi bilan tutashib ketadi, hamda shu uchastkadagina amal qilish mumkin. Ular yer va suv bilan birgalikdagina: suv inshootlari-yer sxemasi bo'yicha amal qiladi. Shuning uchun melioratsiya fondlarining samaradorligi mazkur uchastka unumдорлиги va qishloq xo'jalik fondlaridan oqilona foydalanish bilan belgilanadi.

Ikkinchi xususiyati shundan iboratki, xizmat muddati uzoq bo'lib, sekin yangilanib turadigan tuproq, beton va tosh inshootlar ko'rinishidagi melioratsiya fondlari ko'pdir. Bu xol suv xo'jaligi tadbirlari loyihalanayotganda uzoq muddatli istiqbol hisobga olinishini taqazo etadi.

Uchinchi xususiyati shundaki, melioratsiya fondlari serkapital mablag' bo'lib, juda qimmatdir. Bu esa kapital mablag' sarflarining ancha chuqr iqtisodiy asoslashni talab qiladi.

To'rtinchi xususiyati shundan iboratki, qishloq xo'jaligida suv iste'mol qilishning yagona texnologik jarayonini ta'minlaydigan melioratsiya asosiy fondlari ikki xo'jalik-qishloq

va suv xo'jaligi boshqarmasi va qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyeridadir. Bu esa melioratsiya fondlaridan foydalanishni va ular ucheti masalalarini murakkablashtiradi.

Hozirgi vaqtida melioratsiya fondlarining puxta klassifikatsiyasi yo'q. Ular qaramligiga ko'ra xo'jaliklararo va ichki xo'jalik melioratsiya fondlariga bo'linadi. Xo'jaliklararo melioratsiya fondlari davlat tizimlariga qarashli bo'lib, ichki xo'jalik melioratsiya fondlari qishloq xo'jalik korxonalari balansida turadi.

Pasportlashtirish paytida suv xo'jaligi tashkilotlarining asosiy fondlari quyidagi guruuhlar bo'yicha hisobga olindi:

- davlat sug'orish (sug'orish-suv chiqarish) tizimlari;
- zovurlar tizimlari;
- suv omborlari;
- boshqa inshootlar;
- aloqa vositalari, foydalaniladigan yo'llar, binolar;
- xo'jalik sug'orish tizimlari.

Melioratsiya tizimlari ishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibi boshqa tarmoqlardan ancha farq qiladi. Bu yerda asosiy fondlarning 60-80% gidrotexnik inshootlar va kanallarga to'g'ri keladi. Mashina va uskunalarga 10 dan 20% gachasi to'g'ri keladi, ularning ulushi muttasil ortib bormoqda.

Melioratsiya fondlari tarkibiga tizimning texnika darajasi, tabiiy sharoitlar, avvalo, geografik va gidrogeologik sharoitlar katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, suv mashinalar yordamida ko'tarib beriladigan sug'orish mintaqasida nasos stantsiyalari va qurilmalari, sug'orishning tog'li rayonlarida suv tashishni yaxshilashga yordam beradigan tarnovlar, suv tushirgichlar, akveduklar katta ulushni tashkil etadi.

Melioratsiya fondlarining asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishdir. Melioratsiya fondlari ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jalik fondlari bilan birgalikda amal qilishi tufayli dehqonchilikning pirovard samarasini qo'llaniladigan barcha ishlab chiqarish vositalarining qo'shib ishlatilishga bog'liq bo'ladi. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilikni intensivlash qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirishni talab qiladi.

Melioratsiya va qishloq xo'jalik fondlarining nisbati xo'jaliklarda turlichadir. Melioratsiya va qishloq xo'jalik fondlarining ulushli hajmlari va ular o'rta sidagi nisbat quyidagi omillar bilan belgilanadi: tabiiy sharoitlar, suv olish va uni tashish usullari, suv chiqarish texnikasi, xo'jalikning ixtisoslashishi, qishloq xo'jalik korxonalari moddiy texnika

bazasining darajasi va hokazo. Jami qishloq xo'jalik va melioratsiya fondlari ulushli hajmlari turli sug'orish tizimlari bo'yicha tebranib turadi.

#### 4.1-jadval

#### **Qishloq xo'jalik va melioratsiya fondlarining 1 ga yerga to'g'ri kelishi, ming so'm**

Viloyatlar	Qishloq xo'jaligi asosiy fondlari: ming so'm	Melioratsiya suv xo'jaligi asosiy fondlari, ming so'm	Jami asosiy fondlar, ming so'm
Qoraqalpog'iston Respublikasi	104,4	46,58	150,98
Andijon	485	29	514,0
Buxoro	248,6	59,3	307,9
Jizzax	45,87	17,3	63,17
Qashqadaryo	38,76	30,78	69,54
Navoiy	35,6	8,26	44,2
Namangan	210,8	12,93	223,73
Samarqand	79,38	15,0	94,38
Surxondaryo	179,47	17,12	196,59
Sirdaryo	76,42	20,48	96,90
Toshkent	186,53	7,69	194,22
Farg'ona	334,98	14,09	349,07
Xorazm	130,53	27,9	158,02
Jami	39,89	22,07	61,96

Suv xo'jaligi tashkilotlari va qishloq xo'jalik korxonalarining optimal fond ta'minotiga erishish-sug'orma dehqonchilik samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Suv-melioratsiya xo'jaligida yer maydoni birligi bo'yicha hisoblab chiqilgan tabiiy ko'rinishdagi melioratsiya fondlarining ulushi ko'rsatkichlaridan keng foydalilanildi. Melioratsiyalangan yerlarning 1 getktari hisobida quyidagi ko'rsatkichlar belgilanadi: sug'orish kanallari va yepiq quritish shaxobchasining uzunligi, (km), sug'orish tizimlaridagi quvurlar (km), sug'orish kanallari va quritish tizimlaridagi gidrotexnika inshootlari (dona), sug'orish manbalaridan suv olish joylari (dona), xo'jalikdagi suv ajratish joylari (dona) va hokazo.

Meliorativ fondlarni tabiiy ko'rsatkichlarda mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar melioratsiyani optimal rejalashtirish va tizimlash uchun qo'llaniladi.

Melioratsiya fondlari uchetni inventarizatsiya va pasportlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Inventarizatsiya-asosiy fondlarning ular qiymati ko'rsatilgan asheviy shaklini bir yo'la hisobga olishdir. Asosiy vositalar saqlanishini uysushtirish va nazorat qilish uchun har bir inventar ob'ektiga inventar nomeri qo'yiladi. Pasportlashtirish-melioratsiya fondlarining miqdori va texnika xolatini aniqlashga qaratilgan eng keng tadbirdir.

Pasportlarda fondlarning texnika xarakteristikasi ko'rsatiladi.

## **4.2. Asosiy fondlar eskirishi va amortizatsiyasi**

Asosiy fondlar ishlab chiqarishda qatnashib tabiiy kuchlar ta'sirida o'z xususiyatlari va jismoniy sifatlarini, asta-sekin yo'qotib boradi, ya'ni jismoniy eskirishga uchraydi. Jismoniy eskirish–bu asosiy fondlarning o'z texnika-ishlab chiqarish xususiyatlari va iste'mol qiymatini yo'qotishidir.

Moddiy eskirish iste'mol qilish va iste'mol qilmaslik natijasida ham sodir bo'lisi mumkin. Birinchi holda mehnat vositalari ishlab chiqarish jarayonida mexanik eskirishga uchraydi. Ikkinci xil eskirish tabiiy sharoitlar ta'sirida sodir bo'ladi. Shuning uchun jismoniy eskirishga ishlab chiqarishda foydalanilishi yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar barcha asosiy fondlar uchraydi.

Suv-melioratsiya xo'jaligida asosiy fondlarning iste'mol qilinmaslik tufayli eskirishi o'z hajmiga ko'ra goho iste'mol qilinganidan ancha ortib ketadi. Bu narsa ishlab chiqarishning mavsumiyligi va ishlab chiqarishga tabiiy sharoitlar ta'siri bilan shartlangandir.

Asosiy fondlar jismoniy eskirishdan tashqari ma'naviy eskirishga ham uchraydiki, bu narsa asosiy fondlarning qadrsizlanishida yoki to'la-to'kis jismoniy eskirishgacha ishlab chiqarish jarayonidan chiqib qolishida ifodalanadi.

Mehnat vositalari muttasil yangilanib turishi zaruriyatini tug'diradigan texnika taraqqiyoti ma'naviy eskirishning moddiy asosidir. Barcha melioratsiya va qishloq xo'jalik fondlari, avvalo mashina va uskunalar ma'naviy eskirishga uchraydi.

Fondlar ma'naviy eskirishining asosiy sababi yangi mehnat vositalarining ancha yuqori unumdoorligi va ular ishlarining past tannarxidir. Ma'naviy eskirish qiymat ko'rinishda quyidagi ikki shaklda namoyon bo'ladi: 1) asosiy fondlarning ularni ishlab chiqarish arzonlashishi tufayli qadrsizlanishi; 2) asosiy fondlarning yangi, ancha yuqori unumli texnika yaratilishi tufayli qadrsizlanishi.

Birinchi xil ma'naviy eskirishdan, yo'qotishlar texnika ishlab chiqaradigan tarmoqlarda mehnat unumdoorligi oshishi munosabati bilan bir tipdag'i mashina va uskunalar ulgurji baholari o'zgarishiga ko'ra aniqlanadi.

$$UmI = \frac{Ss - Sn}{Tn}$$

bunda: UmI – birinchi xil ma'naviy eskirish, so'm / yil;

S<sub>s</sub> va S<sub>n</sub> – eskirgan va yangi texnika ulgurji bahosi, so'm;

T<sub>n</sub> – texnika xizmat qilishining me'yor muddati, yillar.

Ikkinchi xil ma'naviy eskirishdan yo'qotishlar hajmi ma'naviy eskirgan texnika tiklash qiymatining mazkur texnika dastlabki qiymatidan og'ishiga ko'ra aniqlanadi. Tiklash qiymatini yangi texnika ishi tannarxini va eskirgan texnika ishi tannarxini ifodalaydigan koeffitsiyentini qo'llangan holda hisoblab chiqish mumkin.

$$Um_2 = \frac{Sp - Sp \cdot K}{Tn} = \frac{Sp - Sv}{Tn}$$

bunda:  $Um_2$  – ikkinchi xil ma'naviy eskirish, so'm yil;

Sp – eskirgan texnikaning dastlabki qiymati, so'm;

Sv – eskirgan texnikaning tiklash qiymati, so'm;

K – yangi texnika qo'llanilishi natijasida ish birligi tannarxi pasayishining koeffitsiyenti (S<sub>n</sub>/S<sub>u</sub>).

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ma'naviy eskirish jismoniy eskirishdan o'zib ketishi kerak. Lekin amalda suv va qishloq xo'jaligida jismoniy eskirish sur'atlari bo'yicha ma'naviy eskirishdan o'zib ketmoqda.

Yangi, ancha samarali texnikani ixtiro qilish hali ikkinchi xil ma'naviy eskirish sodir bo'layotganligini bildirmaydi. To'la ma'naviy eskirish yangi texnika eskirgan texnikani ayrim xodisa tarzida emas, balki ommaviy ko'lama siqib chiqarganda namoyon bo'ladi.

Asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishi iste'mol qiymati kamayishiga olib keladi, ya'ni ularning qiymati ham kamayadi. Asosiy fondlar qiymati kamayishi kattaligi dastlabki qiymatidan ajratiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotga yoki ishga o'tkaziladi. Asosiy fondlar eskirishini ularning yo'qolgan qiymatini tayyorlangan mahsulot qiymatiga o'tkazish yo'li bilan qoplash jarayoni amortizatsiya deb ataladi.

Asosiy fondlarning har yilgi eskirishi ularni realizatsiya qilishda amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida mahsulot tannarxiga tarkibiy qism bo'lib kiradi. Shunday qilib, asosiy fondlarning doiraviy aylanishi asosiy vositalarning qiymat ko'rinishida saqlanishini taminlaydigan amortizatsiya orqali amalga oshiriladi.

Yillik amortizatsiya ajratmalari summasi asosiy fondlarning dastlabki qiymatiga (Sp), asosiy fondlarning butun xizmat qilish muddati ichidagi kapital remontiga ketgan xarajatlarga (3kr), asosiy fondlarni tugatish qiymati (Sl) va ularning xizmat qilish muddatiga (Tn) va fondlarni takomillashtirishning qiymati (M).

$$S = Sp + Zkr + M - Sp$$

Amortizatsiya asosiy fondlarning xizmat qilish muddatiga propotsional tarzda yoki bajarilgan ish va ishlab chiqarilgan mahsulotga proprotsional tarzda hisoblab chiqariladi.


Amortizatsiya ajratmalar (A) to’la tiklash yoki renovatsiyaga (Av) va qisman tiklash yoki kapital ta’mirlashga (Akr) bo’linadi:

$$A = Av + Akr.$$

Amortizatsiya ajratmalarining yillik summasini aniqlash uchun quyidagi formulalardan ifodalanadi:

$$A = \frac{Sp + Zkr - Sp}{Tn}; \quad Av = \frac{Sp - Sl}{Tn}; \quad A = \frac{Zkr}{Tn}.$$

### **Asosiy ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi**



Amortizatsiya. “Halq xo’jaligida amortizatsiya ajratmalarini rejalashtirish, yozish va ularidan foydalanish tartibi to’g’risida” gi tasdiqlangan nizomga muvofiq me’yorlar bo’yicha yeziladi. Amortizatsiya me’yori–bu eskirgan sari mahsulot tannarxiga o’tkazadigan asosiy fondlar qiymatinig ijtimoiy zarur ulushidir. Amortizatsiya me’yori a-umumiylar me’yor, Av-tiklashga, Akr-kapital ta’mirlashga asosiy fondlar dastlabki qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi.

Amortizatsiya ajratmalari me'yorining hisob-kitob namunasini ko'rib chiqamiz. Inshoot uchta qismdan iborat: A, B va V. Dastlabki qiymat (ming so'm) A-80, B-40, V-20. Xizmat qilish muddatlari (yillarda) A-8, B-4, V-2. Xizmat qilish umumiy muddati yetakchi bo'g'in (Tn-8 yil) bo'yicha belgilanadi.

Inshootlar	Yillar							
	1	2	3	4	5	6	7	8
A				80				
B		40					40	
V	20		20		20			20

Inshootning dastlabki qiymati 140 ming so'm, kapital ta'mirlash xarajatlari 100 ming so'm. Amortizatsiya ajratmalari me'yorlari hisob-kitobi o'tkaziladigan umumiy qiymati 240 ming so'm. Amortizatsiya summasi quyidagilarni tashkil qilishi sharti bilan:

$$a = \frac{(Sp + Zkr - Sl) \cdot 100}{Sp \cdot Tn} = \frac{(140 + 100) \cdot 100}{140 \cdot 8} = 21,4\%$$

$$av = \frac{(Sp - Sl) \cdot 100}{Sp \cdot Tn} = \frac{140 \cdot 100}{140 \cdot 8} = 12,5\%$$

$$akr = \frac{Zkr \cdot 100}{Sp \cdot Tn} = \frac{100 \cdot 100}{140 \cdot 8} = 8,9\%$$

Amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi ajratmalari uchun amortizatsiyaning tasdiqlangan me'yorlari qo'llaniladi. Amortizatsiya ajratmalari har qaysi ob'ekt yoki bir xil fondlar guruhi bo'yicha quyidagi formulalarda o'tkaziladi.

$$A = \frac{Cn \cdot a}{100}; \quad A_B = \frac{C_{\Pi} \cdot a}{100}; \quad A_{kp} = \frac{C_{\Pi} \cdot akv}{100}.$$

Halq xo'jaligi asosiy fondlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining asosiy me'yorlari barcha korxona va tashkilotlar uchun yagona bo'lib, bundan buyon differentsiallanmaydi.

Sug'orma dehqonchilik asosiy melioratsiya fondlari bo'yicha amortizatsiya noralarini ko'rib chiqamiz (4.2. jadval).

4.2-jadval

### Melioratsiya fondlari ayrim turlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalar me'yorlari

Melioratsiya fondlari guruh va turlari	Amortizatsiya ajratmalari umumiy me'yori %	Shu jumladan kapital remontga %	Fondlar xizmat qilishining me'yori muddati, yil.	Fondlar xizmat ko'rsatishi muddati uchun kap.rem qiymati %
Xo'jalilararo va ichki xo'jalik sug'orish kanallari (qoplamasiz yer, tosh, beton va temir beton qoplamalari kanallar) Ochiq yer kanallaridan qurilgan xo'jaliklararo va xo'jalik ichki suv olish va tashlash hamda kollektor-drenaj shaxobchasi Kanallardagi gidrotexnik inshootlar (tartibga soluvchi shlyuzlar, mastoprovodlar, suv tushirgichlar, tezokarlar, dyukerlar, akveduklar, tosh, beton va temir beton kanallar) Asbtsiment sopol va plastmassa trubalaridan kurilgan yepiq kollektor-drenaj shaxobchasi Yer tug'risidagi suv omborlari Ko'chma nasos stantsiyalari Yemg'ir mashinalari va qurilmalari Yerlarni yaxshilashga kapital xarajatlar	3,8  4,0  3,8  3,2  1,35 12,5  12,5  12,0	1,8  2,0  1,3  0,7  - 6,5  6,5  -	50  50  40  40  75 8  8  8,5	90  100  52  28  - 52  52  -

Amortizatsiyaning amaldagi me'yorlari jismoniygina emas, balki ma'naviy eskirishni ham hisobga oladi. Ular avvalgi me'yorlarga nisbatan renovatsiyaga amortizatsiyaning ancha oshirilgan me'yorlariga egadirlar. Melioratsiya fondlarining ko'p turlari bo'yicha kapital remontga amortizatsiya ajratmalari kamaytirilgan. Natijada fondlar xizmat ko'rsatishi muddati uchun kapital ta'mirlash ulushi qiymati kamaytirildi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, amortizatsiya ajratmalari hozirgi vaqtida suv iste'mol qiladigan xo'jaliklarning ichki xo'jalik melioratsiya fondlari bo'yicha o'tkaziladi. Xo'jaliklararo melioratsiya fondlari amortizatsiya ajratmalari o'tkazilmaydigan byudjet tashkilotlari balansida turadi. Bunday holda kapital ta'mirlash byudjet mablag'lari hisobidan o'tkaziladi.

Suv-melioratsiya xo'jaligida xizmat qilish muddati katta bo'lган ishlab chiqarish ob'ektlari ko'pchilikni tashkil etadi, shuning uchun bunda amortizatsiya ajratmalari o'rtacha me'yorlari katta bo'lmay 4-6% ni tashkil etadi. Davlat sug'orish tizimlari fondlari bo'yicha

amortizatsiya o'rtacha me'yori 4,4% ni, shu jumladan fondlarni ishlatish o'rtacha muddati 38 yil bo'lganda 1,8% ni, ichki xo'jalik fondlari bo'yicha – tegishli ravishda 4,1%, 1,7% va 42 yilni tashkil etadi.

Suv ta'minoti tizimlari melioratsiya tizimlaridan mashinalar, metal konstruktsiyalari katta ulushi bilan ajralib turadi, oqibatda o'rtacha amortizatsiya me'yori 5-10% ni tashkil etadi.

Amortizatsiya asosiy fondlar qiymatidan har oyda yillik me'yorning 1:12 qismi miqdorida yozib boriladi. To'la yillik tiklash (revnotsiya) ga amortizatsiya ajratmalari summasi davlat byudjetiga o'tkaziladi va kapital xarajatlarni pul bilan ta'minlash manbalaridan biri hisoblanadi. Xo'jalik hisobiga o'tkazilgan korxonalarda bu ajratmalarining 40% gachasi korxonaning o'z ixtiyerida qoldiriladi va asosiy fondlarni tiklash hamda kengaytirish uchun foydalaniladi. Kapital ta'mirlashga ajratmalar to'la ravishda korxona ixtiyerida qoldiriladi va ulardan maqsadli ishlarda foydalaniladi. Suv xo'jaligi korxonalarining to'la xo'jalik hisobi, o'z xarajatini o'zi qoplashga va o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishi hamda suvdan pulli foydalanish joriy etilishi munosabati bilan barcha amortizatsiya ajratmalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun korxona ixtiyerida qoldiriladi.

Ichki xo'jalik sug'orish shaxobchasining yillik ekspluattsion chiqimlarida amortizatsiya ajratmalari 50% dan ko'prog'ini tashkil etadi. Bu butun xo'jalikdagidan ancha ko'pdir. Har yilgi xarajatlardagi amortizatsiya ajratmalarining katta ulushi ularni asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash hisobiga mahsulot birligi hisobida kamaytirish zarurligini ko'rsatadi.

#### **4.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash ko'rsatkichlari va yo'llari**

Suv-melioratsiya xo'jalingining samaradorligi ko'p jihatdan asosiy fondlardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ulardan foydalanishning yaxshilanishi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirish, mehnat unumдорligini o'stirish va tannarxni pasaytirish omillaridan biridir. Yerlarni melioratsiyalash qishloq xo'jalingini intensivlashning kapital mablag'larni ko'p talab qiladigan yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun fondlardan samarali foydalanish muammosi bunda yanada ko'proq keskinlik kasb etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlari umumiyligi va xususiy bo'lishi mumkin. Umumiyligi ko'rsatkichlar halq xo'jalingining barcha tarmoqlarida, xususiy ko'rsatkichlar esa ayrim tarmoqlaridagina qo'llaniladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi fond samaradorligidir. Fond samaradorligi ko'rsatkichi asosiy fondlar birligiga pul ifodasida ishlab chiqarilgan foyda miqdori bilan aniqlanadi. Hozirgi sharoitda bu ko'rsatkich rejalahtirish va asosiy fondlar samaradorligi ucheti praktikasiga nisbatan keng qo'llaniladi.

Sug'orish va zaxini qochirish tizimlari uchun ular unumdotligining ko'rsatkichi melioratsiya va qishloq xo'jalik fondlari birligiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jalik mahsulotining qiymatidir. 1)  $f_{ot} = A_{vp} / f_{os}$ : 2)  $F_s = p / f_{os}$ .

Bunda:  $f_{ot}$ =fond unumdotligi, so'm.

$A_{vp}$ =yalpi mahsulot qiymati, so'm.

$F_{os}$ =asosiy fondlar qiymati, so'm.

$F_s$ =fond samaradorligi, so'm.

$P$ =fondlardan foydalanish natijasida olingan foyda.

Fond samarasi ko'rsatkichi jami ishlab chiqarish fondlarining ham, ayrim holda asosiy va oborot fondlarining ham samaradorligini xarakterlaydi.

Fond unumdotligidan tashqari tahlilda unga teskari bo'lgan fond sig'imi ham qo'llaniladiki, bu mahsulot qiymati birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish asosiy fondlari qiymatini xarakterlaydi.

$F_{em} = F_{os} / A_{vp}$ .

Fond sig'imining kamayishi asosiy fondlarda buyumlashgan mehnat tejamini xarakterlaydi.

Asosiy fondlar tez ko'payishi munosabati bilan qishloq va suv xo'jaligida fond sig'imi darajasi hozirgi vaqtida o'smayotir. Bunga qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish sur'atlarining asosiy fondlar o'sishi sur'atlaridan orqada qolayotganligi sabab bo'lmoqda.

Suv-melioratsiya xo'jaligida asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari qo'shimcha qiymat emas, balki tabiiy ko'rinishda ishlataladi. Melioratsiya tizimlari asosiy fondlari samaradorligini xarakterlovchi ko'pgina xususiy ko'rsatkichlar yer va suvdan foydalanish bilan chambarchas tutashib ketadi. Shuning uchun yerdan foydalanish, suvdan foydalanish va shaxobchaning foydali ish koeffitsiyentlari melioratsiya tizimlari asosiy fondlaridan foydalanish darajasini xarakterlaydi.

Melioratsiya tizimlari assosiy fondlaridan foydalanishni xarakterlovchi fond samarasining tabiiy ko'rsatkichlaridan biri sug'orish manbaidan olingan suv miqdori yoki fondlar qiymati birligi hisobidagi xo'jalik ajratmasi nuqtasida berilgan suv miqdoridir.

Sug'orish tizimlari bo'yicha sug'orish manbalaridan suv olishning tahlili olingan suv miqdori oylar bo'yicha ko'p tebranib turishini ko'rsatadi. Melioratsiya fondlaridan oqilona va samarali foydalanish uchun sug'orish shaxobchasida baravar ish bo'lishiga erishmoq kerak.

Sug'orish tizimi xizmat ko'rsatadigan sug'oriladigan yerlar hajmi melioratsiya fondlaridan foydalanish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

#### 4.3-jadval

### **Asosiy ishlab chiqarish melioratsiya fondlarining xizmat ko'rsatiladigan maydonlar hajmiga bog'liqligi unumidorligi.**

Ko'rsatkichlar	Xizmat ko'rsatiladigan maydon hajmi bo'yicha = x / svb guruhlari				o'rtacha
	15 gacha	15-35	25-40	40 dan ortish	
Guruhdagi suv xo'jaligi tashkilotlari soni.	3	4	2	1	
Sug'orish materiallaridan asosiy melioratsiya fondlari 1 so'm hisobida olingan suv, m <sup>3</sup> .%	37,7	40,6	48,1		
Ajratma nuqtalarida xo'jaliklarga asosiy melioratsiya fondlari 1 so'm hisobida suv berish, m <sup>3</sup>	100	107	127		
%	28,0	32,4	36,5	40,6	32,7
	100	111	125	140	112

4.3-jadvaldan ko'rinish turibdiki, suv xo'jalik tizimlari mustahkamlanib borgani sari melioratsiya fondlari unumidorligi ortib boradi.

Suv-melioratsiya xo'jaligi moddiy-texnika bazasini muttasil o'sishi va mustahkamlanishi sharoitida ishchilarining asosiy fondlar bilan ta'minlanishi – fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi (Fv) ko'rsatkichi katta ahamiyat kasb etadi.

$$Fv = Fos / Chg$$

bunda: Chg – xodimlarning o'rtacha yillik soni.

Bu ko'rsatkichdan tashqari idoraviy xo'jalikning ayrim ishlab chiqarishlarida ishchilarining mexanizm bilan ta'minlanganligi o'rtacha yillik ishchi hisobidagi mashina va mexanizmlar qiymati hisoblab chiqiladi.

Fond samarasi ko'rsatkichi mehnat unumidorligi va fond bilan ta'minlanganlik bilan chambarchas bog'liqir. Bu bog'liqlikni matematika yo'li bilan quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\phi_{om} = \frac{A_{\sigma n}}{\phi_{oc}} = \frac{A_{\sigma n}}{\Psi_{\sigma}}; \quad \frac{\phi_{oc}}{\Psi_{\Gamma}} = \frac{B}{\Phi_{\sigma}};$$

bunda: V-bir o'rtacha yillik xodim boshiga ishlab chiqarish, so'm.

Fond samarasining o'sishi mehnat unumdarligi o'sishi sur'atlaridan xodimlar fond bilan ta'minlanishi o'sishining sur'atlariga nisbatan ustunligi natijasidir. Bunday ustunlik qancha ko'p bo'lsa, fond samarasi usishining sur'atlari shuncha yuqori bo'ladi.

Ta'mirlash va qurilish suv xo'jaligi tashkilotlarida fondlar aktiv qismidan foydalanishni taxlil qilishga katta ahamiyat beriladi. Mashina va uskunlardan foydalanish ekstensiv, intensiv va integral yuklamalar ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Ekstensiv yuklama ko'rsatkichi fondlardan vaqt ichida foydalanishni xarakterlaydi. Mashinalar yoki uskuna ekstensiv yuklamasining koeffitsiyenti (Ke) quyidagicha aniqlanadi:

$$Ke = Tf / Tr$$

Bunda: Tf – mashina yoki uskuna haqiqatda ishlagan vaqt,s;

Tr – mashina yoki uskuna ishlashining rejimli (mumkin bo'lgan) vaqt, s.

Intensiv yuklama ko'rsatkichi asosiy fondlar quvvatlari ish bilan ta'minlanganligi darajasini xarakterlaydi. Intensiv yuklama koeffitsiyenti (Kn) haqiqatdagi quvvat (yoki o'tkaza olish) ning mashina, uskuna yoki inshoot to'la quvvatiga munosabati bilan aniqlanadi:

$$Kn = Qf / Qm$$

Bunda: Qf – quvvat bo'yicha fondlarning tabiiy ko'rinishda vaqt birligida haqiqatda ish bilan ta'minlanishi.

Qm–quvvat bo'yicha fondlarning tabiiy ko'rinishda vaqt birligida ish bilan mumkin bo'lgan eng ko'p ta'minlanishi.

Fondlardan foydalanishning integral koeffitsiyenti ulardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari ko'paytmasiga tengdir.

$$Kint = Ke \cdot Kn = Tf \cdot Qf / Tr \cdot Qm.$$

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi ko'p omillarga bog'liq kompleks muammodir. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish vositalaridan yanada samarali foydalanish tadbirlari ko'rilgan. Xo'jalik hisobidagi korxonalarda fondlar uchun haq to'lash joriy qilingan, kapital qurilish va asosiy fondlar olishni pul bilan ta'minlanish tartibi o'zgartirilgan–byudjet yo'li bilan moliyalash urniga uzoq muddatli kredit berish qo'llanilmoqda. Bu qurilish, asosiy fondlar olish va ulardan foydalanish uchun korxonalar ma'suliyatini oshiradi.

#### **4.4. Aylanma mablag'lar tarkibi, tarkibi va me'yorlashtirilishi**

Har bir korxonaga me'yoriy ishlab chiqarish faoliyati olib borish uchun asosiy fondlar bilan birga aylanma fondlari (mehnat predmetlari) ham kerak bo'ladi. Suv xo'jaligi tashkilotlarining aylanma fondlari ikki asosiy qismga-ishlab chiqarish zahiralari va ishlab chiqarishdagi mablag'larga bo'linadi.

Aylanma fondlarning birinchi qismi shu bilan shartlanganki, ishlab chiqarishda qatnashadigan mehnat predmetlari bitta ishlab chiqarish jarayonida sarflanadi. Shu tufayli ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz borishi uchun materiallar, yoqilg'i, xom ashe, ehtiyoj qismlari kam qimmatli va tez eskiradigan predmetlarning ishlab chiqarish zahiralari hamda boshqa mehnat predmetlariga ega bo'lish zarur.

Ishlab chiqarish zahirasi korxonaning belgilangan ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish yuzasidan uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun navbatdagi rejali, davrda ko'zda tutilishi lozim bo'lgan xom ashe va materiallarning iloji boricha eng optimal miqdoridir.

Tovar-moddiy boyliklar zahirasini rejalashtirishda kundalik ishlab chiqarish talabi va zahira me'yordagi hisobga olinadi. Xom ashyo va materiallarning o'rtacha kunlik sarfi yildagi ish kunlari soni hisobida mazkur materialga yillik talabning xususiy ajratmasi sifatida aniqlanadi.

Xom ashyo va materiallarning ishlab chiqarish zahirasi joriy tayyorlov, sug'urta va mavsumiy zahiralarga bo'linadi.

Joriy zahira ishlab chiqarishni zarur materiallar bilan ta'minlashga va ikki safar yetkazib berish navbatlari o'rtaqidagi davrga mo'ljallangan bo'ladi. Uning kattaligi materialning o'rtacha sutkalik iste'moli miqdoriga va navbatdagi yetkazib berishlar o'rtaqidagi intervalga bog'liq holda belgilanadi.

Tayyorlov zahirasi ishlab chiqarishga materiallar jo'natish oldidan tayyorgarlik operatsiyalari (qabul qilish, yuk tushirish, saralash, quritish, komplektlash va xokazo) o'tkazish zarurati tufayli vujudga keladi.

Sug'urta (garantiyalı) zahirasi shaxobcha va gidrotexnika inshootlari avariyalari hamda ta'minotdagi uzilishlar xollarida materiallarga joriy talabdan ortiq miqdorda yaratiladi. Amalda sug'urta zahirasining me'yori materiallar notekis, yetkazib berish rejali muddatlaridan juda kechikib yetkazib berilgan xollarda joriy zahiraning 50% i miqdorida belgilanadi.

Mavsumiy zahira yetkazib berilishi mavsumiy sharoitlar (qatnov to'xtab qolishi, kuzgi va bahorgi loygarchilik) tufayli uzoq tanaffuslar bilan bo'ladigan materiallardan tuziladi.

Sug'orish va zaxini qochirish tizimlarida ishlab chiqarish zahirasining miqdori ta'minot sharoitlariga bog'liq bo'ladi hamda mazkur zahira to'ldiriladigan muddatlar bilan belgilanadi.

Suv xo'jaligi ta'mirlash qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish zahirasi ancha yuqori bo'ladi. U ishlab chiqarish hajmi, iste'mol me'yordari va ishlab chiqarish jarayoni xarakteriga bog'liqdir.

Ishlab chiqarishdagi mablag'lar – tugallanmagan ishlab chiqarish ko'rinishida bevosita ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan aylanma fondlarining ikkinchi qismidir. Ular tugallanmagan ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish jarayoni uzlusiz bo'lishini ta'minlash ishlab chiqarish soxasidagina emas, balki muomala soxasida ham mablag'larga ega bo'lish kerak. Shuning uchun korxona aylanma fondlari bilan birga muomala fondlariga ham egadir. Muomala fondlariga tayyor, lekin sotilmagan mahsulot qiymati, bajarilgan, lekin iste'molchi haqini to'lamagan ishlar qiymati, shuningdek, pul mablag'lari kiradi. Naqd pul mablag'larining bo'lishi yetkazib beruvchilar bilan xisob-kitob ish haqi va majburiyatları bo'yicha operatsiyalar o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi.

Aylanma fondlari muomala fondlari bilan aylanma mablaglarini tashkil etadi. Qurilish tashkilotlarining aylanma mablag'larini tarkibi va (%larda).

1. Aylanma ishlab chiqarish fondlari – 76.
    - a) ishlab chiqarish zahiralari - 67.
    - b) ishlab chiqarishdagi mablag'lar - 9.
  2. Muomala fondlari -24.
    - a) hisoblardagi mablag'lar -19.
    - b) pul mablag'lari - 5.
- Jami aylanma mablag'lar -100.

Aylanma mablag'lar miqdori va ularning suv xo'jaligi ayrim turlari bo'yicha tarkibi keng chegaralarda o'zgarib turadi. Melioratsiya tizimlarida aylanma mablag'lar miqdori asosiy fondlarga nisbatan juda kamdir. Aylanma mablag'larining asosiy ulushi materiallar zahiralariga to'g'ri keladi. Qurilish-montaj tashkilotlarida aylanma mablag'lari ancha ko'p. Ular miqdori asosiy fondlardan ortiqdir.

Aylanma va asosiy fondlar nisbati sug'orish tizimlarida 1:1,00 ni, qishloq xo'jalik korxonalarida 1:1,5 ni, qurilish tashkilotlarida 1:0,75, 1:0,5 ni tashkil etadi.

Aylanma mablag'lar miqdori xo'jalik hisobidagi korxonalarda me'yorashtiriladi. Aylanma mablag'lar me'yorlari uzlusiz ishlash uchun zarur bo'lgan eng kam zahiralardir. Me'yorlar ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi darajasi va moddiy-texnika ta'minoti sharoitlariga bog'liq holda aylanma mablag'lari turlari bo'yicha belgilanadi.

Aylanma mablag'larni me'yoriylashtirish iqtisodiy va moliyaviy ishning muhim uchastkasidir. Me'yorashtirish yo'li bilan aylanma mablag'laridan oqilona foydalanishga erishiladi, ishlab chiqarish va muomala sohalari o'rtasida to'g'ri taqsimot ta'minlanadi.

Pul ifodasidagi aylanma mablag'lari miqdori moliya rejali bilan tasdiqlanayotganda belgilanadi. Aylanma mablag'lari vujudga kelish manbalariga ko'ra o'z va qarz mablag'lari bo'linadi. Har bir iqtisodiy mustaqil korxona shunday miqdorda o'z aylanma mablag'lari ega bo'ladiki, natijada uzlusiz ishlash uchun ularga bo'lgan doimiy ehtiyojni ta'minlay oladi. Qarz mablag'lar (qisqa muddatli qarzlar) aylanma mablag'lari me'yordan ortiq talab paydo bo'lgan mavsumiy yoki vaqtinchalik ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan bo'ladi.

Aylanma mablag'lar takror ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlashga qaratilgandir. Bunga eng tejamli usulda, aylanma mablag'larining eng kam miqdori bilan erishmoq kerak.

Mablag'lar aylanishi bir ishlab chiqarish jarayoni davomida tugallanadi, ya'ni bir safargi doiraviy aylanish hisoblanadi. Aylanish davri mablag'larning ishlab chiqarishda va muomalada bo'lgan vaqtidan – tovarlarni ishlab chiqarish uchun olish momentidan ishlab chiqarilgan mahsulot haqini to'lash momentigacha bo'lgan vaqtdan tarkib topadi. Shuning uchun aylanish qancha tez tugallansa, ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun shuncha kam pul mablag'i kerak bo'ladi. Aylanishning sekin lashuvi qo'shimcha mablag'lar talab qiladi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi ikkita ko'rsatkich bilan aniqlanadi:

1) aylanishda bo'lishning muayyan vaqt ichida (kvartal, yil) aylanishlar sonini xarakterlaydigan koeffitsiyenti ( $K_o$ ) bilan ko'rsatiladi.

$$K_o = Avp / Sob$$

Bunda:  $Avp$  – yalpi mahsulot qiymati, so'm.

$Sob$  – aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i, so'm.

2) kunlardagi bir aylanishning aylanishda bo'lishi yoki uzunligi bilan (Do)

$$Do = T \cdot Sot / Avp = T / K_o$$

Bunda:  $T$  – kunlardagi davrning davomiyligi (30, 90, 360).

Misol: qurilish tashkiloti bir yil ichida 3000 ming so'mlik ishlar hajmini bajaradi. Aylanma mablag'lari kvartal oxirida I – 750 ming, so'm; II – 800, III – 850, IV – 600 ming so'm bo'ladi. O'rtacha yillik qoldiq – 750 ming so'mni tashkil etdi.

$$Ko = 3000 / 750 = 4 \text{ oborot.}$$

$$Do = 360 \cdot 750 / 3000 = 90 \text{ kun yoki } 360 / 4 = 90 \text{ kun.}$$

Aylanma mablag'lari aylanishda bo'lishini jadallashtirish katta halq xo'jalik ahamiyatiga egadir.

Aylanma mablag'lari aylanishda bo'lishini jadallashtirishning asosiy yo'llari ishlab chiqarish jarayoni davomiyligini kamaytirish, qurilish muddatlarini qisqartirish. Aylanma mablag'larining me'yordan ortiq zahiralari bo'lishiga yo'l qo'ymaslik sotiladigan mahsulot va bajarilgan ishlar ùisob-kitobini o'z vaqtida qilishdir.

## **Qisqacha xulosalar**

Suv melioratsiya xo'jaligining asosiy fondlariga gidrotexnika inshootlari, mashinalar, uskunalar, binolar, transport vositalari, uzatish qurilmalari, instrumentlar, ishlab chiqarish inventari va boshqa asosiy vositalar kirdi.

Meliorativ fondlarining asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishdir.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi qiymat ko'rinishda quyidagi ikki shaklda namoyon bo'ladi: 1) Asosiy fondlarning ularni ishlab chiqarish arzonlashishi tufayli qadrsizlanishi; 2) Asosiy fondlarning yangi, ancha yuqori unumli texnika yaratilishi tufayli qadrsizlanishi.

Asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishi iste'mol qiymati kamayishiga olib keladi, ya'ni ularning qiymati ham kamayadi.

Asosiy fondlarning har yilgi eskirishi ularni realizatsiya qilishda amortizatsiya ajratmalar ko'rinishida mahsulot tannarxiga tarkibiy qism bo'lib kirdi.

Amortizatsiya asosiy fondlarning xizmat qilish muddatiga proportsional tarzda yoki bajarilgan ish va ishlab chiqarilgan mahsulotga proportsional tarzda hisoblab chiqiladi.

Fond samaradorligi ko'rsatkichi asosiy fondlar birligiga pul ifodasida ishlab chiqarilgan foyda miqdori bilan aniqlanadi.

## **Tayanch so'zlar**

Asosiy fondlar, aylanma fondlar, melioratsiya fondlari, ishlab chiqarish fondlari, noishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlarni pasportlashtirish, asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishi, amortizatsiya ajratmalar, amortizatsiya normasi, fond samaradorligi, fond sig'imi, fond qaytimi, xom ashyo, sug'urta zaxirasi, muomala fondlari, pul mablag'lari, yalpi mahsulot qiymati.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Asosiy va aylanma fondlarni farqlash.
2. Asosiy va aylanma fondlarning suv xo'jaligini rivojlantirish ahamiyati va tutgan o'rni.
3. Asosiy va aylanma fondlarni shakllantirish manbalari.

4. Asosiy fondlarning jismoniy va ma’naviy eskirishi.
5. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar.
6. Asosiy fondlarga amortizatsiya ajratmalarini aniqlash.
7. Asosiy va aylanma fondlardan to’liq va samarali foydalanish uchun qanday masalalarga e’tibor beriladi.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. A.S.Sultonov, S.Xo’jayev, D.Minin. «Sug’oriladigan yerlar suv xo’jaligi ekonomikasi». Toshkent «Mehnat», 1999.
2. A.Abdug’aniyev, A.A.Abdug’aniyev. «Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti». O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.
3. F.K.Kayumov. Effektivnost APK v usloviyax perexoda k ro’nku. Moskva, IPO. «Poligron», 1992.

## **V Bob. Suv xo'jaligida kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi**

### **5.1. Suv xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash**

Kishilar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi kuchlar asosini tashkil etadi. Bunda kishilar ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng aktiv qismi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadilar, tabiiy boyliklarni o'zlashtiradilar, yangi texnika yaratadilar va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtiradilar.

Faqat jonli mehnatgina moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaraoladi va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishning asosiy manbai hisoblanadi. Kishilarning mehnat faoliyatiga qarab chiqilayotganda asosiy narsa mehnatning o'zi emas, balki uning natijaliligi yoki unumdorligidir.

Mehnat xarakterini ishlab chiqarish munosabatlari belgilaydi, uning mazmuni esa moddiy-texnika bazasi taraqqiyoti darajasiga bog'liq bo'ladi. Suv va qishloq xo'jaligidagi mashina texnikasining muttasil takomillashtirilishi va ishlab chiqarish texnologiyasining industriyalashtirilishi kadrlar tegishli tarkibi hamda malakasini shartlaydi.

Melioratsiya va suv xo'jaligining yuqori mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida kadrlarning roli ancha o'sadi. Birinchidan, suv xo'jaligidagi hozirgi ishlab chiqarish vositalari kadrlar mahsus tayyorlangandagina o'zlashtirilishi mumkin. Ikkinchidan, murakkab gidrotexnika inshootlari yaratilishi hamda mashinalar birligi quvvatining oshishi ishlatish jarayonini murakkablashtiradi. Bu esa xodimlar malakasi darajasini oshirishni talab etadi. Uchinchidan, mehnat vositalaridan foydalanish kadrlar malakasi darjasasi va ularni to'g'ri joylashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari qishloq xo'jalik korxonalaridagi melioratsiya ishlarida ko'plab injener-gidrotexniklar, texnik-melioratorlar, agronomlar, mexanizatorlar, sug'oruvchilar va boshqa xodimlar ishlamoqda. Qishloq xo'jalik korxonalarining melioratsiya ishlarida band bo'lgan xodimlar soni davlat ekspluatatsion tashkilotlari xodimlari sonidan bir necha baravar ko'pdir.

Suv xo'jaligi ishlab chiqarish tashkilotlari va korxonalari kadrlari quyidagi ikki guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish xodimlari va noishlab chiqarish xodimlari. Ishlab chiqarish xodimlari bajariladigan ishlar xarakteriga ko'ra, o'z navbatida, quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: ishchilar, injener-texnik xodimlari (ITR), xizmatchilar, kichik xizmatchi xodimlar va soqchilik xodimlari (MOP).

Ishchilar kategoriyasiga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvchi xodimlar kiradi. ITR boshqarish, ishlab chiqarishga tashkiliy-rejali rahbarlik funktsiyalarini bajaradi. Xizmatchilarga uchyot, ta'minot, sotish kadrlar tanlash va hokazo funktsiyalarini bajaruvchi xodimlar kiradi. MOP boshqarishga maishiy va texnika xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Noishlab chiqarish sohasi xodimlari uy-joy kommunal xo'jaligi, bolalar bog'chalar, klublar, yordamchi xo'jaliklarga xizmat ko'rsatadi. Ular ishlab chiqarish faoliyatiga taaluqli bo'lмаган ishlarni bajaradi.

Texnika taraqqiyoti rivojlanib borgani sari suv-melioratsiya xo'jaligida ishlab chiqarish xodimlari tarkibi o'zgarmoqda. Ekspluatatsion melioratsiya tizimlari xodimlarining xususiyati shundan iboratki, ITRning ulushi ancha yuqori, ular ùissasi sanoat va qurilishda 9% bo'lgani uolda bu yerda 17% ni tashkil etadi.

Ekspluatatsion suv xo'jaligi tashkilotlari malakali xodimlarining soni doimo o'sib bormoqda. Ishchi kadrlarning sifat tarkibi ham o'zgarmoqdaki, bu ularning malakasi o'sishi bilan birga bormoqda. Ishchi mexanizatorlar, operatorlar va boshqa xodimlar ulushi darajasi ko'tarildi.

Ishlab chiqarish jamoasi tarkibi, malakasi va aktivligi quyi darajada mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilish usullari hamda shakllariga bog'liqdir. Suv melioratsiya ishlab chiqarishidagi xodimlarning mehnat faoliyati o'z xususiyatlariga egadir:

-suv-melioratsiya xo'jaligidagi mehnat sharoiti ishlab chiqarish vositalarining xudud bo'yicha tarqoq joylashganligi bilan shartlangandir. Bu esa mehnat jarayonlarini ancha murakkablashtiradi.

-suv-melioratsiya ishlab chiqarishida mehnatni fond bilan yuqori darajada ta'minlanganligi bilan ajralib turadi. Bu esa xodimlarning melioratsiya fondlaridan oqilona foydalanish uchun ma'suliyatini ancha oshiradi:

1. Suv-melioratsiya xo'jaligini ishlatish ancha murakkab mehnat jarayonidir, shuning uchun bu yerda injener-texnik xodimlar ùissasi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan ancha yuqoridir:

-Davlat sug'orish tizimlari suv xo'jaligi ishlab chiqarishdagi mehnat unumдорлиги tabiiy ko'rsatkichlardagina o'lchanadi. Bu narsa sug'orish suvi suvdan foydalanadigan xo'jaliklarga tekin berilishini bildiradi.

2. Xo'jaliklararo sug'orish tizimlari ishlatish xodimlari mehnatni rag'batlantirish (mukofatlar) qishloq va suv xo'jligining jami ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlash va joy-joyiga qo'yish suv xo'jaligini tashkil etish hamda boshqarish ishlarining eng muhim qismidir.

Suv xo'jaligi va yeralarni melioratsiyalash korxonalari uchun o'rta malakali xodimlar gidromelioratsiya kollejlarida, shuningdek gidromelioratsiya bo'limlari bo'lган qurilish va qishloq xo'jalik kollejlarida tayyorlanadi.

Melioratsiya va suv xo'jaligi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar TIMIda va gidromelioratsiya fakulteti bo'lган Andijon qishloq xo'jaligi institutida tayyorlanadi.

Yosh mutaxassislar tayyorlash bilan birga melioratsiya institutida suv xo'jaligi injener-texnik va rahbar xodimlari malakasini oshirish fakultetlari ham tashkil etilgan.

Qishloq va suv xo'jaligi korxonalarini kadrlar bilan ta'minlash, xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish mehnat resurslaridan rejali foydalanishga asoslanadi. Bunda suv xo'jaligi tashkilotlarini ish kuchi bilan to'ldirish asosan qishloq xo'jaligi mehnat resurslarini qayta taqsimlash evaziga amalga oshirilmoqda.

Prezident I.A. Karimov O'zbekiston kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarga erishgan bo'lsada, haqiqatda o'z kasbini yaxshi egallagan kadrlarni topish qiyinligini ta'kidlab o'tdi. Bunga sabab turg'unlik davrida kadrlar tayyorlashning asosiy ko'rsatkichi "yalpi mahsulot" rejasini bajarish bo'lganligidir. Hozirgi vaqtida mamlakatda kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish maqsadida "milliy kadrlarni tayyorlash" dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur asosida kadr tayyorlash, ayniqsa chet el o'quv yurtlarida ta'lim olayetgan yoshlar mamlakatimizda ishlab chiqarishni bozor iqtisodi qonunlari asosida rivojlantirishni tashkil qiladilar. Hamma joyda ishlab turgan xodimlarni kadrlar siyosatini qayta qurish ruhida qayta tayyorlash lozim bo'ladi.

## **5.2. Mehnat unumdarligi tushunchasi va uni oshirishning ahamiyati**

Har bir korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga ishlovchilar sonini ko'paytirish va mehnat unumdarligini oshirishdan iborat ikki yo'l bilan erishiladi. Birinchi ùolda ishlab chiqarish hajmi va iste'mol bevosa proportsional o'sib boradi. Ikkinci holda ishlab chiqarishning o'sishi iste'moldan o'zib ketadi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishga va halq faravonligini oshirishga sarflanadigan rezerv fondining to'lib borishiga olib keladi. Ish kuchi tanqis bo'lган sharoitda mehnat unumdarligini o'stirish-mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishning asosiy omilidir.

Mehnat unumdarligi konkret mehnatning vaqt birligida moddiy ne'matlar muayyan miqdorini ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Mehnat unumdorligi darajasi mahsulot (ish) birligini ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqt miqdori bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy kategoriya bo'lgan mehnat unumdorligi ishlab chiqarish hajmi bilan mehnat sarfi o'rtasidagi aloqani xarakterlaydi. Bu nisbatni quyidagi formulalarda ifodalash mumkin:

$$V = A/T \quad \text{yoki} \quad Tr = T/A,$$

Bunda: V-mehnat unumdorligi;

Tr-mahsulot birligiga sarflangan mehnat (sermexnatlilik);

A-ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

T-mahsulot ishlab chiqarishga ketgan vaqt.

Ish vaqt birligida mahsulot qancha ko'p ishlab chiqarilgan bo'lsa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Mehnat unumdorligining to'xtovsiz o'sib borishi jamiyatning har qanday iqtisodiy taraqqiyot asosini tashkil etadi. Mehnat unumdorligining o'sishi mehnat jarayonidagi mahsulot birligiga ish vaqtini qisqartirishga yoki ish vaqt birligida mahsulot chiqishini ko'paytirishga qaratilgan har qanday o'zgarishni nazarda tutadi.

Mehnat unumdorligi yangi ijtimoiy tuzumning g'alabasi uchun eng muhim, eng asosiy narsa ekanligi to'g'risidagi ma'lum qoidasida ishlab chiqarish taraqqiyotida mehnat unumdorligi rolining chuqur ilmiy taxlili mujassamlangandir.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotida mehnat unumdorligini oshirish masalalari hamma vaqt hukumatning diqqat markazida bo'lib keldi. Ishlab chiqarish samaradorligiga alohida e'tibor berilayetgan xozirgi davrda bu masalalar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sishi asosan mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga yuz bermoqda.

Oliy Majlis materiallarida mehnat unumdorligi o'sishini jadallashtirishga alohida e'tibor berish zarurligi ko'rsatilgan. Shuning hisobiga milliy daromad o'sishining kamida 90% i sanoat mahsuloti o'sishining tahminan 90% i, qishloq xo'jalik va qurilish-montaj ishlari mahsulotining butun o'sishi olinishi kerak. Mehnat unumdorligi o'sishi muammosining halq xo'jalik ahamiyati mamlakatda oziq-ovqat bazasini yaratish sur'atlarini jadallashtirishdan, aholi jon boshiga mahsulot olinishini ko'paytirishdan, narxlarni pasaytirish va ish kuni uzunligini qisqartirishdan iboratdir.

Mehnat unumdorligini oshirish muammosini ichki nuqtai nazardan birinchidan, mahsulot birligiga jonli mehnat sarfini tejash nuqtai nazaridan, ikkinchidan, mahsulot birligiga jonli va o'tmish mehnat sarfini tejash, ya'ni ijtimoiy mehnat nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoq kerak.

Jonli mehnat ish vaqt bilangina emas, balki mehnatning intensivligi bilan ham, optimal intensivlikda esa vaqt bilangina o'lchanadi. Mehnatni intensivlash-ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat keskinligi darjasini bo'lib, u odam sarf qilgan jismoniy va asab energiyasi bilan o'lchanadi. Mehnat intensivligi har qanday mehnat jarayonining muqarrar shartidir, u mehnat unumdorligini o'sishiga olib keladi. Mehnat intensivligining optimal darajasidan oshib ketishi ham mehnat miqdori ko'payishiga, ham mahsulot qiymati oshishiga olib keladi, mahsulot birligi qiymati esa o'zgarmay kolaveradi. Ishlab chiqarishning ko'payishi mehnat intesivligi oshmasdan yuz bersa (sermehnatlilik kamayishi hisobiga) mahsulotning yalpi qiymati oshmasdan qolaveradi, uning birligi qiymati esa tegishli ravishda kamayadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining bu turli xil o'zgarishida uni mehnat intesivligi hisobiga ishlab chiqarishning ko'payishi bilan mahsulot sermehnatligi kamayishi hisobiga ko'payishi o'rtasidagi printsipial tafovut mavjuddir.

Mahsulot ishlab chiqarishga jonli mehnatgina emas, balki ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan o'tmish mehnat ham sarflanadi. Shuning uchun ijtimoiy (jami) mehnat unumdorligi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

$$B = \frac{A}{T_{\mathcal{H}} + T_{np}};$$

bu yerda:  $T_j$  – jonli mehnat miqdori.

$T_{pr}$  – o'tmish (buyumlashgan) mehnat miqdori.

Yer va beton ishlari suv xo'jaligi qurilishidagi ishlarining asosiy turlaridir. Sug'orish tizimlarini qurishda yer ishlari qurilish butun qiymatining 40%idan ko'prog'i, beton ishlari qurishda esa 45% igachasi to'g'ri keladi. Zax qochirish tizimlarida asosan yer ishlari bajariladi. Suv xo'jaligi qurilishini industirlashtirish jarayonida mehnat unumdorligini qurilish-montaj ishlarini mexanizatsiyalash darjasini bilan aniqlanadi. 1980 yilda mexanizatsiyalashgan ishlar darjasini 53,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda 99,6% ni, 2002 yilda esa 99,8% ni tashkil etdi. Beton va temir-beton ishlarida mexanizatsiyalash foizi 93% ni tashkil etadi. Suv xo'jaligi tashkilotlari texnika bilan qurolanganligining o'sishi mehnat unumdorligi oshishiga yerdam beradi.

Suv-melioratsiya ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligidagi melioratsiyalangan yerlarda avvalgi mehnat yalpi sarfi jonli mehnat sarfidan 5-6 baravar ko'pdir.

Fan-texnika taraqqiyoti rivojlangani sari suv-melioratsiya qurilishida va qishloq xo'jaligini industriyalashda mehnat unumdorligi doimo oshib bormoqda. Bunda jonli va o'tmish mehnat o'rtasidagi nisbat utmish mehnat foyidasiga o'zgarmoqda. "Mehnat unumdorligining oshishi", -deb yezgan edi. K.Marks-aynan jonli mehnat ulushi kamayishi,

avvalgi mehnat ulushi esa ko'payishidan iboratdir, lyokin ko'payganda ham shunday ko'payadiki, mehnatning tovarda jam bo'lgan umumiy summasi kamayadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi oshganda jonli va avvalgi mehnat sarflari nisbatidan sodir bo'ladigan o'zgarishlarni 5.1-jadvalda keltirilgan shartli misolda ko'rib chiqamiz.

### 5.1-jadval

#### **Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash darajalari turlicha bo'lganda mehnat sarfi tarkibining o'zgarishi**

Ko'rsatkichlar	Mexanizatsiya-lashgacha	Mexanizatsiya-lashning birinchi bosqichi	Mexanizatsiyalash-ning ikkinchi bosqichi
Jami mehnat sarfi			
Birlik	100	100	100
shu jumladan			
Jonli	80	60	30
avvalgi	20	40	70
Mahsulot ishlab chiqarildi, birlik	100	125	200
mahsulot birligiga mehnat sarfi, Birlik			
Shu jumladan	1	0,8	0,5
jonli			
Avvalgi	0,8	0,48	0,15
Jonli mehnat ulushi %	0,2	0,32	0,35
Avvalgi mehnat ulushi %	80	60	30
Ijtimoiy mehnat unumdorligi, %	20	40	70
	100	125	200

Ijtimoiy mehnat unumdorligining oshishi ham jonli ham avvalgi mehnat sarfi tejalishida ifodalanadi. Binobarin, mehnat unumdorligining oshishi pirovard natijada mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zarur ish vaqtini tejashdan iborat bo'ladi.

Vaqtni tejash, ish vaqtini ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha rejali taqsimlanish kabi kollektiv ishlab chiqarish asosidagi birinchi iqtisodiy qonun bo'lib, qolaveradi.

Mehnat unumdorligining to'xtovsiz oshib borishi har qanday ijtimoiy taraqqiyotining asosini tashkil etadi, iqtisodiy qonun shaklida namoyon bo'ladigan ob'ektiv qonuniyat hisoblanadi. Mehnatning jami sarfi nuqtai nazaridan mehnat unumdorligining o'sishi ayni vaqtda mahsulot tannarxi pasayishini ham bildiradi.

Jonli va o'tmisht mehnat nisbatidagi avvalgi mehnat foydasiga sodir bo'ladigan o'zgarish jonli mehnat rolini aslo kamsitmaydi. Aksincha, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida uning ahamiyati ko'proq ortadi. Buning ustiga avvalgi mehnat sarflarini o'lchash qiyinligini

ham qo'shib ko'rish kerak. Hozirgi vaqtda ijtimoiy mehnat unumdorligi mamlakat halq xo'jaligi miqiyesidagina aniqlanadi, korxonalar va tarmoqlardagi mehnat unumdorligi darajasi esa jonli mehnat sarfi bo'yichagina hisoblab chiqiladi.

Jonli mehnat miqdori vaqt bilan o'lchansa, mehnati sifati nima bilan o'lchanadi? Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi mehnat sifatining oshishi bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat sifati mahsulot sifati bilan belgilanadi. Mahsulot har handay turining sifati uning ijrochilarishchilar, texnologlar, konstruktorlar mehnat sifati bilan belgilanadi. Shu tufayli mahsulot sifatini rejali oshirib borish uchun avvalo bu mahsulotni yaratayotgan kishilar mehnati sifatini boshqarmoq kerak.

### **5.3. Suv-melioratsiya ishlab chiqarishidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash usullari**

Ish vaqtি birligida mahsulot (ish) ishlab chiqarish mehnat unumdorligi darajasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Soat, kun, yil, ish vaqtি ko'rsatkichi bo'lisi mumkin. Mehnat unumdorligi, tegishli ravishda, soatlik (kishi soatiga), kunlik (kishi kuniga) va yillik (o'rtacha yillik xodimiga) etib hisoblab chiqiladi. Sermehnatlilik mahsulot yoki ish birligiga kishi soatlarida o'lchanadi.

Suv va qishloq xo'jaligi ayrim ishlab chiqarishlarida mehnat unumdorligi darjasи ishlab chiqarish bilan tenglashtiriladi. Mehnat unumdorligining yil smena davomida o'lchash mumkin bo'lgan joylarda odatda shunday qilinadi. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bo'lgan ishlab chiqarish suv xo'jaligi qurilishida, remont korxonalarida, melioratsiya va qishloq xo'jalik ishlari ayrim turlarini bajarishda qo'llaniladi.

Melioratsiyalangan yerlardagi dehqonchilikda, ekspluatatsion meliorativ tizimlarda mehnat unumdorligi korxona ishlab chiqarish faoliyatining yillik yakunlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday holda mehnat unumdorligining yillik ko'rsatkichi to'liq ayrim turlaridagi ishlab chiqarish ko'rsatkichi esa bevosita bo'ladi.

Mehnat (ishlab chiqarish) unumdorligi ko'rsatkichi alohida ajratib olinsa, ishlab chiqarish samaradorligidan hech qanday darak bermaydi. Boshqa shunday ko'rsatkichlar bilan qiyoslangandagina u o'z iqtisodiy ahamiyatiga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jaligining suv-melioratsiya tashkilotlari va korxonalarida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari me'yoriy rejali hamda haqiqiy ko'rsatkichlar tarzida belgilanadi. Meyoriy sermehnatlilik mahsulot yoki ish birligini ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqtning tasdiqlangan me'yorlari asosida belgilanadi. Rejali ko'rsatkich rejalashtiriladigan yilda mehnat unumdorligining o'sishi hisobga olingan holda hisoblab chiqiladi. Mehnat unumdorligining haqiqatdagi darjasи ishlab chiqarish haqiqiy hajmini va ish vaqtining tarkib topgan sarflanishini aks ettiruvchi hisobot ma'lumotlariga ko'ra belgilanadi.

Mehnat unumdorligi o'sishining va mahsulot (ish) sermehnatliliги pasayishining ko'rsatkichlari o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Bu ko'rsatkichlar nisbatini quyidagi formulalardan ko'rish mumkin:

$$\text{o'sish foizi } B = \frac{\Delta P_m \cdot 100}{100 - \Delta P_m} \text{ ba}$$

$$\text{Pasayish foizi} \quad Tp = \frac{\Delta P\epsilon \cdot 100}{100 + \Delta P\epsilon}$$

Bunda:  $\Delta Pm$  - mahsulot (ish) sermehnatligining bazis davridagiga nisbatan pasayishi, %;

$\Delta P\epsilon$  - ishlab chiqarishning bazis davridagiga nisbatan o'sishi %;

Mehnat unumdorligi o'sishining foizi sermehnatlilik pasayishi foiziga to'g'ri kelmaydi: birinchisi doimo ikkinchisidan ortiq bo'ladi.

Ish vaqtini rejalashtirish va uchetga olish amaliyetida mehnatning, ya'ni bevosita texnologiya jarayonida (Ttx) band bo'lgan xodimlar mehnatining to'ppa-to'g'ri sarflari to'g'risidagi ma'lumotlar qabul qilinadi. Xizmat ko'rsatish (Tob) va ishlab chiqarishni boshqarish (Tun) xodimlarining mehnat sarflari bevosita sarflarga kiritiladi. Shuning uchun mahsulot (ish) ishlab chiqarish to'la sermehnatligi Tpol tarkibiga barcha ishlab chiqarish xodimlari mehnat sarflarining summasi qo'shiladi.

$$T_{no\lambda} = T_{mx} + T_{ob} + T_{yn}$$

Mahsulot (ish) to'la sermehnatligi jonli mehnat unumdorligi darajasini eng aniq bilib olish imkonini beradi, chunki u to'ppa-to'g'ri va bevosita sarflarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun to'la sermehnatlikni pasaytirish mehnat sarflarini ishlab chiqarish jarayonidagina emas, balki boshqarish sohasida ham qisqartirishni nazarda tutadi.

Mehnat unumdorligini hisoblashda ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ishning miqdori o'lchashning ishlab chiqarish dasturi belgilanadigan birliklarida ifodalanadi. Suv va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish) hajmi o'lchashning tabiiy birliklarida (t; ga; Mz; dona va xokozo) o'lchashning shartli tabiiy birliklarida (shartli mahsulot, etalon yumshoq haydov ozuqa birliklari va hokazo) hamda qiymat ko'rinishida belgilanadi.

Mehnat unumdorligini tabiiy ko'rinishida o'lchash usuli eng oddiy va puxta usuldir. Tabiiy ko'rsatkichlardan mehnat unumdorligi, mahsulot yoki ishlar ayrim turlarini belgilashda keng foydalaniladi. Tabiiy shaklda mahsulot chiqarish hajmi bir turli mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar uchun belgilanadi. Xo'jaliklararo sug'orish tizimlarini ishlatish boshqarmalarida asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha mehnat unumdorligining faqat tabiiy ko'rsatkichlarigina hisoblanadi: suv olish hajmi va suv berish hajmi xodim hisobidagi kub metrlarda, sug'oriladigan maydon yuklamasi xodim boshiga hisoblanadi. Nasos stantsiyalaridagi mehnat unumdorligi ham bir xodim hisobidagi kub metrlarda berilgan suv hajmi bilan o'lchanadi. Suv xo'jaligi qurilishi tashkilotlarida yer ishlari hajmi xodim hisobidagi

kub metrlarda belgilanadi. Sug'oriladigan va zahi qochirilgan yerlardagi dehqonchilikda mehnat sarflari mahsulot sentneriga kishi-soatlarda hisoblanadi. Korxona ichida ish joylarida, brigadalar va ayrim uchastkalarda mehnat unumidorligini o'lhashda natural usul keng tarqaldi.

Yerlarni melioratsiyalash qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sermehnatligini ancha oshiradi. Sug'orish tizimlarini ishlatishda mehnatning anchagina sarfi kanallarni loyqalar va o'simliklardan tozalash hamda suv chiqarish ishlari xissasiga to'g'ri keladi.

Sug'orishdagi mehnat unumidorligi sug'orish usuli va texnikasiga bog'liq bo'ladi. Yuzaki sug'orishda ishlab chiqarish ko'p darajali bir sug'oruvchiga beriladigan suv sug'orish oqimi bilan belgilanadi. Sug'oruvchi smenali ish unumidorligi quyidagi bog'liq holda belgilanadi.

$$V_{sm} = \frac{3,6 \cdot tg \cdot X \cdot Rcc}{m\beta}$$

Bunda:  $V_{sm}$ -smenali ishlab chiqarish: ga

t-smena davomiligi, s;

c\*g-sug'orish oqimi (sarfi) 1 sug'oruvchiga ,1\ s;

Ksm-smena ish vaqtidan foydilanish koeffitsiyenti;

m-sug'orish me'yori m<sup>3</sup> ga ;

$\beta$ -sug'oruv suvining tashlashga, shimalishga va bog'lanishga ketishni hisoblovchi koeffitsiyenti (1, 1-1,2)

Suvchilar sutkalik ishlab chiqarish –B sut / G'ga quyidagini tashkil etadi.

$$B_{Cym} = B_{Cm} * n$$

bunda: n-sutkadagi ish smenalari soni.

Suvchilarning mavsumdagagi ishlab chiqarishi ( $V_{sez}$ )ga quyidagicha aniqlanadi.

$$V_{sm.p}; V_{sut.Tm.p}$$

Bunda Tm.p-sug'orishlar ortasidagi davrning eng qisqa davomiligi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish, sug'oriladigan dehqonchilikdagi sermehnat jarayonlaridan biridir. Shu sababli hosildorlikni oshirish va mehnat sarfini kamaytirish maqsadida sug'orishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sug'orma dehqonchilikdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Keng qamrovli agregatlar ishlatilib, yeg'dirib sug'orish maydonlari yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Yeg'dirib sug'orish mashinasi yoki qurilmasining soatli ishlab chiqarishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$B_r \frac{3,6 \cdot Q}{m\beta}$$

Bunda: Q-mashina yoki qurilmada suv berish, l / s;

m- sug'orish me'yori, m<sup>3</sup> / ga ;

$\beta$ -yog'dirib sug'orishda suvning bug'lanishdan kamayishi uchetining koeffitsiyenti (1,10-1,25);

Yemg'irlatish mashinasi yoki qurilmasining smenada gektar yuzasidan ishlab chiqarishi quyidagini tashkil etadi.

$$V_{sm} = \frac{3,6 \cdot tcc \cdot Kcm}{m\beta}$$

Bunda tsm-smena uzunligi, s;

Ksm-smena ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti (0,70-0,90);

Sutkadagi sug'oriladigan maydon quyidagi tashkil etadi:

$$V_{sut} = V_{sm} \cdot T_{mn}$$

Bunda: n-sutka ichida mashina yoki qurilma ishi smenalari soni.

Mavsumda sug'oriladigan maydon mashina hisobida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_{sez} = V_{sut} \cdot T_m / n$$

yoki

$$V_{sez} = \frac{3,6 \cdot Qcc \cdot tcc \cdot n \cdot T_{mn} \cdot Kcm \cdot Kcym}{mp \cdot \beta};$$

Bunda: Ksut=0.80-0.95

Bir yo'naliishda bo'lsa, lyokin biron-bir belgilariga ko'ra farqlanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumдорлиги shartli-natural birliklarda xisoblab chiqiladi. Masalan, dehqonchilikdagi mexanizatsiyalangan qishloq xo'jalik va melioratsiya ishlarining umumiyyajmi yumshoq haydash etalon gektarlarida, oziqa ekinlari ishlab chiqarish ozuqa birliklari sentrlarida, dehqonchilik mahsuloti ishlab chiqarishning umumiyyajmi shartli asosiy ekin sentnerlarida aniqlanadi. Shartli natural mahsulotga (ishga) o'tish belgilangan koeffiyetsentlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Mehnat unumdorligini o'lchashning qiymatlilik usuli eng ko'p tarqalgan usul hisoblanadi. Qiymatlilik usulini mahsulot pul ko'rinishida baholanadigan har qanday ishlab chiqarishda qo'llanish mumkin.

Pul ko'rinishidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichi mehnat unumdorligini ayrim korxonalar, boshqarmalar, ishlab chiqarish birlashmali bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Uning afzalligi ana shunda.

Melioratsiyalangan yerlardagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida mehnat unumdorligini aniqlash uchun yalpi mahsulot qiymati yagona taqqoslama baholarda hisoblab chiqiladi. Mazkur ko'rsatkich taqqoslanuvchanligiga shu yo'l bilan erishiladi.

Ayni vaqtida qiymatlilik ko'rsatkichi jiddiy kamchiliklardan ham xoli emas. Uning darajasi jonli mehnatninggina samaradorligi bilan emas, balki qiymat bilan ham belgilanadi. Materiallarga qilingan sarflar ulushining o'zgarishi natijasida yalpi mahsulot hajmi ancha o'zgarishi mumkin. Bunda mahsulotning material sig'imi qancha yuqori bo'o'lsa, mehnat unumdorligi ham shuncha yuqori va aksincha bo'lib chiqadi. Masalan, bir smenada bir xodim hisobidagi ishlab chiqarish pul ko'rinishida temir-beton konstruktsiyalari yig'ishda yer ishlariga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Materiallar baholarining o'zgarishi ham qiymatlilik ko'rsatkichiga ta'sir o'tkazadi.

Suv xo'jaligining remont-qurilish ishlab chiqarishida hozirgi vaqtda sof ichki mahsulot ko'rsatkichi toboro keng qo'llanilmoqda. Sof ichki mahsulot hajmi mahsulot qiymatidan sotib olinadigan materiallar sarfini va amortizatsiya ajratmalarini chiqarib olish yo'li bilan topilmoqda. Shunday qilib, buyumlashgan mehnatning mehnat unumdorligi darajasi ta'siriga barham berilmoqda. Sof mahsulotning ish vaqtি sarflariga munosabatini jonli mehnat samaradorligi eng to'liq xarakterlaydi.

Mehnat unumdorligining natural va qiymatlilik ko'rsatkichlari o'zaro bir-birini to'ldiradi, ular mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha reja topshiriqlarini tahlil qilish va to'g'ri belgilash imkonini beradi. Yil davomidagi mehnat sarflarini nazorat qilish uchun mehnat sarflari me'yordi va ishlab chiqarish me'yordidan iborat reja ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

#### **5.4. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va yo'llari**

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tuzilgan dastur mehnat unumdorligini oshirish yuzasidan katta vazifalarni belgilab beradi. Mehnat unumdorligini jadal o'stirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi omili bo'lib qolmoqda.

Suv va qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish ko'p omillarga bog'liq murakkab muammodir. Mehnat unumdorligini o'stirish omillarini quyidagi besh guruhga bo'lismumkin: moddiy texnika, tashkiliy, iqtisodiy, sotsial va tabiiy.

Mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Mehnat unumdorligi agar barcha omillar unga kompleks ta'sir o'tkazsa, tez sur'atlar bilan o'sib boradi. Bu omillaarni tahlil qilish va o'rganish oson bo'lishi uchungina ayrim-ayrim ko'rib chiqish mumkin.

Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy texnika omillariga melioratsiya tizimlari va inshootlarining texnika darajasini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi, mashinalar, qudratini oshirish, mehnatning energiya bilan qurollanishini o'stirish kiradi.

Suv xo'jaligi qurilishidagi fan-texnika taraqqiyoti yuqori KPD ga ega bo'lgan gidromelioratsiya tizimlarining texnika darajasini izchil o'stira borishi, tizimlar va inshootlarni boshqarishni avtomatizatsiyalash va telemexanizatsiyalashning ilg'or usullarini joriy qilish imkonini beradi.

Melioratsiya va qurilish mashinalari hamda uskunalar quvvatini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Suv-melioratsiya ishlab chiqarishni qudratli yuqori unumdor mashinalar bilan ta'minlash, mehnat sarflari kamayishiga olib keladi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bu o'sish asosiy omillari bilan o'zaro aloqada (fond bilan ta'minlanganlik darajasi bilan) tahlil qilinishi va fond bilan ta'minlash bilan birgalikda mehnat unumdorligi darajalarini asoslashga kompleks yendashishni ta'minlash kerak.

$$B = \frac{A}{r} = \frac{A/\Phi}{r/\Phi} = \frac{A}{\Phi} - \frac{\Phi}{r} = \text{footf}$$

bunda: F- asosiy ishlab chiqarish fondlari;

fot- fond samarasi;

f v- mehnatning fond bilan ta'minlanganligi.

Fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishning eng muhim shart-sharoiti mehnat unumdorligining, uning fond bilan ta'minlanganligi o'sishiga nisbatan ustun darajada o'stirishidir.

Mehnat unumdorligi o'sish uchun tashkiliy omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ularga ishlab chiqarishni optimal jamlash va ixtisoslashtirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va mehnatni ilmiy tashkil etishni joriy qilish, ishlab chiqarish va mehnat intizomini mustahkamlash kiradi.

Suv xo'jaligi remonti-qurilish va ishlatish tashkilotlarini optimal hajmlariga yiriklashtirish ma'muriy boshqaruv apparati va yerdamchi ishchilar sonini qisqartirish imkonini beradi. Yirik ishlab chiqarishda texnikadan yaxshiroq foydalaniladi, ilmiy yutuqlar va ilg'orlar tajribasi tezroq qo'llaniladi, kapital qo'yilmalardan samaraliroq foydalaniladi. Ixtisoslashtirishni ijtimoiy mehnat taqsimoti tug'dirgan, mehnat taqsimoti esa doimo uning unumdorgligi oshishiga olib keladi.

Mehnatni tashkil etishni yaxshilash uning unumdorligini oshirishning zarur shartidir. Ko'pgina ishlarda ish vaqtini smena ichida yo'qotish hollari tez-tez uchrab turadi. Ular odatda mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, material va xom ashyo bilan o'z vaqtida ta'minlanmaslik, mehnat intizomi buzilishi hamda boshqa sabablar tufayli vujudga keladi. Butun smenada to'xtab qolish va kechikishlarga barham berish, ish vaqtini smena davomida yo'qolishini kamaytirish ishlab chiqarishni ancha oshirish imkonini beradi.

Ish vaqtini yo'qotishni kamaytirish muammosi har bir ishlab chiqarish uchastkasidagi asosiy muammolardan biridir. Ishlab chiqarish intensivlanganligi munosabati bilan ish vaqtini har bir soati va minutining kadri oshmoqda, ularni yo'qotish esa sekinlik bilan kamaymoqda. Shuning uchun barcha uchastkalarda vaqtini ochiqdan-ochiq va yashirin yo'qotishga qarshi kurashish-mehnatni oqilona tashkil qilishdagi asosiy bo'g'in bo'lib qolmoqda.

Mehnat unumdorligi darjasini mehnatni ilmiy tashkil qilishga bog'liqdir. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni joriy qilish tajribasi mehnatning eng oqilona usullarini tanlash asosida mehnat jarayonlarini takomillashtirib, uning unumdorligi ancha oshishiga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligi o'sishiga mehnatni me'yorlash va unga haq to'lashni takomillashtirish, moddiy rag'batlantirish tizimini to'g'ri qo'llanish singari iqtisodiy omillar ham ta'sir o'tkazadi.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni moddiy rag'batlantirish masalalariga juda katta ahamiyat berilmoqda. Mehnat unumdorligini oshirishda moddiy rag'batlantirishning roli hozirgi bozor iqtisodi siyosati sharoitida eng to'la namoyen bo'lmoqda. Korxonalarning bozor iqtisodiga o'z xarajatlarini o'zi qoplashga va o'zini - o'zi pul bilan ta'minlashga o'tkazilishi

hamda pirovard mahsulot miqdori va sifatiga ko'ra haq to'lashning amalga oshirilishi mehnat unumdorligi o'shining zarur shartidir.

Kadrlar madaniy-texnika darajasi va malakasini o'stirish, xodimlar madaniy-maishiy sharoitlarni yaxshilash, ma'naviy rag'batlantirish mehnat unumdorligi o'shining eng muhim omilidir.

Yuqori madaniy-texnika darajasiga ega bo'lgan muhim kadrlar yaratish ishning muvofaqiyatini ta'minlaydi. Yuqori umumiylar ma'lumot hozirligi bo'lgan ishchilar o'z malakalarini tez oshirmoqdalar, unumli ishlamoqdalar. Bu kategoriyada mehnat intizomiyuqori va kadrlar qo'nimsizligi pastdir.

Qishloq va suv xo'jaligidagi mehnat unumdorligiga tabiiy sharoitlar ta'sir o'tkazadi. Joy relefidan, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish mehnat sarflarini tejashga va qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishga olib keladi.

Mehnat unumdorligini o'stirish muammosi ishlab chiqarishning ko'pgina boshqa omillari bilan bog'liq kompleks muammodir. Bu omillarning mehnat unumdorligiga ta'siri ko'p qirrali: ularning ayrimlari mehnat sarflarini kamaytirish va boshqalari mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishga olib keladi, uchinchilari ham jonli mehnatni tejashga, ham mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishga ayni vaqtida ta'sir o'tkazadi. Bu ko'pdan-ko'p va o'zaro bog'liq omillardan kompleks foydalanilgandagina eng ko'p samaraga erishish mumkin.

## **5.5. Suv xo'jaligida ish haqi me'yorlari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ish haqiga eng muhim rol ajratiladi. Ish haqi milliy daromadning bir qismi bo'lib, xodimlar o'rtaida mehnat miqdori va sifatiga qarab taqsimlanadi. Ish haqi suv xo'jaligi xodimlari daromadlarining asosiy manbaidir. Mehnatkashlarning daromadlari ish haqi bilangina cheklanib qolmaydi. Ishchi va xizmatchilar ish haqidan tashqari ijtimoiy iste'mol fondlari hisobidan moddiy va madaniy ne'matlar bir qismini ham oladilarki, ularga sotsial straxovaniye pensiya ta'minoti, pulsiz o'qitish, pulsiz meditsina xizmati, bolalar muassasalarini ta'minlash va boshqa imtiyoz hamda to'lovlar davlat sarflarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun mamlakatimiz mehnatkashlari daromadlarining umumiylarini hajmi ish haqi shaklidagi shaxsiy to'lovlar va ijtimoiy iste'mol fondlaridan olinadigan qo'shimcha daromadlar bilan belgilanadi.

Korxonadagi ish haqini shunday tashkil qilishi kerakki, toki u ishlab chiqarish har tomonlama yuksalishga, mehnat unumdorligi muttasil o'sib borishiga yerdam bersin.

Ish haqini oqilona tashkil etish asosini quyidagi printsiplar tashkil etadi. Mehnat miqdori va sifatiga qarab haq to'lash real ish haqi muttasil o'sib borishini ta'minlash, ish haqi o'sishi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi to'g'ri nisbat moddiy manfaatdorlik, mehnatga haq to'lashni to'g'ri tashkil etish shaxsiy va ijtimoiy moddiy manfaatdorlik uyg'unlashuvini taminlaydi.

Ish haqi o'sishi darajasi va sur'atlari mehnat unumdorligi o'sishi suratlari bilan belgilanadi. Mehnat unumdorligi o'sishi suratlarining real ish haqi o'sishi sur'atlaridan ustun bo'lishi ishlab chiqarish rivojlanishi obektiv konuniyati hisoblanadi. Takror ishlab chiqarishni kengaytirish va halq turmush darajasini tinmay yuksaltirish uchun sharoitlar shu holdagina taminlanadi.

Mehnatga ko'ra haq to'lash printsipi mehnatni me'yorlash, tarif tizimi, haq to'lash shakl va tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Mehnat va ish haqini tashkil etishning umumiyligi tizimida mehnatni me'yorlashga muhim ahamiyat beriladi. Me'yorlash vositasida ishlab chiqarish me'yorlari, vaqt me'yorlari, xizmat ko'rsatish me'yorlari belgilanadi ijtimoiy ishlab chiqarishda har bir xodim sarflagan mehnat miqdorini o'lchash va baholash amalga oshiriladi. Me'yorlash mehnatning zarur me'yorini belgilab, taqsimot me'yorini ya'ni ish haqi me'yorini ham belgilaydi. Me'yorlar darajasiga ularning asoslanganligiga ish haqi ham bog'liq bo'ladi.

Me'yorlash mehnat miqdori o'lchagichi hisoblansa, mehnat sifati va uning intensivligini hisobga oluvchi asosiy instrument tarif tizimidir.

Mazkur tizim orqali ish haqini davlat tartibga solishi amalga oshiriladi, turli tarmoqlar ishchilari mehnatiga haq to'lash darajasi hamda turli ishlarning zarur differentsiyasiga erishiladi.

Tarif tizimiga tarif malaka spravkalari, tarif setkalari va tarif stavkalari kiradi. Bo'limlarni kollektiv, ijara va oila pudratiga o'tkazishda tarif-malaka spravochnigi va tarif setkasi rejasiga sarflarni shu jumladan texnologik kartadagi ish haqi fondini belgilash instrumenti hisoblanadi.

Tarif-malaka spravochnigida ishchilar kasblari va ishlar turlari ro'yxati, ishchilarning razryadli setkasi bo'yicha xarakteriskasi ishchi nimalarni bilishi kerakligi keltirilgan bo'ladi. Bundan tashqari unda mazkur kasbda bajariladigan ishlarning har bir razryadi uchun misollar

ham keltiriladi. Hozirgi vaqtda ishlar va kasblarning yagona tarif-malaka spravochnigi (YeTKS) qo'llanilmoqda. Bu spravochnikda ishchilar kasblari vazirlik va idoralardan qatiy nazar ishlab chiqarishlar hamda turlar bo'yicha guruhlangandir.

Tarif tizimining uchinchi moddasi tarif setkasi bo'lib, u turli razryadlardagi ishchilar ish haqi darajasini belgilashga mo'ljallangandir. Tarif setkasi shkala bo'lib unda razryadlar va ularga muvofiq keladigan tarif koeffitsiyentlari mazkur razryad tarif stavkasi birinchi razryadga to'lanadigan haqdan necha barobar yuqoriligin ko'rsatadi.

Tarif tizimining uchinchi moddasi tarif stavkalaridir. Tarif stavkalari ishbay haq to'lashda bir me'yor uchun yoki vaqtbay haq to'lashdagi vaqt birligidagi majburiyatlarning muayyan doirasi uchun mehnat haqi darajasini belgilaydi.

Suv va qishloq xo'jaligida soatlak va kunlik tarif stavkalari qo'llaniladi. Soatlak stavkalar topshiriqlari buyumlar birligiga yoki operatsiyaga vaqt me'yor tariqasida qo'llaniladi. Oylik stavkalaridan esa mehnatga haq to'lashning vaqtbay shaklida olinadi. Hozirgi kunda xodimlarga oylik ish haqini hisoblash. Buning uchun 22-razryadli tarif setkasi qabul qilingan. 0-razryadda eng kam miqdordagi ish haqi belgilandi.

Har bir tarmoq uchun birinchi 0-razryad tarif stavkalari mazkur tarmoqning halq xo'jaligi ahamiyati va mehnat sharoiti (ishlar ogirligi murakkabligi, sharoit zarurligi va hokazo) hisobga olingan holda belgilanadi. Boshqa razryadlarning tarif stavkalari 0-razryad tarif stavkasi va tegishli razryadli tarif koeffitsiyenti orqali belgilanadi.

Tarif stavkalari kasblar hamda ishlar turlari bo'yichagina farqlanib qolmay, balki mehnatga haq to'lash shakllariga ham bog'liqdir. Ancha yuqori tarif stavkalari og'ir ishlarda va mehnat sharoiti zararli bo'lgan ishlarda belgilanadi. Og'ir ishlarda tarif stavkalari 12% oshiriladi, ayniqsa og'ir ishlar va ayniqsa zararli ishlarda 24% oshiriladi. Bunday ishlar ruyxatini vazirlik tasdiqlaydi. Juda murakkab mashina va mexanizmlar mashinistlarga tarif stavkalari soatiga eng yuqori koeffitsiyent etib belgilanish mumkin.

Ishchilarning ish haqi darjasini ham mehnatga haq to'lash shakl va stavkalarga bog'liq bo'ladi. Qishloq va suv xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning ikki shakli qo'llaniladi: ishbay hamda vaqtbay shakllari. Mehnatga ishbay haq to'lash shaklida daromad ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish miqdoriga ko'ra, vaqtbay haq to'lash shaklida esa ishlagan vaqt miqdoriga ko'ra aniqlanadi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay shakli mehnatni to'la va aniq hisobga olish mumkin bo'lgan joylardagi ishlarda qo'llaniladi. Suv xo'jaligi qurilishida ishbay haq to'lashda

ishchilarning 80% ishlaydi. Vaqtbay haq to'lash ishlab chiqarish me'yorlarini begilash qiyin va maqsadga muvofiq bo'limgan joylarda qo'llaniladi. Mehnatga vaqtbay haq to'lash boshqarish va mashina hamda mexanizmlarga xizmat ko'rsatish, texnikani va sug'orish tizimini remont qilish xodimlarga joriy qilinadi.

Mehnatga ishbay haq to'lash quyidagi tizimlarga egadir: bevosita ishbay va ishbay mukofatli tizim. Bevosita ishbay tizimidagi ish haqi me'yorlari bajarilishiga bog'liq bo'limgan holda bir xil baholarda ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish) miqdoriga muvofiq hisoblanadi. Haq to'lash ishlar kompleksi yoki pirovard mahsulot uchun o'tkaziladigan mehnatga haq to'lash bevosita ishbay haq to'lash turlaridan biridir.

Hozirgi vaqtida mehnatga ishbay mukofatli haq to'lash eng ko'p tarqalgan haq to'lashdir. Mehnatga nisbatan mukofatli haq to'lash tizimida ishchilar asosiy ish haqidan tashqari muayyan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga erishilganligi ishbay boholarda hisoblangan mukofatlarni ham oladilar. Mukofot materiallar tejaganligi, ishlarni bajarish muddatlari qisqarganligi ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish) yuqori sifatli bo'lganligi uchun beriladi.

Mehnatga haq to'lashning ishbai tizimi ishlab chiqarish jarayonining xarakteriga bog'liq holda individual, zvenoli va brigadali bo'lishi mumkin. Mehnatga zvenoli va brigadali haq to'lash kollektiv mehnat talab qilinganda hamda ayrim ishchi mahsulotini ajratib ko'rsatish iloji bo'limganda qo'llaniladi.

Gidrotexnika ob'ektlaridagi qurilish va montaj ishlarining katta qismi zveno yoki brigada bajaradigan kollektiv ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun bu yerdaakkord naryadlar bo'yicha brigadali haq to'lash qo'llaniladi. Suv xo'jaligi qurilishi tashkilotlari kollektiv pudratga, qishloq xo'jalik tashkilotlari esa ijara va oila pudratlariga o'ta boshladilarki, bu yerda mehnatga haq to'lashning asosiy shakli pirovard mahsulot miqdori hamda sifati uchun haq to'lashdir.

Suv xo'jaligi qurilishi xodimlari mehnatiga haq to'lash barcha qurilish tashkilotlari uchun belgilangan umumiyligida qoidalarga muvofiq o'tkaziladi. Qurilishdagi ish haqi summasi yagona me'yor va baholar asosida belgilanadi. Texnika jihatidan asoslangan me'yor va baholar "qurilish-montaj va remont-qurilish ishlarining yagona me'yorlari hamda baholari" (YeNiR) to'plamida keltirilgan.

Bozor iqtisodiga o'tish sharoitida mehnatga haq to'lash ishbay shakli sohasining qisqarishi va vaqtbay haq to'lashni qo'llanish sohasining kengaytirish sodir bo'lmoqda.

Mehnatga vaqtbay haq to'lash oddiy va vaqtbay mukofotli bo'lishi mumkin. Vaqtbay mukofatli haq to'lash davriy ish haqidan tashqari tizim belgilagan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bajarilganligi hamda oshirib bajarilganligi uchun qo'shimcha mukofatlar to'lashni ham ko'zda tutadi. Mehnatga vaqtbay mukofatli haq to'lash tizimining ulushi muttasil ko'payib bormoqda.

Mehnatga haq to'lashning vaqtbay shaklida ish haqi tegishli razryadlar soatli tarif stavkalari yoki maoshlar va ishlab berilgan vaqt miqdori asosida to'lanadi.

Injener-texnik xodimlar, xizmatchilar va kichik xizmat ko'rsatish xodimlari mehnatiga lavozim maoshlari tizimi asosida vaqtbay haq to'lanadi. Rahbar va injener-texnik xodimlarning oylik maoshlari egallab turilgan lavozim hamda yillik mahsulot miqdoriga bog'liq holda belgilangandir, lavozimli maoshlari qurilish hamda ishlatish tashkilotlari ish hajmiga bog'liq bo'limgan holda belgilanganadi.

Suv xo'jaligi qurilishida qurilish tashkilotlari qurilish-montaj ishlarining yillik hajmiga bog'liq holda 3 guruhga bo'lingan. Bu guruhlarning har biri uchun o'z lavozim maoshlari belgilangan.

Mehnatga vaqtbay haq to'lashda topshiriqlar sifati stavkasining 20-25% miqdorida yozilishi mumkin. Injener-texnik xodimlar va xizmatchilar ishlab chiqarish quvvatlari o'z vaqtidan va muddatidan ilgari ishga tushirilgani, yangi texnika joriy etilgani va hokazolar uchun mukofatlanadilar.

Ishlatish suv xo'jaligi tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning asosiy shakli vaqtbay haq to'lashdir. Lekin ta'mirlash - qurilish va boshqa ishlarda qurilish tashkilotlari uchun belgilangan ayrim haq to'lashda qo'llaniladi. Mehnatga vaqtbay haq to'lash liniyali boshqarish apparati, shuningdek nasos stantsiyalari mashinistlari, mexaniklar, slesarlar va boshqa xodimlar uchun qo'llaniladi. Suv xo'jaligi tizimlari rahbar xodimlari va mutaxassislari lavozim maoshlarining darajasi ishlatish tashkiloti kiritilgan guruhga bog'liq bo'ladi.

## **Qisqacha xulosalar**

Kishilar ishlab chiqarish taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadilar, tabiiy boyliklarni o'zlashtiradilar, yangi texnika yaratadilar va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtiradilar.

Hozirgi vaqtda mamlakatda kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish maqsadida «Milliy kadrlar tayyorlash» dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur asosida kadr tayyorlash, ayniqsa chet el o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar mamlakatimizda ishlab chiqarishni bozor iqtisodi qonunlari asosida rivojlantirishni tashkil qiladilar.

Fan-texnika taraqqiyoti rivojlangani sari suv-melioratsiya qurilishida va qishloq xo'jaligini industrlashda mehnat unumdarligi doimo oshib bormoqda. Bunda jonli va o'tmish mehnat o'rtaсидagi nisbat o'tmish mehnati foydasiga o'zgarmoqda.

Melioratsiya yerlardagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida mehnat unumdarligini aniqlash uchun yalpi mahsulot qiymati yagona taqqoslama baholarda hisoblab chiqiladi.

Mehnat unumdarligining natural va qiymatlilik ko'rsatkichlari o'zaro bir-birini to'ldiradi, ular mehnat unumdarligini oshirish bo'yicha reja topshiriqlarini tahlil qilish va to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Mehnat unumdarligini oshirishning moddiy texnika omillariga melioratsiya tizimlari va inshootlarining texnika darajasini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darjasи, mashinalar qudratini oshirish, mehnatning energiya bilan qurollanishini o'stirish orqali erishiladi.

## **Tayanch so'zlar**

Kadrlar, mehnat resurslari, mehnat unumdarligi, jonli mehnat o'tmish mehnati, mehnat jarayoni, mehnat unumdarligi darjasи, ish vaqtি, sermehnatlilik, fan-texnika taraqqiyoti, ilmiy texnika darjasи, fond bilan ta'minlanganlik darjasи, moddiy rag'batlantirish, vaqtbay va ishbay usulda haq to'lash, tarif stavkalari.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Suv xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash.

2. «Milliy kadrlar tayyorlash» dasturi haqida tushuncha.
3. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.
4. Mehnat unumdarligi tushunchasi va uni oshirishning ahamiyati.
5. Jonli va o'tmish mehnat haqida.
6. Mehnat unumdarligi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslublari.
7. Mehnat unumdarligini oshirish omillari haqida.
8. Suv xo'jaligida mehnatga haq to'lash tartibi.
9. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qabul qilingan razryadlar haqida tushuncha.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». Toshkent, «Sharq», 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuni. Toshkent, «Sharq», 1998.
3. A.S.Sultonov «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.
5. Sh.R.Xolmuminov. Ro'nok truda, problemo' formirovaniya i regulirovaniya. Tashkent, «Fan», 1994.

## **VI BOB. Qishloq va suv xo'jaligi mahsulotlarining bahosi va bahoning tashkil topishi**

### **6.1. Bahoning iqtisodiy mohiyati**

Baho — bu mahsulot qiymatini pul orqali ifodalanishi, ya'ni shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan ijtimoiy-zaruriy xarajatlar. Baho davlat qo'lidagi iqtisodni boshqaruvchi eng muhim omildir.

Mamlakat qishloq xo'jalik majmuasida oziq-ovqat dasturini yuzaga chiqarish va boshqarishning iqtisodiy yo'llarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lган hozirgi davrda baho siyosati masalalari katta ahamiyat kasb etadi. 2000 yilgacha mo'ljallangan iqtisodiy va siyesiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarida bahoni takomillashtirish halq xo'jaligini rivojlanishning asosiy quroldir, deb ta'kidlanadi.

Bahoni rag'batlantirish mahsulot sifatini oshirish bilan, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bilan, mahsulot tannarxini kamaytirish bilan, qishloq xo'jalik korxonalarini to'la ixtisoslashtirish va ularni iqtisodiyotini mustahkamlash bilan yuzaga chiqadi.

Mahsulot bahosida faqat uning qiymatigina aks etmasdan, balki mahsulot almashtirish shartlari, ya'ni sotuvchi va haridor orasidagi talab ehtiyej munosabatlari ham aks etadi. Shuning uchun narx-navo qiymatning yuzaga chiqish shakli bo'lib qoladi.

Buning natijasida u mahsulot qiymatidan farq qiladi. Xo'jalikni rejali yuritishda narx-navoning qo'yilishi davlatning rejali vazifasi bo'lib xizmat qiladi. Narx-navo xaridor bilan sotuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri ta'minlashi zarur. Qishloq xo'jalik moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerda mahsulot ishlab chiqarish har-xil tabiiy sharoitda, tuproq unumдорлиги har xil bo'lган tabiiy mintaqalarda olib boriladi. Shuning uchun mahsulotga narxni belgilashda o'rta ishlaydigan korxonalarni yomon sharoitda ishlab chiqarishda sarf qiladigan xarajatlarini hisobga olish zarur. Lekin narxni bunday qo'yilishi yaxshi sharoitda ishlaydigan xo'jaliklarga ko'p miqdorda ortiq foyda olish imkoniyatini beradi.

#### **Ortiqcha foyda (differentsial renta)**

Tabiat kuchlari in'omi sifatida olingan ortiqcha foyda bahoni takomillashtirish yo'li bilan bugun halq foydasiga undirilib olinishi kerak. Bu yerda shunday xulosa kelib chiqadiki, ortiqcha foydani davlat markaziy fondlariga o'tkazish maqsadida davlat buyurtmasi orqali xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bahoni hududlar bo'yicha tabaqlash zarurati yuzaga keladi.

Tumanlar bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarining tabaqlanishi har xil iqlim sharoitlarida ish olib borayotgan xo'jaliklar foydalaridagi farqni kamaytiradi. Bunda har xil qishloq xo'jaligi mahsulotlarining baho munosabatlari shu hudud ichida shunday bo'lishi kerakki, shu soha, iqlim sharoitiga eng ko'p moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan: paxta ekadigan hududlarda baho munosabatlari paxta tomonida bo'lishi kerak. Shunday qilib davlat baholari qishloq xo'jaligini ilmiy asosda rivojlanishiga yordam berishi kerak.

Baholarda farq qanchalik ko'p bo'lsa, ular shuncha ko'p vazifalarini bajaradilar. Shu munosabatlar bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarini hududlar ichidagi tabaqlanishi katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining hududiy bahosi asosida uning tannarxi yotadi. Mahsulot sifatini hisobga olish bahoni dalillar bilan iqtisodiy asoslashga yordam beradi.

Agar mahsulotlarning sifati asosiy talablarga javob bermasa, sifati past bo'lsa, unga to'lanadigan pul kam bo'ladi: Agar mahsulot sifati yuqori bo'lsa, unga qo'shimcha narx to'lanadi. Bug'doyning qattiq va baquvvat navlari uchun yumshoq navlariga qaraganda o'rtacha qirq foiz ko'p pul to'lanadi. Xo'jaliklar tomonidan sotiladigan xom ashyolar narxi ularning navlariga qarab farqlanadi, tabaqlarga bo'linadi. Masalan, paxta xom ashesining I, II navlariga har xil bahoda pul to'lanadi. Qoramollarning narxlari ularning semiz, orriq, katta, kichik, o'rtacha bo'lishiga qarab belgilanadi. Mahsulotlar sifatiga qarab ularni har xil baholi tabaqlarga ajratish asosida hammadan ko'proq jamiyat manfaat ko'radi va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga ketgan qo'shimcha xarajatlar qoplanadi.

Sabzavot va mevalarga qo'yiladigan baholar ularning sotilish muddatiga qarab farq qilinadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining xususiyatlariga qarab ularning narxini belgilashning asosiy printsiplari ishlab chiqilgan.

Ular quyidagilar:

a) Qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi qishloq xo'jaligining barcha hududlar va tumanlarida qishloq xo'jaligining barcha korxonalari tomonidan, bu mahsulotlarni o'rtacha shart-sharoitlarda ishlab chikarishga ketgan xarajatlarni qoplash va xo'jalikni boshqarish uchun

zarur bo'lgan ijtimoiy zaruriy xarajatlarning o'rmini to'ldirish hamda zarur bo'lgan sof foydani olishga qarab belgilanishi kerak.

B) Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi har xil tumanlarda har xil tabiiy iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishga qarab va qishloq xo'jalik tashkilotlari tomonidan sotilish shartlarini tenglashtirishga qarab tabaqalarga ajralishi kerak.

V) Baholar vujudga keltirilgan sof foydani qayta taqsimlashning iqtisodiy richagi vazifasini bajarishi kerak.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga qo'yiladigan baholarning o'zaro munosabatlari bu mahsulotlarining har bir birligiga ketadigan xarajatlarini qoplashi kerak, bu iqtisodiy asoslangan bo'lishi kerak.

Mahsulotlar bahosining o'zaro munosabatlari tuzilishining asosi uchun qishloq xo'jaligining asosiy mahsuloti bo'lgan donni yetishtirishga ketgan mehnat olinadi (jonli va avvalgi mehnat). Donning bahosi boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari narxini belgilashda juda muhim o'lchov bo'lmos'hish shart deb hisoblanadi.

-Yuqori sifatda va o'z paytida eng zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish narxi orqali moddiy rag'batlantirish kerak.

-qishloq xo'jalik mahsulotlarining talab va takliflarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan har xil narxlar orasidagi iqtisodiy asoslangan farqqa amal qilish kerak

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda narxning bahosi, qiymatning bahosiga teng printsipi bajarilishi shart. Qishloq xo'jaligini iqtisodiy ustuvor yuqori ko'tarishda, rivojlantirishda baho muhim ahamiyatga ega omildir.

### **Baholarni (narxlar) vazifasi**

Xo'jaliklarda baholar quyidagi vazifalarni bajaradi: hisobot, rag'batlantirish, qayta taqsimlash.

Bahoni hisobga olish vazifasi shundan iboratki, bunda qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarishda ketgan jonli va ijtimoiy mehnat xarajatlarini o'zida ifoda etishi kerak. Bundan ko'rindiki, baholar qiymat ko'rsatkichlarini hisoblash vositasi bo'lib xizmat qiladi, mahsulotning yalpi va tovar qiymatini, tannarxini, daromadni, foydalilik-rentabellik va boshqa ko'rsatkichlarini o'zgarishiga ta'sir qiladi. Baholarning rag'batlantirish vazifasi shundan iboratki, bunda baholar orqali xo'jalik davlat buyurtmasini amalga oshiradigan hamma tarmoqlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan daromadlarni oladi. Bular davlatning har xil hududlaridagi qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tahminan bir xil iqtisodiy imkoniyat yaratib berishni kafolatlaydi. Yana eng asosiy vazifalaridan biri

shuki, bunda baholar sof foydani va yana jamg'arma iste'mol fondlarini tarmoqlar orasida taqsimlanishida quroq bo'lib xizmat qiladi. Har xil mahsulotlar narxlarining cheklanishi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqilishi tarmoqlarda foyda miqdorining notekisligini keltirib chiqaradi. Narxlar yordamida davlat yaxshi iqlim va iqtisodiy sharoitlarda ishlaydigan xo'jaliklardan qo'shimcha sof foyda undirib oladi. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning ikki xil sharti asosida davlat bahosi va bozor baholari bor.

Davlat baholari davlat korxonalarini va xo'jaliklarning o'z mahsulotlarini davlat va kooperativ tizimlari orqali sotganlaridagi o'zaro munosabatlarda taqsimlanadi. Bozor baholari davlat tomonidan qo'yilmaydi, balki talab va takliflar asosida va davlat kooperativ savdosining hajmi asosida tarkib topadi. Qishloq xo'jaligida quyidagi narx ko'rinishlari bor: harid narxi, ulgurji narx, vosita savdosi narxi, kelishuv narxi, chakana narx, bozor narxi, hisob narxi, smeta qiymati narxi-rasmiy suratda belgilangan haq miqdori narxlari va boshqalar.

## **6.2. Ishlab chiqarish chiqimlari va tannarx turlari**

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga mehnat va materiallar sarfini kamaytirish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir. Halq va jamiyat manfaatlari yo'lida eng kam xarajatlar bilan eng ko'p natijalarga erishish bozor iqtisodining qonunlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mahsulot tannarxi mazkur mahsulot qismi qiymatining pulli ifodasi bo'lib, ishlab chiqarish vositalari sarflarini va mehnat haqini o'z ichiga oladi. Tannarx ishlab chiqarishning sarflangan vositalarida mujassamlangan avvalgi mehnat sarflaridan va jonli mehnatning o'zi uchun mahsulot yaratadigan qismidan hosil bo'ladi. Tannarx mahsulotning jamiyat uchun mehnat bilan yaratilgan qiymatidan kamdir.

Tannarx eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. U konkret korxona uchun mehnatning pul shaklidagi barcha sarflarini hamda mahsulot yoki ish birligiga kiritilgan ishlab chiqarish vositalarini namoyen qiladi, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish qanchaga tushushini ko'rsatadi.

Mahsulot birligining tannarxi ishlab chiqarish chiqimlarining ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi. Korxonaning vaqt (smena, oy, yil) muayyan davri ichida butun ishlarning butun hajmini bajarishga qilingan sarflarni xarakaterlash uchun "ishlab chiqarish chiqimlari" termini qo'llaniladi.

Mahsulot yoki ishning tannarxi darajasi yetarli darajada ob'ektiv va aniq bilib olinishi mumkin. U jami mehnat sarflari va ishlab chiqarish samaradorligining o'lchagichi rolida namoyon bo'ladi. Bu sintetik ko'rsatkichda korxonaning butun xo'jalik faoliyati aks etadi: mahsulot tannarxi qancha past bo'lsa, xo'jalik faoliyati darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish muammosi qisqa muddatli xodisa bo'lmay, balki katta halq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan doimiy vazifadir. Mahsulot tannarxini pasaytirish jamg'arish va tovarlar narxini tushurishining bosh manbai, shu bilan esa mehnatkashlar moddiy turmushining sharoiti hamdir.

Tahlil maqsadlari va vazifalariga bog'liq hamda tannarxning bir necha turi farqlanadi.

Sarflar xarakteriga ko'ra ishlab chiqarish tannarxi va to'la tannarx ajratiladi. Ishlab chiqarish tannarxiga mahsulot ishlab chiqarish va uni saqlash joyiga tashib keltirish bilan bog'liq barcha sarflar kiritiladi. Xo'jalikda iste'mol qilinadigan dehqonchilik mahsuloti (masalan, oziqalar) ishlab chiqarish tannarxigagina egadir. Xo'jaliklararo davlat tizimlarida ishlab chiqarish tannarxi tizim tannarxi deb ataladi.

To'la tannarxga ishlab chiqarish tannarxi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar (tashish, saqlash xarajatlari, yo'qotishlar va xokazo) kiradi. Sug'orma dehqonchilikning davlatga sotiladigan butun tovar mahsuloti to'la tannarxga egadir. Sug'oruv suvining to'la tannarxi xo'jaliklararo (tizimlararo) va xo'jalik ichidagi sarflar summasi bo'yicha aniqlanadi. U tizim tannarxidan bir necha barovar ko'pdir.

Ishlab chiqarish miqiyosiga ko'ra individual tannarx va tarmoq (yeki ijtimoiy) tannarx farqlanadi. Individual tannarx-mahsulot ishlab chiqarishga korxona qilgan sarflardir. Tarmoq tannarxi tarmoq korxonalari bo'yicha mahsulot birligi ishlab chiqarishga qilingan sarflar o'rtacha darajasini ifodalaydi.

Ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga ko'ra tannarx rejali va haqiqatdagi (xisobot) tannarxga bo'linadi. Yangi ob'ektlar loyihalanayotganda rejali tannarxning bir turi bo'lgan loyiha tannarxi belgilanadi. Rejali tannarx me'yorlar bo'yicha, hisobot tannarxi esa korxonaning haqiqatdagi sarflari bo'yicha hisoblab chiqiladi. Rejali va haqiqatdagi tannarxlar individual va tarmoq, ishlab chiqarish va to'la tannarx ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Tannarxning sanab o'tilgan har bir turi iqtisodiy ko'rsatkich sifatida mustaqil ahamiyatga ega bo'lib sarflar hajmini chuqurroq tahlil qilish va ularni kamaytirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

Buyumning iqtisodiy mazmuniga ko'ra barcha sarflar muayyan guruqlar va turlarga bo'linadi. Rejalarshirish va hisobga olishda sarflar moddalar va tannarxni hisoblash moddalarini bo'yicha guruhlanadi.

Sarflarni moddalar bo'yicha guruhlash asosida xarajatlar iqtisodiy mazmunining belgisi tashkil etadi. Moddama-modda sarflar ularni qayerda qilinganligi va mahsulotning qaysi turiga taalluqligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha sarflarni birlashtiradi. Moddalar bo'yicha guruhlashda suv xo'jaligi korxonalarining sarflari 4 guruhga bo'linadi: ish haqi, materiallar, xom ashyo, yonilg'i, elektr energiyasi, amortizatsiya, boshqa pul sarflari. Bunday guruhlash butun korxona bo'yicha sarflarning mazkur turi umumiyligi hajmini aniqlash uchun zarurdir.

Mahsulot yoki ishlar ayrim turlari tannarxini aniqlash uchun sarflar ucheti ayrim kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha o'tkaziladi. Kalkulyatsiya moddalarining nomenklaturasi har bir tarmoq uchun uchet, rejalarshirish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash bo'yicha tarmoq qoidalarida ko'zda tutiladi. Moddama-modda uchet sarflarini ularning ishlab chiqarish jarayoniga munosabati bo'yicha mahsulot birligiga kiritish usuli bo'yicha va ishlab chiqarish hajmi bilan aloqa bo'yicha guruhlash maqsadini ko'zlaydi.

Mahsulot yoki ish birligi tannarxini hisoblash tannarx kalkulyatsiyasi deb ataladi. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashda avval barcha moddalar bo'yicha sarflar umumiyligi hajmini aniqlab olish, keyin bu sarflarni mahsulot turlari bo'yicha taqsimlash va shu asosda mahsulot har bir turi tannarxini aniqlash zarur.

Suv melioratsiya xo'jaligida berilgan suvning  $1 \text{ m}^3$  i, sug'oriladigan maydonning 1 hektari, yer ishlari va boshqa mexanizatsiyalangan ishlarning  $1000 \text{ m}^3$  i, sug'orma dehqonchilikda esa qishloq xo'jalik mahsulotining 1 sentneri kalkulyatsiyalanadi.

Ishlab chiqarish sarflari tarkibiga ko'ra ikki turli bo'ladi: bir moddadan tarkib topgan oddiy sarflar, bir necha moddani o'z ichiga oladigan, lekin bir xil ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan kompleks sarflar.

Kalkulyatsiyalashda sarflarni mahsulot tannarxiga kiritish usuliga ko'ra ular to'ppa-to'g'ri bevosita va bilvosita (ustama) sarflarga bo'linadi. To'ppa-to'g'ri sarflar texnologik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lib, mahsulot tannarxiga bevosita kiritilishi mumkin. Ularga ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi xom ashyo va materiallar qiymati, amortizatsiya va hokazolar surʼi kiritiladi.

Bilvosita (ustama) xarajatlar asosan ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shartlangan bo'lib, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish bilan bog'liqdir.

Bilvosita (ustama) xarajatlar mahsulot tannarxiga proporsional yo'li bilan kiritiladi. Ular tarkibiga ma'muriy boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish haqi, devonxona va pochta telegraf xarajatlari hamda ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va boshqaruv bo'yicha boshqa sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish hajmi bilan aloqasiga ko'ra sarflarni shartli o'zgaruvchan va shartli barqaror turlarga bo'lib qabul qilingan. Bunday bo'lish sarflar ayrim moddalarining ishlab chiqarish hajmiga turlicha bog'liqligi bilan shartlangandir. Shartli o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga proporsionaldir: mahsulot qancha ko'p ishlab chiqarilsa, moddiy mablag'lar va ishlab chiqarish hodimlariga ish haqini shuncha ko'p sarflash kerak bo'ladi.

Shartli barqaror sarflar ishlab chiqarish hajmi o'sgani sari qariyb o'zgarmaydi. Doimiy xarajatlarga amortizatsiya ajratmalarini, ma'muriy boshqaruv xarajatlarini kiritish mumkin. Doimiy xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi mahsulot qancha ko'p ishlab chiqarilgan bo'lsa, shuncha kam bo'ladi.

### **6.3. Xo'jaliklararo sug'orish tizimlari suvini ishlatish chiqimlari va tannarxi**

Qishloq xo'jaligidagi sug'orish manbalaridan suv olishdan sug'orishgacha bo'lgan jarayonni qamrovchi yagona agromelioratsiya kompleksi bo'lgan sug'orish tizimi ikkita mustaqil korxona qaramog'idadir. Sug'orish tizimlarining xo'jaliklararo qismini ishlatishni suv xo'jaligi tashkilotlari (KG'SXT)<sup>1</sup> xo'jalik ichki qismini ishlatishni esa suv iste'molchilar bo'lgan xo'jaliklar amalga oshiradilar. Yerlarni sug'orish bilan bog'liq sarflarni tegishli ravishda (KG'SXT) va qishloq xo'jalik korxonalari qiladilar. Ular tizim xo'jaliklararo qismini ishlatish, tizim xo'jalik ichki qismini ishlatish hamda sug'orishlar o'tkazish sarflaridan tarkib topadi.

Sarflarni hisobga olishning mavjud tartibida hamda sug'oriladigan yerlardan olingan qishloq xo'jalik mahsulotini tannarxini hisoblashda xo'jaliklararo shaxobchasini saqlash xarajatlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi chiqimlarida aks ettirilmaydi. KG'SXT Xarajatlari byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Sarflarni ikkinchi qismi-xo'jaliklar melioratsiya shaxobchasini saqlash va sug'orishlar o'tkazish xarajatlari-sug'oriladigan yerlardan olinadigan mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bunda xo'jaliklararo melioratsiya chiqimlari umumiy sarflarda

<sup>1</sup> +/CXT - +ишло= ва сув хыжалик ташкилотлари

anchagini ulushni tashkil etadi. Davlat xo'jaliklararo tizimlarining qishloq xo'jalik mahsulotidagi ulushi mahsulot turi, gidrotexnika inshootlari balansli tannarxi, iste'mol qilinadigan suv miqdoriga bog'liq holda 10 dan 15% gacha ayrim tizimlar bo'yicha esa 20% gacha tebranib turadi.

Suv xo'jaligi tashkilotlarining xarajatlari mazmuni, hajmlari va tarkibiga ko'ra o'z xususiyatlariga egadir. Suv melioratsiya xo'jalogining xususiyati-asosiy fondlarining baland qiymatidir, binobarin ishlab chiqarish chiqimlaridagi amortizatsiya ishlatmalari ulushining balandligi. Lekin tizim byudjet yo'li bilan moliyalashtirilsa davlat xo'jaliklararo tizimlarida amortizatsiya ajratmalari qilinmaydi. Amortizatsiya ajratmalarisiz ishlatish chiqimlari tizimda amortizatsiya hisobga olingan summaga nisbatan taxminan 40-50% kamaytirilgan bo'ladi.

O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimiga kirdigan tizimlarini ishlatadigan boshqarmalar va boshqa ekspluatatsion suv xo'jaligi tashkilotlarida sarflarni rejalashtirish va hisobga olish kapital ta'mirlash ekspluatatsion xarajatlari hamda sarflari ko'rsatiladigan yagona shakl bo'yicha olib boriladi. O'z navbatida ekspluatatsion xarajatlar quyidagi turladagi tadbirlarni o'tkazishga bo'linadi:

### **Havzaviy boshqarmalar va irrigatsiya tizimlari ekspluatatsion shtatini saqlash.**

Ma'muriy apparat va tizim hodimlarining ish haqi, ish yuzasidan safar xarajatlari hamda dala uchaskalari, kantselyariya, pochta telegraf va boshqa ma'muriy xo'jalik xarajatlari bu xarajatlarning asosiy turlari hisoblanadi:

Ekspluatatsion xarajatlar va joriy ta'mirlashlar. Bu guruhsda gidro inshootlarni, gidropastlarni, grajdani va ishlab-chiqarish binolarini, aloqa vositalarini, yo'llarni nasos stantsiyalarini, transport vositalarini saqlash va ta'mir qilish xarajatlari, himoyalash, tartibga solish hamda toshqinga qarshi ishlar va hisobga olinmagan boshqa ish turlari xarajatlari birlashtiriladi.

Ishga tushurish sozlash xarajatlari-sug'orish tizimini ishga tushurish bilan bog'liq sarflar:

Boshqa xarajatlar-ekilgan daraxtlarni parvarish qilish xarajatlari, sanitariya va toshqinga qarshi tadbirlar, materiallar, avariya zahiralarini tayyorlash, muhofaza xarajatlari.

Irrigatsiya tizimlarida sarflarni rejalashtirish va hisobga olishning mavjud shakli joriy ta'mirlash xarajatlrini sarflarning mustaqil turiga ajratish imkonini beradi. Shuning uchun sug'oruv suvi tannarxni kalkulyatsiyalashda joriy ta'mirlash sarflarini alohida moddaga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu moddiy va pul mablag'larini rejalashtirish hamda hisobga olishni

yaxshilaydi. Xo'jalik hisobidagi korxonalarda amortizatsiya ajratmalari ishlab chiqarish sarflariga kiradi, kapital ta'mirlash esa kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshiriladi va mahsulot tannarxiga ta'sir ko'rsatmaydi. Byudjet tashkilotlari bo'lgan Irrigatsiya tizimlarida kapital ta'mirlash xarajatlari ishlab chiqarish chiqimlariga qo'shiladi hamda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Ular asosiy vositalar kapital ta'mirlashiga ishlatiladigan amortizatsiya ajratmalari qismini xarakterlaydi.

Ishlab chiqarish sarflarining yuqorida keltirilgan klassifikatsiyasida xarajatlarning bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linishi yo'q. KG'SXT mahsulotining bir turi bo'lgan sug'oruv suvi va har qanday shakldagi barcha sarflar suvga talluqli bo'ladi. Sug'oruv tizimlarida sug'orish manbaidan olingan suvning  $1 \text{ m}^3$  i tannarxi, xo'jalik cheklari nuqtalarida berilgan  $1 \text{ m}^3$  tannarxi sug'oriladigan maydon 1 hektari hisobidagi suvning tannarxi kalkulyatsiyalanadi.

Suvdan foydalanuvchi xo'jaliklarga berilgan suv tannarxi sug'orish manbaidan suv olish, uni magistral va xo'jaliklararo kanallardan xo'jaliklarga chek nuqtalariga berish uchun oqizish jami sarflari darajasini xarakterlaydi.

Melioratsiya tizimlarini ishlatish bo'yicha ko'p ishlar mavsumiy xarakterda bo'lgani uchun suv tannarxini faqat yil oxiridagina aniqlab bo'ladi.  $1 \text{ m}^3$  suvning tannarxi sug'orish tizimi yillik ekspluatatsion sarflar summasining ( $\text{Imx}$ ) xo'jalik chek ( $\text{W}$ ) nuqtasida berilgan suv hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$\text{SqImx G' W}$$

Sug'orish suvi tannarxi xo'jalik cheki nuqtasida o'rtacha 3-5 so'mG' $\text{m}^3$  ni tashkil etadi. Mexanik suv ko'targichi bo'ladigan tizimlarda, tannarx 7-9 so'mG' $\text{m}^3$  gacha oshadi.

Sug'oruv suvi sarflari tarkibi va tannarxi ayrim KG'SXTlari misolida 6.1-jadvalda keltirilgan.

Sug'orish shaxobchasi va inshootlarini ishlatish va saqlash xarajatlari ekspluatatsion sarflarning asosiy turini tashkil etadi. Ular umumiyligi sarflarning 40-50% ini tashkil etadi. Bu xarajatlarning ancha qismi melioratsiya shaxobchasini tozalashga mo'ljallanadi. Ko'p sarflar suv chiqarib beradigan nasos stantsiyalarini ishlatish bilan bog'liqdir.

Havzaviy boshqarmalar va irrigatsiya tizimlari ekspluatatsion shtatini saqlash moddasida xarajatlarning asosiy ulushi shtat hodimlarining asosiy va qo'shimcha ish haqiga to'g'ri keladi. Sug'orish tizimlaridagi shtat hodimlari soni har 1000 hektar yer maydoniga 3-6 kishini tashkil etadi.

Sug'orish tizimlarini ishlatalishning haqiqatdagi sarflarining o'rtacha 20% i kapital ta'mirlash xarajatlaridir. Lekin ayrim KG'SXT lar bo'yicha ular 7% idan 40% gacha bo'lgan doirasida tebratib turadi.

Sug'orish tizimlarini ishlatalish xarajatlari ko'p jihatdan mahalliy sharoitlar va tizimlar tipiga, ularning texnikaviy holatiga bog'liq bo'ladi. 1 hektar sug'oriladigan yer maydoni hisobidagi ekspluatatsion xarajatlar hajmlari O'zbekiston sug'orish tizimlari bo'yicha 20 dan 70 so'mgacha, bo'lgan doira tebratib turadi.

**2004 yilda sug'oriladigan maydonlarni suv bilan ta'minlash, sug'orish xarajatlari va uning tannarxi**

	Amalda sug'oriladigan maydon, ming ga	Shundan		Olingan o'rtacha hosildorlik, sG'ga		Jami sug'orish ishlariga olingan suv miqdori, ming	1 kompleks gektarga berilgan suv miqdori,	1 s. hosil uchun sarflangan suv miqdori, m3G'ga		Jami ekspluatatsion xarajatlar, mln.so'm	1 m3 suvni yetkazish uchun qilingan xarajatlar,		1 s. suv hosili uchun sarflangan suv xarajat-lari, so'mG'm3	
		Paxta	G'alla	Paxta	G'alla			Paxta	G'alla		Paxta	G'alla	Paxta	G'alla
Respublika bo'yicha jami	4198	1385	1116	20,6	43,3	51222	12,2	592	282	179323	3,5	2074	986	
Amudaryo havzasi bo'yicha jami	2345	754	535	22,0	41,6	32381	13,8	627	332	117065	3,6	2268	1199	
Qoraqalpog'iston R.	500	91,5	60,6	10,1	24,4	8281	16,6	1639,8	678,8	9320	1,13	1845,5	763,9	
Surxondaryo	326	120,0	95,0	28,6	45,0	4609	14,1	494,3	314,2	18251	3,96	1957,5	1244,1	
Qashqadaryo	487	177,6	140,0	21,7	36,8	5415	11,1	512,4	302,1	41426	7,65	3920,0	2311,5	
Buxoro	274	115,4	61,0	29,1	48	4021	14,7	504,3	305,7	25883	6,44	3246,2	1968,0	
Navoiy	132	39,4	38,0	25,9	45,8	1760	13,3	514,8	291,1	7990	4,54	2337,1	1321,6	
Samarqand	377	107,0	102,0	22,8	54,5	3704	9,8	430,9	180,3	7418	2,00	863,0	361,0	
Xorazm	249	102,7	38,1	15,9	37	4591	18,4	1159,6	498,3	6777	1,48	1711,8	735,6	
Sirdaryo havzasi bo'yicha jami	1853	632	581	18,7	45,2	18841	10,2	545	225	62258	3,3	1801	744	
Andijon	271	106,2	74,0	25,8	74	2857,3	10,5	408,5	142,4	10923	3,82	1561,7	544,5	
Namangan	276	94,0	78,0	18,8	48,2	2597,7	9,4	501,2	195,5	21188	8,16	4087,9	1594,4	
Farg'ona	361	115,4	105,0	18,7	50,5	4534	12,6	671,3	248,6	10303	2,27	1525,4	564,8	
Jizzax	294	95,6	116,7	16,0	31,5	2661,2	9,0	565,3	287,2	8924	3,35	1895,8	963,0	
Sirdaryo	266	111,4	92,1	12,9	25,7	2797,9	10,5	816,6	409,9	4880	1,74	1424,3	714,9	
Toshkent	385	109,2	115,0	19,7	41,1	3393	8,8	446,9	214,2	6040	1,78	795,5	381,3	

## **6.4. Ichki sug'orish tizimlarining ekspluatatsion chiqimlari va gettar sug'orish tannarxi**

Ichki xo'jalik sug'orish tizimi dalalarga suv berish va sug'orishni amalga oshirishga mo'ljallangandir. Ishlab chiqarish texnologiyasiga ko'ra ekspluatatsion tadbirlar ichki xo'jalik shaxobchasida sug'orish texnikasi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda shaxobchaning asosiy o'lchamlari ko'p darajada sug'orish texnikasi bilan aniqlanadi.

Ichki xo'jalik melioratsiya tizimlari suvdan foydalanuvchi xo'jaliklar mablag'lari hisobiga saqlanadi. Ichki xo'jalik sug'orish tizimlarini ishlatish va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish xarajatlariga ham yagona chiqimlar sifatida, ham sarflar mustaqil turlari sifatida qo'yilgan maqsadga bog'liq holda qarash mumkin. Sug'orish texnikasi iqtisodiy samaradorligini baholashdagi gettar sug'orish tannarxini aniqlash uchun bu sarflarni kompleks tarzda hisobga olmoq kerak. Xo'jaliklardagi gettar sug'orishning haqiqatdagi tannarxi esa bevosita sug'orishlar o'tkazish bilangina bog'liq sarflar bo'yicha hisoblab chiqiladi. Ular ekinlarga ishlov berish texnologik kartalarida hisobga olinadi. Ichki xo'jalik sug'orish shaxobchasini ishlatish xarajatlari (xodimlarning melioratsiya shaxobchasini saqlash va tozalash bo'yicha ish haqi gidrotexnika inshootlarini ishlatishda foydalaniladigan dvigatellar ishiga sarflangan yonilg'i va moylash materiallari, gidrotexnika va boshqa inshootlar amortizatsiyasi va joriy ta'mirlashi) "Sug'orish bo'yicha taqsimlanadigan sarflar" kompleks moddasi bo'yicha taqsimlanuvchi sarflar sifatida hisobga olinadi. Ular o'tkazilgan gettar sug'orishlarga mutanosib holda sug'orish tannarxiga kiritiladi.

Ichki xo'jalik sug'orish shaxobchasini ishlatish va sug'orish o'tkazish chiqimlari sarflarning quyidagi moddalaridan tarkib topadi: sug'orish shaxobchasi va sug'orish texnikasiga xizmat ko'rsatishda band bo'lган ishchilarning ish haqi, sug'orish shaxobchasi, sug'orish texnikasi nasos kuch uskunasi va boshqa melioratsiya fondlari amortizatsiya ajratmalari, sug'orish shaxobchasi sug'orish texnikasi va boshqa melioratsiya vositalarining joriy ta'mirlashi sarflari, elektr energiyasi qiymati, yoqilgi moylash materiallari qiymati, boshqa bevosita sarflar, ustama xarajatlar.

Bir gettarning sug'orish tannarxi (S) ish birligi sifatida kalkulatsiyalanadi.

SqIvxG'Fga G'pol.

Bunda: Ivx-ichki xo'jalik sug'orish shoxobchasini ishlatish sug'orishlar o'tkazish sarflari, so'm.

F ga pol-mavsumdagi gektar sug'orishlar ga pol.

Turli ekinlarni sug'orish me'yorlari turlichal bo'lganligidan sug'orish texnikasi ishi taqqoslana olishi uchun shartli gektar sug'orish qabul qilinadi. 1 gektar sug'orish me'yori yetakchi ekin uchun qabul qilingan me'yordir. Respublika viloyatlarida sug'orish me'yori boshoqli don ekinlari uchun 1000 m<sup>3</sup>, paxta, sabzavot va boshqa suvgaga talabchan ekin uchun 1500-2000 m<sup>3</sup> qilib belgilangan.

Ishlab chiqarish ma'lumotlarining ko'rsatishicha, sug'orish tannarxi darajasining qo'llaniladigan sug'oruvchi, yomg'irlatuvchi mashina va agregatlar tipiga biron bir bog'liqligi yo'qdir. Gektar sug'orish tannarxi tizimlar va xo'jaliklar bo'yicha xo'jaliklarda esa yillar bo'yicha tebranib turadi.

Bu avvalo sug'orish texnikasidan foydalanish darajasiga bog'liqdir.

Sug'orishning ulushli sarflari gektar-sug'orish, o'tkazilgan sug'orishlar soni (sug'orishlar qisqaligi) shuningdek sug'orishning taqsimlanadigan sarflari hajmi bilan aniqlanadi.

Ichki xo'jalik sug'orish shaxobchasi bo'yicha sug'orish ulushli sarflari hajmi katta chegaralarda turadi. Bunday sarflar O'zbekistonning paxtachilik xo'jaliklarda 5000 dan 15000 so'mG'gektargacha bo'lган chegaralarda tebranib turadi. Sabzavotlar va sholikor xo'jaliklarda bunday tebranish yanada yuqoridir. Ichki xo'jalik tizimidagi melioratsiya sarflari darajasi ko'p omillar bilan aniqlanadi. Bu darajada melioratsiya fondlari hajmiga va ularning tarkibiga sug'orish texnikasi, ekin maydonlari tarkibi hamda sug'orish rejaliqiga bog'liq bo'ladi.

Ichki xo'jalik shaxobchasi bo'yicha melioratsiya chikimlarini qishloq xo'jalik mahsuloti tannarxiga kiritishda sug'orishlar o'tkazish xarajatlari bevosita sarflarga kiritiladi. Chunki sug'orish ishlari konkret ekin bo'yicha muayyan dalada o'tkaziladi. Ichki xo'jalik sug'orish tizimini ishlatish xarajatlari bevosita sarflarga kiritiladi hamda ekinlar bo'yicha gektar sug'orishlarga mutanosib taqsimlanadi.

Shunday qilib, ichki xo'jalik shoxobchasini ishlatish sarflari hajmi va sug'orish tannarxiga ikki omil: sug'orish shoxobchasi va melioratsiya texnikasidan foydalanish darajasi, shuningdek ularning balansli qiymati ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun mashinalar, mexanizmlar, uskuna va sug'orish shoxobchasi dan yaxshi foydalanish yo'li bilan, shuningdek shoxobchalarni ko'rish tannarxini pasaytirish

hisobiga ishlatish sarflarini ancha qisqartirish va butun sug'orma dehqonchilik samaradorligini oshirish mumkin.

## **6.5. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimini ishlatish chiqimlari**

Suv ta'minoti tizimlaridagi suv olish, yetkazib berish va taqsimlash jarayonlari melioratsiya tizimlaridagiga nisbatan ancha murakkab inshootlarini talab qiladi. Bu yerda suvni tozalash va sifatini yaxshilashga qo'shimcha sarflar zarur bo'ladi. Shuning uchun ishlatish sarflarining shaklanishi o'z xususiyatlariga egadir.

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimining yillik ishlatish xarajatlari tarkibi sarflarining quyidagi moddalaridan iborat bo'ladi: Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish haqi, amortizatsiya ajratmalari, joriy ta'mirlash sarflari, materiallar (reagentlar) qiymati, elektr energiyasi va yonilg'i moylash materiallari xarajatlari, boshqa bevosita sarflar, ustama xarajatlar.

Ish haqi moddasiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sotsial sug'urtaga yozilgan asosiy va qo'shimcha ish haqi kiradi. Shtat birliklari soni shtat jadvali bilan aniqladi, oylik maoshlari tarif stavkalariga ko'ra belgilanadi.

Joriy ta'mirlash amortizatsiya ajratmalari va sarflari ishlab chiqarish binolari, inshootlari va uskunalari bo'yichagina o'tkaziladi.

Materiallar xarajatlariga suvni tozalash uchun ximik reagentlar xarajatlarigina kiritiladi. Reagentlar qiymati ularni tayyorlash va tashib keltirishning barcha xarajatlaridan tarkib topadi. Xarajatlarning ulushli me'yorlari  $1\text{ m}^3$  so'm bilan belgilanadi.

Elektr energiyasi va yonilg'i sarflari moddasida suv chiqarish hamda tozalash inshootlarining texnik ehtiyojlari, sarflanadigan elektr energiyasi va yonilg'i sarflari hisobga olinadi. Yoritish va isitishga sarflanadigan elektr energiyasi va yonilg'i bu moddada hisobga olinmaydi va umum ishlab chiqarish xarajatlariga kiradi.

O'rnatilgan elektr dvigatellari ishlashi uchun foydalilaniladigan elektr energiyasi tannarxi mazkur tashkilot uchun belgilangan tarifga ko'ra aniqlanadi. Qishloq xo'jaligida iste'mol qilinadigan energiyaga bir stavkali ta'rifga ko'ra iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun schetchik bo'yicha haq to'lanadi.

Boshqa umum ishlab chiqarish xarajatlariga mehnat muhofazasi, binolarni (isitish va yoritish) saqlash va inventar xarajatlari, sex transport xarajatlari hamda boshqa sarflar kiradi.

Ustama xarajatlar bevosita sarflarga nisbatan foizlarda belgilanadi.

Suv ta'minotida realizatsiya qilingan  $1 \text{ m}^3$  suv tannarxi kalkulyatsiyalanadi. Suv tannarxi hisobot yili oxirida yillik chiqimlarning suv yetkazib berish yillik hajmiga ko'ra aniqlanadi

$$SqI \approx G'W_2$$

bunda – Ivi–vodaprovodni ishlatish yillik chiqimlar, so'm  $W_2$ -suv yetkazib berish yillik hajmi,  $\text{m}^3$ : Suv ta'minoti tizimlarida ishlatilgan  $1 \text{ m}_3$  suvning tannarxi sug'orishdagiga nisbatan bir necha barobar ko'pdir (6.2-jadval). Suv ta'minot tizimi bo'yicha suv tannarxi tarkibi.

6.2-jadval

Sarf-xarajat turlari	$1 \text{ m}^3$ suvning tannarxi	
	so'm	%
Ish haqi	1,6	17,0
Amortizatsiya ajratmalari	2,8	31,0
Joriy ta'mirlash	1,2	13,2
Elektr energiyasi va yonilg'i tannarxi	1,7	12,7
Materiallar (reagentlar) sarfi	0,2	2,2
Boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari	0,3	3,3
Ustama xarajatlari	1,3	14,0
Barcha sarflar	9,1	100,0

Suv ta'minoti tizimlarida suv yetkazib berish tannarxidagi eng katta ulushni amortizatsiya ajratmalari, ish haqi va elektr energiyasi qiymati tashkil qiladi.

Suv ta'minoti tizimlarida elektr energiyasini ancha samarali nasos agregatlarini joriy qilish va truboprovodlardagi bosimni ko'plab yo'qotishga qarshi kurashish yo'li bilan tejash mumkin. Bosim yo'qotilishiga qarshi kurash turli yo'nalishlarda olib borilishi kerak. Eng muhim tadbirdan biri-nasos stantsiyalari bilan vodovodlar birgalikdagi ishni tejamlı rejimini o'rnatishdir.

## 6.6. Ta'mirlash qurilish ishlari xarajatlari

Tannarxi yangi suv xo'jaligi obektlarni qurish, ishlab turganlarini rekonstruktsiyalash va ta'mirlash loyihaning smeta xarajatlari asosida amalga oshiriladi.

Sarflar smetasida qurilish montaj ishlarining qiymati tannarxi belgilanadi. Smeta qiymati qurilish mahsuloti qiyomatiga muvofiq keladi.

Qurilish smeta qiymati (St) uch qismdan: bevosita sarflar (Zp), ustama xarajatlar (Nr) va rejali jamg'arma yeki me'yoriy foyda (Pn) dan tarkib topadi.

#### StqZpQPnQNr

Smetsa qiymati kattaligini aniqlashning mohiyati qurilish va montaj ishlarinng konkret turlari bo'yicha sanab o'tilgan sarflar hamda xarajatlarinng me'yorlariga ko'ra summalarini belgilashdan iboratdir. Smetsa sarflarinng oxirgi hajmini va rejali jamg'armalarning bevosita sarflar xamda ustama xarajatlar summasiga nisbattan 8% miqdorda tasdiqlangan me'yoriy hajmini belgilab beradi.

Qurilish montaj ishlari tannarxi—qurilishi montaj ishlarni bajarish barcha sarflarinig pulda ifodalangan yig'indisidir. Bu tannarx rejali jamg'armalar kattaligi hisobidagi qiymatdan kam bo'lib, bevosita sarflar va ustama xarajatlardan tashkil topadi.

Qurilish montaj ishlarinng smetali (Ss), rejali (Sp) va haqiqatdagi (Sf) tannarxi farq qilinadi. Bu tannarx smeta sarflarini haqiqatdagi sarflar bilan taqqoslash hamda qurilish montaj ishlari tannarxini kamaytirish hisob-kitobi uchun baza xizmatini o'taydi. Smetsa tannarxi kattaligi bevosita sarflash va ustama xarajatlarni qo'shish yo'li bilan Ss q ZpQNr, yoki smeta qiymatidan rejali jamg'armalar qiymatini chiqarib tashlash yo'li bilan SsqSt-Pn olinishi mumkin.

Qurilish montaj ishlarining rejali tannarxi tannarx kamayishidan olinadigan qo'shimcha foyda kattaligi hisobidagi smetadan pastdir (Ps). Tannarxni kamaytirish topshirig'i smeta qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Shuning uchun reja tannarx rejali jamg'armalar va tannarxning berilgan kamaytirilishi chiqarib tashlangan smeta qiymatiga asoslangan holda hisoblanadi.

#### Sp qSt-(PnQPs)

Rejali tannarxini aniqlash zaruriyati shu narsa bilan shartlanganki, smeta tuziladigan me'yorlar uzoq vaqt amal qiladi va texnika taraqqiyotini to'la-to'kis hisobga ololmaydi. Texnika taraqqiyoti esa ishlar tannarxini kamaytirish uchun smetaga nisbatan ob'ektiv

sharoitlarni yaratib beradi. Tannarxni kamaytirish topshiriqlari vositasida smetada qabul qilingan rejali jamg' armalar kattaligi har yili tuzatib turiladi.

Qurilish-montaj ishlarining haqiqatdagi tannnarxi ishlab chiqarishning tarkib topgan sharoitlarida ishlab chiqarish sarflari bo'yicha aniqlanadi. U bajarilgan ishlar qurilish tashkilotiga qanchaga tushganligini ko'rsatadi.

Bevosita sarflar-qurilish ishlab chiqarishining texnalogik jarayoni bilan bog'liq asosiy xarajatlardir. Ular quyidagi to'rtta kalkulyatsiya moddalariga birlashtirilgan: qurilish mashinalariga xizmat ko'rsatish ishchilarli qurilish montaj ishlarida band bo'lган ishchilarinng asosiy ish haqqi. Bu moddada boshqarishga va ustama xarajatlar hisobiga bajariladigan ishlarda band bo'lган qurilish montaj ishlarni bajarishga bevosita sarflangan materiallar, metallar, konstruktsiyalar, shuningdek yonilg'i, elektr energiyasi bug' va suv sarflari;

Tashib berish, montaj va demontaj qilish sarflarni o'z ichiga oladigan qurilish mashinalari va mexanizmlariga xizmat ko'rsatish, elektr energiyasi, yoqilg'i, shuningdek boshqarish va mashinalarga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

Ob'ekt yaqinidagi omborlar yuklarni taxlanadigan joylargacha tashib berish, qurilish maydonchasidan qor va axlatni chiqarib tashlash bilan bog'liq bevosita sarflar.

Ustama xarajatlarga boshqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish sarflari kiradi. Qurilishdagi ustama xarajatlar tarkibi quyidagichadir.

Ma'muriy-xo'jalik xodimlari ish haqqini birlashtiruvchi ma'muriy xo'jalik xarajatlari, xizmat safarlari sarflari, kantselyariya pochta-telefon xarajatlari, yengil transportni saqlash, boshqarmalar o'mashgan binolarni saqlash.

Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish xarajatlari. Ular yong'inga qarshi xizmatni va soqchilik muhofazasi, ishlab chiqarish moslamalari, uskuna va inventarni saqlash bilan, shuningdek obodonlash hamda qurilish maydonchalarini saqlash xarajatlari bilan bog'likq xarajatlari. Ishchilarga xizmat ko'rsatish xarajatlari-mehnat muhofazasi va havfsizlik texnikasi, qurilish-kommunal va madaniy maishiyy xizmatlar, qurilish montaj ishlari ishchilarining ish xaqi sotsial sug'urtaga ajratmalar va hokazo xarajatlari;

Bufetlar va oshxonalarga xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladigan boshqa xarajatlar, stipendiya to'lash, va boshqa beunum sarflar-ishchilar turib qolganligiga haq to'lash, jarimalar, nafaqalar, yo'qotishlar va hokazo.

Beunum xarajatlar va yo'qotishlar, odatda, rejalashtirilmaydi. Ularning summalari rejali tannarxga nisbatan doimo ortiqcha xarajat hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish shartlarining qurilish tashkilotlari tomonidan buzilishi va xo'jalik shartnomalarining buzilishi bilan shartlangandir.

Ustama xarajatlar vazirliklar va idoralar bo'yicha qayta reglamentlangandir. Ularning hajmi qurilish ishlari bevosita sarflari summalariga yoki uskuna montajidagi ishlab chiqarish ishchilari ish haqiga nisbat foizlarda belgilab qo'yilgan. Melioratsiya qurilishi bo'yicha ustama xarajatlarning o'rtacha me'yori qurilish ishlari bevosita sarflariga nisbatan 18,0% etib belgilangan. Metall konstruktsiyalarni montaj qilish ustama xarajatlari barcha tashkilotlar uchun bevosita sarflariga nisbatan 8,3 % uskunani montaj qilish bo'yicha esa ishchilar ish haqiga nisbatan 10 % yagona etib tasdiqlangan.

Suv xo'jaligi qurilishidagi kurilish montaj ishlari tannarxi tarkibining xususiyati shundan iboratki, materiallar, detallar va konstruktsiyalar xarajatlarining umumiyligi sarflardagi ulishi qurilishning boshqa tarmoqlaridagiga nisbatan ancha pastdir. Bu suv xo'jaligi qurilishida yer ishlari ustun turishi bilan izohlanadi. Ayni vaqtida bu yerda mashina va mexanizmlarni ishlatish sarflari katta ulushga ega, qishloq xo'jaligi qurilishdagidan to'rt borobar yuqoridir.

### 6.3-jadval

#### **Qurilish montaj ishlari sarflarining tarkibi (%)**

Sarflarning moddalari	Melioratsiya qurilishi	Qishloq xo'jalik qurilishi	Qurilishning barcha sohalari
Bevosita sarflar	83,7	82,5	83,5
Shu jumladan: material sarflari	40,6	56,5	54,3
Ishchilarning asosiy ish haqi	12,5	16,0	14,2
Mashinalarni ishlatish xarajatlari	27,0	17,5	10,7
Boshqa xarajatlар	3,6	2,5	4,3
Ustama xarajatlар	16,3	17,5	4,3
Jami xarajatlар	100	100	100

Suv xo'jaligi qurilishidagi qurilish montaj ishlari tannarxining tarkibi iqtisodiyet rivojlanishi va texnika taraqqiyoti ta'sirida o'zgarib boradi. So'nggi o'n yillik mobaynida materiallar va mashina hamda mexanizmlarni ishlatishga haq to'lash sarflarining ulush ko'paydi, asosiy ish haqi va boshqa bevosita sarflar ulushi kamaydi.

Turli joylarda qurilgan bir turli ob'ektlar qurlishi qiymatining umumiyligi hajmini taqqoslab bo'lmaydi. Shuning uchun taqqoslash uchun ulushli ko'rsatkichlardan

foydalilaniladi. Tizimning sug'oriladigan maydon 1 gektari hisobidagi qurilish qiymati, yer ishlarining 1 m<sup>3</sup> hisobidagi, qo'yilgan betoning ishdagi qiymati suv xo'jaligi qurlishidagi ana shunday ko'rsatkichlardir.

## **6.7. Melioratsiya hamda ta'mirlash qurilish ishlari tannarxini kamaytirish tadbirlari**

Melioratsiya ishlari tannarxi-suv xo'jaligi tashkilotlari va qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini harakterlaydigan kompleks iqtisodiy ko'rsatkichdir. Unda ishlab chiqarishning barcha mehnat va mablag'lar sarfi aks etadi. Melioratsiya va ta'mirlash qurilish tannarxini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar o'z iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra halq xo'jaligi, tarmoq va ichki xo'jalik tadbirlariga bo'linishi mumkin.

Tannarx shakllanishiga ta'sir o'tkazadigan halq xo'jalik tadbirlari moddiy resurslar bahosini hosil qilish, tariflar, smeta me'yorlari, moddiy texnika ta'minoti bilan bog'liqdir.

Tarmoq omillarining mahsulot tannarxiga ta'siri ishlab chiqarishni to'plash, uni ixtisoslashtirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va boshqarish shakllari orqali namoyen bo'ladi. Bu omillar suv xo'jaligi ishlab chiqarishni yanada industirlashtirish, melioratsiya texnikasidan yaxshi foydalanish, kadrlar malakasini oshirish, pirovard natijada mehnat unumdorligini oshirish va ishlar tannarxini kamaytirish uchun sharoitlar yaratadi.

Maxsulot tannarxiga ta'sir ko'rsatadigan ichki xo'jalik omillari ishlab chiqarish dastursini bajarishga qaratilgan tashkiliy xo'jalik tadbirlarining yig'indisidir.

Suv xo'jaligi mahsuloti tannarxini kamaytirish yo'llari to'g'risida gapirish uchun sarflar tarkibiga asoslanmoq kerak. Mahsulot yeki ishlar tannarxi tarkibini o'rganish uning tuzilishini ochib kamaytirish rezervlarini aniqlash imkonini beradi. Tannarx tarkibida ish haqi katta o'rinn tutadigan sermehnat ishlarda, birinchi galda, ishlab chiqarish texnika darajasini oshirish hisobiga sermehnatlikni kamaytirishga e'tibor beradi. Ko'p material talab qilinadigan ishlab chiqarish jarayonlarida moddiy sarflarni kamaytirish yo'llari izlab topiladi.

Sug'oruv suvi tannarxiga ta'sir o'tkazadigan omillar tizim va tashkiliy xo'jalik

sharoitlari holatiga bog'liq bo'ladi. Sug'orish tizimining texnika holati shaxobcha KZI va KPD ning ko'rsatkichlari bilan harakterlanadi. Bu koeffitsentlar qiymati qancha yuqori bo'lsa, melioratsiyalanadigan maydon va sug'orish suvidan shuncha samarali foydalaniladi. Bu esa tizimdan foydalanishning ayni bir xil chiqimlarida yuqori samaraga erishini bildiradiki, shunday bo'lishi doimo mahsulot birligi tannarxi pasayib borishiga olib keladi.

Sug'orish suvi yo'qolishlarini kamaytirish ekspluatatsion sarflar kamayishini, sug'oriladigan maydonlar esa ko'payishini bevosita va bilvosita ta'minlaydi.

Toshkent viloyati KG'SXT ning ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish ulushli ekspluatatsion sarflar o'zлari ixtiyoridagi maydonlar hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

#### 6.4-jadval

Ko'rsatkichlar	Sug'oriladigan maydon bo'yicha QG'SXT guruhlari				O'rtacha
	15 gacha	15-25 gacha	25-40 gacha	40 dan ko'p	
Guruhdagi QG'SXTlar soni. Ulushli ekspluatatsiya sarflari, so'mG'ga. Shu jumladan: Ekspluatatsion shtatlari saqlash so'mG'ga. Joriy ta'mirlash xarajatlari, so'mG'ga. Boshqa xarajatlar Bir ekspluatatsion ishchiga to'g'ri keladigan yer maydoni, ga	5 1430	4 1340	5 1100	2 1010	- 1160
	3200	2700	2600	2100	2600
	2900	2400	2200	2100	2400
	200	200	300	100	200
	17400	14300	28500	34400	20000

#### Ekspluatatsion sarflarning KG'SXT hajmlariga bog'liqligi

Toshkent viloyati KG'SXT buyicha 6.4-jadvaldan ko'rinish turibdiki, KG'SXT hajmi o'zgarishi bilan sug'orish tizimlarini ishlatish ulushli sarflari kamayib boradi. Bu esa sug'orish suvi tannarxining kamayishiga olib keladi.

Suv tannarxi kamayishining tashkili xo'jalik omillari ishlab chiqarish va ishlarini tashkil qilishni takomillashtirishga, shuningdek moddiy va pul mablag'larini tejab sarflashga qaratilgandir.

Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash suv xo'jaligi tizimlarini ishlatish tannarxini kamaytirishning katta rezervidir. Asosiy fondlardan okilona foydalanish fond samarasini oshiradiki, bu narsa mahsulot tannarxi kamayshi bilan bevosita bog'liqdir.

Suv xo'jaligi tizimlari ekspluatatsion chiqimlarining bir qancha moddalari bo'yicha

sarflarni kamaytirish rezervlari mavjuddir. Mehnat unumdorligini oshirish hisobiga ish haqi sarflari kamaytirilishi mumkin.

Mehnat unumdorligining o'sishi, bu o'sish sur'atlari ish xaki o'sishi sur'atlaridan ortib borgan sharoitdagina ish haqi sarflari kamayishini shartlaydi.

Mehnat unumdorligi o'sishi (Zzp) natijasida ish haqi fondi tejalishi quyidagi formula buyicha aniqlanadi:

$$33n = 100 - \frac{100 + P_{\text{en}}}{100 + P_B} 100$$

bunda: Rep-ish haqi o'sishi, %

Rv-mexnat unumdorligining o'sishi, %

Mehnat unumdorligi o'sishi natijasida ishchilar asosiy ish haqi (Epz) tejalishi hisobiga suv xo'jaligi va melioratsiya ishlari tannarxi darajasining pasayishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\mathcal{E}_{\text{nz}} = 3n_3 \left( 1 - \frac{100 + P_{\text{en}}}{100 + P_B} \right)$$

Bunda Zpz –ishchilarga to'langan asosiy ish haqi, ming so'm

Ayniqsa shaxobchani tozalash va gidrotexnika inshootlarini ta'mir qilishdek sermehnat jarayonlarda mexanizatsiyalash darajasini oshirish va qo'lida bajariladigan ishlari ulushini kamaytirish suv xo'jaligi va melioratsiya ishlari tannarxini kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishlar sarflarini kamaytirish mehnat to'la mexanizatsiyalanganda mumkin bo'ladi.

Gidrotexnika inshootlarini boshqarishda avtomatlashtirish va yangi aloqa vositalarini qo'llanish hisobiga xodim yuklamasi me'yorlarini ko'paytirgan holda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar shtatini qisqartirish mumkin.

KG'SXTda xo'jalik hisobini joriy etishda melioratsiya tizimlarining ekspluatatsion chiqimlarini kamaytirishning kattagina rezervlarini topish mumkin.

## **6.8. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash va suvga haq to'lashni tashkil etish**

Mavjud adabiyotlarda suvdan foydalanish samaradorligini yaqqol va lo'nda qilib tushuntiradigan ko'rsatkichlarni takomillashtirish orqali va sug'oriladigan yerlardan

foydalish samaradorligini mukammal ko'rsatadigan ko'rsatkichlarni ishlab chiqish ustida harakat qilingan. Bundan tashqari hozirgi paytda xo'jaliklarga yetkazib berilayotgan suvga iqtisodiy asoslangan baho o'rnatilmaganligi uchun suvni deyarli tekinga berilishi undan foydalanishning samaradorligini oshirishga yo'l qo'ymasligi ko'rsatilgan. Shuning uchun ham ushbu mavzuda suvni manbada tashkil qilish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni alohida hisobga olish manbada tashkil qilingan suvning tan narxini, suvni xo'jaliklar chegarasigacha yetkazib berish tannarxini va nihoyat suvdan foydalanuvchi xo'jaliklar ichida sug'orishni tashkil etish tannarxini aniqlash yoritilgan. Mavzuning oxirgi qismida har bir  $m^3$  suvning iqtisodiy bahosi va uning ikki stavkalik sotish bahosini belgilash haqida fikr bildirilgan. Mamalakatimiz sahro va cho'lga mansub «Arid» mintaqasida joylashgani sababli bu yerlarda yashovchi halqlarning hayotiy faravonligini, turmush-darajasini asosan suv bilan ta'minlashiga bevosita bog'liqdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining deyarli hammasi sug'oriladigan yerlarda ishlab chiqariladi, shuning uchun ham arid mintaqasida suvning ahamiyati beqiyosdir. Umuman olganda bu mintaqada suvsiz dehqonchilikni rivojlantirib bo'lmaydi.

Bizning mamlakatimizda suvning ahamiyati benihoya katta bo'lishiga qaramasdan, uning qadriga hamisha ham yetavermaymiz, sababsiz suv isrofgarchiliga tez-tez yo'l qo'yaveramiz. Suvni tejab sarflaydigan sug'rish texnikasini va texnologiyasini ahyon-ahyonda qo'llaymiz. Dehqonchilikdagi sug'orish texnologiyasi bundan ming yillar burun ham egatlar orqali amalga oshirilardi, hozir ham xuddi shunday. Dehqonchilikda ilg'or hisoblangan AQSh, Isroil kabi davlatlarda paxta dalalarida tomchilatib sug'orish usullarini qo'llash hisobiga har-bir hektar yerga 2-3 ming  $m^3$  sarflayotgan bir vaqtda biz 10 ming  $m^3$  va undan ham ko'proq suv sarflaymiz. Hozirgacha sug'oriladigan dehqonchilikda suvdan foydalish samaradorligini aniqlashning takomillashgan aniq uslubini ham ishlab chiqqan emasmiz.

Samaradorlikni aniqlashda quyidagi bir qator uslublardan foydalanib kelmoqdamiz.

Sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti.

$$\Phi_{IKm} = \frac{W_d}{W_m}$$

Bunda FIkm-sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti.

Wd-sug'oriladigan dalaga yetkazib berilgan suvning hajmi.

Wm –manbada sug'orish uchun olingan suvning hajmi.

Mazkur formula orqali birdaniga butun sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti aniqlaydigan bo'lsa, xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichki sug'orish tizimlarining samaradorligini aralashtirib yuborgan bo'lamiz. Natijada samaradorlik koeffitsiyenti bir muncha noto'g'ri chiqadi. Shuning uchun xuddi shu formuladan foydalanib alohida xo'jaliklararo va ichki sug'orish tizimining samaradorligi koeffitsiyentini topib, keyin har ikkalasini ko'paytirish orqali umumiy sug'orish tizimidan foydalanish samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha topiladi.

$$\Phi K_m = \Phi I K_m : \Phi I K_m$$

Bunda FI Kxm-xo'jaliklararo sug'orish tizimining foydalanish koeffitsiyenti.

FI Kit-ichki sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti.

Suvdan foydalanish samaradorligini aniqlashda faqat xo'jaliklararo va ichki xo'jalik kanallarida yo'qotilgan suvni aniqlash bilan chegaralanadigan bo'lsak, suvdan foydalanish samaradorligini to'liq aniqlay olmaymiz. Bizning fikrimizcha yo'qotilgan suvning umumiy hajmini aniqlashda quyidagi formula qo'proq mos keladi.

$$C\Phi K_m = \frac{W_{\phi u}}{W_m}$$

Bunda SF Km-tizimi bo'yicha suvdan foydalanish koeffitsiyenti.

W-sug'oriladigan maydonga

FI-foydali iste'mol qilingan suv m<sup>3</sup>

Wm-manbadan olingan suvning hajmi.

Mazkur formuladan foydalanib alohida olingan xo'jalikda ham suvdan foydalanish koeffitsiyenti topish mumkin. Bunda formulaning mahrajini manbadan olingan suvning o'rniga xo'jalikning chegarasiga yetib kelgan suvning hajmi yoziladi. Bevosita sug'oriladigan dalaning suvdan foydalanishi koeffitsiyenti esa (SFKd) quyidagi formuladan foydalanib aniqlashni tavsiya qilamiz.

$$SFK_d = \frac{W * \Phi I}{W * \Phi I K_m}$$

Mazkur formuladan foydalanishning sababi shundaki bu yerda bir tomonidan butun sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti hisobiga olinsa, ikkinchi tomonidan manbadan sug'orish uchun olingan suvning hajmi to'liq hisobga olinadi, bular o'z

navbatida sug'orish o'tkaziladigan dalaning suvdan foydalanish koeffitsiyentini to'liq ko'rsatadi.

Suvdan foydalanish samaradorligini yanada to'laroq aniqlash uchun mazkur suvni sug'orish dalasiga yetkazib kelish xarajatlarini ham hisobga olish zarur, deb hisoblaymiz. Buning uchun esa sug'orish suvining tannarxini aniqlash birmuncha murakkab bo'lганligi uchun quyidagi etaplarga bo'lib aniqlashni tavsiya qilamiz. Suvni manbalarda tashkil qilish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni alohida hisobga olib manbada tashkil qilingan suvning tannarxini aniqlash kerak.

$$\text{Bunda } 1 \text{ m}^3 \text{ s.t.} = \frac{Mmx}{W_M} \quad \text{yoki } 1 \text{ m}^3 \text{ s.t.} = \text{bir m}^3 \text{ suvning tannarxi so'm, tiyin.}$$

Mm.x-manbada tashkil qilingan suvning hajmi bilan bog'liq bo'lган xarajatlarning hajmi, so'mda Wm-manbada tashkil qilingan suvning hajmi m<sup>3</sup>.

2. Suvni xo'jaliklar chegarasigacha yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlardan kelib chiqib suvning yetkazib berish tannarxini alohida hisoblash kerak. Bunda  $1 \text{ m}^3 \text{ s.ye.} = \frac{Ex}{We}$  ya'ni  $1 \text{ m}^3 \text{ s.ye.} - \text{bir m}^3 \text{ suvni xo'jaliklar chegarasigacha yetkazib berish tannarxi so'm tiyin.}$

Yex-suvni xo'jaliklargacha yetkazib berish xarajatlari so'm tiyin.

We-xo'jalik chegarasigacha yetkazib berilgan suvning hajmi, m<sup>3</sup>

3. Xo'jaliklar ichida sug'orishni tashkil etish tannarxini ham hisobga olinishi kerak.

$$\text{Bunda } 1 \text{ m}^3 \text{ s.s.t.} = \frac{Cx}{W_d} \text{ ya'ni bir m}^3 \text{ sug'orish suvining tannarxi so'm tiyin.}$$

Sx-sug'orish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar so'm, tiyin.

Har uchala turdag'i xarajatlardan kelib chiqib aniqlangan suv tannarxlarini qo'shib tizim bo'yicha bir m<sup>3</sup> sug'orish suvining tannarxi aniqlanadi. Bunda  $1 \text{ m}^3 \text{ s.t.t.} = 1 \text{ m}^3 \text{ s.t.} + 1 \text{ m}^3 \text{ s.s.t.}$

Agarda mazkur formuladan foydalaniib sug'orish tizimi bo'yicha bir m<sup>3</sup> suvning to'liq tannarxini aniqlay olsak, suv resurslarining iqtisodiy bahosini topish yo'lidiagi birinchi qadamni qo'ygan bo'lamic. Suvdan foydalanish samaradorligini aniqlash bo'yicha hal qilishni lozim bo'lган navbatdagi masala har bir m<sup>3</sup> sarf qilingan suvning mahsulot berish imkonini aniqlashdir. Buni amalga oshirish uchun biz quyidagi uslublarni taklif qilamiz.

$$1) 1 \text{ m}^3 \text{ s.s..} = \frac{\mathcal{A}_M}{\mathcal{M}}$$

Bunda  $1 \text{ m}^3 \text{ s.s.}$  = bir  $\text{m}^3$  suvning samaradorligini yalpi mahsulot qiymati orqali, so'm.

Yamq-yalpi mahsulot qiymati, so'm

m-manbadan olingan suvning hajmi,  $\text{m}^3$ .

$$2) 1 \text{ m}^3 \text{ s.s.d.} = \frac{\mathcal{A}\partial}{W_M}$$

Bunda  $1 \text{ m}^3 \text{ s.s.d.}$  -  $\text{m}^3$  suvning samaradorligini yalpi daromad orqali, so'm .

Yad- yalpi daromad so'm.

$$3) 1 \text{ m}^3 \text{ s.s.f.} = \frac{C\phi}{W_M}$$

Bunda  $1 \text{ m}^3 \text{ s.s.f.}$ -bir  $\text{m}^3$  suvning samaradorligi sof foyda hisobiga so'm.

Sf-sof foyda.

Yuqorida keltirilgan suvning foydalanish koeffitsiyenti, bir  $\text{m}^3$  suvga sarflanadigan tashkiliy, transport xarajatlari va xo'jalikning o'zida sug'orish uchun qilinadigan xarajatlarni hamda har bir  $\text{m}^3$  suvdan olinadigan samarani hisobga olib uning iqtisodiy bahosini quyidagicha aniqlashni taklif qilamiz.

$$1 \text{ m}^3 \text{ s.i.b} = X_m + X_e + C_x + \Phi_M + EK\Phi_o$$

Bunda  $X_m$  suvni birlamchi manbada tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat xarajatlari.

$X_e$ -suvning xarajatlar chegarasiga yetkazib berish uchun sarflanadigan davlat xarajatlari.

$Sx$ -xo'jalik hududida sug'orish bilan bog'liq bo'lgan ichki xo'jalik xarajatlari.

$F_m$ -suv xo'jalik tashkilotlari olishi mumkin bo'lgan me'yoriy foyda.

$Ye$ -asosiy fondlar qiymatiga proportsional ravishda olinishi zarur bo'lgan me'yoriy foyda.

K-foyda sig'imini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Fo-mahsulot birligiga to'g'ri keladigan asosiy va aylanma fondlarning qiymati.

Hozirgi kunda har  $\text{m}^3$  oqar suv uchun belgilangan 4,5 tiyinlik to'lov va yer ostidan olinadigan suvga 6 tiyinlik to'lov suv xo'jaligida sarflanadigan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanmagan. Bu to'lovlar umumiy xarajatlarning 10 % ini ham tashkil etadi.

Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha sug'orishda foydalaniladigan suvning samaradorligini oshirishning eng asosiy omili sug'orish tizimini ekspluatatsiya qilish xarajatlaridan kelib chiqib xo'jaliklarga yetkazib berilgan suvni sotish masalasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda sug'orish suvi uchun sarflanadigan xarajatlar davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi.

Sug'orish suvining tekinligi iste'molchilardan suvni tejab-tergap va yuqorisamara bilan foydalanishlariga qiziqtirmaydi, natijada juda ko'p suvlar kanallarga shimilib yoki parlanib ketadi, xo'jalik hududiga yetib kelgan suvlar ham har doim samarali foydalanmaydi.

Bizning fikrimizcha bozor iqtisodi qonuniyatlaridan kelib chiqib sug'orish suvini foydalanuvchilarga sotishni tashkil qilish kerak. Sug'orish suviga baho berishda tovar-resurs sifatida emas, balki xo'jaliklarning suv olish nuqtasigacha suvni yetkazib berish uchun davlat tomonidan sarflangan xarajatlardan kelib chiqib belgilash kerak. Bunda suvning uning qiymatidan emas, balki tannarxidan kelib chiqib belgilanishi kerak. Bunda suvning sotish bahosi uning tannarxidan baland bo'lishi kerak. Suvning bahosi bilan tannarxi o'rtasidagi farq suv xo'jaligi tizimidagi korxonaning foydasini tashkil qiladi. Bunday korxonalar me'yoriy faoliyati ko'rsatishi uchun rentabellik darajasini 25-30 % bo'lishi kerak. Sug'orish suviga baho belgilashda 2 stavkali tarifdan foydalanishimiz mumkin. 1 stavka manbadan olingan va xo'jalik hududiga yetkazib berilgan har bir m<sup>3</sup> suvga haq to'lash.

2 stavka har bir gettar sug'oriladigan yerga qat'iy baho o'rnatilishi kerak.

## **Qisqacha xulosalar**

Mahsulot bahosida faqat uning qiymatigina aks etmasdan, balki mahsulot almashtirish shartlari, ya'ni sotuvchi va xaridor o'rtasidagi talab ehtiyoj munosabatlari ham aks etadi. Shuning uchun narx-navo qiymatning yuzaga chiqish shakli bo'lib qoladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi qishloq xo'jaligining barcha hududlar va tumanlarida qishloq xo'jaligining barcha korxonalari tomonidan, bu mahsulotlarni o'rtacha shart-sharoitlarda ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni qoplash va xo'jalikni boshqarish

uchun zarur bo'lgan ijtimoiy zaruriy xarajatlarning o'rmini to'ldirish hamda zarur bo'lgan so'f foydani olishga qarab belgilanishi kerak.

Ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga ko'ra tannarx rejali va haqiqatdagi tannarx bo'ladi, rejali tannarx me'yorlar bo'yicha hisobot tannarxi esa korxonaning haqiqatdagi sarflari bo'yicha hisoblanadi.

To'la tannarxga ishlab chiqarish tannarxi va mahsulotni saqlash, sotish, tashish, yo'qotish va boshqa xarajatlar kiradi.

Xarajatlar yig'indisi bevosita va bilvosita xarajatlardan tashkil topadi.

Suvdan foydalanuvchi xo'jaliklarga berilgan suv tannarxi manbadan suv olish va xo'jalik chek nuqtalariga yetkazib berish uchun sarflangan xarajatlar yig'indisidan kelib chiqib aniqlanadi.

Suvdan foydalanish samaradorligi suv iste'molchilarining erishgan foydasini sarflangan suvning hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

### **Tayanch so'zlar**

Baho, narx-navo, xarajat, tannarx, foya, rentabellik, ishlab chiqarish chiqimlari, ekspluatatsiya chiqimlari, kalkulyatsiya, irrigatsiya tizimlari havzaviy boshqarmasi, magistral kanallar, xo'jaliklararo kanallar, ichki sug'orish shaxobchasi, suv ta'minoti, joriy va kapital ta'mirlash xarajatlari, smeta qiymati, bevosita va bilvosita xarajatlar, xizmat ko'rsatish xarajatlari, ustama xarajatlar, sug'orish tizimining foydali ish koeffitsiyenti.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bahoning ahamiyati va mohiyati.
2. Baho belgilash uslublari.
3. Mahsulot tannarxi turlari va ularni aniqlash uslublari.
4. Ishlab chiqarish chiqimlari va ularning turlari.
5. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining ekspluatatsiya xarajatlari, ularning turlari.
6. Ichki xo'jalik irrigatsiya shaxobchalarini ishlatish xarajatlari.

7. Suv ta'minoti tizimining yillik ishlatish xarajatlari.
8. Ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish omillari.
9. Suvdan foydalanish samaradorligini aniqlash uslublari.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1993.
2. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.

## **VII BOB. Narxlar, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi**

### **7.1. Qishloq va suv xo'jaligida qo'llaniladigan narxlar tizimi**

Tovar pul munosabatlari mavjud bo'lgan va qiymat qonuni amal qiladigan bozor iqtisodi sharoitida narx eng muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Narx qiymatning puldagi ifodasidir. Narx tovar qiymatining puldagi almashuv ifodasini xarakterlaydi. Ma'lumki qiymat qonunining asosiy mazmuni ekvivalentli ayrboshlashda mujassamlangandir. Tovarlar narxlari ular qiymati qanday nisbatda bo'lsa, shunday nisbatda bo'lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar har bir ayrim tovar bo'yicha bo'limganda ham, lekin kamida o'rtacha tendentsiya sifatida ekvivalentli ayrboshlash talablariga rioya qilinishini ta'minlashdir.

Halq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar narxlarda aks etadi. Yalpi ichki mahsulot, korxona va tarmoq sof daromadi, milliy daromad hajmi narxlar yordamida hisoblab chiqiladi. Narxlar milliy daromadni halq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida jamg'arish fondlari bilan iste'mol o'rtasida taqsimlash vositasidir. Xo'jalik yuritishning barcha vositalari narxlar bilan bevosita yoki bilvosita bog'langandir.

Narxlar qanchalik ko'p asoslangan bo'lsa, ish haqi, foyda, tannarx, xo'jalik hisobi, kredit singari qimmatlilik instrumentlari shunchalik ta'sirchan bo'ladi.

Narxlar borasidagi to'g'ri siyosat halq xo'jaligi iqtisodiyoti yuksalishiga va mehnatkashlar turmush darajasi oshishiga yordam beradi. Bozor iqtisodi sharoitida davlat buyurtmasiga kiradigan mahsulotlarga narxlar darajasi davlat tomonidan narxlar davlat komiteti va idoralari orqali tartibga solib turiladiki ular narxlar preyskurantrarini bevosita ishlab chiqadilar.

Narxlar davlat komiteti narx hosil qilish, mamlakatda narxlar yagona siyosatini ta'minlash narx belgilashdagi davlat intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish ishiga rahbarlik qiladi.

Narxning qishloq va suv xo'jaligida qo'llanilayetgan xozirgi tizimi 4 turdan tarkib topgan: xarid ulgurji va chakana narxlar hamda xizmatlar uchun tariflar.

Xarid narxlari qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilangan. Bu narxlar bilan qishloq xo'jalik korxonalari o'z mahsulotlarini davlat va kooperativ tashkilotlariga sotadilar. Xarid

narxlari mamlakat mintaqalari bo'yicha differentsiyalangan. Hozirgi davrda narxlarni takomillashtirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Oxirgi yillarda bozor iqtisodiga o'tish jarayonida ko'pchilik qishloq xo'jalik korxonalarining haqiqatdagi sarflari harid narxlaridan oshib ketdi va natijada zarar keltiradigan bo'lib qolmoqda.

Ulgiji narxlari sanoat va qishloq xo'jalik mahsuloti ulgurchi oboroti sohasida qo'llaniladi. Mahsulot bu narxlari bo'yicha tarmoq ichidagi korxonalarga shuningdek tarmoqdan tashqariga sotish tashkilotlariga yetkazib beriladi. Suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligi korxonalari ulgurji narxlarda mashinalar, uskunalar va boshqa texnika vositalari, qurilish meteriallari sotib oladilar.

Korxonalarning ulgurji narxlari (oborotdan soliqsiz) sanoatning ulgurji narxlari (oborotdan soliq bilan) va hisoblash narxlari farqlanadi. Bunda ulgurji narxlari mamlakat bo'yicha yagona va mintaqali bo'lishi mumkin. Mashinasozlik sanoati mahsulotiga buyumning har qaysi nomi va turiga yagona ulgurji narxlari belgilanadi.

Ko'mir, neft, sement, yog'och tayyorlash sanoati mahsulotiga va metall konstruktsiyalariga mintaqali narxlari belgilanadi, chunki ularni ishlab chiqarish hamda tashish sarflari ishning tabiiy sharoitlari va mahsulotni ishlab chiqarish joyidan iste'mol qilish joyigacha bo'lgan masofaga bog'liq bo'ladi.

Iste'molchilarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha transport xarajatlari o'rnini qoplash tartibiga bog'liq holda ishlab chiqarish joylardagi ulgurji narxlari (jo'natish stantsiyasi franko vagon) va iste'mol joylaridagi ulgurji narxlari (franko tayinlangan stantsiya) farqlanadi. Mashinasozlik, metallga ishlov berish va ximiya sanooati mahsulotiga franko-tayin etilgan stantsiyasi ulgurji narxlari belgilanadi. Xaridor mahsulot mazkur partiyasini tashish bilan bog'liq transport xarajatlari o'mini shu narxlarda qoplaydi.

Franko tayin etish stantsiyasi ulgurji narxlariga yetkazib beruvchi korxona sarflari va foydasidan tashqari mahsulotni ortish va tayin etish stantsiyasiga o'rtacha kattalikda yetkazish bo'yicha barcha xarajatlar ham kiradi. Franko tayin etish ulgurji narxlari bo'yicha halq iste'moli tovarlarining qariyib hammasi, shuningdek neft mahsulotlari, qurilish meteriallari realizatsiya qilinadi.

Hisoblash narxlari korxonalar bilan sotish tashkilotlari, birlashma yoki idora ichidagi korxonalar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar uchun belgilanadi. Ular bir turli mahsulot

tannarxi darajasidagi tafovut katta bo'lib, ayni vaqtida turli ishlab chiqarish sharoitlarida bo'lgan xo'jalik hisobidagi korxonalar me'yoriy rentabelligini ta'minlash zarur bo'lganda qo'llaniladi. Hisoblash narxlari ularning mahsulot mazkur turiga bo'lgan summasiga muvofiq keladigan qilib belgilanadi.

Suv xo'jaligi qurilishida narx hosil qilishning yangi mexnizmi quyidagi uchta asosiy moddani o'z ichiga olish kerak: loyiha oldi bosqichida belgilanadigan narx; qurilishning loyihada belgilangan smeta qiymati; buyurtmachilar bilan pudrat tashkilotlari o'rtasidagi shartnomaga bo'yicha tashkil etadigan shartnomalni narx.

Pirovard mahsulot birligiga limit narxi darajasini mahsulot miqdorlari ko'payishi hisobga olingan holda kapital qo'yilmalar o'rnining me'yoriy muddatlarda qoplay oladigan qilib belgilanish kerak: Narx hosil qilish yangi mexanizmining ikkinchi moddasi qurilishning variantli loyihalashda qo'llaniladigan almashinuvchi qiymatdir.

Uchinchi modda-shartnomalni narxlardir.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida shartnomalni narx o'z yo'naliishiga muvofiq keladigan barcha belgilarga ega bo'lisi kerak. Bu narsa avvalo uni shakllantirishni haddan ziyod reglamentlashlardan halos qilish zarurligi bilan bog'liqdir. Narx hosil qilishning yangi mexanizmida shartnomalni narxning yuqori chegarasi (u halq xo'jalik samaradorligini hisobga oladigan qurilish limit narxi bilan belgilanadi) hamda quyi chegarasi (bu esa pudratchi va qurilish boshqa ishtirokchilari xo'jalik hisobi manfaatlarini hisobga oladigan smetali qiymat bilan belgilaniladi) ma'lum bo'ladi.

Chakana narxlar aholi, davlat va kooperativ savdoga tovar va oziq ovqat mahsulotlari sotib oladigan pirovard narxlardir. Narxlarni bu tizimi qayta taqsimlash jarayonlarini amalga oshirish, bir qancha sotsial-iqtisodiy muammolarni, hal qilishga bevosita bog'liqdir. Ichki bozorda so'mning harid qilish qobiliyati va aholi real daromadlarining darajasi chakana baholarga bog'liqdir. Chakana narxlar yordamida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qo'shimcha mahsulot jamg'arilishi va davlat byudjetini daromadlari ma'qullanishi sodir bo'ladi.

Xizmatlar (transport, kommunal, elektr energiyasi, suv va hokazo) tariflari ulgurji va chakana narxlarning alohida turidir. Tarif barcha iste'molchilar uchun yagona va iste'molchilar guruhlari bo'yicha differentialsallangan bo'lisi mumkin.

Tasdiqlangan harid, ulgurji, chakana narxlar va tariflar preyskuratorlarda e'lon qilinadi. Preyskuratorlar tovarlar yoki xizmatlar muayyan guruhi narxlarining tizimlangan to'plamlaridir. Ular yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasida oborot solig'i bo'yicha moliya organlari bilan hisob-kitob qilish uchun asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Narxlarning hamma turlari o'zaro bog'liqdir. Narx har biri ijtimoiy qiymat muayyan turini ifodalaydigan va o'z vazifasiga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p moddalardan tarkib topadi. Mahsulotning me'yoriy o'rtacha tarmoq tannarxi narx shakllanishining boshlangich bazasi hisoblanadi. Umuman sanoat bo'yicha u ulgurji narxning 75% ini tashkil etadi.

Lekin narx asosini ishlab chiqarish chiqimlari o'mini qoplashgina emas balki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun jamg'armalar ham tashkil etadi. Narx strukturasidagi foydaning ulushi rentabellikning me'yoriy darajasiga taxminan muvofiq keladi.

Qishloq xo'jalik va sanoat mahsuloti chakana narxlarining strukturasi 7.1. va 7.2. rasmlarda ko'rsatilgan.

### **7.1-rasm. Sanoat mahsuloti chakana narxining tarkibi**

Mahsulot ishlab chiqarishining me'yoriy tannarxi	Korxonalar foydasi	Qayta ishlash va sotish tashkilotlarining chiqimlari va foydasi	Markazlashgan sof foyda (soliqlar)	Chakana savdo me'yoriy chiqimlari va foyda
Xarid narxi				
		Ulgurji narx		
			Chakana narx	

### **7.2-rasm. Qishloq xo'jalik mahsuloti chakana narxining tarkibi.**

To'liq me'yoriy tannarx	Korxonalar foydasi	Ta'minot sotish tashkilotlari me'yoriy chiqimlari va foydasi	Markazlashgan sof foyda (soliqlar)	Chakana savdo me'yoriy chiqimlari va foyda
Korxona ulgurji narxi				
		Tarmoq ulgurji narxi		
			Chakana narx	

Qishloq xo'jalik mahsulotining xarid narxlari halk iste'moli tovarlari davlat narxlari uchun asos hisoblanadi. harid narxlarining oshishi yoki kamayishi qishloq xo'jalik oziq-ovqat mahsulotlari chakana narxlariga ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida sanoatning qishloq xo'jaligida ishlataladigan ishlab chiqarish vositalariga ulgurji narxlari xarid narxlariga ta'sir o'tkazadi. Qishloq xo'jalik va melioratsiya mashinalariga, qurilish materiallari va boshqa ishlab chiqarish vositalariga ulgurji narxlarni kamaytirish qishloq xo'jalik mahsulotining tannarxi pasayishiga, tegishli ravishda esa harid narxlari pasayishiga olib keladi.

Sanoat ulgurji narxlari ham qishloq xo'jalik mahsuloti narxlari bilan bog'liqdir. Bu aloqa qishloq xo'jalik xom ashyosi hamda ishchi va xizmatchilar ish haqi orqali o'rnatiladi. Hammaga ma'lumki chakana narxlar darajasi bilan ish haqi darajasi o'rtasida muayyan bog'liqlik vujudga keladi. Chakana narxlar ish haqi orqali avval sanoat mahsuloti tannarxiga keyin esa ulgurji narxlariga ta'sir o'tkazadi.

Davlat buyurtmasiga kiritilgan mahsulot narxining tarkibiy qismi bo'lgan oborot solig'i jamiyat sof daromadining narxlar siyosati orqali davlat byudjetiga bevosita va to'lato'kis olish shakllaridan biridir. Oborot solig'i davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Oborot solig'i tovar narxining moddasi bo'lgani holda narx hosil qiluvchi omil hisoblanmaydi. Uning sof daromad tarkibidagi kattaligi narx darajasiga va foyda miqdorlariga bog'liq bo'ladi. Asosan halq iste'moli tovarlariga shuningdek sanoatning neft mahsulotlari, gaz va elektr energiyasiga ulgurji narxlariga oborot solig'i solinadi. Yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari uning asosiy manbalari hisoblanadi. Oborot solig'i ulushi bu tarmoqlar mahsuloti narxlarida 20% dan ko'proq, og'ir sanoat tovarlari ulgurji narxida 4% ga yaqinini tashkil etadi.

Oborot solig'i solinadigan tovarlar doirasi asta-sekin torayib bormoqda uning ulushi bir qancha xollarda tovarlar narxida kamaymoqda. Bunda korxonalar foydasi va xususan fondlar haqi singari shakldagi foyda hisobiga davlat byudjetiga tushumlar ko'payadi.

Iqtisodiy asoslangan narxlar belgilash bozor iqtisodi sharoitida eng muhim vazifalaridan biridir. Rejali narxlar hisobini quyidagi formula bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi:

SqZmQZzn(1Qr)QEnFK,

bunda: Zm - ishlab chiqarishning me'yoriy moddiy chiqimlari, so'm:

Zzn- me'yoriy ish haqi, so'm;

R-ish haqiga proportsional taqsimlanadigan ish haqi me'yori:

F-asosiy va oborot fondlarining o'rtacha yillik qiymati, so'm:

K-mahsulot fond sig'imini, fondlar samaradorligi (ishlab chiqarishning yuqori fond sig'imlik tarmoqlari uchun  $K < 1$ , kam fond sig'imini tarmoqlari uchun esa  $K > 1$  hisobga oluvchi koefitsent).

Iqtisodiy asoslangan narx ishlab chiqarish barcha chiqimlari qoplanishini va zarur miqdordagi foyda olinishi ta'minlanishi kerak. Narxga qo'shiladigan foyda miqdori har bir me'yoriy ishlayetgan korxonada iqtisodiy rag'batlantirish fondlari tashkil qilish, byudjetga to'lovlar berish va bank kreditlarini hisob-kitob qilish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Narx-navolar mehnat ijtimoiy sarflarini tobora to'laroq aks ettirishi, ishlab chiqarish va muomla chiqimlari qoplanishini hamda har bir me'yoriy ishlab turgan korxonaga muayyan foydani ta'minlashi lozim.

Narxlар tizimidagi assosiy yo'nalish-ularning mahsulot tannarxini rejali kamaytirish va mehnat unumdorligini yanada oshirish bazasida tinmay pasaytirishdir.

## **7.2. Suv iste'mol tariflarini belgilash**

Suv umum halq mulki bo'lib, tekin ishlatishga beriladi. Sug'orma dehqonchilikda suv manbalaridan tekin foydalanish suv va qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suv resurslari tanqisligining ortishi natijasida suvdan oqilona foydalanish va suv resurslarini takror ishlab chiqarish iqtisodiy rag'batlarini belgilash zarurati vujudga keladi. Suvga haq to'lash kerakligi suvdan oqilona foydalanish iqtisodiy rag'batlarini belgilashning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Suvga haq to'lashning funktsional yo'nalishi suv xo'jaligi tashkilotlari bilan suv iste'mol qiluvchi korxonalar o'rtasida bozor iqtisodi munosabatlarini yaratishdan iboratdir.

Suv to'g'risidagi qonunlar asoslarida suvdan mahsus foydalanish uchun belgilangan tartibda haq to'lash mumkinligi ko'zda tutilgan. Suvdan mahsus foydalanish deyilganda manbalardagi suvdan suv ob'ektlari xolati va qurib qolishiga ta'sir etuvchi texnika vositalarini qo'llagan holda foydalanish tushuniladi.

Suv resurslari tanqisligi sharoitida suvdan foydalanishning tez ortib borishi suv iste'molchilarini zarur miqdorda sifatli suv bilan ta'minlashga ancha sarflarni talab qiladi. Shunga qaramay suv iste'molchilari suv xo'jaligi tashkilotlari sarflarini hamma vaqt ham qoplayvermaydi.

Suv xo'jaligida bozor iqtisodi munosabatlarini joriy etish suv xo'jaligi chiqimlarini bevosita suv iste'molchilariga o'tkazishni: suv xo'jaligi korxonalari chiqimlarini qoplashni suv xo'jaligi korxonalarining foyda olishini ko'zda tutadi.

Suv iste'moli tariflari o'z iqtisodiy tabiatiga ko'ra narx turi bo'lib, narx hosil qilish asoslari sifatida qabul qilingan umumiy nazariy qoidalar bo'yicha belgilanishi kerak. Lekin bu borada suv tarifini hisoblash uslubiyoti bo'yicha ham, uni olish printsiplari bo'yicha ham yagona fikr yo'q.

Suv iste'mol qilish tarifi (Sv) suv resurslarini o'rganish, baholash va saqlash xarajatlari (Zno), dare oqimini tartibga solish va qayta taqsimlash sarflari (Zrech) hamda suv xo'jaligi tizimlarini (Zsis) o'z ichiga oluvchi jami sarflariga ko'ra belgilanadi:

SvqZioQZrechQZsis

Jami sarflarining dastlabki ikkitasi suv manbai bo'yicha xarajatlarga taalluqlidir. Suv balansi yetarli rayonlarda tartibga solingan oqim bo'lganida tarifga suv resurslarini o'rganish va saqlash xarajatlarigina kiritiladi. Suv resurslari tanqis bo'lgan mintaqalarda oqim tartibga solinadigan bo'lsa, suv manbai bo'yicha barcha xarajatlar tarifga kiritiladi.

Suv xo'jaligi tizimlarining yillik ekspluatatsion chiqimlari manbadan suv olish va uni tizim boshidan istemolchi xo'jalik nuqtasigacha yetkazib berish bilan bog'liqdir. Suvga tarif belgilashda ekspluatatsion sarflarni moddiy xarajatlar, amortizatsiya ajratmalari va ish haqiga bo'lish lozim.

Suv narxi rejali narxlar hisobining qabul qilingan formulasiga ko'ra belgilaniladi. Sug'oruv suvi tarifini belgilash uchun suv xo'jaligiga nisbatan formulani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

SvqZnoQZrechQZmQZzn(1QR)QEnFem,

bunda Sv-sug'oruv suvining  $1\text{m}^3$  tarifi tiyinG'm<sup>3</sup>:

Zno-suv resurslarini o'rnatish, baholash va saqlash umum davlat xarajatlari, tiyinG'm<sup>3</sup>,

Zrech-daryo oqimini tartibga solish va qayta taqsimlashning me'yoriy sarflari, tiyinG'm<sup>3</sup>,

Zm-sug'orish tizimining me'yoriy moddiy sarflari tiyinG'm<sup>3</sup>,  
Zzn-sug'orish tizimi ish haqining me'yoriy xarajatlari tiyinG'm<sup>3</sup>,  
R-ish haqiga propotsional hisoblanadigan irrigatsiya tizimini foydasining me'yori:  
Yen-ishlab chiqarish fondlariga proportsional hisoblanadigan RPUVX foydasining  
me'yori,  
Fem-sug'orish tizimi suvining fond sig'imi, tiyinG' m<sup>3</sup>,

Oqimni tartibga solish xarajatlari suv manbalarining o'rtachalashtirilgan haqiqatdagi ma'lumotlari bo'yicha olinadi. Moddiy va mehnat sarflari KG'SXT sug'oruv suvini kalkulatsiyalash asosida aniqlanadi. Bunda 3-5 yillik o'rtachalashtirilgan ma'lumotlar olinadi.

Sug'oruv suvi ta'rifini belgilashda ish haqi fondi ishlab chiqarish fondlaridan olinadigan me'yoriy foydalarni aniqlash, ayniqsa, murakkabdir. Suv xo'jaligi tashkilotlarining me'yoriy foydasi (P)ishlab chiqarish fondlariga haq to'lash me'yorlari (Ppf) korxona fondiga ajratmalari me'yorlari (Pfp), moddiy rag'batlantirish fondlari hosil qilish me'yorlari (Pmp) va uy-joy hamda madaniy maishiy qurilish fondi me'yorlari (Pjk) dan tarkib topadi:

$$PqPpfQPfpQPmpQPjk$$

Sug'oruv suvining fond sig'imi sug'orish tizimi ishlab chiqarish jami o'rtacha yillik balans qiymatining suv berish rejali hajmiga nisbati tarzida aniqlanadi.

$$\Phi_{em} = \frac{\Phi_{ocn} + \Phi_{ob}}{Q_2} \text{ тийин/м}^3$$

bunda:

Fosn-sug'orish tizimi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik balans qiymati, so'm:

Fob-sug'orish tizimi me'yorlanadigan asosiy mablag'larining o'rtacha yillik qiymati so'm, Q<sub>2</sub>-suv berishning rejali miqdori, m<sup>3</sup>:

Shunday qilib, suv iste'mol qiluvchi xo'jaliklarga berilgan suv haqi KG'SXTning sug'orish manbaidan suv olish, suvni tizim boshidan xo'jalik nuqtasigacha yetkazish bilan bog'liq sarflarni qoplashi hamda me'yoriy foyda olishni ta'minlashi kerak.

Suv tariflarini belgilashda suv xo'jaligining tabiiy va geografik omillarini, shuningdek yuqori fond sig'imini hisobga olish lozim.

Tabiiy va geografik sharoitlar ta'siri suvning mamlakat havzalari hamda mintaqalari bo'yicha moddiy va mehnat sarflarini ancha farqlanishida namoyon bo'ladi. Bu narsa narxlar mintaqalar bo'yicha tabaqalanishini belgilash zaruratini tug'diradi.

Tariflar tizimi puxta bo'lishi va suvdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish vazifasini bajarishi kerak. Tariflar suv tejaganligi uchun narxdan imtiyozli skidkalarni va suv resurslaridan ular tanqisligi sharoitida oqilona foydalanganlik uchun ustamalarni ko'zda tutishi lozim.

Iqlim mintaqalari xilma-xilligi va ekinlarining sug'orish mintaqalari bo'yicha suv iste'moli keskin tebranib turishi tufayli suv berish haqini to'lashning asosiy shakllari sifatida bir stavkali va ikki stavkali tariflar qabul qilinishi mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlarining suv iste'moli yillar bo'yicha o'zgarmaydigan O'rta Osiyo uchun xo'jalik nuqtasida berilgan kub metr suv haqi to'lanadigan bir stavkali tarif belgilash maqsadga muvofiqdir. Sug'orish me'yorlari tushgan yeg'inlar miqdoriga bog'liq bo'lgan barqaror va kam namli mintaqalarda ikki stavkali tarif belgilash zarur bo'ladi. Bunday shaklda haqining bir qismi olingan suv miqdoriga, ikkinchi qismi esa sug'oriladigan maydonga bog'liq bo'ladi. Gektarga ko'ra haq to'lash QG'SXT ekspluatatsion chiqimlarining shartli barqaror qismiga asoslanadi. Suv miqdoriga haq to'lash esa ishlab chiqarish chiqimlari shartli o'zgaruvchan qismi bilan belgilanadi.

Ikki stavkali tarif sug'oruv suvidan tejab foydalanishnita'minlaydi va suv xo'jaligi tashkilotlarini pul bilan ta'minlash barqarorligini kafolatlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, suvdan foydalanish uchun haq to'lash suv resurslarini ancha tejash imkonini beradi va ishlab chiqarish sarflari samaradorligi oshishiga yordam beradi.

### **7.3. Ishlab chiqarishning sof daromadi, foydasi va rentabelligi**

Iqtisodiy kategoriylar bo'lgan foya bilan sof daromad baho va tannarx bilan chambarchas bog'liqdir. Foydalilik (daromadlilik) realizatsiya qilingan mahsulot yoki bajarilgan ish uchun kelgan pul tushumlari uning to'la tannarxidan ortiq bo'lishini bildiradi.

Amalda korxona uchun foya (P) realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi (Stp) bilan uning to'la tannarxi (Stp) o'rtasidagi farq tarzida hisoblab chiqiladi:

## PqTStn-Stp.

Foyda o'z e'tibori bilan ishlab chiqarish samaradorligini xarakterlovchi korxona ishi natijalarining umumlashgan ko'rsatkichlaridan biridir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi bilan foydaning ahamiyati ancha ortdi. Foyda ishlab chiqarishni o'stirish va takomillashtirish, korxona moddiy manfaatdorligini ko'chaytirish hamda jamiyat sof daromadini ko'paytirish manbai sifatida nomoyon bo'lmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarida foyda bilan birga sof foyda ham hisoblab chiqiladi. Sof foyda (Dch) yalpi mahsulot qiymati (Svp) bilan uning tannarxi (Svp) o'rtasidagi farq tarzida hisoblab chiqiladi:

$$Dch = Svp - Svp$$

Qishloq xo'jaligida sof daromad yalpi mahsulotdan, foyda esa tovar mahsulotdan hisoblab chiqiladi. Yalpi mahsulot tovar mahsulotdan ko'p bo'lganligidan sof daromad ham foydadan ko'pdir. Sof daromadning realizatsiya qilingan qismi pul ko'rinishida nomoyon bo'ladi va foyda shakliga kiradi, boshqa qismidan esa korxonalar ichida iste'mol qilish uchun tabiiy shaklda foydalaniladi (urug'lar, oziqlar, podani to'ldirib ketadigan yosh mollar va hokazo).

Qishloq xo'jalik korxonalarining sof daromadi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ijtimoiy iste'mol fondlarini o'stirishning asosiy manbaidir. Qishloq xo'jalik korxonalarida tarmoq sof daromadining bir qismigina shakllanadi, sof daromadning boshqa qismi esa tegishli kanallar (narxlar va xakozo) orqali davlatning markazlashgan sof daromadiga tushadi.

Suv xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarida ishlab chiqarilgan butun mahsulot realizatsiya qilinishi kerak bo'ladi, binobarin sof daromad bilan foyda miqdor jihatidan mos bo'lib tushadi. Shuning uchun suv xo'jaligi korxonalarida foyda xo'jalik faoliyatining natijali ko'rsatkichi sifatida hisoblab chiqariladi.

Foydaning mutloq summasi tannarx va narxlar darajasiga, chiqariladigan mahsulot ishlab chiqarilishi miqdori hamda strukturasiga bog'liq bo'ladi. Barqaror narxlar bo'lganda foyda summasi realizatsiya qilingan mahsulot miqdori va tannarxi darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi va arzonlashishi foyda miqdori ko'payishining asosiy manbaidir.

Xo'jalik hisobi korxonalarida balansli foyda va hisobli foyda farqlanadi. Balansli foyda mazkur korxona balansidagi barcha ishlab chiqarishlar foydasining summalaridan tarkib topadi.

Hisobli foyda balansli foyda bilan ishlab chiqarish fondlari haqi hamda bank kreditlaridan foydalanish o'rtasidagi tafovut tarzida aniqlanadi.

Lekin foydaning mutloq summasiga qarab ishlab chiqarishning samaradorligi to'g'risida fikr yuritish qiyin. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun rentabellikning nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Hisobli foyda joriy etilishi munosabati bilan umumiyl rentabellik va hisobli rentabellikni farqlash lozim bo'ladi.

Foydaning to'la tannarxga (S) foizlarda ifodalangan nisbati rentabellik darajasi (Ru) yoki me'yorini ko'rsatadi.

$$Ru = \frac{n * 100}{C}$$

Rentabellik darajasi joriy sarflarning iqtisodiy samaradorligidan guvohlik beradiki, u sarflangan mablag'lar 1 so'mi hisobida olingan foyda miqdorini ko'rsatadi.

Korxonaning joriy sarflari bilan barcha foyda asosiy va oborot fondlar qiymati bilan ham taqqoslanishi mumkin. Foydaning asosiy ishlab chiqarish va oborot fondlariga ifodalangan nisbati foyda, me'yordir (Rn)

$$Rn = \frac{n * 100}{\Phi}$$

Foya me'yori mehnatning va ishlab chiqarish vositalarining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadiki, hamda ijtimoiy jamg'armalar asosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini harakterlaydi.

Rentabellikning ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari tizimidagi o'rni to'g'risida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, bu ko'rsatkich ko'pincha umumlashtiruvchi, asosiy ko'rsatkich hisoblanmoqda.

Amalda foyda o'sishi omillarini hisobga olish kerak. Barcha iqtisodiy vositalardan ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, tannarxni kamaytirish manfaatlari uchun foydalanish muhimdir. Bunday yondashuvdan foyda va rentabellik ishlab chiqarish samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlari bo'lib qoladi.

## **Qisqacha xulosalar**

Narxlar qanchalik ko'p asoslangan bo'lsa, ish haqi, foyda, tannarx, kredit singari qimmatlilik instrumentlari shunchalik ta'sirchan bo'ladi.

Narxlar borasida to'g'ri siyosat halq xo'jaligi iqtisodiyoti yuksalishiga va halq turmush darajasi oshishiga yordam beradi.

Oxirgi yillarda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ko'pchilik korxonalarining haqiqatdagi sarflari xarid narxlaridan oshib ketdi va natijada zarar keltiradigan bo'lib qolmoqda.

Narx-navolar mehnat ijtimoiy sarflarini tobora to'laroq aks ettirishi, ishlab chiqarish va muomala chiqimlari qoplanishini hamda har bir me'yoriy ishlab turgan korxonaga muayyan foydani ta'minlashi lozim.

Suv iste'mol qiluvchi xo'jaliklar to'laydigan suv haqi qishloq va suv xo'jalik tashkilotlarining sug'orish manbaidan suv olish, suvni tizim boshidan xo'jalik nuqtasigacha yetkazish bilan bog'liq sarflarni qoplashi hamda me'yoriy foyda olishni ta'minlashi kerak.

Foydaning to'la tannarxga foizlarda ifodalangan nisbati rentabellik darajasini ko'rsatadi.

## **Tayanch so'zlar**

Narx, tannarx, foyda, rentabellik darajasi, ulgurji narxlar, xarid narxlari, xarajatlar, qiymat, tarif, suv iste'moli, suv balansi, sof foyda, sof daromad, yalpi mahsulot qiymati, iqtisodiy samaradorlik.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Narx turlari va ularning vazifalari.
2. Chakana narxlarning tarkibi va ularni aniqlash uslublari.
3. Sof daromad va sof foydani aniqlash uslublari.
4. Suv iste'mol tariflarini belgilash.
5. Sug'orish suvi tannarxini va sotish narxini aniqlash.

6. Ishlab chiqarishni sof foydasini va rentabelligini aniqlash.
7. Suvdan foydalanish samaradorligini aniqlash.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1993.
2. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.

## **VIII BOB. Suv melioratsiya tadbirlariga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligi**

### **8.1. Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash xususiyatlari**

Suv xo'jaligi qurilishi ko'lamlari oshgan hozirgi sharoitlarda kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiya siyosati kapital mablag'lar samaradorligini oshirishni, ularni hal qiluvchi uchastkalarga jamlashni ta'minlashi lozim, yuksak halq xo'jalik samarasiga va iqtisodiyotning balansli rivojlanishiga tezda erishish, sarflangan har bir so'm hisobidan mahsulotning va milliy daromadning eng ko'p o'sishiga erishish eng muhim masala hisoblanadi.

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar samaradorligining mohiyati qishloq xo'jalik ishlab chiqarish maqsadi bilan belgilanadi. Hozirgi kunda mahsulot birligiga eng kam sarflar bilan qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, muttasil o'sib borayotgan, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga ko'p darajada ko'maklashadigan narsalar samaralidir.

Melioratsiya samaradorligi mazmunini olib, shuni ta'kidlash lozimki, gap qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sarflari va natijalarini o'zaro o'lchash formulasi ustida bormoqda. Samaradorlik pirovard natijani, sarflangan resurslar samarasini aks ettiradi. Bunda olingan natijalar maksimallashtirishga, sarflar esa minimallashtirishga intiladi. Qilingan sarflar hisobida mahsulot qancha ko'p olingan bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Erishilgan natjalarning ( $R$ ) sarflariga ( $Z$ ) nisbati bo'lgan samaradorlik darajasi ( $E$ ) maksimumga intiladi.

#### **EqRG'Z-maksimum**

Iqtisodiy samaradorlik darajasi mezon sifatida namoyon bo'ladigan kompleks ko'rsatkich va boshqa bir qancha xususiy ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan jonli va ijtimoiy mehnat tejamini ishlab chiqarish samaradorligining mezoni deb bilmoq kerak. Bu ko'rsatkich mazkur hodisa mohiyatini eng to'la aks ettiradi.

Yerlar melioratsiyasi iqtisodiy samaradorligining o'sishi bu maqsadlarga eng kam sarflar qilib, eng ko'p qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni olishga erishishdan iboratdir.

Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan asosiy maqsad mehnat va mablag'larni eng kam sarflar, eng ko'p samara olishni ta'minlaydigan kapital qo'yilmalarning eng tejamli variantlarini tanlab olishdir. Bu narsa investitsion jarayonlarining barcha bosqichlari kapital qo'yilmalarni loyihalash va rejalashtirish, gidromelioratsiya tizimlarini ishga tushirish bosqichlarida melioratsiya iqtisodiy samaradorligi asosini tashkil etadi.

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini yanada takomillashtirish muammosi iqtisod fanidagi muhim muammolardan biridir. Melioratsiya qurilish ko'lamlari ortib borgani sari uning ahamiyati oshadi.

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va melioratsiya fondlarining xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Birinchi xususiyat shundan iboratki, melioratsiyaga kapital qo'yilmalarning samaradorligi melioratsiyalangan yerlardagi qishloq xo'jaligi natijalariga ko'ra aniqlanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligi, o'z navbatida, xo'jalik va moliya faoliyatining ko'p tomonlari orqali namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga va uning natijalariga iqtisodiy hamda tabiiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarishning iqtisodiy jarayoni tabiiy jarayon bilan chambarchas tutashib ketadigan qishloq xo'jaligida yer o'z xususiyatlariga ega bo'lib, kapital qo'yilmalar samaradorligi muammosi boshqa tarmoqdagilarga nisbatan ancha murakkabroq hal etiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari yerdan, ish kuchi va moddiy mablag'lardan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar belgilanishini talab qiladi. Ancha yuqori samaradorlikka mehnat unumdarligi oshishi bilan birga yer gektari hisobida mahsulot chiqishi ham ko'payib borgandagina erishiladi. Yerlar melioratsiyasi samaradorligi o'sishining xususiyatlari shundan iboratdir.

Yerlar melioratsiyasi iqtisodiy samaradorligi mohiyatini aniqlashni maydon birligidan mahsulot birligiga eng kam moddiy va mehnat sarflari bilan sifati yaxshilangan qishloq

xo'jalik mahsulotini eng ko'p ishlab chiqarish sifatida ta'riflash mumkin. Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samarasi asosiy fondlar boshqa turlariga bir yo'la sarflar bilan o'zaro harakatda namoyon bo'lishi ikkinchi xususiyatdir. Melioratsiya fondlari dehqonchilikning hosil taqdiri birinchi galda bog'liq bo'lgan omillariga ta'sir o'tkazsada, lekin ular boshqa ishlab chiqarish fondlaridan alohida ajratib olingan holda dehqonchilik mahsulotini yaratish jarayonida qatnasha olmaydi. Melioratsiya fondlari yer bilan qo'shilib ketib, qishloq xo'jalik jarayonida yer, suv va boshqa ishlab chiqarish fondlari bilan birgalikda amal qiladi.

Samara melioratsiya tizimi yerlar o'zlashtirish va ishlab chiqarish yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi fondlari bilan ta'minlashga bir yo'la sarflar jami harajatiga ko'ra aniqlanadi. Sof suv-melioratsiya tadbirlarining agrotexnika tadbirlaridan ajratilgan holda hosildorlikka ta'sirini alohida ajratib bo'lmaydi.

Melioratsiyalashni o'tkazishga kompleks yondashish qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligining o'sishiga olib keladi. Agromelioratsiya kompleksining eng ko'p samaradorligi barcha ishlab chiqarish omillarining optimal nisbatidagi yig'indisida namoyon bo'ladi. Ob'ektiv baholashni melioratsiyalangan yerdan foydalanishga kompleks yondashishgina ta'minlaydi.

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar erishiladigan natijalarga darhol ta'sir etmasligi, sarflar bilan samara o'rtasidagi vaqt mobaynida uzilish bo'lishi uchinchi xususiyatdir. Suv xo'jaligi ob'ektlari, odatda, bir necha yil ichida quriladi hamda melioratsiyalananadigan yerlar ham bir qancha yillar mobaynida o'zlashtiriladi. Melioratsiya samaradorligini oshirish uchun qurilishni va yerkarni qishloq xo'jalik yo'li bilan o'zlashtirishni jadallashtirish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda muvakkat laglarni-qurilish lagi va o'zlashtirish lagini xisobga olish zarur.

Qurilish lagi-asosiy fondlarga avanslangan kapital sarflar muddati bilan ulardan olingan samara o'rtasida bo'ladigan vaqtdagi uzilishdir. U tugallanmagan ishlab chiqarishda qurilish davridagi kapital qo'yilmalarni «ishga solmay turish» bilan aniqlanadi. Qurilish lagining kattaligi ob'ekt qurilishi davomiyligiga va qurilish yillari bo'yicha kapital qo'yilmalar o'zlashtirilishi summalariga bog'liq bo'ladi.

O'zlashtirish lagi-asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishi bilan melioratsiyadan to'la (loyihali) samara olinishi o'rtasida bo'ladigan vaqtdagi uzilishdir.

Yerlarni o'zlashtirish qurilishni tugallamasdan avval boshlash mumkinligiga qaramay, dastlabki yillarda loyihadagi hosilni qariyb olib bo'lmaydi. Gidromelioratsiya tizimlarini ilgari qishloq xo'jalik oborotidan ishlatilgan yerlarda qurilish dehqonchilik tizimining texnologik va tashkiliy xo'jalik asoslarini ancha qayta qurishga olib keladi. Bunga esa muayyan vaqt talab qilinadi.

O'zlashtirish lagining davomiyligi ishga tushirilgan maydonlarni o'zlashtirish intensivligiga, tuproqlar tipi va qishloq xo'jalik korxonalari ixtisoslashuviga bog'liq bo'ladi. Lekin gidromelioratsiya tizimlari va maydonlarni qishloq xo'jaligi yo'li bilan o'zlashtirish ishlarini bir vaqtda olib borishda kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ancha ko'p sharoitlar yaratiladi.

## **8.2. Kapital qo'yilmalar umumiy (mutloq) iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichlari**

Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholashga yagona yondashishni ta'minlash maqsadida Yerlarni sug'orish va zaxini qochirish hamda o'tloqlarga suv chiqarishga kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash instruktsiya (uslubiyot)si ishlab chiqilgan. Instruktsiyada iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning mazkur tarmoqda qo'llanilishi zarur bo'lgan qoida va usullari keltirilgan. Unda suv xo'jaligi qurilishiga kapital qo'yilmalarning halq xo'jalik samaradorligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Halq xo'jalik samaradorligi qishloq xo'jaligida yaratilgan milliy daromad (sof mahsulot)ga asoslanib, hisoblab chiqiladi. Bunda sof mahsulotning halq xo'jaligi daromadlarida davlat buyurtmasi orqali sotiladigan mahsulotlar narxidagi farq oborot solig'i ko'rinishida aks etadigan qismi hisobga olinadi.

Halq xo'jalik samaradorligi hisob-kitoblarida melioratsiya qurilishiga yerlar o'zlashtirish va qishloq xo'jalik fondlarini to'ldirishga bevosita bir yo'la sarflar qatorida kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish yo'nalishidagi qo'shni tutash ob'ektlarni rivojlantirishga tutash sarflar ham kiritiladi.

Ichki xo'jalik samaradorligi qishloq xo'jalik korxonalarining melioratsiyalanadigan yerlardagi ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Uslubiyotda har bir loyihani iqtisodiy jihatdan asoslashda kapital qo'yilmalarning ham umumiy (mutlaq), ham nisbiy iqtisodiy samaradorligi ko'rsatiladi. Umumiy (mutlaq)

samaradorlik sarflar va samarani taqqoslash hamda shu bilan aniqlanayotgan suv xo'jaligi tadbirlarining xo'jalik nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi.

Tarmoq uslubiyotining muhim qoidalardan biri melioratsiyaga kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlash foyda bo'yicha emas, balki sof foyda bo'yicha olib borilishidadir. Bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning xususiyati bilan bog'liq bo'lib, bu xususiyat dehqonchilik mahsulotining ancha qismi ichki xo'jalik iste'moli (urug'lar, oziqalar) uchun xo'jalikda qolishi va tovar shakliga kirmaganligidan iboratdir. Sof foyda yalpi mahsulot qiymati bilan uning tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi. Melioratsianing iqtisodiy samaradorligini aniqlashda sof daromad kattaligi bilan ifodalangan butun pirovard samara xisobga olinadi. Kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplashi muddati yoki iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichi xioblanadi.

Kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplashi (Tkchd) ayrim qurilishlar, korxonalar va ob'ektlar bo'yicha kapital qo'yilmalarning (K) yillik sof daromadga (Dch) nisbati bilan aniqlanadi.

$$Tk\chi\partial = \frac{K}{\mathcal{U} - C} = \frac{K}{\mathcal{D}\chi}$$

O'zini-o'zi qoplash muddati deyilganda sof daromadning kapital qo'yilmalarga teng  $K = \mathcal{D}\chi T$  summasi olinishi ta'minlanadigan vaqt (yillarda) tushiniladi. Bu ko'rsatkich kapital qo'yilma sof daromadni o'rtacha yillik summasidan necha barovar ko'pligini aniqlaydi.

Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (Yekchd) o'zini-o'zi qoplash muddatiga teskari miqdor bo'lib, yillik sof foydaning (Dch) kapital qo'yilmalarga nisbati bilan aniqlanadi.

$$E\chi\partial = \frac{\mathcal{U} - C}{K} = \frac{\mathcal{D}\chi}{K}$$

Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti bir yilgi sof foyda hisobiga bir yo'la sarflarning qaysi qismi qaytib kelishini ( $Dch = YeK$ ) yoki kapital qo'yilmalarning bir so'miga sof foydaning qanchasi to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Mazkur tadbirning sof foydaga ta'sirini aniqlab bo'limganda iqtisodiy samaradorlik mahsulot tannarxi pasayishidan olingan tejamning, bu tejamni tug'dirgan qo'shimcha kapital qo'yilmalarga nisbati bilan aniqlanadi.

$$E_{KC} = \frac{C_1 - C_2}{K_2 - K_1} = \frac{\Delta C}{\Delta K}$$

Bunda Yeks-mahsulot tannarxining kamayishi hisobiga olinadigan kapital qo'yilmalar samaradorligi

$$T_{KC} = \frac{K_2 - K_1}{C_1 - C_2} = \frac{\Delta K}{\Delta C}$$

Tks-mahsulot tannarxining kamayishi hisobiga kapital qo'yilmalarning o'zini o'zi qoplashi.

Kapital qo'yilmalar umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlashning qarab chiqilgan usullari ishlab chiqarish fondlariga rejalashtirayotgan va loyihalanayotgan qo'yilmalargagina taaluqlidir.

Ularni to'g'ri baholash kapital qo'yilmalarni eng kam sarflar bilan mahsulotning eng ko'p miqdori olinishini ta'minlaydigan ob'ektlarga yo'naltirishni ta'minlaydi

Shu narsa tamoman ravshanki, iqtisodiy samaradorlikning turli sharoitlarga mo'ljallangan koeffitsiyenti har xil bo'lib chiqadi, ya'ni Yekchd va Tks kattaliklari teng emas va ularni taqqoslab bo'lmaydi. Gap biron bir muayyan ob'ekt xususida boradigan bo'lsa, bu kattaliklardan har birini variantlar bo'yicha dinamikada taqqoslash mumkin. Turli ob'ektlar bo'yicha esa taqqoslashni faqat taqqoslasa bo'ladigan bir ko'rsatkich bo'yicha o'tkazish mumkin.

Melioratsiyaning haqiqatdagi samaradorligini baholashda sarflar sifatida amaldagi ishlab chiqarish fondlari namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumiy iqtisodiy samaradorligi Yerf sof foyda summasining Dch o'rtacha yillik ishlab chiqarish fondlari F miqdoriga nisbati tarzida aniqlanadi:

$$Ep\phi = \frac{\varDelta u}{\Phi}$$

yoki

$$Tp\phi = \frac{\Phi}{\varDelta u}$$

Trf-o'zini-o'zi qoplash muddati.

Tahlil maqsadlari va vazifasiga bog'liq holda asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati yoki asosiy ishlab chiqarish fondlari va me'yorlanadigan aylanma mablag'lari summasi xisobga olinadi.

Iqtisodiy samaradorlik taqqoslashda va solishtirib qo'rishda ma'lum bo'ladi. Samaradorlikning hisoblangan koeffitsiyenti yoki o'zini-o'zi qoplash muddati me'yoriy ko'rsatkich bilan solishtiriladi.

Ishlab chiqilgan instruktsiya samaradorlik me'yoriy koeffitsiyentlari xo'jaliklar ixtisoslashuviga bog'liq holda belgilangan: g'alla chorvachilik xo'jaliklari-0,10, sabzavotchilik xo'jaliklari -0,11, paxtachilik xo'jaliklari -0,15, bog'dorchilik uzumchilik xo'jaliklari-0,14, sholikorlik xo'jaliklari-0,16. Kapital qo'yilmalar samaradorlik koeffitsiyenti  $Y \geq Y_{Tn}$  me'yordan ko'p yoki har holda kam bo'lmasa o'zini-o'zi qoplash muddati  $Tf \geq Tn$  me'yordan kam yoki oshib ketmasagina samarali bo'ladi.

Shunday qilib, yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti halq xo'jaligi bo'yicha o'rtacha tarmoq darajasida belgilangandir. Umuman tarmoq instruktsiyasi kapital qo'yilmalarning ishonchli iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashda melioratsiya fondlari xususiyatlarini va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish xususiyatlarini ancha to'la hisobga olish zarur.

-Melioratsiya fondlari uzoq vaqt ishlatiladigan fondlardir. Ular o'zini-o'zi qoplash muddati (6-10 yil) tugaganidan keyin ham o'z iste'mol qiymatini yo'qotmaydi, balki ishlab chiqarish jarayonida loyiha unumdonligi bilan amal qilaveradi. Bu melioratsiya dehqonchilikda ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yer kapital rejalashtirishdan hamda melioratsiya tizimi ishga tushirilganidan so'ng o'zining eng yuqori unumdonligiga faqat 4-5 yildan keyin erishadi. Kelajakda, yanada mukammal melioratsiya tizimlari qurishga o'tilganda va melioratsiya jihatidan ancha murakkab yerlar o'zlashtirilganda, ulushli kapital qo'yilmalar ortib boradi. Yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti shu xususiyatlar xisobga olingan holda halq xo'jaligi bo'yicha o'rtacha darajaga nisbatan ancha kam bo'lishi kerak.

Bunda melioratsiyadagi bu koeffitsiyent u ancha uzoq davrga mo'ljallanib asoslanganda katta puxtalik kasb etadi.

Melioratsiya dehqonchiligida tabiiy sharoitlar qishloq xo'jalik zonalari bo'yicha ancha farq qiladi. Bu esa bir turli sarflar har xil samara berishiga olib keladi. Shuning uchun iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti mamlakat iqtisodiy regionlari bo'yicha

differentsiatsiyalanishi kerakki, shunday qilish kapital qo'yilmalarni ancha oqilona joylashtirilishiga yordam beradi.

Kapital qo'yilmalar va ishlab chiqarish fondlari umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlashda samaradorlik koeffitsiyenti bilan birga ishlab chiqarishni iqtisodiy baholashni to'ldiruvchi boshqa ko'rsatkichlarni ham aniqlash kerak bo'ladi. Ularga ishlab chiqarilgan mahsulotning maydon birligi qiymati ifodasidagi miqdorini, mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxini, fond samarasini, ishlab chiqarish rentabelligini kiritish lozim.

Loyihalar va rejalarini ishlab chiqish davomida olingan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari rejali me'yorlar bilangina emas, balki shunga o'xhash boshqa loyihalar ko'rsatkichlari, shuningdek, ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan ham taqqoslanadi.

### **8.3. Kapital qo'yilmalarning nisbiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va vaqt omilining hisobi**

Rejalashtirish va loyihalashda optimal variantni tanlash uchun kapital qo'yilmalar nisbiy iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Nisbiy samaradorlik tanlangan variant boshqa variantlardan yaxshimi? degan savolga javob beradi.

Kapital qo'yilmalar nisbiy iqtisodiy samaradorligi xo'jalik va texnika yechimlarini qabul qilishda, yangi qurilish yoki ishlab turgan ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish variantlarini tanlashda, texnika yangi turlarini ajratib olishda aniqlanadi. Aynan bir vazifaning turli xil loyiha yechimlari variant sifatida ko'rib chiqiladi.

Nisbiy variantlar mahsulot ishlab chiqarish quvvati, hajmi, uning sifati, sarflar va samara olish vaqt, narxlar va bir qancha boshqa belgilar bo'yicha taqqoslanadigan bo'lishi kerak. Taqqoslanadigan variantlar bo'yicha pirovard natijalar bir xil bo'lган taqdirda ancha tejamli variant sarflarinigina o'zaro o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.

Variantlarni taqqoslash kapital qo'yilmalar va mahsulot tannarxi ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkaziladi. Lekin bu ko'rsatkichlarni xajmlilik bo'yicha taqqoslab bo'lmaydi. Kapital qo'yilmalar mahsulot ishlab chiqarish sharoitlarini asosiy fondlar mavjud bo'lган butun davr mobaynida ta'minlaydi, mahsulot tannarxi esa faqat bir yil mobaynidagina ta'minlaydi. Bu sarflar taqqoslanadigan bo'lishi uchun yagona xajmlilikka keltirish kerak bo'ladi.

Keltirilgan sarflar o'z e'tibori bilan yillik joriy chiqimlar (yillik tannarxining) hamda samaradorlik me'yoriy koeffitsiyentiga muvofiq yillik xajmlilikka keltirilgan kapital qo'yilmalar summasidir. Keltirilgan sarflar (Ep) eng kam summasiga ega bo'lган variant eng tejamli variant xisoblanadi.

### ZpqSQEn\*Kqeng kam

Bunda Yen-kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti.

Nisbiy iqtisodiy samaradorlikning me'yoriy koeffitsiyenti 0,15 dan past bo'lмаган darajada belgilangandir. Bu kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplashining me'yoriy muddati 6,4 yildan (1G'015) oshmasligiga yordam beradi.

Keltirilgan sarflar iqtisodiy amaliyotda nisbatan yangi ko'rsatkichdir. Ular hisoblash miqdorigina bo'lib qolmay, balki jamiyatning jami chiqimlarini, ya'ni fondlarni takror ishlab chiqarish sarflarini (kapital qo'yilmalar) hamda bu fondlar amal qilishi sarflarini (yillik mahsulot va xizmatlar tannarxi) aks ettiruvchi real iqtisodiy kategoriya hamdir. Keltirilgan sarflar asosiy ishlab chiqarish fondlarini yaratish, o'zlashtirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq to'la xalq xo'jalik sarflarini xarakterlaydi.

Keltirilgan sarflarning murakkabligi, ularning ikki yoqlamaligidadir. Bir tomonidan YenK yillik xajmlilikka keltirilgan kapital qo'yilmalar sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinci tomonidan-bu sof daromadning jamg'arma fondidan kapital qo'yilmalar sarflanadigan barcha xollarda olinishi kerak bo'lган eng kam miqdoridir. YenK o'z-o'zicha samara xisoblanmaydi. Bu qismning vazifasi texnikani rivojlantirishga sarflangan jamg'arma fondini tiklashdir.

Keltirilgan sarflar loyihali yechimlarning har bir varianti bo'yicha hisoblanadi. Tamoman ravshanki, biron-bir samaraga erishishda kapital qo'yilma va tannarx kam bo'lган variant ancha tejamli variant bo'ladi. Bir variant bo'yicha kapital qo'yilma ( $K_1$ ) ko'p va tannarx ( $S_1$ ) kam, boshqa variant bo'yicha esa kapital qo'yilma kam ( $K_2$ ) va tannarx yuqori ( $S_2$ ) ya'ni  $K_1 > K_2$ ,  $S_1 < S_2$  yoki aksincha bo'lganda taqqoslanadigan variantlar samaradorligini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunday hollarda yaxshi variant keltirilgan sarflarning eng kam summasiga ko'ra aniqlanadi.

Keltirilgan sarflar taxlili yillik chiqimlar bilan kapital qo'yilmalar o'rtasidagi optimal nisbatni topish imkonini beradi. Qo'shiladigan keltirilgan sarflar dinamikasini taqqoslash mazkur sharoitlar uchun kam yillik chiqimli variantni qabul qilish va katta

kapital qo'yilmalarga borish yoki ularni tejab, ishlab chiqarishning ancha yuqori chiqimlariga ega bo'lishi kerakmi, degan savolga javob beradi.

Kapital qo'yilmalar va ishlatish sarflari tarkibini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilmoq kerak:

Hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun loyihali yechimning mazkur variantiga bog'liq bir yo'la va joriy sarflarnigina taqqoslash kerak;

Kapital qo'yilmalar va chiqimlarni ko'rib chiqilayotgan bo'g'in bo'yichagina emas, balki qo'shni texnologik jihatdan bog'liq bo'g'inlar bo'yicha ham hisobga olish kerak.

Keltirilgan sarflarning eng kam summasi bo'yicha boshqa variantlarga nisbatan yaxshi variant ajratib olinadi, iqtisodiy samara esa keltirilgan sarflarni tejash orqaligina ifodalanishi mumkin. Ikki variant bo'yicha keltirilgan sarflar har xilligi yillik iqtisodiy samarani xarakterlaydi.

$$Ezpq[(S_1QEnK_1)-(S_2QEnK_2)]A_2qZp_2-Zp * A_2$$

Keltirilgan sarflar ko'rsatkichlari to'la summada ham, melioratsiyalanadigan maydonning 1 getari, mahsulotning 1 sentneri, suvning  $1000 \text{ m}^3$  i, ishning birligiga va hokazolar hisobidagi ulushli qiymat ko'rinishida ham qo'llanishi mumkin.

Yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalarning mahsulot ishlab chiqarish turli hajmini ta'minlaydigan variantlarni taqqoslashda ularni samara bo'yicha taqqoslanadigan ko'rinishiga keltirishi kerak. Buning uchun ishlab chiqarishning to'la hajmiga ega bo'lган variant asos qilib olinadi va boshqa variantlarga nisbatan mahsuldorlik koeffitsiyenti o'sha asos variant bo'yicha aniqlanadi. Boshqa variantlarning keltirilagn sarflari mahsuldorlik o'sishi koeffitsiyentiga ko'paytiriladi. Shu bilan mazkur belgi bo'yicha variantlar taqqoslanishiga erishiladi.

Qurilishning katta muddatlarida kapital qo'yilmalar vaqt bo'yicha ishlatish chiqimlari va daromad tushishiga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun loyihali yechimlarni iqtisodiy jihatdan baholashda vaqt omilini hisobga olish zarur.

Kapital qo'yilmalar taqqoslanadigan variantlar bo'yicha turli muddatlarda o'tkazilsa yoki joriy sarflar vaqt ichida o'zgarsa, sarflar taqqoslanish uchun yagona momentga keltiriladi, sarflar samaradorligi ularning qurilishi amalga oshiriladigan muddat mobaynida

turlicha taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Sarflar vaqtning boshlang'ich yoki oxirgi momentiga keltirilishi mumkin. Turli vaqtdagi sarflarni bir davrga keltirish uchun keltirish koeffitsiyenti (V) dan foydalaniladi.

Ancha keyingi yillardagi sarflarni boshlang'ich momentiga keltirish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$B = \frac{1}{(1 + Eh_n)^t}$$

Bunda t-yillarda keltirish-davri;

Yen.p.-turli vaqtdagi sarflarni keltirish me'yori (0.08).

Sarflarni ancha kech davrga keltirish koeffitsiyenti (qurilish tugallanishi momentiga) quyidagicha aniqlanadi:

$$Vq(1QEn.p)^t$$

Turli vaqtdagi sarflarni bir vaqtga keltirishdan variantlar iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchungina foydalaniladi va qurilish smeta qiymatini o'zgartirish uchun asos xizmatini o'tay olmaydi.

Qurilish davomiyligi bilan farqlanadigan variantlarni taqqoslashda ob'ekt muddatidan ilgari ishga tushirishdan kelgan qo'shimcha samara hisobga olinadi.

Qurilish davomiyligi va ob'ektni ishga tushirish muddatini qisqartirish muddatidan oldin ishga tushirilgan maydonlarda qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ishlatish sohasidagi iqtisodiy samara qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq foya hisobiga hosil bo'ladi. Ob'ektni ishga muddatidan ilgari topshirishni jadallashtirishdan olingan samara hajmi (Euv) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathcal{E}_{uv} = Eh\Phi_{oc}(T_H - T_h)$$

Bunda Fos-ishga muddatidan ilgari tushirilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati, ming.so'm;

Tn va Tf-qurilishning yillardagi me'yoriy va haqiqatdagi muddatlari.

Qurilish davomiyligi me'yorlari buzilsa va asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishga tushirilishi kechiksa, mahsulot ishlab chiqarish kechikadi hamda halq xo'jaligiga zarar keltiriladi (Uvf). Bunda paydo bo'ladigan yo'qotishlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

## UvfqEnFos(Tf-Tn)

Qurilish-montaj ishlarini bajarishni jadallashtirish qurilish davomiyligini qisqartirish, qurilish tashkilotining shartli barqaror xarajatlarini kamaytirish hisobiga foyda ko'rinishida ichki xo'jalik iqtisodiy samarasini olishiga imkon beradi. Unga ishlar hajmiga emas, balki ularni bajarish davomiyligiga bog'liq xarajatlar kiradi. Bunday xarajatlar ustama xarajatlar tarkibida (30-50%), mashina va mexanizmlarini-ishlatish xarajatlarida (30%), vaqtbay ish haqi va mukofotlar ko'rinishida vaqtbay ishchilarga to'lanadigan asosiy ish haqi xarajatlarida (5%), materiallar qiymatida mavjuddir.

Bu samara kattaligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathcal{Z}_{\text{уhr}} = \mathcal{Z}_{\text{уhr}} \left(1 - \frac{T\phi}{T_h}\right),$$

Bunda Zunr-tannarx tarkibidagi shartli barqaror xarajatlar, sum.

Vaqt omili tugallanmagan qurilishni kamaytirish hisobiga kapital qo'yilmalar samaradorligiga ancha ta'sir o'tkazadi. Tugallanmagan qurilishdagi kapital qo'yilmalar amal qilmaydigan sarflar hisoblanadi. Ular ob'ekt ishga tushirilgandan keyingina korxonaning asosiy fondlari bo'lib qoladi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi.

Qurilishning haqiqatdagi muddati me'yoriy muddatlarga nisbatan kamaysa, halq xo'jaligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan iqtisodiy samara Evk ni oladi:

$$\text{EvkqEn}(\text{KnTn-KfTf}),$$

Bunda Kn va Kf-tugallanmagan qurilishga kapital qo'yilmalarning me'yoriy va haqiqatdagi hajmi, ming.so'm.

Mablag'larning tugallanmagan qurilishga qurilish zadeli me'yoriy muddatiga nisbatan ancha uzoq davrga jalb etilishi natijasida halq xo'jaligiga yetkaziladigan zararlar Uvk quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{UvkqEn}(\text{KfTf-KnTn}).$$

Qurilish davomiyligini kamaytirish qo'shimcha sarflar talab qiladigan hollarda iqtisodiy samara miqdorini bir yo'la ko'rsatilgan sarflar summasida kamaytirish lozim bo'ladi.

Nisbiy baholashda boshqa variantlarga nisbatan yaxshi variant ajratib olinadi. Bunda biron darajada yaxshi variant yomon variantlar ichidan ajratib olinishi va sarflar yuqori foydasini ta'minlamasligi mumkin. Shuning uchun nisbiy samaradorlikni kapital qo'yilmalar umumiy samaradorligining ko'rsatkichlari bilan albatta to'ldirish kerak.

#### **8.4. Yerlar melioratsiyasi iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Yerlarni melioratsiyalashning asosiy vazifasi - qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishdir. Yalpi mahsulot qiymati qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining natijali ko'rsatkichi xisoblanadi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun asos xizmatini o'taydi.

Yalpi mahsulot miqdorini ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichi sifatida tan olgan holda shuni ta'kidlash zarurki, ishlab chiqarish o'sgan sari, sof daromad sarflarga nisbatan maksimizatsiyalashdi. Shuning uchun melioratsiya tadbirlaridan yer gektari va kapital qo'yilmalar birligi hisobida qancha ko'p yalpi hosil hamda sof daromad olinsa, melioratsiya samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Melioratsiya qishloq xo'jalik oborotida foydalilanayotgan yerlarda o'tkaziladigan hollarda kapital qo'yilmalar samaradorligi melioratsiyadan olingan qo'shimcha sof daromadga ko'ra aniqlanadi. Kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplashi muddati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Tk\chi\delta = \frac{K}{(\Delta\chi_m - \chi_m) - (\Delta\chi_b - \chi_b)} = \frac{K}{\Delta\chi_m - \Delta\chi_b} = \frac{K}{\Delta\Delta\chi}$$

Bunda Tkchd-kapital qo'yilmalarning qo'shimcha sof daromad bo'yicha o'zini-o'zi qoplash muddati, yil;

K-kapital qo'yilmalar, so'm;

Sm va Sb-melioratsiya yerlaridan va melioratsiya o'tkazilishidan ilgari shu yerlardan olingan mahsulot qiymati, so'm;

Im va Ib-melioratsiyalangan yerlarda va melioratsiya o'tkazilishidan oldin shu yerlarga sarflangan ishlab chiqarish chiqimlari, so'm;

Dchm va Dchb melioratsiyalangungacha olingan sof daromad so'm; Dch-melioratsiya bilan shartlangan qo'shimcha daromad.

Yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samarasi melioratsiya o'tkazilishigacha va undan keyin olingan ko'rsatkichlarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Ko'rsatkichlar hisobi butun maydon yoki 1 gektarga o'tkaziladi.

Melioratsiyalangan yerlar uchun maydon netto qabul qilinadi. Kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini baholashda asosiy ko'rsatkich bilan birga mahsulot ishlab

chiqarish, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish-rentabelligi darajasi hisob-kitobi o'tkaziladi va hokazo.

Quyidagilar kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining boshlang'ich ma'lumotlari hisoblanadi: melioratsiyalanadigan maydon, uning ekinlar va foydalanish turlari bo'yicha taqsimlanishi, asosiy fondlar turlari bo'yicha kapital qo'yilmalar, sug'orish rejimi, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, mahsulot ishlab chiqarishga mehnat va mablag'lar sarfi. Yerlar melioratsiyasi iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash uchun quyidagilarni izchil aniqlash zarur;

Gidromelioratsiya tizimlarini qurishga kapital qo'yilmalar hajmi, yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosiy fondlar bilan to'la ta'minlash;

qishloq xo'jalik mahsulotining qiymati;

ishlab chiqarish chiqimlari;

sof daromad, ishlab chiqarish rentabelligi va kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplash muddati.

**Kapital qo'yilmalar hajmini aniqlash.** Kapital qo'yilmalar umumiylar umumiy summasiga (K) xo'jaliklararo shaxobcha va inshootlar melioratsiya qurilishi (Kmx) hamda ichki xo'jalik shaxobchasi va inshootlari (Kvx) sarflari, shuningdek yerlar o'zlashtirish hamda melioratsiya bilan bog'liq ishlab chiqarish yo'nalihidagi qishloq xo'jalik qurilishi sarflari (Kosv) kiritiladi.

### KqKmxQKvxQKosv

Melioratsiya qurilishining kapital sig'imi muqarrar texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlar jumlasiga kiritiladigan ulushli kapital qo'yilmalar ko'rsatkichini ancha to'la xarakterlaydi.

Jamlama kapital qo'yilmalarni aniqlash uchun smeta raschetlaridan, shuningdek suv xo'jaligi qurilishiga ulushli kapital qo'yilmalarning yiriklangan, me'yorlaridan hamda qishloq xo'jalik qurilishi va melioratsiyalanadigan yerlarni o'zlashtirishga kapital qo'yilmalarning yiriklangan me'yorlaridan foydalanish mumkin.

**Qishloq xo'jalik mahsuloti qiymatini aniqlash.** Melioratsiyaga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligiga, avvalo, yerlar unumdorligining ekinlar hosildorligi va ekin maydonlari tarkibi bilan belgilanadigan darajasi ta'sir o'tkazadi. Hosildorlik qancha yuqori bo'lsa va qimmatli ekinlarga qancha ko'p maydonlar ajratilsa, kapital qo'yilmalar samarasi shuncha yuqori bo'ladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi hosilini aniqlash uchun ekinlar bo'yicha ekiladigan maydonlar hajmini va ularning melioratsiyadan oldingi va keyingi hosildorligini bilish kerak bo'ladi. Ekinlar kesimidagi ekiladigan maydonlar ekinlar ratsional tarkibi va almashlab ekishlarning qabul qilingan sxemalari asosida aniqlanadi. Haqiqatdagi hosildorlik 3-5 yil uchun, rejali (loyihali) hosildorlik esa ilg'or tajriba va fan yutuqlari xisobga olinib xisoblanadi.

Qiymat ko'rinishidagi yalpi mahsulot chiqishi zona xarid narxlari bo'yicha aniqlanadi. Ozuqa ekinlariga xarid narxlari belgilanmaganligi tufayli ozuqalar qiymati suli narxi bo'yicha yoki chorvachilik mahsuloti qiymati orqali aniqlanadi. Birinchi holda ozuqa ekinlarining mahsuloti koeffitsiyentlar bo'yicha ozuqa birikmalariga aylantiriladi va suli xarid narxi bo'yicha baholanadi.

SkorqU•G'•K• Sov,

Bunda Skor-ozuqalar qiymati, sum;

U-ozuqa ekini hosildorligi, s;

G'-eqiladigan maydon, ga;

K-ozuqa birliklariga aylantirish koeffitsiyenti;

Sov-1 s sulining xarid narxi, sum.

Ozuqa ekinlari chorvachilik mahsuloti orqali realizatsiya qilinishi hisobga olinsa, ozuqalarni mollarni boqishda olingan va xarid narxlari bo'yicha xisoblangan chorvachilik mahsuloti qiymati bo'yicha baholash ancha ob'ektiv baholash bo'ladi. Chorvachilik mahsuloti miqdori yalpi yig'ma va uni mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflash asosida aniqlanadi. Ozuqalarni chorvachilik mahsuloti turlari bo'yicha taqsimlash, ular iste'mol qilinishi hisobga olinib belgilanadi.

Chorvachilik mahsuloti bo'yicha baholanadigan ozuqalar qiymati quyidagi formula bo'yicha xisoblanadi:

$$I_{kop} = \frac{I_{жc} * P * A_{кeд}}{100 * K_{eд}}$$

Bunda S kor – chorvachilik mahsuloti bo'yicha baholanadigan ozuqalar qiymati sum;

Sj-1 s chorvachilik mahsuloti narxi, sum;

R-chorvachilik mahsuloti tannarxi strukturasidagi ozuqalar sarflari ulushi, %

Ak yed –ozuqalar yalpi yig’imi, ozuqalar birligi, s;

Ked-1 s chorvachilik mahsulotiga sarflanadigan ozuqalar miqdori, ozuqa birligi.

Iqtisodiy samarani aniqlash uchun melioratsiya o’tkazilganidan keyin va shungacha olingan mahsulot qiymatini xisoblab chiqish kerak. Yalpi mahsulotning melioratsiya bilan shartlangan ( $\Delta Sm$ ) o’sishi melioratsiyalangan yerlardan olingan mahsulot qiymatidan ( $Sm$ ) mahsulotning o’sha yerlardan melioratsiyagacha ( $Sb$ ) olingan qismini chiqarib tashlash yo’li bilan aniqlanadi:

$$\Delta Sm = Sm - Sb$$

Mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmi bilan barcha yerning 1 getktari, sug’oruv suvining  $1 \text{ m}^3$  i, kapital qo’yilmalarning 1 so’mi kunning 1 soati hisobidagi mahsulot chiqarishni ham aniqlash zarur.

**Ishlab chiqarish chiqimlarini aniqlash.** Sug’orma dehqonchilikdagi moddiy va mehnat sarflari sug’orilmaydigan dehqonchilikdagiga nisbatan ancha kattadir. Suv chiqarilgan yerlarda qishloq xo’jalik mahsuloti ishlab chiqarishga sug’orish tizimini ishlatish, suv chiqarish va boshqa agromelioratsiya tadbirlari bilan bog’liq qo’shimcha mablag’lar sarflanadi.

Sug’oriladigan yerlardagi ishlab chiqarishning jamlama chiqimlari xo’jaliklararo davlat sug’orish tizimi sarflari va qishloq xo’jalik korxonasi sarflaridan tashkil topadi. Lekin hozirgi vaqtda sug’oriladigan yerlardagi ishlab chiqarish chiqimlariga xo’jaliklararo tizimlarini ishlatish sarflari kiritilmaydi, chunki sug’oruv suvi suvni tekin iste’mol qiladigan xo’jaliklarga berilmoxda. Shuning uchun sug’oriladigan yerlarda mahsulotning haqiqatdagi tannarxi kam bo’lmoqda. Melioratsiyaga yo’naltirilgan kapital qo’yilmalarni iqtisodiy baholash uchun yagona suv-melioratsiya kompleksi bo’lgan sug’orish tizimining suv olishdan sug’orishgacha barcha ekspluatatsion sarflarini hisobga olish kerak. Melioratsiyalangan yerlardagi chiqimlar ( $S_{sum}$ ) ishlab chiqarish texnologiyasi xisobga olingan holda meliorativ ( $3\text{mx}$ ) va qishloq xo’jalik chiqimlariga ( $Z_{sx}$ ) bo’linadi. Meliorativ chiqimlar, o’z navbatida, xo’jaliklararo melioratsiya tizimini ishlatish sarflari ( $3\text{mx}$ ) va ichki xo’jalik melioratsiya tizimini ishlatish sarflaridan ( $Z_{vx}$ ) tarkib topadi. Shunday qilib, sug’orish sharoitidagi ishlab chiqarishning to’la (jamlama) chiqimlari quyidagicha tarkib topadi:

## S so'mq3mxQ3vxQ3sx

Xo'jaliklararo sug'orish tizimini ishlatish sarflari xarajatlar smetasi bo'yicha aniqlanadi. Bu sarflarni xo'jaliklar bo'yicha taqsimlash berilgan suv miqdoriga mutanosib ravishda o'tkaziladi. Buning uchun  $1 \text{ m}^3$  suvning tannarxini bilish kerak bo'ladi. Xo'jalik hisobi sharoitida xo'jaliklararo melioratsiya chiqimlari sug'oruv suvi uchun to'lanadigan haq ko'rinishida ifodalanadi.

Sug'oruv suvi tannarxi bo'yicha xo'jaliklararo ishlatish chiqimlari Zmj miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Z_{\text{мж}} = CW\delta p = C \frac{W_{\text{НН}}}{KПД_{\text{ex}}}$$

Bunda S-sug'oruv suvining tannarxi,  $\text{so}'\text{mG}'\text{m}^3$ ;

$W_{\text{бр}}$  va  $W_{\text{нт}}$ -berilgan sug'oruv suvining miqdori (brutto va netto),  $\text{m}^3$

KPDvx-ichki xo'jalik shaxobchasini foydali ish koeffitsiyenti

Xo'jalik ichki sug'orish tizimini ishlatish sarflari xarajatlar smetasi bo'yicha aniqlanadi. Bu xarajatlar tegishli ekinlarga hektar –sug'orish yoki ekiladigan maydonga mutanosib tarzda kiritiladi.

Sug'orma dehqonchilikdagi ishlab chiqarish chiqimlarining katta qismini qishloq xo'jalik ekinlarini parvarish qilish va sug'orishlar o'tkazish bilan bog'liq sarflar tashkil qiladi.

Qishloq xo'jalik chiqimlari sug'oriladigan yerlarda ham, lalmikor yerlarda ham qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish texnologik jarayoni bilan bog'liqdir. Bu guruhga tuproqni, ekinlarni ekishga tayerlash, ekinlar parvarishi, hosilni yig'ib olish, urug'liklar va o'g'itlar qiymati sarflari, transport va boshqa xarajatlar kiradi.

-Qishloq xo'jalik chiqimlari va sug'orishlar sarflari summasi ishlov berish texnologik kartalari asosida bevosita ekinlar bo'yicha (yoki ekinlar guruhi bo'yicha) aniqlanadi. Bunda bevosita sarflargina emas, balki ustama xarajatlar ham xisobga olinadi.

Qo'shimcha ishlab chiqarish sarflari ( $\Delta I$ ) sug'orma dehqonchilikda (Im) lalmikor (Ib) dehqonchilikdagiga nisbatan chiqimlar farqi sifatida topiladi.

$$\Delta I = I_m - I_b$$

Sug'oriladigan yerlardagi aynan shu qo'shimcha chiqimlar qo'shimcha mahsulot olinishini shartlaydi.

Qishloq xo'jalik ekinlari yalpi hosili va ishlab chiqarish sarflari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda mahsulot tannarxini hisoblab chiqish mumkin.

**Sof daromad, rentabellik va kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplash muddatini aniqlash.** Qishloq xo'jaligidagi sof daromad mahsulot tannarxi bilan uni ishlab chiqarish o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqiladi. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun melioratsiya o'tkazilganidan keyingi va ungacha bo'lgan sof daromad summasini hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

DchmqTSm-Im

DchbqTSb-Ib

Melioratsiya bilan shartlangan qo'shimcha sof daromad quyidagini tashkil etadi:

$$\Delta\mathcal{D}\chi = \mathcal{D}\chi_m - \mathcal{D}\chi_b$$

$$\Delta\mathcal{D}\chi = \Delta\mathcal{I}I - \Delta\mathcal{I}I$$

Bunda,  $\Delta\mathcal{D}\chi$ -melioratsiyadan keyingi qo'shimcha daromad; so'm

$\Delta\mathcal{I}I$  -Melioratsiyadan keyingi qo'shimcha yalpi mahsulot; so'm

$\Delta\mathcal{I}I$  -Melioratsiyaga sarflangan qo'shimcha joriy xarajat; so'm

Ishlab chiqarishning pirovard natijasini, sof daromad summasini bilgan holda kapital qo'yilmalar rentabelligi va iqtisodiy samaradorligi darajasi qo'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish rentabelligi darajasining sarflar samaradorligini xarakterlovchi darajasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_m = \frac{\mathcal{D}\chi_m * 100}{\mathcal{I}I_m}$$

$$P_b = \frac{\mathcal{D}\chi_b * 100}{\mathcal{I}I_b}$$

Bunda, Rm-melioratsiyadan keyingi rentabellik darajasi.

Rb-melioratsiyadan oldingi rentabellik darajasi.

Sof daromad miqdorini va rentabellik darajasini aniqlash ham ekinlar umumiyl maydoni bo'yicha, ham almashlab ekishning yetakchi ekinlari bo'yicha o'tkaziladi.

Melioratsiyaning halq xo'jalik samaradorligini baholash uchun xo'jalikning sof daromadi bilan birga oborot solig'i ko'rinishidagi markazlashtirilgan sof daromadning

melioratsiyalangan yerdagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samarasiga kiritilgan qismini ham hisobga olish zarur. Mazkur holda sof daromad o'sishiga oborot solig'inining (Nob) tegishli summasi qo'shiladi:

$$\Delta DchQNob$$

Oborot solig'inining umumiy summasi mahsulot yalpi hosili ko'payishi va mahsulot turlari oborot solig'i me'yorlari bo'yicha aniqlanadi.

-Kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplashi muddati ishlab chiqarishning ekinlar hosildorligi, mahsulot tannarxi va rentabelligi bo'yicha loyiha ko'rsatkichlariga erishilgan yilga aniqlanadi. O'zini-o'zi qoplashning asosiy muddati melioratsiya qurilishini amalga oshirish va yarlarni qishloq xo'jalik yo'li bilan o'zlashtirish vaqtini hisobga olmaydi. Shuning uchun muvaqqat laglarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplashining real yoki to'la muddatini aniqlash kerak bo'ladi. Qurilish lagi va o'zlashtirish lagi yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplashining asosiy muddatini uzaytiradi.

$$T_{\kappa\chi\delta.pol} = \frac{K}{\Delta\prod_u + H_{ob}} + \Pi_{cmp} + \Pi_{oce}$$

Bunda  $L_{str}$ -qurilish lagi,

$L_{osv}$ -o'zlashtirish lagi

Muvaqqat laglarni aniqlash uchun kapital qo'yilmalar va sof daromadning nisbiy qo'rsatkichlaridan foydalaniladi. Qurilish lagining davomiyligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Pi_{cmp} = \frac{a_1n + a_2(n-1) + \dots + a_m}{100}$$

Bunda  $a_1; a_2; \dots$  an-smeta qiymatiga foizlardagi kapital qo'yilmalarning 1.2.....yil qurishga mo'ljallangan qurilish davomiyligi me'yorlari bo'yicha ko'zda tutilgan ulushi;

n-qurilishning me'yoriy muddati, yillar.

O'zlashtirish lagi o'zlashtirish yillarida sof daromad jamlama chala olinishining to'la o'zlashtirish yili sof daromadining hisoblanadigan kattaligiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$P_{ocb} = \frac{(100 - \Delta u_1) + (100 - \Delta u_2) + \dots + (100 + \Delta u_n)}{100}$$

Bunda  $Dch_1; Dch_2; \dots; Dch_n$ -xo'jalikning o'zlashtirish yili 1,2,...n to'la o'zlashtirish yili hisobi % laridagi sof daromadi.

Tarmoq instruktsiyasida ko'rsatilishicha, to'la o'zlashtirish yiliga kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplashi muddatining hisobi bilan birga sarflarni qoplash kalendar muddati ham hisoblab chiqiladi. O'zini-o'zi qoplashning kalendar muddatini aniqlash 1000 hektar va undan ko'p maydonda gidromelioratsiya tizimlari qurilishi loyihalari uchun zarur hisoblanadi.

Shuning uchun samaradorlikning hosildorlik, sof daromad va boshqa ko'rsatkichlari loyixa darajasigagina emas, balki o'tish davriga ham aniqlanadi. Buning uchun sof daromad miqdori va qoplamaqan kapital qo'yilmalar summasi yerlar o'zlashtirilishi hamda sarflar o'zini-o'zi qoplashining butun davriga yillar bo'yicha dinamikada aniqlanadi.

## **8.5. Gidromelioratsiya tizimlarini rekonstruktsiyalash iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari**

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab turgan melioratsiya tizimlari holatini, ularni rekonstruktsiyalash yo'li bilan ta'minlashtirish zarurati tug'iladi. Melioratsiya tizimlarini rekonstruktsiyalashga shaxobcha va inshootlarni to'la yoki qisman qayta ko'rish kiradiki, bu esa tizimning texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish asosida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini kengaytirishni ta'minlaydi.

Sug'orish tizimlarini rekonstruktsiya qilish suv ta'minotini yaxshilashni, kanallarda suv shimalishiga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni, sug'oriladigan yerlarda drenaj qurilishini, yerlarni kapital rejalashtirishni, sug'orish texnikasini takomillashtirishni, yerlar melioratsiya xolatini yaxshilashni hamda yangi qurilishga nisbatan eng kam kapital qo'yilmalar bilan sug'orma dehqonchilik samaradorligini ancha oshirish imkonini beradigan tadbirlarni ta'minlaydi. Ishlab turgan ob'ektlarni qayta qurollantirish va rekonstruktsiya qilishga katta ustunlik berilmoqda. Melioratsiyaga ajratiladigan kapital qo'yilmalar umumiy summasidan 70% gachasi ishlab turgan tizimlarni rekonstruktsiya

qilishga yo'naltirish tavsiya etiladi.

Melioratsiya tizimlarini rekonstruktsiya qilishga kapital qo'yilmalar samaradorligi umumiyligi (mutloq) iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi yordamida baholanadi. Rekonstruktsiyadan olingan samara rekonstruktsiyadan keyingi ko'rsatkichlarni undan ilgarigi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Melioratsiya tizimi rekonstruktsiya qilinayotganda melioratsiyalangan yerlarning bir qismini qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqarish talab etilsa, bu yerlardan chala foydalanilganligi natijasida xo'jaliklar ko'rgan zarar miqdori xisobga olinishi kerak. Bu holda rekonstruktsiyadan keyin olingan iqtisodiy samara umumiyligi summasidan melioratsiya tizimi rekonstruktsiya qilingan davridagi chala olingan sof daromadni chiqarib tashlash kerak bo'ladi.

Melioratsiya tizimini rekonstruktsiya qilish ayrim inshootlar va ob'ektlarni tugatishni talab qilganida ularning qoldiq qiymati rekonstruktsiya qilishga kapital qo'yilmalarga qo'shish kerak.

Sug'orish tizimini texnika jihatdan takomillashtirishga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagilardan olingan ayrim samaralardan tarkib topadigan jamlama samarani hisobga olish kerak:

KZI ni oshirish hisobiga sug'oriladigan maydonni kengaytirish, tarmoq KPD ni oshirish hisobiga sug'oruv suvi yo'qotilishini kamaytirish;

Kanallarni tozalashdagi ishlar sermehnatligini kamaytirish;

Tizim va boshqa ob'ektlar gidrotexnika inshootlari xizmat qilish muddatini ko'paytirish.

Sug'orish tizimini texnika jihatdan takomillashtirishga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagilarni aniqlash zarur:

Tizimni takomillashtirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha rekonstruktsiya qilishdan olingan samara;

Jamlama (yig'indi) yillik samara;

Jamlama yillik samara bo'yicha rekonstruktsiya qilishga kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplashi muddati.

Sug'orish tizimlarini takomillashtirish ayrim yo'nalishlari bo'yicha rekonstruktsiya qilishidan olingan samarani aniqlash.

A) yerdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish hisobiga sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirishdan olingan samara; tizim KZI rekonstruktsiyadan keyin quyidagilarni tashkil etadi:

$$W_{pq} = W_{Q\Delta W}$$

Bunda Wr-rekonstruktsiyagacha bo'lган tizimning KZI si;

$\Delta W$ -rekonstruktsiya natijasini KZI ning o'sishi.

Sug'oriladigan yerlar maydoni (netto) tizim rekonstruktsiya qilingandan so'ng quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{nt} r q F_{br} - Wr$$

Bunda:  $F_{nt} r$  – rekonstruktsiyadan so'ng sug'oriladigan netto maydon, ga;

$F_{br}$  – sug'oriladigan brutto maydon, ga

Sug'oriladigan maydon o'sishi (netto) tizim rekonstruktsiyalanishi natijasida quyidagini tashkil etadi:

$$\Delta F_{nt} r q F_{nt} r - F_{nt}$$

Bunda:  $F_{nt}$  – rekonstruktsiyagacha bo'lган sug'oriladigan netto maydon. ga

Sof daromad ko'payishiga ko'ra KZI oshishi hisobiga sug'oriladigan maydon kengayishidan olinadigan yillik samara (Ekzi) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Экзи} = \Delta D_{ch} * \Delta F_{nt} r$$

Bunda:  $\Delta D_{ch}$  – yillik sof daromad o'sishining sug'orishdan olingan summasi, so'mG'ga.

b) shaxobcha KPDsi oshishi hisobiga sug'oruv suvi yo'qolishlari pasayishidan olinadigan samara. Shaxobcha KPDsi rekonstruktsiyadan keyin quyidagini tashkil etadi:

$$N_{rq} N Q \Delta N$$

Bunda:  $N$  - rekonstruktsiyadan keyingi shaxobcha KPD; si:

$\Delta N$  - rekonstruktsiya natijasida shaxobcha KPD sining o'sishi.

Sug'orish uchun kerakli suv miqdori tizim rekonstruktsiyasigacha va undan keyin quyidagicha aniqlanadi:

$$W_{br} = \frac{\mu^* F_{nt}}{n}$$

$$W_{br,r} = \frac{\mu^* F_{ntr}}{n_r}$$

Bunda:  $W_{br,r}$  – sug'oruv suvning (brutto) tizim rekonstruktsiyasiga va undan keyingi miqdori, ming  $m^3$ ;

$F_{ntr}$  – rekonstruktsiya o'tkazilgan maydon. ga.

$\mu$  – o'rtachalashtirilgan sug'orish me'yori,  $m^3 G'$  ga.

Sug'orish tizimi texnika jihatdan takomillashtirilishi natijasidagi yo'qotishlar kamayishidan suv tejash hajmi ( $\Delta W_p$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta W_{rq} = W_{br} - W_{br,r}$$

Kanallar shaxobchasi KPDsi oshishi hisobiga olingan iqtisodiy samara  $1m^3$  sug'oruv suvi tannarxi va yo'qotishlar kamayishidan olingan suv miqdori bo'yicha aniqlanadi:

$$E_{kp} = \frac{C}{\Delta W_p}$$

Bunda:  $S$  – sug'oruv suvi tannarxi, sumG'  $m^3$ ;

v) kanallar tozalash ishlarining sermehnatligini kamaytirishdan olingan samara. Mehnat unumdarligi oshishi natijasida sug'orish va kollektor–drenaj shoxobchasida bevosita sarflar hamda ustama xarajatlar tejami sodir bo'ladi.

Mehnat unumdarligi oshishi natijasida bevosita sarflar tejami (Epz) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\exists n_3 = \left(1 - \frac{100 + \Delta 3n}{100 + \Delta B}\right) a * 3np$$

Bunda:  $Z_{zp}$  – asosiy ish xaqining o'sishi, %da ( $0,2 : 0,3$  q v qabul qilinadi)

$\Delta V$  – mehnat unumdarligining o'sishi, %da;

a- bevosita sarflar summasidagi asosiy ish haqi ulushi

(0.2 : 0.4 qabul qilinadi);

Zpr-kanallarni tozalashga bevosita sarflarning boshlang'ich darajasi.

Mehnat unumdorligi oshishi va kanallarni tozalash ishlari sermehnatligining kamayishi natijasida ustama xarajatlar tejami (Enr) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$En.r q \beta^x Zpz Q \lambda^x Tr$$

Bunda:  $\beta$  - bevosita sarflar kamayganida ustama xarajatlar ulushining pasayshi (0.15 qabul qilinadi);

$\lambda$  - ishlaringning sermehnatligi kamayganda ustama xarajatlar pasayishining yiriklashtirilgan me'yori;

Tr - kanallarni tozalashda ishlar sermehnatligining pasayishi.

g) gidrotexnika inshootlari xizmat qilish muddati uzayishidan olingan samara. Sug'orish tizimi ayrim elementlari uzoqqa chidashining oshishidan olinadigan samara hajmi tizimning xizmat qilish muddati uzayadigan inshootlari bo'yicha turli vaqtdagi kapital qo'yilmalar farqi sifatida aniqlanadi. Gidrotexnika inshootlari xizmat qilishi muddatining oshishi kapital qo'yilmalar shu muddatga yangi sarflarni go'yo xalos qilishiga tengdir. Kelgusi yillar sarflarini tadbirlar joriy etila boshlashiga keltirish uchun keltirish koefitsiyenti

$$B = \frac{1}{(1 + Eh_u)^t}$$

qo'llaniladi. Turli vaqtdagi sarflarni keltirishning me'yoriy koefitsiyenti (Yeniq 0,08) o'z iqtisodiy mazmuniga ko'ra kapital qurilishga sarflanishi kerak bo'lган uzoq muddatli kredit foiziga o'xshaydi. Joriy qilish momentiga keltirilgan sarflar (Kpr) summasi Kpr q  $K^x V^r$  ni tashkil etadi. Bunda  $B^t$ -015 deb qabul qilinadi.

Inshootlar uzoq vaqt ishlashi oshishidan olinadigan samara (Ek) kapital sarflar farqi bo'yicha aniqlanadi:

$$Ek q K - Kpr$$

Jamlama (yig'indi) yillik samarani (E) aniqlash. Sug'orish tizimini rekonstruktsiyalashdan olinadigan yig'indi yillik samara tizimni takomillashtirish bo'yicha

ayrim yo'nalishlarning samaralaridan tarkib topadigan summadan iboratdir. Samara miqdori KZI (Ekzi) oshishi hisobiga sug'oriladigan maydon kengayishidan olingan qo'shimcha sof daromad. Sug'orish tizimini ishlatish joriy sarflari tejami (Ekpd-Epz-Epr) hisobiga, gidrotexnika inshootlari xizmat qilishi muddati oshishidan olinib, iqtisodiy samaradorlik me'yoriy koeffitsiyenti ( $Yen^x Ek$ ) bo'yicha yillik xajmlilikka keltirilgan samara bilan aniqlanadi. Bunda jamlama samaradan tizim rekonstruktsiya qilinayotgan (Ur) davrida yerlardan chala foydalanish natijasida xo'jalik ko'rgan zarar miqdori chiqarib tashlanishi kerak.

$$E = \frac{K + \Phi_{ocm}}{\varTheta}$$

Jamlama yillik samara bo'yicha rekonstruktsiyaga kapital qo'yilmalarni o'zini-o'zi qoplash muddati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{K + \Phi_{ocm}}{\varTheta}$$

Bunda—T o'zini-o'zi qoplash muddati; K-kapital qo'yilmalar miqdori: Fost-tizim rekonstruktsiyasi o'tkazilishi natijasida tugatiladigan gidrotexnik inshootlarni qoldiq qiymati.

## 8.6. Sug'orish texnikasini iqtisodiy baholash

Yerlar melioratsiyasining rivojlanish bilan sug'orish va yomg'irlatish texnikasi miqdori muttasil ko'payib bormokda. Shu bilan birga hozirgi fan-texnika taraqqiyoti sharoitida yangi texnikani joriy qilish va ishlab turganlarini modernizatsiyalash yo'li bilan melioratsiya texnikasini yangilash jarayoni jadallashmokda.

Keng ma'noda yangi texnika deyilganda ishlab chiqarish texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlaydigan mehnat va ishlab chiqarishning ancha mukammal texnologik jarayonlaridan foydalanish tushiniladi.

Suv-melioratsiya ishlab chiqarishiga yangi texnikani joriy qilish yangi melioratsiya mashinalari, qurilish konstruktsiyalari, gidrotexnika inshootlari yaratish va ulardan foydalanish, yangi materiallarni qo'llanish, yangi texnologik jarayonlarni joriy qilish va ishlab turganlarini takomillashtirish asosida sodir bo'lmoqda.

Sug'orish mexanizatsiyasi vositalarini qo'llanish sharoitlari juda xilma-xildir. Bu

konkret sharoitlar uchun iqtisodiy jihatdan samarali sug'orish va yomg'irlatish mashinalari va qurilmalarini tanlashni talab etadi. Samarali variantlarni tanlash texnik, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikka asoslanishi kerak. Iqtisodiy jihatdan baholash sug'orishning ancha unumdar texnologiyasi va ancha ilg'or texnikasini tanlashning muhim shartidir.

Sug'orish yangi texnikasini tanlash uchun ham nisbiy, ham umumiyligi (mutloq) iqtisodiy samaradorlik usullari qo'llaniladi.

Sug'orish texnikasini tanlashni qabul qilingan uslubiyotga ko'ra umumiyligi (mutlok) iqtisodiy samaradorlik asosida o'tkazish kerak. Bunda eng ko'p sof daromad (Emak) samaradorlik mezoni etib olinadi. Eng qulay variant quyidagi shartlardir:

Emak q S – (S Q Yen<sup>x</sup> K)

Bunda: S - qo'shimcha mahsulot qiymati, sum;

Bu usulni qo'llanish uchun sug'orishdan olinadigan butun samarani sug'orish texnikasi hisobiga o'tkazish kerak.

Ko'pincha shunday ham bo'ladi, sug'orish texnikasining taqqoslanadigan variantlari hosildorlik ko'payishiga muhim ta'sir o'tkazmaydi. Bunday holda yaxshi variantni tanlash keltirilgan sarflar mezoni bo'yicha nisbiy baholash asosida o'tkazilishi kerak. Bunda kapital qo'yilmalar nisbiy iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyotining asosiy qoidalari bilan birga sug'orish texnologiyasi va texnikasining xususiyatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu xususiyatlar sug'orish va yomg'irlashtirish texnikasining ishi sug'orish shaxobchasi va nasos kuch uskunasi ishlab turganda amalga oshirilishida ifodalanadi. Shunda ichki xo'jalik shaxobchasing asosiy o'lchamlari ko'p darajada sug'orish texnikasi bilan aniqlanadi.

Sug'orish va yomg'irlashtirish mashinalari hamda qurilmalari turlicha unumdarlikka ega bo'ladi. Bunday holda nisbiy samara ish birligi hisobidagi ulushli ko'rsatkichlarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishdagi ishning taqqoslanadigan birligi etib shartli gektar sug'orishni olish kerak. Sug'orishning shartli me'yori etib yetakchi ekinni sug'orish me'yori olinadi.

Sug'orishning yangi texnikasini yaratish va joriy qilish samaradorligi texnikaning texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlari bazaviy va yangi variantini taqqoslash yo'li bilan

aniqlanadi. Optimal variantini tanlash quyidagi bir qancha variantlar asosida o'tkaziladi:

mahsulot ishlab chiqarishning hosildorlik o'sishi, shoxobcha KZIsi va KPDSi  
oshishi hisobiga ko'payishi;

sug'orishdagi mehnat unumdorligining oshishi;  
maydon birligiga sug'orish tannarxining kamayishi;  
keltirilgan sarflarning kamayishi.

Sug'orishning maydon birligidan mehnatning katta unumdorligi va oz sarflar bilan eng ko'p qishloq xo'jalik mahsuloti olinadigan texnikasi tanlab olinadi.

Bu masala yechimining iqtisodiy soxasi yetishtiriladigan ekinlar agrotexnika talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi kerak. Bunda variantlarning mahalliy tabiiy sharoitlar, almashlab ekishlar, ekinlarni sug'orish me'yori va muddatlari, bir nomdag'i ekinlar hosildorligi va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra taqqoslanishini hisobga olish kerak.

Yangi texnikani joriy qilishning maqsadga muvofiqligi korxona yoki halk xo'jaligi yangi texnikani ishlab chiqarish va undan foydalanish natijasida oladigan ishlab chiqarish resurslari (jonli mehnat, ishlab chiqarish va kapital qo'yilmalar chiqimlari) jamlama tejamidan iborat yillik iqtisodiy samara asosida aniqlanadi. Yillik iqtisodiy samara ish birligi hisobida bazaviy va yangi texnika bo'yicha hisoblangan sermehnatlik, tannarx hamda keltirilgan sarflar ko'rsatkichlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligi birinchi galda undan foydalanish natijalariga ko'ra baholanadi. Mashinalarni ishlatalish chiqimlari qiymat shaklida namoyon bo'ladi va butun (jonli va avvalgi) ishtimoiy mehnat sarflarini xarakterlaydi. Ular sug'orma dehqonchilik mahsuloti tannarxiga tarkibiy qism bo'lib kiradi. Gektar sug'orish tannarxi xisobi sug'orish texnikasini qo'llanishi iqtisodiy samaradorligini aniqlashning zarur elementi hisoblanadi.

Sug'orish tannarxini hisoblash uchun bazaviy va yangi yomg'irlatish mashinasi turlari bo'yicha yillik chiqimlarni aniqlash kerak bo'ladi. Shartli gektar-sug'orish tannarxi ish birligi sifatida kalkulyatsiya qilinadi.

Sug'orish tannarxini pasaytirishdan olinadigan yillik iqtisodiy samara (Es) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

### Es q (Sb - Sn) <sup>x</sup> Atn

Bunda: Sb va Sn – bazaviy va yangi mashina yangi shartli gektar sug'orishining tannarxi, sumG's. ga – pol;

Atn – yangi mashina bajargan ishlarining yillik hajmi, s / ga – pol.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish sermehnatli jarayondir. Shuning uchun mehnat unumdorligini oshirish ko'rsatkichi sug'orish texnikasini baholash uchun katta ahamiyatga egadir. Sug'orma dehqonchiligidagi texnika taraqqiyotining asosiy yo'naliшlaridan biri ish sermehnatligini kamaytirishni ta'minlashi lozim bo'lgan yuqori unumdar texnikani joriy qilishdir. Tahlil qilinadigan variantlar gektar sug'orishining sermehnatligi bo'yicha yangi texnika bilan sug'oriladigan sug'orish hisobli maydoniga qilingan mehnatning yillik tejami aniqlanadi. Yangi texnikani qo'llanishi mehnatning yillik tejamiga olib keladi:

### Et q (Tr.b – Tr.n) <sup>x</sup> At.n

Bunda: Et – yangi mashina joriy etishdan kelgan jonli mehnatning yillik tejami, kishi – soat;

Tr.b va Tr.n – bazaviy va yangi mashina ishi (sermehnatlilik) birligiga mehnat sarflari, kishi – soat / s. ga – pol.

Yangi sug'orish texnikasi ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsuloti miqdoriga bevosita ta'sir o'tkazmasa, variantni tanlash keltirilgan sarflar eng kam summasi bilan aniqlanadi, yillik iqtisodiy samara (Ezp) esa ularning tafovuti bo'yicha hisoblanadi:

### Ezn q (Sb Q Yen <sup>x</sup> Kb) – (Sn Q Yen <sup>x</sup> Kn) <sup>x</sup> At.n q (Zp.b – Zp.n) <sup>x</sup> At.n

Bunda: Kb va Kn – sug'orish bazaviy va yangi texnikasining ulushli kapital qo'yilmalari, sum / s. ga – pol.

Zpb-bazaviy texnika bo'yicha keltirilgan harajat, so'm;

Zpn-yangi texnika bo'yicha keltirilgan xarajat; so'm.

Yangi texnika sug'orishda mehnat unumdorligini oshirgan va qishloq xo'jalik ekinlari maxsulorligi hisobiga mahsulot miqdori oshgan hamda yerdan foydalanish koeffitsiyenti o'sgan hollarda takkoslanadigan variantlarni qiyoslanadigan ko'rinishga keltirish kerak. Bunda eng ko'p samarani ta'minlovchi keltirilgan sarflar asos kilib olinadi.

Yaxshilangan sifat xarakteristikalariga ega bo'lgan yangi texnikadan

foydalanimishning yillik iqtisodiy samarasini xisobilashda ikki sohada yangi texnikani ishlatish soxasida hamda qo'shimcha qishloq xo'jalik mahsuloti olish soxasida olinadigan iqtisodiy samarani hisobga olish zarurdir. Bazaviy variantni qiyoeslanadigan ko'rinishga keltirish uchun keltirilgan sarflarga pirovard samaraning taqqoslanadigan variantlardagi tengligini ta'minlaydigan koeffitsiyentlarni kiritish kerak. Mazkur holda bazaviy variantning keltirilgan sarflariga mehnat unumdarligi o'sishi koeffitsiyentini va yangi texnikani qo'llanishi hisobiga hosildorlik oshishi koeffitsiyentini kiritish, yillik iqtisodiy samarada esa sug'orish yangi texnikasida shoxobcha KZI va KPDsi oshish hisobiga olingan qo'shimcha sof daromadni hisobga olish zarur.

Yaxshilangan sifat xarakteristikalariga ega bo'lган yangi sug'orish texnikasini joriy qilishdan olingan yillik iqtisodiy samara ( $E$ ) xisobi quyidagi formula bo'yicha o'tkaziladi:

$$\mathcal{E} = \left( \frac{B_H}{3\eta\delta - B\delta} - \frac{I_H}{I\delta} \right) A_{m,H} + \Delta D_C$$

Bunda:  $V_n$   $G'$   $V_b$  – yangi texnikaning bazaviy texnikaga nisbatan unumdarligi o'sishi uchyoitining koeffitsiyenti;

$V_n$  va  $V_b$  – sug'orish yangi va bazaviy texnikasining yillik ishlab chiqarishi s ga – pol;

$S_n G' T_S b$  – qishloq xo'jalik ekinlari xosidorligi oshishi hisobiga mahsulot ishlab chiqishi o'sishi uchyoitining koeffitsiyenti;

$S_n$  va  $S_b$  – sug'orish yangi va bazaviy texnikasini qo'llanib ishlab chiqilgan mahsulot qiymati, so'm  $G'$  ga;

$\Delta D_C$  – sug'orish yangi texnikasini bazaviy texnikaga nisbatan qo'llanish natijasida shaxobcha KZIsi va KPDsi oshishi hisobiga olingan qo'shimcha sof daromad, sum.

Sug'orish texnikasining nisbiy iqtisodiy samaradorligi umumiyl (mutlok) samaradorlik ko'rsatkichi bilan to'ldiriladi. Sug'orish yangi texnikasiga qo'shimcha kapital kuyilmalarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi yillik iqtisodiy samara bo'yicha aniqlanadi:

$$E = \frac{\mathcal{E}_{n3}}{K}$$

Yangi sug'orish mashinasini baholashda metall sig'imi, energiya sig'imi, quvvat birligining ulushli qiymati va boshqa ko'rsatkichlar singari texnika–iqtisodiy ko'rsatkichlar

ham aniqlanadi.

## **8.7. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimining tejamliligi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, bir qancha vazifalarning kompleks ravishda hal etilishi bilan aniqlanadi. Jamlama samara suv ta'minoti manbaini optimal tanlashga, suv olish inshootining tipiga, suv berishni tozalash sxemasiga bog'liq bo'ladi.

Vodoprovodlarni loyihalashda tizim asosiy inshootlari variantlarini texnika-iqtisodiy jihatdan asoslashga alohida e'tibor beriladi. Loyihaning optimal yechimi keltirilgan sarflar eng kam summasi bo'yicha qiyoslama baholash asosida belgilanadi.

Suv ta'minoti tiziminingtanlangan varianti umumiyligi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda bir kancha iqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Ularga vodoprovodlarning tabiiy va qiymat ko'rinishidagi yillik unumidorligi, yillik ekspluatatsion sarflar va  $1 \text{ m}^3$  suvning tannarxi, kapital qo'yilmalar foydasi va rentabelligi, o'zini-o'zi qoplashi muddati va hokazolar kiradi.

Vodoprovod samaradorligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi istemolchilarga berilgan  $1\text{m}^3$  suvini tannarxidir.  $1\text{m}^3$  suvning tannarxi vodoprovod ( $Q_g$ ) yillik chiqimlari ( $I_g$ ) va yillik unumidorligi bo'yicha aniqlanadi:

$$C = \frac{I_g}{Q_g}$$

Suvning yillik berilishi qiymati belgilangan tarif ( $S$ ) va vodoprovod o'rtacha yillik unumidorligi  $AvgS^x Q_g$  bo'yicha aniqlanadi. Suv tarifi suv berish tannarxi va rentabellikni ta'minlash uchun 5% hajmidagi me'yoriy foyda asosida belgilanadi. Lekin suvning hisoblangan tarifi mazkur rayon uchun belgilangan xajmdan ortik bulmasligi kerak.

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimining iqtisodiy samarasini vodoprovodni ishlatishdan olingan foyda miqdori hamda suv ta'minoti yaxshilanishi va suv sifati oshishi natijasida namoyon bo'ladigan xo'jalik hisobi samarasini bilan aniqlanadi.

Vodoprovod foydasi ( $P$ ) iste'molchilarga o'rtacha yilda suv berish qiymati ( $S_v$ ) bilan vodoprovodni ishlatish chiqimlari yillik summasi ( $I_g$ ) o'rtasidagi tafovut tarzida

aniqlanadi:

P q Sv - Ig

Ishlab chiqarish ob'ektlari va aholining suv ta'minoti yaxshilanishi natijasida qishloq xo'jalik korxonasi sanitariya sog'lomlashtirish tadbirlari (Eso) yaxshilanishi, jamoat chorvachiligining mahsuldorligi (Ej) oshishi; suvning yaxshilanishi (yumshashi) (Ekv) tufayli namoyon bo'ladigan boshqa bilvosita iqtisodiy samara (Epr) oladi:

Epr q Eso Q Ej Q Ekv

Markazlashtirilgan suv ta'minotida sanitariya-gigiyena sharoitlarining yaxshilanishi aholining kasallanishi har bir xodim hisobida yiliga 2 kun kamayishiga olib keladi:

Eso q 2<sup>x</sup> Zzp<sup>x</sup> Chg

Bunda: Eso-markazlashtirilgan suv ta'minotidan keladigan samara. so'm

Zzp-o'rtacha kunlik tarif stavkasi, sum;

Chg—markazlashtirilgan suv ta'minotiga ega bo'lган о'rtacha yillik xodimlar soni, kishi.

Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish ilmiy—tadqiqot institutining ma'lumotlariga ko'ra chorvachilik fermalarining markazlashtirilgan suv ta'minoti sigirlar mahsudorligini 15%, mol semirishini 20% oshiradi. Suv ta'minoti hisobiga erishiladigan samara qo'shimcha mahsulotining 50% mikdorida bo'ladi.

Ej q 0,5<sup>x</sup> Sj<sup>x</sup> Aj

Bunda: Ej-chorvachilik fermalarini markazlashtirishdan keladigan samara, so'm.

Sj – 1s chorvachilik mahsulotining xarid narxi, sum;

Aj—suv ta'minoti hisobiga qo'shimcha olingan chorvachilik mahsulotining mikdori, s.

Suv sifati (yumshash) yaxshilanishining iqtisodiy samarasi, avvalo, avto-traktor parkini ishlatish yaxshilanganligida namoyon bo'ladiki, bu narsa uning ta'mirlash mablag'lari tejalishiga olib keladi. Ilmiy—tadqiqot muassasalarining ma'lumotlariga ko'ra suvning yumshashi texnika ta'mirlash sarflarining 15-20% kamayishiga yordam beradi.

Ekv q 0,5<sup>x</sup> Yen<sup>x</sup> F<sup>x</sup> Akr

Bunda: F – mashina–traktor parkining balansli qiymati, ming sum;

Akr – kapital ta'mirlash amortizatsiya ajratmalarining me'yori.

Vodoprovod qurilishiga kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplash muddati foyda va

bevosita samara summasi bo'yicha aniqlanadi:

$$T = \frac{K}{\Pi + \mathcal{E}np}$$

## **8.8. Suv toshqiniga qarshi tadbirlar iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Aholi yashaydigan punktlarni, ishlab chiqarish korxonalarini, qishloq xo'jalik yersuvarini suv bosishidan saqlash uchun toshqinga qarshi gidrotexnika inshootlari (PPGS) quriladi. Toshqinga qarshi inshootlar tipini tanlash konkret mahalliy sharoitlar hisobga olingan holda turli variantlarning texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlarini qiyoslash asosida o'tkaziladi.

Toshqinga qarshi inshootlar ko'p hollarda kompleks yo'nalishda bo'ladi. Shuning uchun birinchi galda xar bir ayrim komponentga to'g'ri keladigan kapital qo'yilmalar ulushini aniqlash kerak bo'ladi. Toshqinlarga qarshi bevosita kurashish uchun mo'ljallangan inshootlar qurilishi sarflari miqdorini bilgan holda ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin.

Bu qurilishlarga kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligi ular o'zini-o'zi qoplashining eng oz muddati bilan xarakterlanadiki, bu muddat quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$T = \frac{K}{D_u + I_n + 3\pi n - Y_{nrc} - Y_{nrc}}$$

Bunda K-bevosita toshqinlarga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan

PPGS qurilishiga kapital qo'yilmalar miqdori.

Dch-suv omborining toshqinga qarshi hajmi ishlanishi prizmasi suvlaridan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan sof daromad.

Ip-PPGS qurilishidan ilgari toshqinlar yetkazadigan o'rtacha yillik zarar summasi.

Zlpp-toshqinlar yetkazgan zararlarni tugatish shartlari.

Uppgs-PPGS qurilishi natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan o'rtacha yillik zarar summasi.

Ippgs- PPGS ni ishlatish bo'yicha yillik chiqimlar.

PPGS qurilishidan ilgari toshqinlar yetkazadigan o'rtacha yillik zarar miqdori

qishloq xo'jalik korxonalarini, sanoat korxonalarini, aholi yashaydigan punktlar, temir va tosh yo'llar zararlaridan tarkib topadi.

PPGS qurilishidan keyin yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar bevosita inshootlar qurilishiga yerlar ajratilishida, shuningdek inshootlardan quyi maydon bir qismining suvga bostirilishida hamda kayir maysazor va o'tloqlar hosildorligi kamayishida ifodalanadi.

Toshqinlar halq xo'jaligigagina iqtisodiy zarar keltirib qolmay, balki aholiga ham ma'naviy zarar keltirishi xisobga olinib, PPGS ga kapital qo'yilmalar o'zini-o'zi qoplashining oxirgi muddati 20 yilgacha etib qabul qilinadi.

## **Qisqacha xulosalar**

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalar samaradorligining mohiyati qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi saqsadi bilan belgilanadi. Hozirgi kunda mahsulot birligiga eng kam sarflar bilan qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, muttasil o'sib borayotgan, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga ko'p darajada ko'maklashadigan narsalar samaralidir.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarishga sarflangan jonli va ijtimoiy mehnat tejami ishlab chiqarish samaradorligini eng to'la aks ettiradi.

Melioratsiyaga kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va melioratsiya fondlarining xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Samara melioratsiya tizimi yerlar o'zlashtirish va ishlab chiqarish yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi fondlari bilan ta'minlashga bir yo'la sarflar jami xarajatiga ko'ra aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti o'zini-o'zi qoplash muddatiga teskari miqdor bo'lib, yillik sof foydaning kapital qo'yilmalarga nisbati bilan aniqlanadi.

Keltirilgan sarflar o'z e'tibori bilan yillik joriy chiqinlar hamda samaradorlik me'yoriy koeffitsiyentiga muvofiq yillik hajmlilikka keltirilgan kapital qo'yilmalar yig'indisidir.

Yerlar melioratsiyasiga kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samarasini melioratsiya o'tkazilishigacha va undan keyin olingan ko'rsatkichlarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

## **Tayanch so'zlar**

Kapital qo'yilmalar, melioratsiya, samara, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik darjasini, qurilish lagi, o'zlashtirish lagi, kapital qo'yilmalarning o'zini-o'zi qoplash muddati, iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti, keltirilgan sarflar, qurilish montaj ishlari, tugallanmagan qurilish, ishlab chiqarish chiqimlari, sof daromad, sof foya, rentabellik darjasini, melioratsiya tizimi, rekonstruktsiya, foydali ish koeffitsiyenti, kollektor, zovur

irrigatsiya inshootlari, sug'orish texnikasi va texnologiyasi, yangi texnika, yangi texnologiya.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yerlarni melioratsiyalashtirishning ahamiyati va mohiyati.
2. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Kapital qo'yilmalarning mutloq samaradorligini aniqlash.
4. Kapital qo'yilmalarning nisbiy samaradorligini aniqlash.
5. Meliorativ tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.
6. Qurilish lagini va o'zlashtirish lagini aniqlash uslublari.
7. Sug'orish texnikasini iqtisodiy baholash.
8. Suv toshqiniga qarshi tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1993.
2. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.

### **IX BOB. Melioratsiya texnikasidan foydalanish iqtisodiyoti**

#### **9.1. Suv-melioratsiya qurilishini kompleks mexanizatsiyalashning iqtisodiy asoslari**

Suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishining g'oyat katta ko'lamlari gidromelioratsiya tizimlari va melioratsiyalangan yerlarni ishlatish tobora kengayib borayotganligi qurilish hamda melioratsiya texnikasini ishlab chiqarishni muttasil ko'chaytirishni talab qiladi.

Melioratsiya texnikasining o'sishi qishloq xo'jaligi iqtisodiy ehtiyeji bilan bevosita bog'liqdir. Melioratsyaning rivojlanishi, o'z navbatida, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti darajasining o'sishiga ta'sir o'tkazadi.

Buyumli mazmuniga ko'ra mashina mehnatning mexanik vositalarida buyumlashgan avvalgi mehnatdir. U ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladi. Mehnat vositalari o'z xolicha sotsial negizga ega bo'lmaydi, ular buyum tarzida namoyon bo'ladi. Lekin mashinaning ijtimoiy yo'nalishi va uning qo'llanish xarakteri jamiyat strukturasi hamda ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi.

Melioratsiya qurilishini mexanizatsiyalashning kompleks dasturi yer, beton va montaj ishlarining, shuningdek melioratsiyalanadigan yerni o'zlashtirish ishlarining katta xajmlarini bajarish bilan bog'liqdir. Hozirgi vaqtida suv xo'jaligi deyarli butunlay hozirgi zamon mashina texnikasi negizida olib borilmoqda.

Mashinalarning asosiy yo'nalishi qishloq va suv xo'jaligi xodimlarining mehnatini yengillashtirish xamda avaylash, uni ancha unumdor qilish, ishlar texnologiyasi va sifatini yaxshilash, ish davrini kamaytirish va shu bilan dehqonchilik unumdorligini oshirish xamda mahsulot tannarxini pasayishiga yordam berishidir.

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish–bu qo'l mehnatini mashinalar bilan, kam takomillashgan mashinalarni ko'p takomillashgan mashinalar bilan, ayrim tarqoq mashinalarni mashinalar tizimi bilan almashtirishdir.

Melioratsiya qurilishida 1965 yildan 1996 yilgacha bo'lgan davr mobaynida yer ishlarini mexanizatsiyalash darajasi 94,8% dan 99,8% gacha, qurilish konstruktsiyalarini montaj qilish darajasi 71,1% dan 93,6% gacha, beton tayyorlash darajasi 72,9% dan 90,1% gacha o'sdi.

Suv-melioratsiya va qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalash darajasining o'sishi mehnat unumdorligini oshirish hamda qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishning muhim omili xisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash rivojlanish darajasiga ko'ra qisman mexanizatsiyalashgan, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga bo'linadi.

Qisman mexanizatsiyalashda asosiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishlargina bajariladi. Kompleks mexanizatsiyalash barcha asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini mashinalar yordamida olib borishni ko'zda tutadi. Qo'l mehnati esa mayda yordamchi operatsiyalardagina qo'llaniladi.

Sug'orish va zax qochirish tizimlaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash hamda avtomatlashtirish suv-melioratsiya qurilishidagi texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Suv-melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash darajasi va korxonalarning jihozlanishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi ishlarni mexanizatsiyalash koeffitsiyenti, kompleks mexanizatsiyalash koeffitsiyenti, mexanizatsiya bilan qurollanish va energiya bilan qurollanish ko'rsatkichlari.

Mexanizatsiyalash koeffitsiyenti mexanizatsiyalangan ishlar hajmining tabiiy ko'rinishida bajarilgan ishlar umumiy xajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Kompleks mexanizatsiyalash koeffitsiyenti kompleks mexanizatsiyalashgan ishlar xajmining tabiiy ko'rinishida mexanizatsiyalangan ishlar hajmiga nisbati bilan hisoblab chiqiladi.

Yangi texnika joriy qilinishi natijasida qurilish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash darajasi 94-96% gacha o'sdi, qo'l mehnatining ulushi ancha kamaydi.

Mexanizm bilan qurollanganlik ko'rsatkichi melioratsiya mashinalari va mexanizmlarining o'rtacha xodim hisobidagi qiymatini xarakterlaydi. U mashina va mexanizmlar balansli qiymatining mazkur ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Yer va suv-melioratsiya ishlari katta energiya sig'imli ishlardir. Shuning uchun suv-melioratsiya ishlab chiqarishda mehnatning energiya bilan qurollanganlik ko'rsatkichi korxonalar xo'jalik faoliyatini taxlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi. U mashinalarning iste'mol qilinadigan quvvati o'sishi bilan mehnat unumдорлиги oshishi o'rtasidagi bevosita aloqani xarakterlaydi.

Mehnatning energiya bilan qurollanganligi mazkur ishlab chiqarishda band bo'lgan bir xodimga to'g'ri keluvchi foydilанидиган mashina va mexanizmlarida o'rnatilgan dvigatellar jami quvvati bilan aniqlanadi.

Mehnatning mexanizm bilan quollanganligi va energiya bilan quollanganligining o'sishi mehnat unumdorligi oshishining asosiy omili xisoblanadi.

Mehnatning energiya bilan quollanganlik darajasining o'sishi, barcha ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va elektrlashtirish uchun mashinalar tizimiga tayanadigan ishlab chiqarishning potok-industrial usullarini qo'llanish melioratsiya texnikasi taraqqiyotining asosiy yo'naliшlaridat.

Yaqin kelajakda yerlarni melioratsiyalash, mashinalarini joriy qilish, kultertexnik ishlarni amalga oshirish, maysazorlar va o'tloqlarni tubdan yaxshilash, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishni mexanazatsiyalash, o'tloqlarga suv chiqarish, tuproqning suv hamda shamol erroziyasiga qarshi kurashish, zaxi ko'p zonalardagi ishlarni mexanizatsiyalash ko'zda tutilgan.

Mashinalar tizimi deyilganda mashinalarning mehnat predmeti turli xil, lekin bir-birini o'zaro to'ldiruvchi ishchi mashinalar zanjiri tomonidan bajariladigan o'zaro bog'liq qismiy jarayonlarning izchil qatoridan o'tuvchi mashinalar uyg'unlashuvi tushuniladi. Shunday qilib, mashinalar tizimi-bu zarur texnika parametrlari bilan o'zaro kelishtirilgan, ishlab chiqarishning yagona potok texnologiyasida qo'llanish uchun mo'ljallangan turli xil mashina va mexanizmlarning jamidir.

Yerlar melioratsiyasi va suv xo'jaligi sohasida 1975-1990 yillarga mo'ljallangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun "Melioratsiya" bo'limi bo'yicha mashinalir tizimi ishlab chiqilgan edi. Mazkur tizimga muvofiq 232 ta melioratsiya mashinasini yaratish va ishlab chiqarish tomonidan o'zlashtirish lozim edi.

Hozirgi vaqtida 1990-2000 yillarga mo'ljallangan mashinalar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim texnologik sermehnatlikni kamida 50% ga, ishlatish chiqimlarini 25-30% ga kamaytirishni ta'minlashi, shuningdek uni yaxshilash va industrial ishga aylantirish vazifalarini hal qilishga yordam berishi kerak.

Melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashni rivojlantirishga mashinasozlikning melioratsiya, qurilish va qishloq xo'jalik texnikasi ishlab chiqaradigan tarmoqlaridagi fan-texnika taraqqiyoti katta ta'sir o'tkazadi. Hozirgi vaqtida melioratsiyalanayetgan yerlardagi melioratsiya va qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashni rivojlantirish traktorlarning ayrim quvvatini oshirishga, bir o'tishda bir necha texnologik operatsiyani bajaradigan kombinatsiyalangan mashinalar yaratishga, mashinalarni boshqarish va bajarilgan ishlar

sifatini nazorat qilish uchun avtomatikani qo'llanishga, mashinalar o'tuvchanligini yaxshilashga uzellar, detallar, hamda mexanizmlarni keng unifikatsiyalashga qaratilgandir.

Yer qazish mashinalarining asosiy parametrlari quyidagicha oshishi kerak:

Kovshining sig'imi  $0.44\text{m}^3$  bo'lgan bir kovshli ekskovatorlarda  $0.7 \text{ m}^3$  gacha yoki 1.6 baravar.

Ayrim quvvati s 90 l.s. bo'lgan buldozerlarda 160 l.s. gacha yoki 1.8 baravar;

Sig'imi  $4.7 \text{ m}^3$  bo'lgan skreperlarda  $8.0 \text{ m}^3$  gacha yeki 1.7 baravar.

Mashinalar tizimini ishlab chiqishda quyidagi qoidalar hisobga olinadi:

Mashinalar tizimiga mashina va dvigatellar tiplarining eng kam soni kiradi;

Mashinalar bajaradigan ishlarni ko'paytirish yo'li bilan ulardan eng ko'p foydalanish ko'zda tutiladi.

Mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usullaridan eng ko'p foydalanish ko'zda tutiladi.

Yangi mashina va mexanizmlar ancha yuqori texnika iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak

Ayrim melioratsiya mashinalarini ham ular tizimlarining ham iqtisodiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:

Mahsulot (ish) birligi sarflarini va sermehnatatlilagini kamaytirish;

Ishlab chiqarish chiqimlari va mahsulot (ish) birligi tannarxini kamaytirish;

Mashinalar ishlab chiqarish va ularni ishlatish kompleks sarflarini kamaytirish (keltirilgan sarflarni kamaytirish)

Mashinalar sotib olish bir yo'la sarflarining o'zini-o'zi qoplashi muddatini kamaytirish;

Ishlab chiqarish jarayonining ulushli metall sig'imi va energiya sig'imiini kamaytirish.

Mashinalar tizimi ko'p yillar mobaynida o'zgarmay qola olmaydi. U muttasil takomillashib turishi kerak. Bunga ko'pgina ilmiy muassasalar jalb etilgan.

## **9.2. Melioratsiya mashinalaridan foydalanish ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslubiyoti**

Mashinalarni qo'llanishining jami samarasi ularni ishlab chiqarish va ishlatish maqsadga muvofiqligidan tarkib topadi. Lekin mashinaning ekspluatatsion hususiyatlarini uning iste'mol qiymati ancha to'la xarakterlaydi. Iste'mol qiymati mashinaning ishlatish jarayonida uning sifatini xarakterlovchi turli xil foydali xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun melioratsiya mashinalarining xalq xo'jalik samaradorligi birinchi galda ularni qo'llanish sohasida namoyon bo'ladi.

Mashinaning ishlatish xususiyatlari mashinaning texnika–iqtisodiy belgilarini xarakterlovchi mutloq va ulushli ko'rsatkichlarga ko'ra aniqlanadi. Unumdorlik, xizmat ko'rsatadigan xodimlar soni, xarakatchanlik, metall sig'imi va energiya sig'imi melioratsiya mashinasi konstruktiv–iqtisodiy xarakteristikasining asosiy parametrlaridir.

Mashina unumdorligi (ishlab chiqarishi) va ish birligining tannarxi mashinalardan foydalanishning umumlashma iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Melioratsiya mashinalari uchun unumdorlikning uch turi belgilanadi: konstruktiv, texnik va ekspluatatsion unumdorlik. Mashinaning SUV–melioratsiya ishlab chiqarishidagi ishlab chiqarish unumdorligi bir soat ichidagi  $m^3$ ,  $m^2$ , ga, t va km bilan o'lchalanadi.

Konstruktiv unumdorlik–bu ish organlari harakatining hisoblangan tezliklaridagi uzluksiz ishlashining bir soat mobaynidagi eng ko'p ishlab chiqarishidir. Bundan mashinaning u loyihalanayotgan bosqichdagi konstruktiv sifatlarini baholash uchun foydalaniladi.

Texnik unumdorlik boshqarishning, xizmat ko'rsatish va ishni tashkil qilishning eng mukammal usullaridagi konkret sharoitlarda uzluksiz (sof) ishlashining bir soati mobaynida mashinaning eng yuqori ishlab chiqarishini xarakterlaydi.

VtqV<sub>k</sub>K<sub>t</sub>

Bunda V<sub>t</sub>– mashinaning texnik unumdorligi;

V<sub>k</sub>– mashinaning konstruktiv unumdorligi;

K<sub>t</sub>–ishning konkret shartlarini hisobga oladigan koeffitsiyent.

Texnik unumdorlik ishlab chiqarish sinovlari asosida yeki hisoblangan usul bilan aniqlanadi.

Ekspluatatsion unumdorlik (V<sub>e</sub>)–mashinaning ishdagi muqarrar tanaffuslar hisobga olingan konkret sharoitlarda vaqt birligida ishlab chiqarishi;

Veq V<sub>t</sub> K<sub>v</sub> K<sub>m</sub> yeki Veq V<sub>t</sub> K<sub>n</sub>

Bunda Kv- vaqt mobaynida mashinadan foydalanish koeffitsiyenti:

Km- mashinadan quvvatiga ko'ra foydalanish koeffitsiyenti:

Kn- mashinadan foydalanishning umumiy koeffitsiyenti.

Tenglik va ekspluatatsion ishlab chiqarish o'rtasida tafovut mashinalar unumdorligini oshirishning mavjud rezervlarini ko'rsatadi.

Mashinaning ekspluatatsion unumdorligi tabiiy ko'rsatkichlardi soatli, smenali va yillik ishlab chiqarish bo'yicha aniqlanadi;

Ve.sm q Vv.ch Gsm Kn

Veg q Vt.ch Tch Kn

Bunda Ve.sm va Ve.g-mashinaning smenali, yillik ekspluatatsion unumdorligi:

Tch-mashinaning smenada, yilda ishlash soatlari soni:

Vt.ch-mashinaning texnik soatli unumdorligi:

Kn-mashinadan foydalanishning umumiy koeffitsiyenti.

Melioratsiya mashinalarining ekspluatatsion unumdorligi texnikadan intensiv va ekstensiv foydalanish omillariga bog'liq bo'ladi.

Intensiv omillar xarakatini xarakterlaydigan ko'rsatkichlarga mashinalardan unumdorligiga ko'ra foydalanish koeffitsiyenti va intensiv nagruzka koeffitsiyenti kiradi. U o'z e'tibori bilan vaqtning ayni bir davri mobaynidagi haqiqatdagi ishlab chiqarishning rejali ishlab chiqarishga nisbatini bildiradi. Bunda rejali ishlab chiqarish mashinalar quvvati xisobga olingan holda aniqlanadi.

Ekstensiv omillar xarakatini xarakterlaydigan ko'rsatkichlarga mashinalardan vaqt mobaynida foydalanish koeffitsiyenti kiradi. U mashinalar soatlardagi haqiqatdagi vaqtning yil uchun belgilangan rejali ish vaqtiga nisbati bilan aniqlanadi.

Mashina-smenalar sonini bu mashinalar ayni bir vaqtda ishda band bo'lgan mashina-kunlarga nisbati tarzida aniqlanadigan smenalik koeffitsiyenti mashinalar ishining sutkalik rejimidan foydalanish ko'rsatkichi xizmatini o'taydi.

Vaqtdan ichki foydalanishning smena davomida mashina foydali ish soatlari sonining yalpi belgilangan smena davomiyligiga nisbatini xarakterlaydigan koeffitsiyent ishning smenali rejimidan foydalanish ko'rsatkichi xizmatini o'taydi

Hozirgi vaqtda asosiy yer qazish mashinalari ishning sutkalik muddati bir kovshli ekskavatorlar bo'yicha 11,2 soatni, skreperlar bo'yicha 9,8 soatni buldozerlar bo'yicha esa

9.9 soatni tashkil etadi. Haqiqatda ishlab berilgan vaqtning ko'payishi, mashinalar to'xtab turishi barcha turlarining kamayishi va ishlar smenaliligining ko'payishi mashina parkidan foydalanish samaradorligini oshishiga yordam beradi.

Mashinalarning ro'yxatli tarkibini eng ko'p ishga tushirish melioratsiya mashinalarini yillik ishlab chiqarishning muhim sharti bo'lib, bu esa mashina parkining ishlatish tayyorligi darajasiga bog'liqdir.

Melioratsiya mashinalarining foydalanishga tayyorligi texnika tayyorligi koeffitsiyenti bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkich mashinalar shu davrda to'la tayyor holatda bo'ladigan mashina kunlarning mashina kunlar umumiyligi soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, melioratsiya texnikasidan foydalanish iqtisodiy samaradorligining oshishi mashinalarni ishlatishning tashkiliy shakllarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish va ta'mirni yaxshilash hamda mashinalar puxtaligini oshirishga bog'liq bo'ladi.

### **9.3. Melioratsiya mashinalarini ishlatish sarflari, mashina-soat chiqimlari va mexanizatsiyalangan ishlar tannarxi**

Mashina ishlab chiqarishi sharoitida suv xo'jaligi korxonalari iqtisodiyotiga mashinalarni ishlatish sarflari katta ta'sir o'tkazadi. Mashinalarni ishlatish chiqimlari doimo qiymat shaklida namoyon bo'ladi va asosiy mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Melioratsiyalangan yerlarda qishloq xo'jalik mahsuloti tannarxidagi mexanizatsiyalangan ishlar ulushi 40% va undan ko'prog'ini tashkil etadi.

Mashinalarni ishlatish chiqimlarining mohiyati ishlab chiqarishning har qanday tarmog'ida bir xil bo'lib, lekin uning namoyon bo'lish va taqsimlanish shakli turlichadir. U ishlab chiqarish shakllari va tarmoqning o'ziga xosligiga bog'liq bo'ladi.

Suv-melioratsiya ishlab chiqarishida melioratsiya mashinalarini ishlatish sarflari yillik, soatli va mahsulot birligi sarflariga bo'linadi. Mashina-soat tannarxi kalkulyatsiyalananadi.

Mashina-soat tannarxi-bu ishlatishning mashina foydali ish vaqtining bir soatiga xisoblangan sarflardir. Mashina soatning smetali, rejali va xaqiqatdagi tannarxi farqlanadi.

Smetali tannarx mashina-soatning o'rtalashtirilgan tannarx va smeta me'yorlari negizini tashkil etadigan me'yorlar asosida aniqlanadi, undan ishlarning smetali qiymatini aniqlash uchun foydalaniladi.

Mashina-soatning rejali tannarxi mashinalarni ishlatish konkret sharoitlarini muayyan uchastka, ishlar va unumdoorlik miqdorlariga bog'liq xolda hisobga oladi. U rejali me'yorlar va sarflar moddalari bo'yicha kalkulyatsiyalanadi.

Mashina-soatning haqiqatdagi tannarxi haqiqatdagi ishlatish soatlari xarajatlari bo'yicha xisoblanadi. Sarflar miqdori birlamchi va buxgalteriya uchetni materiallari bo'yicha aniqlanadi.

Mashina-soatning ishlatish chiqimlari sarflarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra bir yo'la, yillik joriy sarflardan iborat uch guruhga bo'linadigan turlaridan tarkib topadi.

Bir yo'la sarflar (Zed) mashinalarni uchastkaga yetkazish, yordamchi qurilmalarni montaj qilish va tiklash hamda mashinalarni me'yoriy ishlatish bilan bog'liq boshqa tayyorgarlik ishlarini bajarish xarajatlaridan tarkib topadi. Mashina-soat bir yo'la sarflari mazkur uchastkadagi proportsional tarzda ishlab berilgan mashina-soatlarga yoki qurilish maydonchasiga (ZedG'Tch.uch) kiritiladi.

Yillik sarflarga amortizatsiya ajratmalari kiritiladi. Ularning miqdori mashinaning birlamchi qiymati va amortizatsiya ajratmalari shartli barqaror xarajatlarga kiritiladi. Mashinalardan qancha unumli foydalanilsa, ish birligiga shu xarajatlar shuncha kam to'g'ri keladi.

Mashina-soat hisobidagi amortizatsiya ajratmalari summasi mashina ishi yillik rejimiga muvofiq ravishda xisoblangan yildagi ish mashina -soatlar miqdori (AG'Tch.g) bo'yicha aniqlanadi.

Joriy ekspluatatsion sarflar mashinalar ishi davomiyligi va bajarilgan ishlar xajmi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bu sarflar ishlar hajmiga bevomita proportsional o'zgaradi. Ular shartli o'zgaruvchi xarajatlarga kiritiladi.

Ekspluatatsion sarflar quyidagi moddalardan tarkib topadi:

Ishchilarining mashinalarni boshqarish bo'yicha ish haqi (Zzp);

Elektr energiyasi, yoqilg'i, moylash va artish materiallari qiymati (Zgsm);

Mashinalar joriy ta'miri va ularga texnika xizmati ko'rsatish sarflari; (Ztr)

Smena jixozi qiymati(Zos);

Ustama xarajatlar(Nr).

Mashina-soat chiqimlari keng ko'rinishda quyidagilarni tashkil etadi:

$$I_{M.u} = \frac{3c\partial}{T_{u.yu}} + \frac{A}{T_{u.yu}} + 33n + 3\varrho cm + 3mp + 3oc + Hp$$

Bunda Imch-mashina-soat chiqimlari

Mashinistlar ish haqi ishlar yuqori sifatli bajarilganligi va ishlab chiqarish jarayoniga mashinalar avariyalarisiz va to'xtab qolishisiz xizmat ko'rsatganlik uchun ish xaqiga 20% xajmida mukofot ustamasi qo'shilgan tarif stavkalari bo'yicha belgilanadi.

Mashinaning bir soatli ishi yonilg'i xarajati ( $Wr$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi, kg larda:

$$W_p = N_{kg} * K_{gv} [g_x Q(g_n - g_x) K_{gm}]$$

Bunda N-dvigatelning nominal quvvati, kvt;

Kd.v-vaqt mobaynida dvigateldan foydalanish, koeffitsiyenti;

$q_x$ -dvigatel salt ishlaganda 1 soat mobaynida dvigatel quvvatining 1 kVt iga yonilg'i xarajati, kg;

$q_n$ -nominal nagruzka bo'lganida 1 soat mobaynida dvigatel quvvatining 1 kVt iga yonilg'i xarajati, kg;

Kg.m-dvigateldan quvvatiga foydalanish koeffitsiyenti.

Yonilg'i va moylash materiallari qiymati asosiy yonilg'i (s) komplekti narxi bo'yicha aniqlanadi:

$$ZgsmqTSWr$$

Yonilg'inining 1 kg komplekt narxi mashinaning har bir markasi uchun asosiy yonilg'i va moylash materiallarining har qaysi turi xarajatiga asoslangan xolda amaldagi mintaqali sotish narxlari bo'yicha aniqlanadi. Bunda transport va ta'minot xarajatlarining 10 % miqdorida narxga ustama belgilanadi. Mazkur ishlar sermehnatligi joriy ta'mir va texnika xizmati ko'rsatish sarflarini aniqlash asosini tashkil etadi. Mashina ishining (Tr.rm) moto-soat hisobidagi joriy ta'mir va texnika xizmati ko'rsatish sermehnatligi quyidagi formula (kishi soatlardagi) bo'yicha aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma Tr^* i Zi QT p^* Tp Z tp}{Tr.rm} ----- M$$

Bunda Tr.i-texnik xizmat ko'rsatish turining sermehnatligi, kishi soat;

Zi-texnik xizmat ko'rsatish turining miqdori va ta'mirlararo resurs;

Tr.tr-joriy ta'mir sermehnatligi, kishi-soat;

Ztr-ta'mirlararo resurs uchun joriy ta'mir miqdori;

M-ta'mirlararo resurs, mato-soat.

n-davriy texnika xizmati ko'rsatish turlari soni

Bu ma'lumotlarning melioratsiya mashinalari uchun ahamiyati SNIP-Sh-1-76 bilan aniqlanadi.

Mashina ishining bir mato-soatli joriy ta'mirlar va texnika xizmati ko'rsatish qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

Zt.r-Tr.rmZp.ch Kp KkrQTSrm Knr

Bunda Zp.ch-ta'mirda band bo'lgan ishchilarning o'rtachalangan razryad bo'yicha soatli ta'rif stavkasi, sum;

Kp-ishlar sifatli va o'z vaqtida berilganligi uchun ishchilarga beriladigan mukofotlarni xisobga oluvchi koeffitsiyent (Kp-1.2;)

Kkr-ish xaqi bilvosita xarajatlarni xisobga oluvchi koeffitsiyent (Kkrq1.4);

Srm-ta'mir materiallari va zahira qismlar qiymati, sum;

Knr-ustama xarajatlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Ta'mirlash materiallari va zahira qismlar qiymati mashinalar ta'mirida band bo'lgan ishchilar ish xaqiga bog'liq holda aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar qiymati mashina-soat qiymati hisob-kitobi uchun me'yoriy-ma'lumot materiallari bo'yicha aniqlanadi.

Smena jixozi (mashinalar pokrishkalari, po'lat arqonlar, zanjirlar, shlanglar, bog'lovchi kayishlar) qiymati transport va ta'minot-ombor xarajatlariga 10% qo'yilgan ulgurji narxlar preyskuratorlari bo'yicha aniqlanadi. Mashinaning 1 soatli ishiga to'g'ri keladigan xarajatlar smena jihizi qiymatini uning xizmat qilish muddatiga bo'lish bilan aniqlanadi. Melioratsiya mashinalar uchun smena jixozi ta'miri sarflari jixoz qiymati 10 % i miqdorida belgilangan.

Mashina-soat chiqimlarini aniqlash uchun qilingan ustama xarajatlar ish xaqi va boshqa bevosita sarflardan foizlarda differentsiyalashtirilgan hisob-kitob yo'li bilan

xisoblab chiqiladi. Melioratsiya va qurilish mashinalari uchun ustama xarajatlar ish xaqining 25%i va boshqa bevosita sarflarning 10% miqdorida belgilangan.

$$\text{Ish birligi tannarxi } C = \frac{H_{M,4}}{B_4} \text{ mashina-soat va mashina-soatli unumdarligi}$$

sarflarning summasi bo'yicha aniqlanadi.

#### **9.4. Mashinalar unumdarligi oshishi omillari va mexanizatsiyalashgan ishlар tannarxini kamaytirish**

Suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligi korxonalaridagi texnikadan yuqori unum bilan samarali foydalanish katta xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir. Melioratsiya-qurilish mashinalari parkidan foydalanishni yaxshilash asosiy ishlab chiqarish fondlarini samaradorligini oshirishning, qishloq xo'jalik yalpi mahsulotini ko'paytirishning muhim vositasidir. Melioratsiya mashinalaridan qancha unumli foydalanilsa suv xo'jaligi va melioratsiya ishlari shuncha tez bajariladi, mexanizatsiyalashtirilgan ishlar tannarxi shuncha kam hamda ularni amalga oshirish rentabelligi shuncha yuqori bo'ladi.

Mashinalardan oqilona foydalanish ko'p omillarning birgalikda amal qilishiga bog'liq bo'ladi. Bu barcha omillarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi omil-mashinalarning texnik va konstruktiv parametrlaridir. Hozirgi sharoitda mashinalar sifatini oshirish eng muhim va xal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Unumdarlik, puxtalik, chidamlilik singari texnik parametrlarning oshishi birgalikda katta iqtisodiy samara beradi. Masalan, dvigatelning motoresursini 15% oshirish xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan dvigatellar parkini qo'shimcha mehnat sarflarisiz va dvigatellar ishlab chiqaruvchi korxonalarini kengaytirishga qo'shimcha kapital qo'yilmalarsiz yana shuncha oshirishga tengdir.

Melioratsiya mashinalarining ayrim quvvatini oshirish unumdarlik o'sishiga va mexanizatorlar soni kamayishiga, mashinalar metall sig'imi pasayishiga yordam beradi. Bu parametrlarning o'zgarishi katta iqtisodiy samara bilan yakunlanadi.

Sug'orish kanallari qurilishida maxsus rotor ekskovatorlarning qo'llanishi mehnat unumdarligini 3-4 baravar oshirish, ulushli metall sig'imi va energiya sig'imi 1.5-2

baravar, tuproq ishlov berish tannarxini 1.2 baravar kamaytirish hamda ishlar madaniyati va sifatini o'stirish imkonini beradi.

Melioratsiya mashinalarining sifati oshganda iste'molchilarning ekspluatatsion sarflari, kamayadi. Mashinalarning puxtaligi oshishi natijasida ta'mir xarajatlari tejaladi, texnik nosozliklar tufayli to'xtab turishlar qisqaradi. Bu texnikadan foydalanish samaradorligini oshiradi.

2005 yilgacha bo'lган davrga mo'ljallangan asosiy yo'naliishlarda chiqariladigan mahsulot barcha turlar sifatini qat'yan yaxshilash, hozirgi davr talablariga javob beradigan buyumlar assortimentini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish, oliv kategoriyali mahsulotning uni chiqarishning umumiyligi miqdoridagi ulushini o'stirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Melioratsiya mashinalaridan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatadigan omillarning ikkinchi guruhiga ularni ishlatishning tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlari kiradi. Ular texnikadan yuqori unumli foydalanishning xal qiluvchi va belgilab beruvchi shartlaridir. Quyidagilarni shulardan eng muhimlari deb xisoblash kerak:

Korxonalarini yuqori malakali mexanizator kadrlar bilan ta'minlash darajasi;

Mashinalarni ishlatishning oqilona tashkiliy shakllari;

Ishlab chiqarish jarayonlari va mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish natijasida mashina ish vaqtidan foydalanishni yaxshilash;

Mashinalarga texnika xizmati ko'rsatish va ulami ta'mirlashni oqilona tashkil qilish.

Melioratsiya texnikasini ixtisoslashtirilgan tashkilotlarda to'plash shu texnika unumdorligini oshirishning muhim shartidir. Melioratsiya qurilish texnikasini ixtisoslashtirilgan trestlarda va mexanizatsiya boshqarmalarida to'plash ishlarini bajarishni uyushtirishni yaxshilashga, qurilish sifatini yaxshilash va muddatlarini qisqartirishga, texnika xizmati ko'rsatishni hamda mashinalar va uskuna ta'mirini yaxshilashga yordam beradi.

Mashinalardan foydalanishning uchinchi omili ishlab chiqarish jarayoni kechadigan tabiy sharoitlardir. Melioratsiya mashinalarining unumdorligi tuproqlar, yer uchastkasining shakli va boshqa tabiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Melioratsiya mashinalari unumdorligini belgilaydigan barcha omillar ish birligi tannarxiga ham ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun mexanizatsiyalangan ishlarning

haqiqatdagi ekspluatatsion chiqimlari va tannarxining pasayishiga mashinalarni texnik smenalari sonini ko'paytirish, smena ichida to'xtab turishlarni kamaytirish, texnikadan foydalanish unumdorligini oshirishga ta'sir o'tkazadigan barcha omillardan foydalanish qoidalariga rioya qilish natijasida erishiladi.

## **Qisqacha xulosalar**

Mashinalarning asosiy yo'nalishi qishloq va suv xo'jaligi xodimlarining mehnatini yengillashtirish hamda avaylash, uni yuqori unumdar qilish, ishlar texnologiyasini va sifatini yaxshilash, ish davrini qisqartirish va shu bilan dehqonchilik unumdarligini oshirish hamda mahsulot tannarxini pasaytirishga yordam berishdir.

Mashinalar tizimi deyilganda mashinalarning mehnat predmeti turli xil, lekin bir-birini o'zaro to'ldiruvchi ishchi mashinalar zanjiri tomonidan bajariladigan o'zaro bog'liq qismi jarayonlarning izchil qatoridan o'tuvchi mashinalar uyg'unlashuvi tushiniladi.

Mashina unumdarligi va ish birligining tannarxi mashinalardan foydalanishning unumlashma iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Mashina-soatning ishlatish chiqimlari sarflarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra bir yo'la, yillik, joriy sarflardan iborat uch guruhga bo'linadigan turlaridan tarkib topadi.

Mashina-soat chiqimlarini aniqlash uchun qilingan ustama xarajatlar, ish haqi va boshqa bevosita sarflardan fondlarda differentsiallashtirilgan hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.

Melioratsiya mashinalarining sifati oshganda iste'molchilarining ekspluatatsion sarflari kamayadi. Mashinalarning puxtaligi oshishi natijasida ta'mir xarajatlari tejaladi, texnik nosozliklar tufayli to'xtab turishlar qisqaradi. Bu texnikadan foydalanish samaradorligini oshiradi.

## **Tayanch so'zlar**

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, mashinalar tizimini yaratish, kompleks mexanizatsiyalashtirish, yangi texnikani va texnologiyani joriy qilish, energiya sig'imi, mashinalarning asosiy parametrlari, ishlab chiqarish chiqimlari, mahsulot tannarxi, mashina unumdarligi, mashina-smenalar, mashina-soat, ustama xarajatlar, ekspluatatsion sarflar.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Melioratsiya qurilishi kompleks mexanizatsiyalashning ahamiyati va mohiyati.

2. Melioratsiya mashinalaridan foydalanish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslublari.
3. Melioratsiya mashinalarini ishlatish sarflari va mexanizatsiyalangan ishlar tannarxi.
4. Mashinalar unumdorligini oshirish omillari.
5. Texnik servis xizmatini ko'rsatish tartibi.
6. Melioratsiya mashinalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uslubi.
7. Melioratsiya mashinalaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
2. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi qurilish iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2006.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.

## **X BOB. Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi**

### **10.1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha, ularning ahamiyati**

Qishloq xo'jaligidagi barcha korxonalar, tashkilotlar zimmalaridagi asosiy vazifasini bajarish uchun ishlab chiqarish jarayonida turli ishlarni, xizmatlarni amalga oshiradilar, xilma-xil mahsulotlarni yetishtiradilar, xizmatlarni ado etadilar. Jumladan, paxta, bug'doy, sholi, makkajo'xori, kartoshka, karam, pomidor, sabzi, sut, go'sht va boshqa mahsulotlarni yetishtiradilar. Yetishtirilgan bu kabi mahsulotlar ularning yalpi mahsuloti natural miqdorini ifodalaydi. Lekin, bu natural ko'rsatkichlar xo'jaliklarning yillik faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi, chunki ularni natura holida bir-biriga qo'shib bo'lmaydi. Shuning uchun yalpi mahsulot qiymat shaklida aniqlanishi lozim. Buning uchun yetishtirilgan barcha mahsulotlarning qiymati qo'shilgan holda aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining bir yillik hamda bir necha yillik faoliyatini tahlil etish maqsadida yalpi mahsulotning qiymati har yilgi haqiqqiy hamda qiyosiy baholarda hisoblanadi. Hozirgi davrda qiyosiy baholar sifatida 1996 yildagi haqiqiy baholarning o'rtacha yillik miqdori olingan. Ma'lum yillardan so'ng boshqa yilning o'rtacha baholari olinishi mumkin.

Demak, qishloq xo'jaligida natura holida yetishtirilgan turli xildagi mahsulotlar tarmoqning natura holdagi yalpi mahsuloti deyiladi. Tarmoqda natura holda yetishtirilgan mahsulotlarning qiymat holdagi umumiyligi yig'indisi esa qishloq xo'jaligining qiymat holdagi yalpi mahsuloti deb ataladi. Tarmoqda yetishtirilayotgan yalpi mahsulot qiymati alohida mahsulot turlari, tarmoqlar va xo'jalik bo'yicha aniqlanadi. Yalpi mahsulot tarmoqning, korxonaning bir yillik faoliyatini ifodalovchi umumiyligi ko'rsatkichdir. Qiymat shaklida hisoblangan yalpi mahsulotning tarkibi quyidagicha bo'ladi:

1. Tayyor mahsulot;
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida bir yil davomida yetishtirilib, yig'ishtirilib, hisobga olingan, taqsimlashga va sotishga tayyor bo'lgan mahsulot qishloq xo'jaligining tayyor mahsuloti hisoblanadi.

Kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Jumladan, kelgusi yilda paxta, bug'doy, sabzavot va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda yerlarni haydash, tekislash bilan bog'liq bo'lган xarajatlar, kelgusi yilda go'sht yetishtirish uchun joriy yilda xarajatlar qilinadi. Bunday xarajatlar bog'dorchilikda ham mavjud.

Natura holdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari turlari bo'yicha alohida-alohida, o'simlikchilik mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlari yalpi hajmi ham qiymat holida hisoblanadi. Bu mahsulotlar bir yillik hajmining qiymati shu yilgi haqiqiy baholarda quyidagicha aniqlanadi:

- sotilgan mahsulotlar sotish baholarida;
- xo'jalik ichki ehtiyoji uchun berilganlari ularning tannarxlari bo'yicha.

Qishloq xo'jaligidagi tayyor mahsulotlar ichki va tashqi bozor talabini e'tiborga olgan holda sotiladi, ya'ni qishloq xo'jaligida ham pul-tovar (P-T) munosabatlari amalga oshiriladi. Mahsulotlarning pul-tovar munosabatlari asosida sotilgan miqdori tovar mahsuloti deb ataladi. Shunga asoslangan holda mahsulotlarning tovarlilik darajasi ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun sotilgan mahsulot miqdorini jami yetishtirilgan mahsulotning natura holidagi ulushiga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki u foizda hisoblanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$T_d = (C_m \div R_m) * 100$$

Bunda:  $T_d$  – mahsulotning tovarlilik darajasi, foizda;

$S_m$  – sotilgan mahsulot miqdori, tonna, sentner, kilogramm;

$Y_{a_m}$  – yetishtirilgan jami mahsulot (paxta, bug'doy), tonna, sentner

Mahsulotlarning tovarlilik darajasi tayyor mahsulot hamda talabdan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin. Unga ayrim paytlarda davlatning siyosati ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, hozirgi davrda paxtaga nisbatan davlat buyurtmasi va talabning mavjudligi sababli uning tovarlilik darajasi 100 foizga teng. Ayrim texnika mahsulotlari ham xo'jaliklarda faqat sotish maqsadida yetishtirilmoqda. Shuning uchun ham ularning tovarlilik darajasi 100 foizga teng bo'ladi. Masalan, kanop. Ayrim mahsulotlar esa faqat ichki talablarni qondirish maqsadida yetishtirilishi mumkin. Bunday hollarda ularning tovarlilik darajasi aniqlanmaydi. Jumladan, ozuqa uchun yetishtirilgan yem-xashak, sabzi, turp, sholg'om, pomidor va boshqalar.

Yalpi va tovar mahsulotlarning mamlakat, tarmoqlar hamda korxonalar iqtisodiyotidagi ahamiyati katta. Jumladan, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi, qiymati o'sishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining ham o'sishi ta'minlanadi. 2000-2002 yillarda xalq xo'jaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 27-30 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish tufayli barpo etilayotgan valyuta tushumi tarkibida ularning salmog'i sezilarli bo'lmoqda.

Natijada xalq xo'jaligi barcha sohalarining rivojlantirilishi ta'minlanadi.

Yalpi mahsulotning natural miqdori ko'payib, ular iste'molchilarga turli usullar yordamida yetkazilishi qayta ishlash tarmoqlari rivojlanishini hamda aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini yuksaltiradi. Bu aholining ish bilan ta'minlanishi yuksalib, real daromadi ortishiga, yashash sharoiti yaxshilanashiga olib keladi.

Korxonalar yalpi va tovar mahsulotining ko'payishi ularning ham iqtisodiyoti yuksalishini ta'minlaydi. Xo'jalik yalpi mahsulotining, natura holdagi miqdori ko'payishi tayyor mahsulot miqdori oshishiga sabab bo'lib, ichki va tashqi talab to'liqroq qondirilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada sotiladigan mahsulot miqdori ortadi. Uni sotish evaziga korxonalarining pul daromadlari ko'payadi. Bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining kengaytirilgan holda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning esa moddiy rag'batlantirilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham respublika hukumati qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilab, raqobatbardoshligini yuksaltirishga katta e'tibor bermoqda. Chunki qishloq xo'jalik mahsulotlarini chet davlatlarga sotish natijasida mamlakatning valyuta tushumi ortib bormoqda. Chet el valyutalari ko'payishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar sotib olinmoqda.

## **10.2. Qishloq xo'jalik mahsulotini tarkibi, dinamikasi va ishlab chiqarishni rivojlantirish**

Qishloq xo'jaligi avvalo ikkita muhim soha: o'simlikchilik va chorvachilikdan tashkil topgan bo'lib, ularning har qaysisi o'z navbatida alohida-alohida tarmoqlarga bo'linadi.

Xo'jalikning ishlab chiqarish vositalari (mehnat predmetlari va mehnat qurollari), texnologiyasi, ishchi-xizmatchilarning malakasi va nihoyat, yetishtiradigan mahsulotlar turi jihatidan bir-biridan farqlanuvchi bo'g'irlari qishloq xo'jalik tarmoqlari deb ataladi. Har bir tarmoq bir-biriga o'xshamagan turlicha mahsulotlarni yetishtiradi. Tarmoqlar xo'jalikda tutgan o'rni, salmog'i va tovarlilik darajasiga qarab:

- asosiy (yetakchi) tarmoq;
- qo'shimcha tarmoq;
- yordamchi tarmoqlarga bo'linadi.

Xo'jaliklarda tarmoqlarni bir-biriga to'g'ri qo'shib olib borish g'oyatda katta ahamiyatga ega.

Paxtachilik xo'jaliklarida chorvachilik, ayniqsa, qoramolchilikni rivojlantirish talab qilinadi. Chorvachilik esa paxta hosildorligini oshirish uchun tuproqqa go'ng yetkazib beradi. Tuproq unumdorligini oshirishda esa iqtisodiy samara beradigan paxta-beda almashlab ekishni joriy qilish o'ziga xos o'rinni tutadi. Bu esa ayni paytda chorva uchun mustahkam yem-xashak bazasi yaratish imkonini beradi. Natijada paxtachilik va chorvachilik serdaromad tarmoqlarga aylanadi. Umuman olganda, o'simlikchilik (dehqonchilik)ni chorvachilik bilan chambarchas bog'liq holda rivojlantirish katta ahamiyat kasb etib, har bir tarmoqning (paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, pillachilik va h.k.) iqtisodiy samaradorligini oshiradi va h.k.

-jadval

**1997-2000 yillarda respublikamizda o'simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarning salmog'i  
(xo'jaliklarning umumiyligi toifa bo'yicha xo'jalik tarkibidagi salmog'i, % hisobida)**

Yillar	Barcha toifadagi xo'jaliklar	Qishloq xo'jalik korxonalarini	Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari
1997	100	63,0	4,3	32,7
1998	100	56,4	5,6	38,0
1999	100	52,4	7,4	40,2
2000	100	48,1	8,5	43,4

Shuni aytish kerakki, 1999 va 2000 yillar mobaynida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi yoki 88,2-89,0% dehqon xo'jaliklari hissasiga, 10,8-11,0% esa qishloq xo'jalik korxonalarini va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda (-jadval).

-jadval

**1997-2000 yillarda respublikamizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi  
bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarning salmog'i  
(xo'jaliklarning umumiy xo'jalik toifalariga nisbati,% hisobida)**

Yillar	Barcha toifadagi xo'jaliklar	Qishloq xo'jalik korxonalarini	Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari
1997	100	9,5	1,3	89,2
1998	100	10,6	1,3	88,1
1999	100	10,1	1,3	88,6
2000	100	9,4	1,6	89,0

O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha xo'jaliklarning salmog'i -jadvalda aks ettirilgan.

-jadval

**1997-2000 yillarda respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish  
bo'yicha xo'jaliklarning salmog'i  
(xo'jaliklarning umumiy xo'jalik toifalaridagi salmog'i,  
foiz hisobida)**

Yillar	Barcha toifadagi xo'jaliklar	Qishloq xo'jalik korxonalarini	Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari
1997	100	35,9	2,8	61,3
1998	100	33,7	3,5	62,8
1999	100	32,9	4,6	62,5
2000	100	28,9	5,6	66,0

1997 va 2000 yillarda ham qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda qishloq xo'jalik korxonalarini bilan dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rinni egallagan.

-jadval

**Respublikamizda 1999 va 2000 yillarda yetishtirilgan jami o'simlikchilik mahsulotlari  
(hamma toifadagi xo'jaliklarda,  
ming tonna hisobida)**

O'simlikchilik mahsulotlarining turlari	Yillar	
	1999	2000
Paxta	3600,0	3001,8
Kartoshka	657,8	731,0
Sabzavot	2680,0	2644,7
Meva, rezavor	489,1	790,9
Poliz mahsulotlari	517,5	451,4
Uzum	344,0	624,2

-jadval

**Respublikamizda 1999 va 2000 yillarda jami ishlab chiqarilgan chorvachilik**

**mahsulotlari (hamma xo'jalik kategoriyalarda,  
ming tonna hisobida)**

Chorvachilik mahsulotlarining turlari	Yillar	
	1999	2000
Go'sht, so'yilgan vaznda	481,0	501,8
Sut	3543,4	3632,5
Tuxu-M, mln.dona	1239,6	1254,4
Jun, fizik holatda	15,7	15,8
Qorako'l teri, ming dona	712,0	747,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2000 yilda 1999 yildagiga nisbatan go'sht, sut va qorako'l teri yetishtirish biroz ko'paygan.

Shuni aytish kerakki, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yanada ko'paytirish uchun fermer, dehqon va shirkat xo'jaliklarida juda katta imkoniyatlar mavjud.

**10.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tannarxi, xarajatlarni qisqartirish,  
mahsulotlar tannarxini pasaytirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqqosida umumiyligi qiymat ko'rsatkichlari bilan birgalikda o'rtacha xarajatlar, ya'ni tannarx ko'rsatkichi ham faoliyat ko'rsatishi taqozo etiladi. Tannarx bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning bir birligi xo'jaliklar uchun qancha so'mga tushganligi aniqlanadi. Ularning darajasi qiymatni ifodalovchi baholar darajasi bilan taqqoslanishi natijasida olinadigan foyda yoki ko'rildigan zararlar darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich xo'jaliklarning ichki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir.

Hozirgi davrda mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul xarajatlari nazarda tutiladi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun barcha bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiyligi summasi shu xarajatlar yordamida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Qishloq xo'jaligida 1 s. mahsulotning narxi; 1 etalon getkarning; 1 tonna-kmG'ning; 1 kvtG'soat elektroenergiyaning tannarxi aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$T_{\mathcal{H}} = \frac{\sum Ix}{\sum Mm (Im, Xm)};$$

Bunda:  $Tn$  – mahsulot, ish, xizmat tannarxi, so’mda;

$\Sigma Ix$  – ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi, so’mda;

$\Sigma Mm (Im, Xm)$  – yalpi yetishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, xizmatlar miqdori sen., tonnada, etalon gektarda...

Yetishtirilayotgan mahsulotlarning:

- ishlab chiqarish tannarxi;
- to’liq tannarxi, tijoriat tannarxi aniqlanadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash usuli yuqorida keltirilgan. Uning to’liq yoki tijorat tannarxi jami xarajatlarni (jumladan, sotish xarajatlari bilan) yetishtirilgan yalpi mahsulot miqdoriga yoki sotiladigan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Qishloq xo’jalik mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) ning haqiqiy hamda reja tannarxlari aniqlanadi. Haqiqiy tannarx darajasi yil yakunidagi ma’lumotlar yordamida hisoblanadi. Reja tannarxi esa normativlar, erishilgan ma’lumotlar asosida aniqlanib, «Biznes reja»da aks ettiriladi.

Qishloq xo’jaligida barcha xarajatlarni amalga oshirish natijasida turli xildagi asosiy, qo’shimcha hamda yordamchi mahsulotlar olinadi. Jumladan, paxtachilikda paxta xomashyosi asosiy mahsulot hisoblansa, g’o’zapoyasi qo’shimcha mahsulot sanaladi. Donchilikda don asosiy, somoni (poyasi) qo’shimcha mahsulotdir. Qoramolchilikda go’sht, sut asosiy, buzoq qo’shimcha, go’ng esa yordamchi mahsulot hisoblanadi. Lekin tarmoqdagi barcha xarajatlari asosiy mahsulotni yetishtirishga qaratilgan bo’ladi. Shundan kelib chiqqan holda -chizmada aks ettirilgan ob’ektlar tannarx ob’ektlari hisoblanadi.

Mahsulot xarajatlari va tannarxini o’rganish boshqaruvin hisobining muhim bo’limlaridan biridir.

Mehnat va moddiy ko’rinishidagi to’g’ri xarajatlar bevosita aniq bir mahsulot yoki xizmat turiga oid bo’lishi, umumishlabchiqarish xarajatlari mahsulot turiga qarab faqat maxsus usullar yordamida taqsimlanishi mumkin.

Xarajatlarni taqsimlash - qilingan xarajatlarning aniq bir xarajat ob’ektiga borish jarayonidir.


## **Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi ob'ektlari**

Xarajatlar ob'ekti – tashkiliy bo'linma, shartnoma yoki boshqa hisob birligi bo'lib, u bo'yicha xarajatlar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi va jarayonlar, mahsulot, shu kapitalni qo'yish loyihasi va hokazolar qiymati o'lchanadi.

Mahsulotlar tannarxlarini hisoblashda ta'kidlangan marginal-kosting va abzorbshn-kosting uslublari asosida turli xildagi usullar qo'llanishi mumkin. Ushbu usullar -chizmada ifodalangan.

-chizma

### **Mahsulot tannarxini hisoblash usullari**



Ushbu usullarning ijobiy tomonlarini boshqaruv hisobi tizimida mahsulotlar tannarxlarini hisoblash jarayonida tatbiq etish zarur.

Xarajatlarni taqsimlashning muhim kategoriyasi bo'lib, xarajatlar markazi hisoblanishini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz.

Xarajatlar markazi – tashkiliy birlik yoki faoliyat sohali bo'lib, u yerda aktivlar xaridi uchun qilingan chiqimlar va xarajatlar haqida axborot to'plash maqsadga muvofiqdir.

Barcha xarajat guruhlari boshqaruv yechimlarini qabul qilishga mo'ljallangan. Boshqaruv hisobida xarajatlar ikki asosiy ob'ekt guruhlari bo'linmalar va mahsulotlar bo'yicha taqsimlanishi kerak. Ushbu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlar javobgarlik markazlari bo'yicha to'planadi;
- xarajatlar muayyan brigadada yetishtirayotgan aniq mahsulot tannarxiga taqsimlanadi.

Tayyor mahsulot tannarxini hisoblashda quyidagi usullarga murojaat qilishadi: hamma xarajatlarni hisobga olgan holda xarajatlarni kalkulyatsiya qilish yoki ularning bir qismi bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlarnigina hisobga olib, kalkulyatsiya qilish mumkin.

Qishloq xo'jaligida mahsulot birligining tannarxini pasaytirish eng zarur masalalardan biridir. Mahsulot birligi tannarxini kamaytirish resurslar cheklangan sharoitda katta ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi to'g'ridan-to'g'ri ikki omilga bog'liq. Birinchidan, yetishtirilayotgan mahsulotning miqdoriga bog'liq. Yetishtirilayotgan mahsulot miqdorining oshishiga nimalar ijobiy ta'sir etsa, ular ustida ishslash lozim bo'ladi. Bularga dehqonchilikda quyidagilar kiradi:

- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish orqali hosildorlikni oshirish;
- mintqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joriy etish;
- almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish, talab va imkoniyatdan kelib chiqqan holda ekin turlarini joylashtirishni ratsional tashkil etish;
- urug'chilikni yaxshilash, seleksiya ishlarini jonlantirish;
- mineral va organik o'g'itlardan foydalanishni ilmiy asosga qo'yish, barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish;
- ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish.

Dehqonchilik tarmoqlarida mahsulotlar tannarxining past bo'lishiga xarajatlarni tejash ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu boradagi omillarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish jarayonini kompleks mexanizatsiyalashtirish;
- ekinlarni parvarishlashda intensiv texnologiyalarni qo'llash;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish;
- boshqaruv tizimini rivojlantirish hisobiga u bilan bog'liq xarajatlarni tejash va h.k.

Chorvachilik tarmog'ida mahsulot birligi tannarxining pasayishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash, yem-xashakning sifatini oshirish va nisbatan arzon bo'lishini ta'minlash;
- chorva mollarining zotini, poda tarkibini yaxshilash;
- chorva mollarini saqlash, boqishda intensiv texnologiyalardan foydalanish;

- chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- fondlardan foydalanishning eng maqbul yo'llaridan foydalanish;
- barcha xarajatlarni tejamkorlik bilan amalga oshirish, bu borada mavjud texnologiyalardan, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan samarali foydalanish;
- mahsulot nobudgarchiligiga yo'l qo'ymaslik.

Ushbu omillarning barchasiga katta e'tibor berish zarurati mavjud.

#### **10.4. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari**

Respublika aholisining aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji ham to'liq qondirilmayapti. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib, sotish orqali ham bu muammo to'liq yechilganicha yo'q. Bu asosan don, qand, shakar mahsulotlariga, katoshka va chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa, go'sht va sut mahsulotlariga tegishli. Shuning uchun barcha turdag'i korxonalarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish eng dolzarb muammodir. U siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu muhim muammoni hal etishning asosan ikki yo'li mavjud:

◆ **Ekstensiv yo'l.** Ya'ni, ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish. Bu usulni adabiyotlarda, Amerika usuli, deb ham atashadi. Lekin uning rivojlantirilishi ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to'liq ta'minlanmaydi.

Bu usulda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini ko'paytirish uchun moddiy mablag' hamda mehnat sarflari asosan yangi yerkarni o'zlashtirib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi muomallasiga kiritishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirishga qaratiladi. Natijada o'simlikchilik va chorvachilik mah sulotlarining miqdori ko'paytiladi. Shu bilan birga bu jarayonda yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni, zooveterinariya ishlarini ham amalga oshirish talab qilinadi. Demak, bu usul yordamida yalpi mahsulot hajmi ko'payishi, sifati yaxshilanishi ta'minlanadi.

♦ **Intensiv yo'l.** Ya'ni, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zotexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usulni adabiyotlarda, Prussiya yo'li, deb ham ataladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash asosan moddiy, mablag' va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnikalarni hamda ilg'or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o'simlik navlarini yaxshilashga qaratish orqali, binobarin, qo'shimcha investitsiyalarni amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi.

Respublikada ekstensiv yo'l bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish Farg'ona vodiysining aksariyat xo'jaliklarida, Xorazm viloyatida hamda eskidan don sug'oriladigan hududlarda ancha cheklangan. Lekin intensiv usuldan barcha viloyatlarda foydalanish imkoniyati mavjud. Buning uchun, avvalo, butun aholida vatanparvarlik ruhi rivojlanishiga erishish, o'z hayotimizning yuksalishini o'zimiz ta'minlashimiz kerak, degan tushuncha barchada mustahkam shakllanishi kerak. Vatanparvarlik, albatta, iqtisodiy tadbirkorlik bilan mustahkam, real bog'lanishi, chunonchi, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun mablag'lar bo'lishi lozim. Ularni asosan ishlab topish zarur, yetishmagan qismini esa davlat va mahalliy byudjetlardan, qarzlar va boshqa manbalar hisobiga qoplash mumkin. Bu mablag'larni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, ularning sifatini ta'minlovchi quyidagi tadbirlarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o'zlashtirishga;
- zotli, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, sotib olishga;
- yangi bog'lar, tokzorlar, ko'p yillik daraxtzorlarni barpo etishga;
- yangi irrigatsiya-melioratsiya tizimini barpo etish, mavjudlarining ishga yaroqliligini ta'minlash maqsadida ta'mirlashga;
- sermahsul o'simlik navlarini, chorva zotlarini yaratish maqsadida fan-texnikani rivojlanirishga;
- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga izchil joriy etishga;
- ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirishni hamda elektrlashtirishni ta'minlashga;
- mavjud asosiy vositalarning ishga yaroqliligini ta'minlashga;

- o'simlikchilikning, chorvachilikning ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabini imkoniyat darajasida ta'minlashga;
- ishchi-xizmatchilarning bilimini, malakasini yuksaltirish va moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni real, ta'sirchan usullar orqali rivojlantirishga;
- ishlab chiqarishni liberallashtirish, erkinlashtirishga, islohotlarni chuqurlashtirishga;
- ishlab chiqarish, davr xarajatlarini, moliyaviy xarajatlarni imkoniyat doirasida kamaytirishga;
- soliqlar tizmini takomillashtirishga;
- ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholarini erkinlashtirish va boshqalarga.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish tizimini erkin bozor talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish lozim. Buning uchun avvalo, qishloq xo'jalik korxonalarining o'zida marketing masalalari bilan muntazam shug'ullanadigan guruhlar yoki bo'limlarni tashkil etish, ularni erkin bozor ma'lumotlari bilan muntazam ta'minlash zarur.

Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlarning, korxonalarning faoliyatini rivojlantirish, ularning bo'limlarini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish kerak. Shundagina ortiqcha xarajatlarga, nobudgarchilikka yo'l qo'yilmaydi: qishloq xo'jalik korxonalari tez ayniydigan mahsulotlarni 70-100 km. masofadagi zavodlarga tashib, vaqtadan yutkazmaydi, ortiqcha xarajatlar qilmaydi va mahsulot sifati yomonlashmaydi, mahsulotlarning ko'proq, tezroq, arzonroq sotilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari korxonalarning o'zlari ham yetishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi uyushmalar tashkil etishlari mumkin. Uyushmaga kiruvchilar uchun erkin, qulay sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday uyushmalar mahsulotlarni sotishda erkin raqobatli bozor vujudga kelishida muhim o'rinn tutadi.

Natijada qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlarining haqini kelishilgan muddatlarda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar, ularni xo'jaliklar ishlab chiqarishga sarflashi natijasida yalpi va tovar mahsulotlarini ko'paytirishga erishadilar.

## **10.5. Qishloq xo'jaligining daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko'paytirish,**

## **iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko'paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o'z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini ob'ektiv ravishda taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

### **1. Qishloq xo'jaligida yalpi hosilni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:**

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishni tezlashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni suv bilan ta'minlash tadbirlarini rivojlantirish;
- chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;
- ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o'g'itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

### **2. Qishloq xo'jaligida moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlovchi tadbirlar:**

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;
- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijsida ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;
- ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;
- davr hamda moliyaviy xarajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar.

### **3. Bozor iqtisodi munosabatlarini qishloq xo'jaligiga joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:**

- sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;
- nodavlat mulkchilik shakllari barpo etilishiga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;
- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
- birjalarining turlarini rivojlantirish;
- sug'urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lisi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish talab etiladi. Lekin bu tadbir cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya, agrotexnik, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alovida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlar hajmini qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun korxonalarining, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etish talab etiladi.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat xarajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. Chorva hayvonlarini to'yimli yem-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kamayishini taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar, tashkilotlar sonini qisqartirib, bevosita aloqalarga o'tishni ta'minlash lozim. Hozirgi davrdagi mavjud bo'lgan yagona yer solig'ini, to'lovlar, kredit stavkalarini tartibga solish natijasida sof foyda summasi ko'payadi. Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriyalarning ko'payishi, rivojlantirilishi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan o'simlikchilik mahsulotlarini (ayniqsa bug'doy, paxta xom-ashyosi) sotish xajmining oshishi hamda ularning narxlarining oshishi natijasida shirkat va fermer xo'jaliklarining pul tushumlari oshib borgan.

Lekin shu sotib olingen mahsulotlar uchun mablag'ning o'z vaqtida yetkazib berilmayotganligi uchun xo'jaliklarning pul tushumlari tez sur'tlar bilan oshayotgani yo'q. Demak, keljakda tovar pul munosabatlarini, ya'ni to'lov tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berish lozim. Endilikda, paxta tozalash don mahsulotlari uchun mablag'ni kontraktatsiya shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashlari zarur. 2004 yilda shu masala bo'yicha qishloq xo'jalik sub'ektlaridan 565 tasi xo'jalik sudlariga murojaat qilganlar. Bu hol erkin bozor munosabatlarini ham bajarilmayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun keljakda barcha erkin bozor munosabatlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jaliklari korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari xajmini 2004 yilda oshirishga erishganlari munosabati bilan o'zlarining yalpi va sof foyda summasini ko'payishini kutmoqdalar. Ayniqsa, sof foyda summasininig ko'payishi korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash bilan birgalikda ularning mehnat resurslarini rag'batlantirish ham ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu hol o'z navbatida aholini turmush darajasini yuksalishini ta'minlaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Yalpi mahsulotning natural miqdori ko'payib, ular iste'molchilarga turli usullar yordamida yetkazilishi qayta ishlash tarmoqlari rivojlanishini hamda aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini yuksaltiradi.

O'zbekistonning ko'pchilik xo'jaliklarida paxtachilikdan ko'p daromad olinadi va mehnat sarflarining ko'p qismi shu sohaga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham paxtachilik asosiy tarmoq, pillachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va hokazo sohalar esa qo'shimcha tarmoqlar hisoblanadi.

Hozirgi davrda mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul xarajatlari nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot birligining tannarxini pasaytirish eng zarur masalalardan biri bo'lib, mahsulot birligi tannarxini kamaytirish resurslar cheklangan sharoitda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublika aholisining aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilmayapti. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib, sotish orqali ham bu muammo to'liq yechilgani yo'q. Bu asosan don, qand, shakar, go'sht, sut mahsulotlariga tegishli. Bu muammoni yechish uchun qishloq xo'jaligini ham ekstensiv va ham intensiv yo'l bilan rivojlantirish talab etiladi.

### **Tayanch iboralar**

Yalpi daromad, pul tushumlari, yalpi foyda, sof foyda, rentabellik, iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy munosabatlar, jami xarajatlar, xarajat elementlari, xarajatlarni turkumlashtirilishi, mahsulot tannarxi, (o'rtacha xarajatlar) doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, mahsulot tannarxi turlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yalpi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi mahsulotlar qanday turlarda hisobga olinadi?
3. Yalpi mahsulotning tarkibi qanday ?
4. Tayyor mahsulot deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday mahsulot tovar mahsuloti deb ataladi?
6. Mahsulotlarning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
7. Yalpi mahsulotni ko'paytirishning qanday yo'llari bor?
8. Ekstensiv hamda intensiv usul haqida qanday tushunchaga egasiz?
9. Yalpi daromad deganda nimani tushunasiz?

10. Yalpi daromad summasi qanday aniqlanadi?
11. Yalpi va sof foyda nima va u qanday aniqlanadi?
12. Qanday tadbirlar qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi?
13. Qanday tadbirlar moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlaydi?
14. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
15. Mahsulot tannarxi darajasini, dinamikasini qanday tushunasiz?
16. Mahsulot tannarxi tarkibi deganda nimani tushunasiz?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
2. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.

### **XI BOB. Agrosanoat kompleksi va suv xo'jaligining moddiy-texnika ta'minoti**

#### **11.1. Moddiy-texnika ta'minotining roli. Moddiy-texnika ta'minoti organlari**

Ishlab chiqarish jarayonida ish kuchi bilan birga mehnat vositalari va mehnat predmetlari ham qatnashadi. Bunda mehnat vositalari va mehnat predmetlari ishlab chiqarishga muomala soxasi orqali kelib tushadi. Ishlab chiqarish vositalari muomalasi deyilganda qiymat shakllarining almashishini, uning tovar shakliga aylanishini tushunamiz.

Moddiy-texnika ta'minoti (MTT) ishlab chiqaruvchilardan iste'mol qiluvchilargacha bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining taqsimlanishi va realizatsiya qilinishi rejali jarayondir. Ta'minot jarayoni iste'molchilarni moddiy texnika resurslari bilan uzluksiz ta'minlab turishdir. Realizatsiya qilish jarayoni mahsulotni iste'molchiga yetkazishdir.

Xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining uzluksiz rivojlanishi, ishlab chiqarish miqdorining ko'payishi, ishlab chiqarish yo'nalishidagi mahsulot tovar aylanishini katta hajmda o'sishini vujudga keltiradi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotning

to'rtdan uch qismi, qishloq xo'jalik xom ashyosining anchagina qismi moddiy-texnika ta'minoti sohasi orqali o'tadi. Moddiy sarflar xozirgi vaqtida jami ijtimoiy mahsulotning yarmidan ko'pini tashkil etadi.


Moddiy-texnika ta'minoti xalq xujaligidagi tovar-pul munosabatlarining asosiy shakli hisoblanadi. Bu jarayonning xarakterli belgilari rejali va umumdavlat miqyosida tashkil etilishidir.

Qishloq va suv xo'jaligi korxonalari sanoat ishlab chiqarishi moddiy mablag'larining yirik iste'molchilari hisoblanadi. Bunga: mashinalar, o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari kiradi. Gidromelioratsiya tizimlarini qurish ko'p miqdorda qurilish materiallari konstruktsiyalar va metal sarflarini talab qiladi. Ekspluatatsion va ta'mirlash suv xo'jaligi tashkilotlari xom ashyo, yonilg'i va boshqa materiallar bilan uzlusiz ta'minlab turishni taqozo etadi.

Moddiy texnika ta'minoti jarayoni ishlab chiqarishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarni zarur moddiy resurslar bilan uzlusiz ta'minlab turish ishlab chiqarish maromiyligiga va oborot mablag'larni aylanishi jadallashishiga yordam beradi.

Moddiy texnika ta'minotining to'g'ri tashkil etilishi ishlab chiqarishning texnika darajasi oshishiga yordam beradi, korxonalar ishining iqtisodiy ko'rsatgichlari va moliyaviy xolati yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, moddiy-texnika ta'minotining yaxshi yo'lga qo'yilgan ishi ishlab chiqarish samaradorligi oshishining shartidir.

Agrosanoat kompleksi moddiy-texnika ta'minoti				
Avtomobil, transport, qG'x mashinalari va ishlab chiqarish yo'nalishidagi tovarlar savdosi uyushmasi	Ehtiyyot qismlar savdosi uyushmalar	O'g'itlar, zaharli ximikatlar va boshqa ximiya mahsulotlari savdo uyushmalari	Omchor xo'jaligida savdoni tashkil qilish uyushmasi	Qishloq xo'jalik ob'ektlarini uskuna bilan komplektlash birlashmalari



Moddiy texnika ta'minoti organlari yetkazib beruvchi korxonalar bilan iste'molchilar o'rtaсидаги bog'lovchi bo'g'in hisobланади. Ta'minot organlarining asosiy vazifasi — korxonalar va tashkilotlarni barcha zarur moddiy resurslar bilan o'z vaqtida uzlusiz va komplektli tarzda ta'minlab turishdir.

Ta'minot organlarining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish vositalariga ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash;
- moddiy resurslarni ayrim iste'molchilar o'rtaсидада oqilona taqsimlash;
- ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yetkazib berishni har ikkala tomonlama jadallashtirish;
- mehnat va mablag'larni juda kam sarflab, korxonalarini o'z vaqtida uzlusiz va kompleksli ta'minlab turish;
- qurilish va ishlab chiqarish uzlusizligini hamda maromiyligini ta'minlash uchun zarur davlat rezervlari va ishlab chiqarish zapaslarini yig'ish;
- materiallar xarajatini ilg'or me'yorlarini belgilash yo'li bilan ishlab chiqarish vositalarini tejash rejimiga yordam berish.

Moddiy-texnika ta'minotiga rahbarlik qilishda moddiy-texnika ta'minoti bosh boshqarmalari va sotish bo'limlariga ega bo'lgan respublika vazirliklari katta rol o'ynaydi.

Vazirliklar tarmoqni rivojlantirishga ajratilgan moddiy resurslarni boshqaruvchilar hisoblanadi. Ular quyidagi rejali funktsiyalarni bajaradilar: korxonalar va tashkilotlardan moddiy resurslarga buyurtmalar oladilar, ularni to'g'riligini tekshiradilar va tarmoq bo'yicha qo'shma buyurtmalar tayyorlaydilar, ajratilgan fondlarni idoraga bo'ysinuvchi korxonalar va tashkilotlarga taqsimlaydilar. Materiallar yetkazib berish hamda ulardan foydalanishni nazorat qilishni ta'minlaydilar.

## **11.2. Moddiy-texnika ta'minotini shakllari**

Moddiy-texnika ta'minoti moddiy resurslarni taqsimlash rejalari asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish texnika mahsulotining xilma xilligi sotish, tashish va ta'minlashning turli shakllarini talab qiladi. Moddiy-texnika ta'minotining shakli deyilganda moddiy resurslarni ishlab chiqarish, tashish, iste'mol qilish sharoitlariga bog'liq holda ishlab chiqaruvchi korxonalardan iste'mol qiluvchi korxonalarga yetqazish usulini tushunmoq kerak. Hozirgi vaqtda ta'minotning quyidagi shakllari qo'llanilmoqda: tranzit, ombor va ulgurji savdo. Dastlabki ikki shakli ishlab chiqarish vositalarini iste'molchilarga yetkazib berishning asosi shakllaridir.

Tranzit shakli—ta'minotning yetkazib beruvchi zavodlar mahsuloti, sotish ta'minlash tashkilotlari, baza hamda omborlarini bevosita chetlab, iste'molchi korxonalar omborlariga kelib tushadigan shaklidir. Yetkazib berishlarning tranzit shaklida yetkazib beruvchilar bilan iste'mol qiluvchilar o'rtasida bevosita xo'jalik aloqalari o'rnatiladi. Bu narsa mazkur aloqalar ayniqlsa, uzoq muddatli va barqaror bo'lganda katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'minotning ombor shaklida mahsulotlar yetkazib beruvchidan ta'minot sotish tashkilotlarining omborlari, bazalari va magazinlariga kelib tushadi, iste'molchilar esa kerakli materiallarni ish omborlaridan oladilar.

Tranzit shakli moddiy resurslar realizatsiyasining asosi va rejali shaklidir. Ishlab chiqarish vositalari yetkazib berishning umimiy hajmida tranzit shakliga 76% to'g'ri keladi. U ombor shakliga nisbatan quyidagi ancha yuqori iqtisodiy avfzalliklarga egadir:

- mahsulotning ishlab chiqaruvchidan iste'mol qiluvchiga yetkazilish muddatlari qisqaradi;

- materiallarni tashish qiymati kamayadi;
- omborlar saqlash xarajatlariga barxam beriladi;
- ishlab chiqaruvchilar bilan iste'mol qiluvchilar o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatiladi;
- xujjatlar oboroti va hisob-kitoblar soddalashadi.

Moddiy resurslar har qaysi turining ayrim davrlaridagi buyurtmasi miqdori yetkazib berishlar shaklini tanlashda xal qiluvchi omil bo'ladi. Yetkazib berishlar miqdori tranzit me'yordan (vagonda) kam bo'lmasa, ta'minotning tranzit shaklini qo'llanish maqsadga muvofiqdir.

Assortimant turli xil bo'lib, uning miqdori tranzit (vagon) me'yordan kam bo'lsa, yetkazib berishlarning tranzit shakli tejamsiz bo'ladi. Bunday xolda maxsulotni notranzit yetkazib berishga o'tiladi. Ishlab chiqarish texnika yo'nalishdagi mahsulotning ayrim turlari (instrumentlar, metall buyumlar, elektrotexnika va ximiya mahsulotning ko'pgina turlari) asosan ta'minot bazalari hamda omborlari orqali yetkazib beriladi.

O'z vazifasiga ko'ra omborlar uch turli bo'ladi.

Bazis omborlar—ularda materiallar saqlanibgina qolmay, shuningdek saralanadi, komplektlanadi va ob'ektlar bo'yicha taqsimlanadi. Ular ehtiyyot qismlar, asboblar, rangli metallar, elektr materiallari uzoq vaqt saqlanadigan, joy xizmatini o'taydi.

Tushirish — ortish bazalari yuklar bir transport turidan boshqa transport turiga, ko'pincha suv va temir yo'l trnsportidan avtomobil transpogrtiga o'tkaziladigan joylarida materiallar hamda buyurtmalarini vaqtincha saqlash uchun tashkil qilinadi.

Uchastka va ob'ekt omborlari ayrim ishlab chiqarish uchastkalari hamda ob'ektlar uchun materiallar, uskunalar saqlanadigan joy xizmatini o'taydi.

Keyingi yillarda territorial ta'minot - sotish organlari moddiy resurslarni yetkazib berishlar asosiy turlari bo'yicha kompleksda realizatsiya qilishni o'z zimmasiga olish shaklidan iborat kompleks ta'minoti tarqaldi. Kompleks ta'minotda moddiy resurslar iste'molchilarni uzlucksiz va kompleksli ta'minlash uchun ta'minot sotish tashkilotlarining roli oshadi.

Kompleks ta'minot iste'molchilardan ishlab chiqarish zapaslarini kamaytirish, moddiy resurslar aylanishini jadallashtirish, korxonalar va qurilishlar ta'minot apparatini ixchamlash uchun sharoit yaratadi.

Moddiy-texnika resurslari ko'paygan sari ta'minotning ombor shaklidan ulgurji savdoga asta-sekin o'tilaveradi. Ulgurji savdo deyilganda, ishlab chiqarish vositalarni oz miqdorda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga magazinlar, bazalar hamda omborlar orqali fondsiz sotishni tushinmoq kerak. Ulgurji savdo, avvalo ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba korxonalari va tashkilotlari uchun tashkil etilgan edi. Hozirgi vaqtida ulgurji savdo sohasi kengayib bormoqda.

Ulgurji savdo buyurtmalar va mahsulot berish tizimini soddalashtirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini beradi. Buning uchun materiallar va buyurtmalar nomenklaturasini kengaytirish, hamda ularning zarur assortimentlar magazinlarda bo'lishini ta'minlash, iste'molchilar talablarini o'z vaqtida qondirish zarur.

Moddiy-texnika ta'minoti sohasida moddiy resurslar yetkazib beruvchilari bilan iste'molchilari o'rtasida o'zaro tashkiliy, iqtisodiy huquqiy munosabatlar jamidan iborat xo'jalik aloqalari tarkib topadi.

Tarmoq tarkibi belgisiga ko'ra ichki tarmoq va tarmoqlararo xo'jalik aloqalari farqlanadi. Ta'minot-sotish tashkilotlari bilan bevosita va bilvosita xo'jalik aloqalari o'rnatiladi.

### **11.3. Moddiy resurslarga buyurtmalar tuzish va ularni qondirish tartibi**

Qishloq xo'jalik korxonalari va suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika ta'minoti reja asosida amalga oshiriladi. Moddiy-texnika ta'minoti rejasi to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish korxona muvaffaqiyatli ishlashining zarur shartidir. Reja o'z e'tibori bilan ishlab chiqarishning zarur asosiy va oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik balansini bildiradi.

Moddiy-texnika ta'minoti rejasi korxonaning istiqbol va bosh ishlab chiqarish moliya rejasi, yangi texnikani joriy qilish rejasi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. U ishlab chiqarishning u yoki boshqa vositalariga ehtiyojlarni aniqlash asosida shakllantiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallarga bo'lgan talab ehtiyoj odatda, material sarfining ulushli me'yori mahsulotni rejali miqdoriga bo'linadigan bevosita schyot bilan aniqlanadi.

Moddiy ta'minotni rejalashtirish uchun xom ashyo va materiallar sarflashning texnika jihatdan asoslangan me'yorlarini belgilash alohida, ahamiyatga egadir. Moddiy resurslar sarflarini me'yorlashtirish amaliyotida uchta asosiy usul qo'llaniladi.

Eng ko'p tarqalgan usul texnika-tahlil usulidir. Bu usul materiallarni iste'mol qilishning ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar uyg'unlashuviga asoslangan bo'lib, sarflarni elementlar bo'yicha hisoblashni tavsiya etadi.

Ikkinci usul materiallar sarfi me'yori ishlab chiqarish yoki laborotoriya sharoitida o'tkaziladigan tajriba sinovlari asosida belgilanadigan tajriba ishlab chiqarish usulidir.

Ishlab chiqarish vositalarining ayrim turlari bo'yicha ishlab chiqiladigan yillik talabnomalar va buyurtmalar moddiy-texnika ta'minot rejalarining eng muhim qismidir.

Yangi texnika, uskuna va ishlab chiqarish-texnika yo'nalishidagi boshqa vositalarga beriladigan talabnomalar moddiy-texnika vositalariga ehtiyojni tasdiqlaydigan asosiy xujjatlar xizmatini o'taydi.

Har bir korxonalarning ishlab chiqarish vositalari turlar bo'yicha talabnomalari tumanlar va viloyatlarga ko'ra to'planadi, moddiy-texnika ta'minoti organlari bilan kelishib olinadi, hamda vazirlikka beriladi.

Respublika makroiqtisod vazirligi ajratilgan fondlar asosida iste'molchilar bo'yicha taqsimlashning, vazirlar mahkamasi tasdiqlaydigan rejalarini tuzadilar. Fond saqlovchi respublika va viloyat tashkilotlari o'zlariga ajratilgan fondlarni iste'molchilarga tarqatadilar hamda ta'minot sotish tashkilotlari fondlarni taqsimlash rejasini ma'lum qiladilar.

Iste'molchiga yetkazilgan fondlar moddiy-texnika vositalari yetkazib berish, uchun asos xizmatini o'taydi. Ishlab chiqarish texnika yo'nalishdagi mahsulot yetkazib berishlar to'g'risidagi nizomga muvofiq yetkazib beruvchi korxona va iste'mol qiluvchi korxona o'rtasida shartnomada tuzilib, unda rejali tartibda mahsulot yetkazib berish bo'yicha tomonlar huquq va burchlari belgilab qo'yiladi.

Shartnomada mahsulot nomi, mashinalar markalari, sifat va navlik, narx, kelishgan korxonalarning to'lov va pochta rekvizitlari, xaridorning tashib ketish rekvizitlari, yetkazib berish muddatlari hamda boshqa ma'lumotlar hamda alohida shartlar ko'rsatiladi.

Shartnomada tuzishda o'zaro javobgarlikni oshirish uchun vaqt utkazib yuborilgan, yuklab jo'natishga ko'rsatmalar o'z vaqtida berilmagan, mahsulotni qabul qilishdan, asossiz bosh tortilgan va shartnomani buzuvchi boshqa xarakatlar sodir qilingan xollarda

iqtisodiy ta'sir ko'rsatish choralari quriladi. Bu choralar yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning ishlab chiqarish intizomiga hamda shartnoma bo'yicha majburiyatlarga rioya qilishga qaratilgandir.

Yetkazib beruvchilarning mahsuloti yetkazib berish bo'yicha shartnomalarni bajarish uchun javobgarligini oshirish, ta'minot organlarining boshqarishni ilmiy asosiga o'tkazish, EMM va EHM larni joriy qilish hamda rejalashtirish ta'minotini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

#### **11.4. Muomala chiqimlari va ularni kamaytirish yo'llari**

Ishlab chiqarishni yakunlovchi bo'lган moddiy-texnik ta'minoti ishlab chiqarish vositalarini iste'molchilarga yetkazish bilan bog'liq muayyan sarflarni amalga oshiriladi. Bu sarflar tovar-pul munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish ta'minoti hajmlari ortib borgani sari moddiy texnika ta'minoti vositalarining chiqimlari ham ko'payadi.

Muomala chiqimlari o'z tabiatiga ko'ra sof chiqimlar va qo'shimcha chiqimlarga bo'linadi. Sof chiqimlariga tovar qiymatini tabiiy shaklidan pul shakliga o'tkazish, ya'ni oldi-sotti aktini amalga oshirish uchun zarur chiqimlar kiritiladi. Bu chiqimlar tovarning iste'mol qiymatini o'zgartirmaydi va noishlab chiqarish sarflari hisoblanadi. Muomala sof chiqimlariga savdoni boshqarish xarajatlari, savdo binolarini saqlash xarajatlari, reklama va xokazo xarajatlari kiradi. Muomala sof chiqimlari ulushi ular umumiy summasining 10% idan oshmaydi.

Qo'shimcha chiqimlar ishlab chiqarish jarayonini muomala sohasida davom ettirish va tugallash bilan bog'liq bo'ladi. Muomalaning qo'shimcha chiqimlariga tovarlarni iste'mol qilish joylariga tashib berish, yuklash, tushirish ishlari harajatlari, saqlash saralash, qo'shimcha ishlov berish, o'rash, bog'lash hamda tovarni realizatsiya qilishga tayyorlash bilan bog'liq boshqa sarflar kiradi.

Moddiy-texnika ta'minotining samaradorligini yetkazib berishlar bir maromda va o'z vaqtida bo'lishi bilangina emas, balki muomala vaqtining qisqarishi hamda muomala chiqimlarining kamayishi bilan ham aniqlanadi. Muomala chiqimlari darjasи moddiy-texnika ta'minoti turli tizimlarida turlichadir.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika ta'minoti muomala chiqimlarining ancha yuqori darajasi xo'jaliklarni yetkazib beruvchi sanoat korxonalari va temir yo'llarda juda uzoqligi, mamlakat territoriyasi bo'yicha savdo omborlari hamda bozorlarning keng shahobchasini saqlash zarurati bilan aniqlanadi.

Ta'minot-sotish tashkilotlari muomala chiqimlarining strukturasi, sarflarning harajatlar mayda moddalaridan tashkil topadigan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Omboqlar, bazalar va magazinlar xarajatlari

Transport xarajatlari;

Omboqlar xarajatlari;

Noishlab chiqarish xarajatlari;

Boshqa xarajatlari.

Birlashma va boshqarma xarajatlari.

Bosh boshqarmalar va moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi xarajatlari.

Franko - stantsiya yo'nalishi korxonalari belgilangan tovarlarni tashib berish xarajatlari.

Ta'minot sotish tashkilotlari ta'minot omboqlar shaklida ishlab chiqarish vositalari muomalasi chiqimlarini qoplash uchun korxonalar narxlariga ustamalar belgilaydilar, tranzit shaklida ulgurji korxonalardan skidka oladilar. Bu ustama va skidkalar ta'minot tashkilotlariga foydani ta'minlab beradi. Omboqlar ustamalari ishlab chiqarish texnika yo'nalishidagi realizatsiya qilinadigan tovarlar qiymatining esa 0,15 dan 0,5% gachasini tashkil etadi.

Muomala chiqimlarini kamaytirish ta'minot - sotish tashkilotlari rentabelligini oshirishning muxim omili hisoblanadi.

Muomala chiqimlari kamayishiga ta'sir o'tkazadigan omillar orasida katta ulush transport harajatlarini kamaytirish bilan bog'liqdir. Shuning uchun buyurtmalarni korxonalar bo'yicha to'g'ri joylashtirish va transport tashkilotlarini oqilona tanlash muomala chiqimlarini kamaytirishga yordam beradi.

Tovarlarni baza va omboqlarda qayta yuklash - tushirishlarini har tomonlama kamaytirish harajatlar kamayishiga olib keladi. Ta'minotning tranzit shakli mahsulot muomalasi jarayonini jadallashtirishi va muomala chiqimlarini kamaytirishi shubhasizdir.

Ta'minot organlari ombor shaxobchasi dagi yuklash-tushirish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash, saqlash va realizatsiya qilish, shuningdek unumsiz xarajatlar sarflarini kamaytirish muomala chiqimlarini kamaytirishning muhim rezervi hisoblanadi. Tovar oboroti hajmini ko'paytirish moddiy-texnika ta'minoti soxasida muomala chiqimlari darajasini pasaytirishning asosiy rezervlaridan biridir.

Moddiy-texnika ta'minoti tarkibini yanada takomillashtirish, paralel ishlaydigan tashkilotlarni tugatish, ma'muriy boshqarish xodimlarini sonini va ularni saqlash xarajatlarini kamaytirish muomala chiqimlarini kamaytirishga yordam beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining uzluksiz rivojlanishi, ishlab chiqarish miqdorining ko'payishi, ishlab chiqarish yo'nalishidagi mahsulot tovar aylanishini katta hajmda o'sishini vujudga keltiradi.

Moddiy-texnika ta'minotining to'g'ri tashkil etilishi ishlab chiqarishning texnika darjasini oshishiga yordam beradi, korxonalar ishining iqtisodiy ko'rsatkichlari va moliyaviy holati yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Moddiy-texnika ta'minotining shakli deyilganda moddiy-resurslarni ishlab chiqarish, tashish, iste'mol qilish sharoitlariga bog'liq holda ishlab chiqaruvchi korxonalardan iste'mol qiluvchi korxonalarga yetkazish usulini tushuniladi.

Moddiy-texnika resurslari ko'paygan sari ta'minotning ombor shaklidan ulgurji savdoga asta-sekin o'tilaveradi. Ulgurji savdo deyilganda, ishlab chiqarish vositalarini oz miqdorda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga magazinlar, bazalar hamda omborlar orqali fondsiz sotishni tushuniladi.

Moddiy-texnika ta'minotining samaradorligini yetkazib berishlar bir maromda va o'z vaqtida bo'lishi bilangina emas, balki muomala vaqtining qisqarishi hamda muomala chiqimlarining kamayishi bilan ham aniqlanadi.

## **Tayanch iboralar**

Moddiy-texnika ta'minoti, yetkazib beruvchi korxonalar, ta'minot organlari, tranzit, ombor, bazis organlar, uchastka va ob'ekt omborlari, ulgurji savdo, chakana savdo, muomala chiqimlari, qo'shimcha chiqimlar, ta'minot, sotish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Suv xo'jaligining moddiy-texnika ta'minoti haqida tushuncha bering?
2. Moddiy-texnika ta'minotining shakllari haqida nima bilasiz?
3. Ta'minot omborlarining qanday turlarini bilasiz?
4. Ulgurji savdo haqida nimani bilasiz?
5. Muomala chiqimlarini kamaytirish yo'llarini tushintiring?
6. Ta'minot tranzit shakli haqida tushuncha bering?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Toshkent, 1995.
2. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
3. A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyev. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent. 2004.

## **XII BOB. Cuv xo'jaligi korxonalarida bozor tizimi moddalarini qo'llash**

### **12.1. Bozor tizimining asosiy printsiplari va uning tejamkorlik rejimini amalgalashdagi roli**

Davlat va nodavlat korxonalari va tashkilotlari o'zlariga yuklatilgan funktsiyalarni bajarish chiqimlariga ko'ra smeta byudjeti hamda xo'jalik hisobi korxonalari va tashkilotlariga bo'linadi. Smetaning byudjetli muassasalari, tashkilotlar va korxonalarda barcha sarflar tasdiqlangan smetalar bo'yicha byudjet mablag'lari hisobiga qoplanadi. Xo'jalik hisobi korxonalari esa o'z sarflarini xo'jalik faoliyati natijasida olingan pul mablag'lari hisobiga qoplaydilar.

Barcha korxonalar o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra xo'jalik hisobi korxonalari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qariyb barcha davlat korxonalari xo'jalik hisobiga o'tkazilgan. Suv xo'jaligida qurilish va loyiha tashkilotlari xo'jalik daromadi hisobiga yashaydi. Lekin suv xo'jaligi ekspluatatsion tashkilotlarining asosiy qismi (suv xo'jaligi ta'mirlashining ekspluatatsion va ishlab chiqarish tashkilotlari, suv chiqarish va zax qochirish tizimlari va suv omborlari va kanallari boshqarmalari) hozircha bozor munosabatlari o'tkazilmagan hamda byudjet mablag'laridan foydalanmoqdalar. Ayni vaqtda ichki xo'jalik melioratsiya tizimlari (SFULAR) bozor tizimi sharoitida ishlamoqda.

Bozor tizimiga o'tgan korxonalar xo'jaligini rejali yuritish usuli bo'lib, xo'jalik faoliyatining sarflari va natijalari pul shaklida o'zaro o'lchashga asoslanadi. U davlat bilan korxonalar o'rtasida, ayrim korxonalar o'rtasida, korxonalar jamoasi ayrim xodimlar o'rtasida tarkib topadigan muayyan iqtisodiy munosabatlar bilan ifodalaniladi. Shunday qilib, bozor tizimi, xo'jalik aloqalari va o'zaro munosabatlarning katta tizimini qamrab oladi.

Iqtisodiy rag'batlantirishning yangi sharoitlarida iqtisodiy rivojlantirishning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan eng muhim instrumenti bo'lgan bozor munosabatlari katta ahamiyat berilmoqda.

Tovar pul munosabatlari sharoitidagi iqtisodiy kategoriya bo'lgan bozor munosabatlari qiymat qonuniga muvofiq ravishda amal qiladi, ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdarligi oshishiga va moddiy pul mablag'lari tejalishiga yordam beradi. Uning

yordamida natijalar olishiga eng kam sarflar bilan erishiladi, u mahsulotni arzon va yaxshi, sifatlari qilib ishlab chiqarishga undaydi, ishlab chiqarish resurslarini hisoblash hamda tejashga o'rgatadi.

Hozirgi vaqtda bozor munosabatlarining jamoa, oila va nihoyat ijara pudrati singari turlari keng tarqalgan.

Bozor munosabatlari asoslarida ishlayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy ishning usul hamda printsiplari «Ishlab chiqarish korxonasi to'g'risida nizom» da o'z ifodasini topgan. O'z xarajatlarini o'zi qoplash, xo'jalik kooperativ mustaqillik, moddiy manfaatdorlik va ishlab chiqarish jamoalarini ish natijalari uchun javobgarligi korxona moliya xo'jalik faoliyatini pul bilan nazorat qilish bozor munosabatlarining asosiy printsiplaridir.

Sarflar o'rnini qoplash har bir korxona o'z xarajatlarini realizatsiya qilingan mahsulot uchun olingan pul tushumlar hisobiga qoplash va foyda olishini anglatadi. Hozirgi vaqtda foyda va rentabellik ishlab chiqarish samaradorligining asosiy ko'rsatgichlari sifatida qaralmoqda. Foyda nima hisobiga va qanday sharoitda kuchayib borishiga jamiyat befarq qaraolmaydi. Bozor iqtisodi foyda mahsulot tannarxining kamayishi va mehnat unumdarligi oshishi asosida kuchayishidan manfaatdordir.

Ishlab chiqarish rentabelligi darajasiga tejamkorlik rejimiga rioya qilishgina emas, balki mahsulotning iqtisodiy jihatdan asoslangan narxlari ham ta'sir o'tkazadi. Bozor iqtisodi avvalo, narxlar tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi. Bozor narxlari ishlab chiarishning ijtimoiy zarur chiqimlariga muvofiq keladi va korxonalarining rentabelligini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodi sharoitida ishlab chiqishda hisoblangan foyda va fondlar haqi singari iqtisodiy kategoriylar birinchi marta joriy etiladi.

Bozor munosabatlariga o'tgan korxonalarda balansli va hisoblangan foyda hisoblab chiqiladi. Balansli foyda mazkur korxonalar balansidagi barcha ishlab chiqarishlar foydasi summalaridan tarkib topadi. Hisoblangan foyda (Pr) balansli foyda (Pb) bilan ishlab chiqarish fondlari (Pf) haqi, bank kreditlaridan foydalanish (Pb.k) va resurslardan foydalanish (Pr) haqi o'rta sidagi farq sifati aniqlanadi:

$$Pr = Pb - (Pf + Pb.k + Pr)$$

Hisoblangan foyda joriy qilinishi munosabati bilan korxonaning umumiy va hisoblangan rentabelligini farqlash lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish fondlari haqi asosiy ishlab chiqarish fondlari me'yorlanadigan oborot mablag'lariga nisbatan foizlarda hisoblab chiqiladi. Suv xo'jaligi qurilish tashkilotlarida fondlar haqi me'yori 2-6% darajasida belgilanadi.

Iqtisodiy vosita bo'lgan ishlab chiqarish fondlari haqi ikki yo'nalishda amal qiladi. Ish haqi joriy etish munosabati balan ishlab chiqarish asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi oshadi. Ikkinchidan korxonalar foydadan davlat byudjetiga topshiradigan fondlar haqi markazlashgan sof daromadni to'ldirishga qaratilgandir.

Bank kreditlaridan foydalanish haqi korxonalarni o'z mablag'laridan foydalanishni yaxshilashga va eng kam zarur kreditlar olishga rag'batlantiradi. Yer, suv va mehnat resurslaridan foydalanish haqining me'yorlari hozirgi vaqtda ishlab chiqilmoqda. Bozor tizimi korxonalari va tashkilotlari muayyan xo'jalik kooperativ mustaqillikka ega bo'lib, alohida xo'jalik birlklari sifatida namoyon bo'lmoqdalar. Ular zarur mablag'lar bilan ta'minlanadilar, mustaqil balans va buxgalteriya uchyonining tugallangan tizimiga egadirlar, boshqa hisob-kitob schyoti ochadilar, bank kreditlari olish, yuridik shaxs bo'lism huquqiga egadirlar.

Iqtisodning tubdan qayta qurilishi xo'jalik hisobi korxonalari va tashkilotlarning kooperativ mustaqilligini yanada oshiradi. Mustaqillikning oshishi, avvalo yuqori organ tasdiqlaydigan rejali ko'rsatkichlar soni kamayganligi va eng oz xolga keltirilganligida ifodalanadi.

Direktiv ko'rsatkichlar orasida ishlab chiqarish faoliyatining pirovard natijalari va uning samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlari qolmoqda. Korxonalarda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi, ishlab chiqarish bo'yicha-yalpi, me'yoriy, sof va tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmi; mehnat bo'yicha-foyda, byudjet mablag'lari, umumiy foyda va mehnat unumdorligining oshishi; kapital qo'yilmalar bo'yicha-markazlashgan kapital qo'yilmalar hisobiga asosiy fondlarni ishga tushirish; ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni va yangi texnikani o'zlashtirish; moddiy texnika ta'mnoti bo'yicha-yuqori tashkilotlar taqsimlaydigan texnika, uskuna, qurilish materiallari va boshqa vositalarni yetkazib berishlar hajmi.

Yillik reja, boshqa ko'rsatkichlarni korxonaning o'zi ishlab chiqadi. Korxonalar va

xodimlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning pirovard natijalaridan moddiy manfaatdorligi bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun katta ahamiyatga egadir. Bozor munosabatlarida shaxsiy manfaatlar korxona manfaatlari bilan eng to'la uyg'unlashadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishdan shaxsiy va jamoat manfaatlarining bir-biriga muvofiq kelishi tejamkorlik rejimi hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga rioya qilish kuzatilmogda.

Bozor tizimi korxonalar va tashkilotlarida quyidagi jamoat va shaxsiy, moddiy rag'batlantirish maxsus fondlari yaratilmoqda: moddiy rag'batlantirish fondi; ijtimoiymadaniy tadbirlar va uy-joy qurilishi fondi; ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi.

Iqtisodiy rivojlantirish fonlari hisoblangan foyda hisobiga tuzilmoqda. Foydadan ajratmalar miqdori hisoblangan rentabellikka bog'liq bo'ladi.

Korxona va xodimlarning moddiy manfaatdorligi bu fondlarga pul tushumlari miqdorining xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liqligiga asoslanadi. Ish yaxshilanishi bilan moddiy rag'batlantirish foydalariga ajratiladigan foyda ulushi ko'payadi.

Bunda moddiy manfaatdorlik ma'naviy rag'bat bilan birgalikda ko'rib chiqilishini hisobga olmoq kerak. Moddiy va ma'naviy rag'batlar o'zaro bir-birini mustahkamlaydi hamda yagona maqsadga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Bozor munosabatlari joriy qilinganda korxonalar va tashkilotlarning davlat rejasini bajarishdan ishlab chiqarish resurslari va pul mablag'laridan oqilona foydalanish moddiy manfaatdorlikni oshiradi. Xo'jalik shartnomalari, korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib turadi. Shartnomalar bo'yicha boshqa korxonalar uchun ishlar bajariladi, mahsulot sotish va moddiy-texnika ta'minoti amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish va moliya intizomi hamda shartnomali majburiyatlar bajarilishi uchun javobgarlik oshadi.

Xo'jalik shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni, to'lov majburiyatlarini bajarmaganlik uchun korxona jarimalar, peniyalar va neustoykalar to'laydilar. Bu esa moliyaviy ahvol yomonlashishiga, mahsulot tannarxi oshishiga, rentabellik pasayishiga shuningdek, iqtisodiy rag'batlantirish fondlari qisqarishiga olib keladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar, xo'jalik va moliyaviy faoliyatining moliya-kredit organlari tomonidan pul bilan nazorat qilinishi ancha to'la namoyon bo'ladi. Pul bilan nazorat qilish ish natijalari, pul ko'rsatkichlariga ko'ra aniqlanishini va

korxonalar faoliyatiga hamda ularning ishlab chiqarish jamoalariga iqtisodiy ta'sir o'tkazish amalga oshirilishini bildiradi.

Barcha asosiy printsiplarni birgalikda amalga oshirish xo'jalik samaradorligini oshirishining zarur shartidir. Bu printsiplar barcha ijtimoiy korxonalarga xos bo'lib, suv xo'jaligi tarmog'ida bozor tizimini joriy qilish va takomillashtirishda hisobga olinishi zarur bo'lgan xususiyatlarga egadir.

## **12.2. Suv xo'jaligi ta'mirlash-qurilish tashkilotlarida bozor munosabatlarini qo'llanishi**


Qurilishdagi bozor printsiplari pudrat usulida to'la nomoyon bo'ladi. Suv xo'jaligi ta'mirlash qurilish tashkilotlari barcha ishlarni o'zlari buyurtmachi bilan tuzgan shartnomalar asosida olib boridilar.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ishlab chiqqan qurilish ishlab chiqarishi rejalahtirish va iqtisodiy rag'batlantirishni yangi tizimiga o'tkazishga tayyorlash bo'yicha vaqtinchalik ko'rsatmalarga ko'ra to'la bozor munosabatlariga o'tkazilgan.


Ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarni ishga tushirishga, ob'ektlar qiymati va buyurtmachilarga topshirilishi kerak bo'lgan ishlar bosqichlari, mehnat unumdarligi, foyda, suv xo'jaligi qurilish tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlaridir.

Rejali jamg'armalar va qurilish, montaj ishlari smeta qiymatini kamaytirishdan olingan foyda, ta'mirlash qurilish tashkilotlari foydasi xosil bo'lishining asosiy manbai hisoblanadi. Rejali jamg'armalar qurilish mahsuloti narxida-smeta qiymatidadir, tannarx kamaytirishdan olingan foyda esa qurilish tashkiloti faoliyatining natijasi hisoblanadi.


## **Bozor munosabatlari va o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashga o'tkazilgan suv xo'jaligi ta'mirlash-qurilish tashkilotlarining foydasini taqsimlash sxemasi**



## Foydalar tuzish Manbalari



## Foydani taqsimlash



### 11.3. Moddiy rag'batlantirish fondini tuzish manbalari va uni to'la bozor tizimiga va o'zini pul bilan ta'minlashga o'tkazilgan suv xo'jaligi qurilish tashkilotlarida taqsimlanishi.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi uchun moddiy rag'batlantirish fondi tuzishning boshlang'ich me'yori ish haqi umumiy fondining 5,5% miqdorida belgilangan, qurilish ob'ektlari ishga tushirlganligi uchun beriladigan mukofotlar hisobga olinsa, bu fond miqdori 10,4% ga yetadi.

Qurilish tashkilotlari xodimlari, loyixachilar va buyurtmachilarining ob'ektlar qurilishini tez tugallashini tezlashtirishidan moddiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda ishlar sifatini oshirishni rag'batlantirish uchun bajarilgan qurilish montaj ishlari smeta qiymatining 2,2% uchun mukofatlar belgilangan. Mukofotlash uchun zarur summalar smetalarda ko'zda tutiladi.

Qurilish ob'ektlarini o'z muddatida va muddatidan ilgari ishga tushirganlik uchun beriladigan mukofatlar umumiyligi summasidan 92.5% pudrat tashkilotlariga, 2.5% gachasi-buyurtmachiga, 5% gachasi-loyiha tashkilotlariga to'lanadi.

Materiallar tejamliligi va konstruktsiyalar saqlanganligi uchun mukofatlashga mo'ljallangan pul mablag'lari ishbay mukofat hamda mehnat haqi boshqa tizimlari bo'yicha mukofat mablag'lari qo'shilgan holda ish haqi fondlarida hisobga olinadi.

Ijtimoiy, moddiy va uy-joy qurilish fondini tuzish uchun ish haqi umumiyligi fondining 4% miqdorida o'rtacha me'yor belgilangan. Bu fond foydadan ajratmalar hisobigagina tuziladi. U ijtimoiy iste'mol fondi xizmatini o'taydi.

### Fondlar tuzish manbai

Foydadan barqaror meyorlar bo'yicha ajratmalar

Qurilish smeta qiymatini shartnomadagi me'yorga nisbatan kamaytirish natijasida mablag'lar tejamidan

Ob'ektni ishga tushirish muddatlarini me'yordagiga nisbatan qisqar-tiruvchandik uchun buyurtmachidan olinadigan mablag'lar

Tashkilot quvvatlari munosabati bilan buyurtmachidan ijtimoiy yo'nalishidagi uy-joy va ob'ektlar qurilishiga beradigan mablag'lar

Madaniy tadbirlar va uy-joy qurilish fondi.

### Taqsimlash

Uy-joylar yotoqxonalar, bolalar va maktabgacha muassasalar profilaktikalar. qurilish kengtirish

Sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishga

Banklar kreditlarini qoplashga

Madaniy oqartirish va fizkultura tadbirlari o'tkazishga

Tashkilot xodimlarining oshxonalarda ovqatlanishini arzonlashtirish, davolanish kursini o'tayotganlar ovqatini kuchaytirish

Smeta xarajatlarining 25 % gacha fondida yillar qurish bog'larini obodonlashtirish xarajatlariga

Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga protsentisiz osuda berishga

Mehnat jamoalarini rivojlantirish bo'yicha boshqa maqsad

## **12.4. O'zini-o'zi pul bilan ta'minlashga o'tkazilgan suv xo'jaligi qurilish tashkilotlarida sotsial madaniy tadbirlar va uy-joy qurilish fondini tuzish manbalari va uni taqsimlash**

Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondidan foydalanish moddiy manfaatdorlikni ta'minlaydi, chunki bu fond tufayli mehnat sharoitlari va qurollari yaxshilanadi, mehnat unumdarligi oshadi.

Rejali foydani oshirib bajarish iqtisodiy rag'batlantirish fondlari miqdori oshishiga olib keladi. Reja bajarilmasa, fondlarga ajratmalar kamayadi. Iqtisodiy rag'batlantirish fondlariga ajratmalarning eng kam foizi ko'rsatib o'tilgan fondlardan kam bo'lmay, hisoblangan fondning haqiqatdagi qoldig'idan yuqori bo'lmaydi. Bu fondlarga ajratmalar bitkazilgan ob'ektlar yoki ishlar bosqichlariga qarab har kvartalda ko'payib boradigan yakunlarda qilinadi.

Iqtisodiy rag'batlantirish fondlarining joriy yilda foydalanilmagan mablag'lari kelgusi yilga o'tkaziladi va korxonalardan olib qo'yilmaydi.

Bozor munosabatlari ta'mirlash-qurilish tashkiloti ichidagi iqtisodiy munosabatlarning keng rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bozor munosabatlari qurilish tashkilotlarining quyi bo'g'imlari bo'lgan uchastkalari va brigadalarni qamraydi.

Hozirgi vaqtda suv xo'jaligi qurilishida bozor munosabatlari quyidagi ichki shaklda qo'llanilmoqda: brigada va jamoa pudrati.

Ishlab chiqarishdagi sarflarni rejalashtirish va hisobga olishni yaxshi yo'lga qo'yish brigada pudratining zarur shartidir. Moddiy mablag'lar sarflarini hisobga olish, limit olish yoki tejam daftarchalari yordamida olib boriladi.

Topshiriq bajarilib bo'lgach pudratga ishlayotgan brigada faoliyatining natijalari aniqlanadigan noryad-topshiriq yopiladi. Topshiriqni muddatdan ilgari bajarilganliklari va materiallarni tejalganliklari uchun ishchilar mukofatlanadilar.

Keyingi yillarida suv xo'jaligi qurilishida jamoa pudratining yangi shakli bo'lgan brigada pudrati tobora keng rivojlanmoqda. Bu shaklning mohiyati shundan iboratki, brigada shartnoma asosida ob'ektdagi qurilish-montaj ishlari butun hajmini shartnoma narxlari bo'yicha bajarishni o'z zimmasiga oladi. Pudrat ishlarini brigada nazorati ostida

asosiy pudratchilar bajaradi.

Qurilish tashkilotining ma'muriyati kafolatlangan moddiy-texnika ta'minotini ta'minlaydi va rejali topshiriqlarini bajarishda brigadaga ishlab chiqarish mustaqilligi beriladi.

Ishchilar quyidagi uchta ko'rsatkichga ko'ra mukofatlanadilar: ob'ektni ishga tushirish muddati; ishning sifati; ishlar tannarxini kamaytirishdan olingan tejam. Sarflar moddalar bo'yicha qurilish-montaj ishlari tannarxi kamayganliga uchun ishchilarni moddiy rag'batlantirish jamoa pudratining asosiy xususiyatidir.

Tannarx kamayishidan olingan tejamning bir qismidan xodimlarni mukofatlash uchun foydalilanadi, summaning 90% ishchilarga va 10% injener texnik xodimlarga to'lanadi.

Mukofatlar miqdori ishlar sifati erishilgan tejam summasining «a'lo» baholanganda 40% igacha differentsiyalanadi.

Barcha xil mukofatlar ob'ekt ishga tushirilgandan keyin beriladi. qurilish jarayonida ish haqi haqiqatda bajarilgan ishlar hajmi uchun, mukofatlarsiz berib boriladi. Ilg'or qurilish jamoalarning tajribasi brigada pudratining katta samaradorligini ko'rsatadi. Pudrat jamoalari ishlaydigan obe'ktlar belgilangan muddatlarda tashkil etiladi va ishlarining yuqori sifati bilan xarakterlanadi.

## **12.5. Suv xo'jaligi ta'mirlashi ishlab chiqarish boshqarmalarida bozor munosabatlarini qo'llash**

Hozirgi vaqtida suv xo'jaligi tizimlari bilan qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtaida iste'molchi xo'jaliklarga suv berishda namoyon bo'ladigan bir yoqlama ishlab chiqarish aloqasi o'rnatilgan. Sug'orish tizimlarini ishlatish boshqarmalari rejalariga muvofiq ravishda iste'molchilarni sug'oruv suvi bilan bepul ta'minlaydilar. Bunday bir yoqlama aloqada sug'orish tizimi bilan xo'jalikning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdag'i manfaatlari hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Natijada ortiqcha suv ko'plab tashlab yuboriladiki, bunga sug'orish tizimlari anchagina sarflar qiladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, smeta-byudjet yo'li bilan pul ajratishda suv xo'jaligi tashkiloti faoliyatining u yoki bu sharoitlarini ko'zda tutish qiyin bo'lган smeta xarajatlari

doirasi bilan siqib qo'yiladi. Bunda yilning iqlim sharoitlari to'la hisobga olinmaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan moddiy manfaatdorlik sust namoyon bo'ladi.

Melioratsiya tizimlari xo'jalik faoliyatidagi hamda iste'molchilar tomonidan sug'oruv suvidan foydalanishdagi ko'p kamchiliklarga o'zaro bozor munosabatlarini o'rnatish bilan barxam berish mumkin.

Suv xo'jaligining ekspluatatsion tashkilotlari bilan qishloq xo'jalik korxonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qiymat qonuni amal qilishining ob'ektiv uchyotiga, suv uchun haq to'lash yo'li bilan tovar-pul munosabatlarini joriy qilishga asoslanishi kerak.

Sug'oruv suvidan qishloq xo'jaligida foydalanish yerdan foydalanish balan uzviy bog'liqdir va uning iste'mol qiymati sug'oriladigan yerlardagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning provard natijalarini hisobga olish bilangina ko'rib chiqilishi mumkin. Tovar bo'lgan suvni qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatidan ajratilgan xolda baholash foydasizdir.

Suv xo'jaligi bilan suvdan foydalanuvchilar o'rtasida bozor munosabatlarini o'rnatishni sug'orish suvidan oqilona foydalanish, melioratsiya tizimlari ishini yaxshilash va ularning qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishdagi rolini oshirishga qaratilgan muhim iqtisodiy tadbir bo'lmoq kerak.

Suv xo'jaligini bozor tizimiga o'tkazishdagi narsa bu-sug'orish suvi berishga tarif belgilashdir. Suvdan haq to'lab pullik foydalanish suv xo'jaligi tashkiloti bilan suvdan foydalanuvchi xo'jalik o'rtasida iqtisodiy munosabatlarini vujudga keltiradi. Suvga ta'rif belgilash qo'yidagilarni nazarda tutadi:

- suv xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish chiqimlarini suvdan foydalanuvchilar zimmasiga o'tkazish;
- suv xo'jaligi tizimlarini ishlatish boshqarmalarining ishlab chiqarish chiqimlarini qoplash;
- suv xo'jaligi yetkazib berilgan suvdan foyda olish.

Suvdan haq to'lab foydalanish suvdan ancha oqilona foydalanish va sug'orish tizimlari texnika darajasini oshirishga yordam beradi.

Melioratsiya tizimlarini bozor munosabatlari asosiga o'tkazish to'g'risidagi masala ko'p marta o'rtaga qo'yiladi. 1940-1955 yillarda Kuban guruch tizimi sinov tariqasida xo'jalik hisobiga o'tkazilgan edi. Terk-Kumsk gidrouzelida xo'jalik hisobi 1969 yilda joriy

etildi.

Hozirgi vaqtida Qирг'изистонда барча sug'orish tizimlari bozor munosabatlariga o'tkazilgan. Bu usulning xususiyati shundan iboratki, Qирг'изiston sug'orish tizimlari davlat byudjetidan pul bilan ta'minlashdan olib qo'yilgan. Ularni mablag'lar bilan ta'minlash limitlari agrasanoat kompleksi organlariga berilgan bo'lib, ular pul mablag'larini sug'orish shoxobchalariga suvni rejali berish miqdoriga muvofiq ravishda o'tkazadilar xo'jaliklar rejadan ortiq suv olsalar, suv haqini o'z mablag'laridan oshirilgan tarifda to'laydilar.

Shunday qilib qishloq xo'jalik organlari orqali tizimlar boshqarmalarga kelib tushadigan byudjet mablag'lari bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi. Moliya mexanizmining xatto shunday qisman o'zgarishi ham sug'oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Quyidagilar melioratsiya tizimlarini bozor tizimiga o'tkazish va ularning bundan buyoniga ishi bo'yicha asosiy hujjatlardir:

- ekspluatatsiya boshqarmasining ustavi;
- suv qabul qilish berishning tipovoy shartnomasi uchun ta'rif belgilash uslubiyoti;
- xo'jaliklararo melioratsiya tizimiga va undagi inshootlariga texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida nizom;
- sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jalik mahsulot yetishtirish hajmiga bog'liq holda qishloq xo'jalik korxonalarining suv haqi sarflari o'rnini qoplash tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalar.

Sug'orish tizimlarini ishlatish boshqarmalariga kreditlar berish tartibi to'g'risida ko'rsatmalar.

Sug'orish tizimlarini ishlatish boshqarmasining tipovoy ustavida boshqarma sug'orish tizimlarini ishlatish bo'yicha bozor tizimidagi mustaqil korxonasi hisoblanadi.

Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalaridir:

- a) sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishga yordam berish, sug'orish tizimlarini ishlatishni takomillashtirish, suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash asosiy fondlar, mehnat moddiy va moliya remurslaridan foydalanishni yaxshilash;
- b) kanallar va inshootlarni ishlatish, ilg'or tajriba hamda fan va texnikaning yangi

yutuqlarini joriy qilish bilan bog'liq sermehnat ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni rivojlantirishni ta'minlash;

v) kanallar va inshootlarni rekonstruktsiya qilish va texnika jihatidan takomillashtirish tadbirlarini o'tkazish.

Suv xo'jaligi ekspluatatsion boshqarmasi quyidagilarni amalga oshiradi:

~ davlat xo'jaliklararo sug'orish va zax qochirish shoxobchasi hamda gidrotexnika inshootlarini ishlatish;

~ qishloq xo'jalik tashkilotlari bilan birgalikda boshqarma xizmat ko'rsatayotgan mintaqadagi melioratsiyalangan yerlarni ishlatishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishini aniqlash;

~ qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlariga ichki xo'jalik sug'orish, zax qochirish shaxobchasi va undagi inshootlarni ishlatishda texnika yordami ko'rsatish.

Suv xo'jalik boshqarmalarining vazifalari tarkibiga qishloq xo'jalik korxonalari va suvdan boshqa foydalanuvchilarga beriladigan suvdan samarali foydalanishni nazorat qilish, suvning zararli ta'siriga qarshi kurash olib borish, shuningdek suv resurslarini muxofaza qilish ham kiradi.

Bozor munosabatlarini joriy qilishning ikkinchi jihatni suvni hisobga olishidir. Suv oldi-sotdi predmeti bo'lib qolayotgan bozor munosabatlari sharoitida ekspluatatsion gidrometriyaning ahamiyati ancha oshib bormoqda. Suvdan rejali foydalanish suv sarfini real hisobga olishga asoslanishi tufayli ularning moliyaviy axvoli qishloq xo'jalik ekinlari xosildorligining darajasi va sug'oriladigan yerlarning melioratsiya xolati unga xal qiluvchi darajada bog'liq bo'ladi.

Boshqarmalar suv berishni suvdan foydalanuvchilar bilan har yili tuziladigan shartnomalarga muvofiq ravishda amalga oshiradilar.

Sug'orish suvi berish-olish xo'jalik shartnomasi 5 ta bo'limni o'z ichiga oladi. Birinchi bo'limda umumiy qoidalar bayen qilinadi. Bu yerda suv berish shartlari, suv berish ta'riflari va suvni hisobga olish masalalari ko'rsatiladi.

Suv berish hajmlari suv berish-qabul qilish jurnalida qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi vakillari ishtirokida qayd etiladi. Shu jurnallar bo'yicha suv berish dekada vedomosti tuziladi. Dekadalik vedomostlar asosida suv qabul qilish va berishning oylik akti tuziladi. Suv qabul qilish, berish akti uch nusxada tuziladi, u suvgaga haq to'lash asosiy

xizmatini o'taydi. Aktida berilgan suv va to'lanish kerak bo'lgan umumiy summa hisoblangan tariflar ko'rsatilib, reja hisobiga, rejadan ortiq suv berish, o'z xolicha suv olish qayd etiladi.

Ikkinchi bo'limda iste'molchilarining majburiyatlari bayon qilinadi. Xo'jalik, ichki xo'jalik sug'orish shaxobchasini shay holda tutish, sug'orishning optimal rejimi qo'llanishi, suvdan oqilona foydalanish majburiyatlarini zimmasiga oladi.

Uchinchi bo'limda sug'orish tizimi boshqarmasining majburiyatlar bayon qilingan. Sug'orish tizimi boshqarmasi xo'jalikning sug'orish shaxobchasi va inshooti xolatini tekshiradi, ishlab chiqilgan limitlarga muvofiq suv beradi, suv o'lchagich qurilma va inshootlar to'g'ri ishlashi uchun javobgar bo'ladi.

To'rtinchi bo'limda jarimalar (sanktsiyalar) bayon qilingan. Bunda Irrigatsiya tizimi aybi bilan suv berish rejasi bajarmaganligi uchun, xo'jalikning suvni o'z holicha olinganlik, sug'orish shaxobchasini o'z vaqtida tayyorlab qo'yilmaganligi, Irrigatsiya inshootlari va qurilmalarini ishdan chiqarganlik uchun javobgarligi ko'zda tutilgan.

Beshinchi bo'limda o'zaro hisob-kitoblari tartibi bayon qilingan. Yanvar oyida xo'jalik eksplatatsiya tashkilotiga 20% miqdorida avans o'tkazishi kerak. Irrigatsiya tizimining xo'jalik bilan hisob-kitoblari suv qabul qilish va berish aktlari asosida yoziladigan schyotlarni taqdim etish yo'li bilan har oyda o'tkazib turiladi.

Shartnoma ilovasida aloxida shartlar izoxlangan.

Sug'oruv suviga tariflar belgilash masalasida xozirgi vaqtida yagona bir fikr yo'q. Iqtisodchilarining yagona fikri suv berish tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlari ta'rif stavkalariga asos qilib olinishi kerakligidan iborat bo'lib turibdi. Tariflarni rejalashtirishda foydalaniladigan rentabellik me'yoriy darajasini belgilash bo'yicha ikkta uslub qo'llaniladi. Birinchi xolda rentabellik me'yoriy tannarxga nisbatan, ikkinchi xolda esa fondlarga nisbatan hisoblab chiqiladi.

Bozor tizimini ommaviy ravishda joriy etishda suv iste'moli tarifi suv resurslarini muhofaza qilish va suv rejimini tartibga solish xarajatlarini hamda manbadan suv olish va uni iste'molchilarga yetkazish sarflarni o'z ichiga oladigan jami sarflarga asoslanishi kerak.

Tabiiy sharoitlar ta'siri mamlakat havzalari va mintaqalari bo'yicha suv berish moddiy va mehnat sarflarining ancha tebranib turishida namoyon bo'ladi. Bu esa tariflar mintqa differentsiatsiyasini belgilash zaruratini tug'diradi. Sho'rangan yerlarni yuvishga,

nam saqlash sug'orishlari, tungi sug'orishlar, o'rila digan ekinlarni sug'orish va hokazolarga imtiyozlar ko'zda tutilmoqda.

Namgarchilik kelgan yillarda sug'oruv suviga ehtiyoj keskin kamayadi, beqaror suv iste'moli sharoitida suv berishga haq to'lash ikki stavkali tarif bo'yicha o'tkazilishi kerak: sug'oriladigan yerlarning 1 hektariga va 10000 m<sup>3</sup> berilgan suvga haq to'lash tizim ekspluatatsion chiqimlarning beqaror qismiga asoslanadi, suv miqdori uchun haq to'lash ishlab chiqarish chiqimlarining o'zgaruvchan qismi bilan belgilanadi.

Sug'orma dehqonchilikning mavsumiy xarakteri sharoitida ikki stavkali tarif bir stavkali tarifga nisbatan muayyan afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi holda pul mablag'larining obi-havo sharoitidan qat'iy nazar bir tekisda tushishga erishiladi va ayni vaqt suvdan tejab foydalanish rag'batni saqlanib qoladi.

Texnika xizmatini suv xo'jaligi organlarigina emas, balki agrosanoat tizimlari va boshqa idoralarning tashkilotlari hamda korxonalari ham amalga oshirishlari kerak.

Texnik xizmat ko'rsatishga melioratsiya shahobchasi va inshootlari texnika garovini, joriy hamda kapital ta'mir qilish bilan bog'liq ta'mir-ekspluatatsion ishlarining butun kompleksi, shuningdek ta'mirlash ishlari loyiha smeta xujjatlarini tuzish va zarur tekshirish hamda qurishlarni bajarish kiradi.

Sug'oriladigan yerdan mahsulot ishlab chiqarishni qo'shimcha rag'batlantirish uchun o'sha yerdan qishloq xo'jalik mahsulot yalpi ishlab chiqarishi suv xo'jaligiga bog'liq xolda qishloq xo'jalik korxonalariga suvga haq to'lash sarflari badalini to'lash tartibini joriy etish mo'ljallanmoqda. Badal miqdori xo'jalik olgan suv miqdoriga qarab emas, balka tegishli me'yor bo'yicha suv sarfi bilan sug'oriladigan maydonda olingan qiymat ko'rinishdagi yalpi hosil miqdoriga qarab belgilanadi. Xo'jaliklarga tegishli kerak bo'lgan badal summalarini fermerlar tuman qishloq va suv xo'jalik boshqarmalari orqali oladilar. Tabiiy ko'rinishdagi mahsulot ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar yillik hisobotlardan olinadi. Mahsulot rejali tannarx bo'yicha baholanadi.

Bozor munosabatlarini joriy etish boshqa ko'p masalalarni o'rganish va hal etishni talab qiladi. Ularga moddiy rag'batlantirish fondlarini yaratish, melioratsiya fondlari uchun xaq belgilash, rejalashtirish, buxgalteriya schyoti va statistika hisobini takomillashtirish, hamda boshqa masalalarni kiritmoq lozim.

## **Qisqacha xulosalar**

Bozor tizimiga o'tgan korxonalar xo'jaligini rejali yuritish usuli bo'lib, xo'jalik faoliyatining sarflari va natijalari pul shaklida o'zaro o'lchashga asoslanadi. U davlat bilan korxonalar o'rtasida, ayrim korxonalar o'rtasida, korxonalar jamoasi ayrim xodimlar o'rtasida tarkib topadigan muayayn iqtisodiy munosabatlar bilan ifodalanadi.

Bozor munosabatlari joriy qilinganda korxonalar va tashkilotlarning davlat rejasini bajarishdan ishlab chiqarish resurslari va pul mablag'laridan oqilona foydalanish moddiy manfaatdorlikni oshiradi.

O'z xarajatlarini o'zi qoplash, xo'jalik kooperativ mustaqillik, moddiy manfaatdorlik va ishlab chiqarish jamoalarini ish natijalari uchun javobgarligi korxona moliya xo'jalik faoliyatini pul bilan nazorat qilish bozor munosabatlarining asosiy printsiplaridandir.

Iqtisodiyotning tubdan qayta qurilishi bozor tizimi korxonalari va tashkilotlarining kooperativ mustaqilligini yanada oshiradi. Mustaqillikning oshishi, avvalo yuqori organ tasdiqlaydigan rejali ko'rsatkichlar soni kamayganligi va eng oz holda keltirilganligida ifodalanadi.

Sug'oriladigan yerlardan mahsulot ishlab chiqarishni qo'shimcha rag'batlantirish uchun o'sha yerlarda qishloq xo'jalik mahsuloti yalpi ishlab chiqarishi suv xo'jaligiga bog'liq holda qishloq xo'jalik korxonalariga suvga haq to'lash sarflari badalini to'lash tartibini joriy etish respublikamizda boshlab yuborildi.

## **Tayanch iboralar**

Bozor tizimi, suv xo'jaligi ekspluatatsion tashkilotlari, bozor munosabatlari, bozor printsiplari, sof daromad, sof foyda, rentabellik, moddiy manfaatdorlik, ishlab chiqarish quvvatlari, o'zini- o'zi pul bilan ta'minlash, moddiy rag'batlantirish.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bozor printsiplari haqida nimani bilasiz?
2. Foyda, sof foyda va rentabellik qanday aniqlanadi?
3. Suv xo'jalik tashkilotlari bozor munosabatlariga qanday o'tkaziladi?
4. Suv xo'jaligi tashkilotlarining foydasi qanday taqsimlanadi?

5. Moddiy rag'batlantirish fondining tarkibi nimalardan iborat?
6. Suv xo'jalik tashkilotlarining o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashi qanday amalga oshiriladi?
7. Bozor printsiplariga o'tilganda sug'orish suviga ta'rif qanday belgilanadi.
8. Sug'orish suvini yetkazib berish haqidagi shartnomalar kimlar tomonidan va qanday tuziladi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni, 1993.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqqurlashtirish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1995.
3. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi iqtisodiyoti». Ma'ruzalar matni, Toshkent, TIMI, 2005.
4. A.S.Sultonov. «Suv xo'jaligi ekspluatatsiya tashkilotlarini bozor munosabatlariaga o'tkazish». Toshkent, 2006.